ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

4-son
(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

4 Uzluksiz ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining malaka oshirish ja-rayonlarining mazmunini takomillashtirish va rivojlantirish – dolzarb va-zifa

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

U. Mahkamov, O'. Farmonov 6 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash ta'lim taraqqiyotining asosidir

J. Qurbonov 10 Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish talabalarining intellektual madaniyatini rivojlantirish-ning pedagogik jihatlari

K. Matnazarova 16 Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy-amaliy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari

B. Boltayev 18 Sog'lom avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati

R. Kadirov 20 Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari

R. Shukurov 25 Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishning pedagogik – psixologik xususiyatlari

S. Abduyeva 30 Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirish

G'. Salimov, J. Jalolov 35 Tizimli yondashuv asosida talabalar jismoniy tarbiya bo'yicha ilmiy faoliyatini tashkil etish xususiyatlari

B. To'xtayev, S. Turayev, O. Tursunov 38 Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sifat turlari bo'yicha jismoniy tarbiya to'garaklarini tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari

41 Jismoniy tarbiya va sport sohasining pedagogik o'lchov metodlari

N. Muxitdinova, A. Afraimov

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

I. Saidov 45 Sport mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar jismoniy tayyorgarligining rivojlantirish ko'rsatkichlari

M. Fatullayeva 49 Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasi

M. Abdullayev 52 Maktab o'quvchilari uchun (11-12 yoshli) yengil atletika sport mashg'ulotlarining asosiy vosita va uslublari

N. Sabirova 56 Yengil atletikachilarni tayyorlashda (10-12 yoshlilar) jismoniy tayyogarlik dinamikasini aniqlash mezonlari

S. Qurbonov, K. Yodgorov 61 Ta'lim muassasalarida futbol o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish strategiyasi

M. Abdullayev, Z. Turayeva 66 Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayoni66

Q. Arslonov, F. Muzafarova, J. Jo'rayev 69 Qizlar jismoniy tayyorgarligida sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarining ahamiyati

73 Kurash usullarini yangi bosqichda o'rgatish texnologiyalari

R. Raxmonov 78
O‘quvchi-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda

MUSIQA VA SAN’AT TA’LIMI

S. Azimov 82
Kasbiy fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining mahoratlarini shakllantirish uslublari

D. Mamatov 86
Geometrik obrazlar vositasida o‘quvchilarning fazoviy

MAKTABGACHA TA’LIM

D. Kurbanov, A. Toshev, Z. Yusupova 92
Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari

G. Hasanova 96
Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy ongni

PSIXOLOGIYA

Sh. Abdullayev, A. Toshev 99
O‘smirlar o‘rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etishda ijtimoiy

XALQARO TAJRIBA VA TA’LIM INTEGRATSIYASI

G‘. Salimov, N. Bozorova 103
Maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya faoliyatini

ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Кадиров, Х. Курбанов 109
Важность уроков физической культуры в пропаганде здорового образа жизни у детей

Ф. Фазлиддинов, М. Тошев 112
Физическая культура и спорт как фактор формирования социального здоровья молодёжи

Д. Муратов 116
Профилактика вредных привычек подростков средствами педагогики физической культуры

Н. Назарова, Н. Орипова 122
Особенности направления детей на спортивную деятельность

А. Ибрагимов 126
Особенности развития интеллектуальных способностей школьников на уроках физического воспитания

Т. Чориев, К. Кобилжонов 130
Роль речевого этикета в воспитании подрастающего по-

МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Р. Хасанов, Я. Файзиев, М. Тураев 135
Репрезентация принципов и методов физического воспитания в вузах

У. Фарманов, Ш. Давронов 139
Методика применения игровых упражнений для совершенствования техники бросков на уроках баскетбола

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG XODIMLARINING MALAKA OSHIRISH JARAYONLARINING MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH – DOLZARB VAZIFA

Bugungi kunning talablariga javob berish uchun uzluksiz ta'limning rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi: – ushbu tizimda yuz berayotgan haqiqiy jarayonlar va yechilishi lozim bo'lgan muammolarni aks ettiradigan, asoslangan va yetarli darajada ishochli bo'lgan metodologik bazani tanlash; malaka oshirish tizimining asosiy muammolari va ziddiyatlarini muayyan metodologik pozitsiyadan turib, uzluksiz ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy g'oyalari va tamoyillariga tayangan holda ko'rib chiqish; malaka oshirish tizimi rivojlanishining asosiy konseptual yo'nalishlarini va ularni amalga oshirishning aniq takliflarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilishi lozim.

Malaka oshirish jarayoniga innovatsion yondashuvning nazariy asoslari va malaka oshirish tizimini rivojlantirish avvalambor, ta'lim jarayonini sifat jihatidan o'zgarishlarga olib keluvchi innovatsiyalarni rivojlantirishga bog'liqligi, davlat, jamiyat va ta'lim muassasalarining malaka oshirish tizimiga qo'yayotgan talablarining qondirilishi, malaka oshirishning uzluksizligini tadqiq qilishning metodologik tamoyili hamda malaka oshirish tizimida innovatsion yondashuvning ya'ni malaka oshirish tizimida ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining ta'lim muassasalari hamda pedagog kadrlar ehtiyojlari inobatga olingan bo'lishiga, malaka oshirish xizmatlari tizimini nazariy salohiyati kabi masalalar talqiq qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi ustuvor yo'nalishlariga mos holda kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan yangilash, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish vazifalari belgilangan.

Mazkur vazifalarni hal etish uchun malaka oshirish jarayoni tizimini nazariy (malaka oshirish nazariyasi va uslubiyati), amaliy (mamlakat va xududlarda malaka oshirishning muntazamligini ta'minlash maqsadida barcha turdagi malaka oshirish muassasalari malaka oshirish jarayoni sifatini boshqarishning quyidagi komponetlarini ya'ni, malaka oshirish sifatini nazorat qilish, malaka oshiruvchilarda motivatsiyani shakllantirish, tashkiliy choratadbirlar, rejalashtirish va loyihalashtirish, tahlil, malaka oshirish sifatini tadqiq qilish lozim bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda, butun dunyoda bo'lgani kabi har bir mamlakat va umuman insoniyatning kasbiy rivojlanishining asosi – bu insonning o'zi, uning axloqiy pozitsiyasi, ko'p qirrali faoliyati, madaniyati, maorifi, kasbiy mahorati tobora ko'proq tan olinmoqda.

Insonning axborotli jamiyatda yashash tarzining tubdan o'zgarishi, axborotli jamiyat vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan ilmiy-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning voqeliklari, ularni zamonaviy ta'lim mazmuniga, ta'lim tizimlarining ko'lami va rivojlanish darajasiga mos kelmasligiga olib keldi.

Dunyo ta'lim tizimida rahbar va pedagog kadrlarnin kasbiy kompetensiyalarini, bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni sohaga oid ilg'or texnologiyalar hamda umumkasbiy va ijtimoiy bilimlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaga oid ilm-fanning eng so'nggi yutuqlarini keng targ'ib qilish, innovatsiyalarni, IT-texnologiyalarni malaka oshirish ta'lim mazmuniga singdirish, pedagogikaning ilg'or g'oyalari, uslublari, zamonaviy

elektron o‘quv resurslari, multimedia, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini tatbiq qilish, xalqaro miqyosda kattalar ta’limi sohasining professionallashuvini ta’minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganligi ushbu yo‘nalishda muvafaqqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu obyektiv reallik xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish ta’limi muassasalarini, xususan, ulardagi ta’lim jarayonini davr talabi darajasida innovatsion yondoshuv asosida tashkil etish vazifasini belgilaydi. Ta’limda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari malaka oshirish tizimi oldiga qo‘yayotgan vazifalarning murakkablashib borayotgani, uzluksiz ta’lim tizimi xodimlarining malakasini oshirishga nisbatan innovatsion yondashuv – ehtiyojga asoslanganlik – variativlik – malaka oshirishning pog‘onali tizimini nazariy asoslarini yaratishga bo‘lgan ehtiyoj, tizimning kadrlar kasbiy kompetentligini oshirishga doir salohiyatidan to‘la foydalanilmayotgani sharoitida malaka oshirish tizimini innovatsion yondashuv asosida yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta’lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish muammosi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa ham biroq pedagog xodimlarining malakasini oshirishga nisbatan “innovatsion yondashuv”, “ehtiyojga asoslanganlik”, “variativlik” va “pog‘onali malaka oshirish” masalalari alohida tadqiq etilmagan.

Malaka oshirish tizimi jamiyatning ijtimoiy talabini qondira olmayotganligi, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik, yagona maqsadga qaratilganlik yo‘qligi, malaka oshirish darajasi bilan uni baholash, malaka oshirish natijalarini moddiy va ma’naviy rivojlantirish o‘rtasida bog‘liqlik, malaka oshirish natijalarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qligi qayd etmaslik mumkin emas.

Ta’lim islohoti asosida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish, ancha murakkab muammo hisoblanadi. Shu bilan birga:

– pedagoglarning asosiy bazaviy ma’lumoti bilan amalga oshirish o‘rtasidagi bog‘liqligini va farqini hisobga olish;

– davlat tomonidan tashkil qilinadigan malaka oshirish kurslari bilan mustaqil o‘z ustida ishlashning o‘zaro uzviyligini ta’minlash;

– pedagoglarning ehtiyojlarini o‘rganish va ularning subyektiv imkoniyatlarini ijtimoiy talablar bilan muvofiqlashtirish;

– malaka oshirishning turli bosqichlarida uni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosida mazmun, shakl va metodlarini erkin tanlash imkoniyatini yaratish;

– malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi uchun kattalar pedagogikasi xususiyatlarini, pedagoglarning yoshi, faoliyati, motivlari, shaxsiy sifatlarni chuqur hisobga olish asosida tashkil qilish;

– malaka oshirishda raqobatni joriy qilish;

– malaka oshirish asosida pedagoglar kasbiy faoliyati va shaxsiy sifatlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarini aniqlash me’yorlarini ishlab chiqish.

Mamlakatimizda yangicha, jahon andozalariga hamohang ta’lim mazmunini joriy qilish o‘z-o‘zidan emas, balki barcha pedagoglar ongi, tajribasi, ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi. Ta’lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddati axborot olamida to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, axborotlardan unumli foydalana oladigan, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, kasb-hunar o‘rganishiga foydalana oladigan, intiluvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

Unutmaylik, ta’lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta’lim standartlari yaratilmasin, ularni o‘quv-tarbiya jarayonlariga joriy qilish uzluksiz ta’lim tizimi pedagog kadrlariga bog‘liq.

Ulfat MAHKAMOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti professori
O'ktam FARMONOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TA'LIM TARAQQIYOTINING ASOSIDIR

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash asosida ta'lim mazmuni, shakllari, xususiyatlarini takomillashtirishga oid masalalar ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar. O'qituvchi, ijod, faoliyat, o'quvchi, ta'lim, munosabat, mustaqil fikrlash, jamoa, sifat, didaktika, taraqqiyot.

В статье научно-теоретически обоснованы вопросы совершенствования содержания, форм, особенностей образования на основе подготовки будущих учителей начальных классов к творческой деятельности.

Ключевые слова. Учитель, творчество, деятельность, ученик, образование, отношение, самостоятельное мышление, коллектив, качество, дидактика, развитие.

The article is scientifically based on the issues of improving the content, forms and featurestion based on the preparation of future primary school teachers for creative activities.

Key words: teacher, creativity, activity, education, attitude, independent thinking, community, quality, didactics, development.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida pedagoglarning intellektual darajalariga qo'yiladigan talablarning ortib borishi ularning malakasini uzluksiz oshirish va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytiradi. Ta'lim muammolari bo'yicha butunjahon Forumida qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada "...barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish..." dolzarb vazifa etib belgilanganligi sohani barqaror taraqqiy ettirishning ustuvorligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning turli modellari va texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Chunki, ijodiy faoliyat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim jarayonida shaxsiy salohiyatini amalga oshirishi, kasbiy takomillashuvi, o'z mavqeyini anglashi, o'zini namoyon qilish, amaliy tajribalariga asoslanish sifatida o'ziga xos xususiyatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash davlat va jamiyat buyurtmasiga hamda talabalarning kasbiy ehtiyojlariga mosligini ta'minlashda ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini amalga oshirishda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini namoyon qilishiga yordam beradi. Shu bilan birga ijodiy faoliyat talabalarda nazariy yondashuvlar, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli, kommunikativ-kognitiv kabi nazariy yondashuvlarni amalga osh-

irishda uzluksizlik va differensial, modul, o‘zaro ta’sir, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv tamoyillariga asoslangan holda uning mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ijodiy faoliyat asosida o‘qituvchi o‘quv mazmunini ijtimoiy buyurtma asosida modulli shakllantirish, o‘quv materialini o‘zlashtirishda loyihalash texnologiyalaridan foydalanish, o‘z kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish, ta’lim shakllarini individuallashtirish va uzluksizligini ta’minlaydi.

Ijodiy faoliyat bu nafaqat oddiygina g‘oyalarni ifodalash yoki o‘z nuqtai nazariga ishontirish, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni o‘rganish va ular bilan birgalikda qarorlar qabul qilish demakdir. Agar, ushbu nuqtai nazardan qaralsa, ijodiy faoliyat o‘quvchi ishonchni qozonish, o‘zaro tushinishga erishish va to‘g‘ri yondoshuvni izlash, muhim dalillarni taqdim etish va munosabatlarni o‘rnatishdan iborat. Shu jihatdan ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash bu uning kompotentlik darajasida o‘quvchilar bilan munosabat o‘rnatish, ta’lim jarayonini yaxshi bilish, o‘quvchilarni eshitish va ularning manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zini tutish, notiqlik san’atida jozibador bo‘lish demakdir. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilari bilan shunday munosabat o‘rnatishi kerakki, undan manfaatdorlik barcha uchun tegishli ekanligini ular anglashlari lozim. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z nuqtai nazarini o‘quvchilarga ko‘rgazmali shaklda, rang-barang, kutilmagan, hayotdan olingan voqealar va misollar asosida tushintirishi va mahoratli usta sifatida uning his-tuyg‘ularini sezishi, unga to‘g‘ri munosabat bildira olishi muhim hisoblanadi. Bunday holatda o‘qituvchi o‘z hissiyotlarini bosib turishi, ba’zida esa, aksincha ularni tashqariga chiqarib tashlashi kerak.

Ijodiy faoliyat jarayonida o‘qituvchi o‘quvchiga bebaho foyda keltirishi mumkin. O‘qituvchilar uning mohiyatini to‘g‘ri tushinishlari uchun ushbu jarayonda ziyraklikni, diqqat bilan o‘z rejalalarini amalga oshirish uning mahorati muhim omil va zaruriyat hisoblanadi. Chunki, ijodiy faoliyat jarayonida mashg‘ulotlarni muhokama qilish va o‘qitish, muammolarni hal qilish, o‘quvchilar pozitsiyasini o‘zgartirish, argumentlarni tizimlash, ishonchli dalillarni taqdim etish va o‘quvchilar jamoasiga to‘g‘ri yondashishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘z faoliyatida o‘quvchilarning ota-onalari bilan munosabatda bo‘lish jarayonlarida ijodiy yondashuv usullarini to‘g‘ri yo‘naltirish va tarbiyalash, qo‘llash ta’lim samaradorligi ta’minlanishi asosini tashkil etadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonida zarur bo‘lgan masalani ijobiy hal etilishiga erishish, o‘quvchini burchakka tiqib qo‘ymay, unga “o‘z siymosini saqlab qolishga” imkoniyat berish, o‘quvchi faoliyatini pasaytirmasligi va tanqidiy munosabatda bo‘lmasligi muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlashda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash asosida pedagogik jarayonda obyekt bilan subyekt uzviyligiga erishish, obyektning yangi funksiyalarini ko‘ra bilish, muammoli masalalarni hal etishning muqobil shakllari va yo‘llarini izlab topa olish, o‘z-o‘zini boshqara bilish kabilar ta’lim maqsadini aniq va puxta amalga oshirishning asosiy vazifalarini bajaradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda muammolar, tajribalarni bajarishda aniq maqsad asosida harakat qilish, noan'anaviy usullardan foydalanish kabilar o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajalari, ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Ushbu jarayonda:

birinchidan, talabalarda boshlang‘ich ta’lim muammollarini ular ongida shakllantirish, muammoli tajribalarni bajarishga doir bilimlarni o‘zlashtirish;

ikkinchidan, ularda shakllangan bilimlarga ishlov berish, o‘zlashtirish boshlang‘ich ta’lim muammosiga doir nazariy bilimlarni malakaga aylantirish;

uchinchidan, boshlang‘ich ta’lim muammosiga oid nazariy bilimlarga o‘z munosabatini bildirish va uni amaliyotda qo‘llanilishini to‘liq anglash, mustaqil fikrlash, innovatsion texnologiyalar va interfaol uslublar, shakllar, vositalardan foydalanishda mustaqil fikrlash, o‘quv-ijodiy faoliyati jarayonida nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan qiziqishi shakllanishini ta'minlaydi.

Buning natijasida o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi o‘quv-ijodiy faoliyati takomillashadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchining belgilangan maqsadda kafolatlangan natijaga erishishi uchun oldindan boshlang‘ich ta’lim muammollarini hal etishda ijodiy faoliyati jarayonini loyihalash, o‘quvchilardagi yangi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Ushbu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilish, boshlang‘ich ta'lim mazmunini mukammal o‘zlashtirish tadqiqotchilik ishlarini mustaqil bajarishlari uchun tizim ishlab chiqish, ijtimoiy vazifalarni aniq belgilash kabilar takomillashadi.

Ijodkor o‘qituvchi o‘z o‘quvchisi faoliyati uchun fandagi noma'lum muammolarni, noma'lum haqiqatlarni kashf etadi. Har ikkala holatda ham yangilik, eng avvalo, subyektiv qiymatga ega. Chunki ijod qila turib, o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘z shaxsini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi ijod qilishi jarayonida fanni, fan orqali jamiyatni rivojlantirishga hissa qo‘shishi bilan birga o‘quvchini ijod qilish qobiliyatlarini taraqqiy ettiradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi har bir mavzu mazmuniga doir axborotlar, bilim va ijodiy faoliyat usullarini amalga oshirish orqali o‘quv faoliyatini ma'lum ketma-ketlik va izchillikda bajarishning o‘ziga xos bosqichlarini alohida-alohida o‘rganish, o‘quvchi o‘zlashtirishini tez-tez nazorat qilish kabilar ta'lim samaradorligini oshirishga olib keladi. O‘qituvchining mashg‘ulot jarayonidagi maqsadi o‘quvchining shaxsiy taraqqiyotiga intilish.

O‘qituvchi boshlang‘ich ta’lim jarayonida muammo maqsadlarini anglash va uni bajarishga doir topshiriq, muammoli vaziyatlarni mustaqil izohlash yo‘li bilan o‘z maqsadini izohlashga harakat qiladi. Bunda uning o‘quvchilarni tushunishi, maqsadini anglashi ruhiy, aqliy, jismoniy salohiyatini ma'lum maqsadga yo‘naltirishi ularda bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, bilish, nutqni rivojlantirish kabilarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Ushbu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bevosita psixologiya, pedagogika va didaktikani mukammal egallashi natijasida turli muammolarni ajrata bilish, ta’lim shakllari va yo‘llarini izlab topa olishi, o‘quvchidagi kamchiliklarning sabablarini tahlil asosida o‘rganishi, mas'uliyatni his qila olishi, mehnatsevarlik, o‘z ishi natijasini nazorat qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi har bir mashg‘ulotning mazmuni va metodikasini rivojlantiradi. O‘qituvchining ilmiy salohiyati, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma va didaktik materiallar mavjudligi, ularning mazmuni va sifati, o‘z ishida erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa o‘qituvchilar tomonidan e'tirof etilishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishi kabilarni bajarishda samaradorlikka erishish uchun shart-sharoitlar yaratish, ijodiy faoliyat jarayoni mazmun-mohiyatini ochib berishga oid amaliy o‘quv seminarlarni tashkil etish, tajriba jarayonida fan-texnika yangiliklarini ta’lim jarayoniga joriy etishning ilmiy asoslarini chuqur va puxta o‘zlashtirilishiga erishish, ijodiy faoliyatni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni shakllantirish, ijodiy faoliyatni loyihalash va ijodiy ishlash mahoratini oshirish kabilar ta’lim samaradorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiya, ta’lim nazariyasi, uning mazmuni va mohiyati, mashg‘ulotlarni loyihalash, texnik vositalaridan samarali foydalanish, o‘quvchilar jamoasi bilan muvaffaqiyatli muloqotni tashkil etish, psixologik, pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olish, ularga muvofiq xatti-harakatni tashkil etish, o‘quvchining o‘qish faoliyati hamda sifat samaradorligini oshirish yo‘llari va vositalarini aniqlashga imkon beruvchi dasturlar ishlab chiqish kabilar o‘quv faoliyatini takomillashtiradi.

Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-pedagogik tizimini ishlab chiqish, o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilarning zamon talablari darajasida bo‘lishi uning amaliyotdagi holatini takomillashtiradi. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish, sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan shakl, uslub, yo‘l, vosita va imkoniyatlarni izlab topish, mazmun va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, zamonaviy pedagogik, kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni va yangi texnik vositalarni amalda qo‘llashga oid jahon va MDH davlatlari olimlarining ilmiy izlanishlari, monografik tadqiqotlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini o‘rganish, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta'sirining faol va nofaol vaziyatlarni aniqlashga oid modeli, shakllari, xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligining blok-sxemasini ishlab chiqish, uning bosqichlari va omillari hamda texnologiyalaridan foydalanish, sifat va samaradorlikka erishish maqsadida hozirgi kundagi ta’lim muammolarini chuqur tahlil qilish, ilmiy-uslubiy xulosalar ishlab chiqish kabilar tarbiya o‘qituvchi faoliyatini takomillashtiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy xususiyatlari bu ta’lim-tarbiya jarayonidagi usul va uslublarni egallab olish mustahkamligi, tezligi, chuqurligi, o‘quvchilar bilimlarini baholash bilan belgilanadi. Ushbu jarayonlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning individual xususiyatlari, tasavvurlari, izlanishlari, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari, intellektuallik jihatlari ta’lim-tarbiya sifatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019

3. Akramov A.A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish: Ped.f.n. ... dis. – T.: TDPU, 2016.

4. Ashurov M.O. Milliy tarbiya asoslari. – Samarqand: SamDU, 2004. – B. 100.

5. Ochilov M. Muallim – qalb me’mori. – T.: O‘zbekiston, 2001. – B. 432.

Jasurbek QURBONOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi kafedrasi” mustaqil tadqiqotchisi

IJTIMOIY-GUMANITAR YO‘NALISH TALABALARINING INTELLEKTUAL MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy fanlar jamiyat hayotidagi ahamiyati, ijtimoiy-gumanitar soha talabalarining intellektual madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy bilishning mohiyati tadqiq qilingan. Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar soha talabalarining intellektual madaniyatini rivojlantirsh tamoyillari, pedagogik asoslari va tizimi, didaktik jihatlari, muammoga turli yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Intellekt, intellektualllik, intellektuallashtirish, intellektual madaniyat, talaba, talabalar intellektual madaniyati, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish.

В статье рассматривается значение социальных наук в жизни общества, особенности интеллектуальной культуры студентов социально-гуманитарной сферы, сущность социального познания. Также в статье анализируются принципы, педагогические основы и системные, дидактические аспекты, различные подходы к проблеме развития интеллектуальной культуры студентов социально-гуманитарной сферы.

Ключевые слова. Интеллект, компетентность ,уалуализация ,уалуальная культура, студент, интеллектуальная культура студентов, социально-гуманитарная ориентация.

The article examines the importance of Social Sciences in the life of society, the peculiarities of intellektual culture of students of socio-humanitarian sphere, the essence of social cognition. Also, the article analyzes the principles, pedagogical bases and system, didactic aspects, different approaches to the problem of developing the intellektual culture of students of the socio-humanitarian sphere.

Key words. intellect, intellect, intellectualization, intellectual culture, student, student intellectual culture, socio-humanitarian direction.

Zamonaviy pedagogika fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ta’lim oluvchilarni intellektual madaniyatiga oid turli nazariy yondashuvlar, ilmiy konsepsiyalar, yondashuvlarni, bahs-munozaralarni ilgari surmoqda. Bo‘lajak mutaxassis yuksak intellektual madaniyatga ega bo‘lishi uchun avvalo o‘z-o‘zini tarbiyalashi, ijtimoiy ko‘nikmalar mazmunini bilishi va ulardan samarali foydalanishi, ichki mahorati, qobiliyatini kamolga yetkazib borishini yuqori darajada tashkil etish zarur bo‘ladi. Ta’lim jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch va vositadir. Millat dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda ta’lim o‘z samasini bermoqda.

Ta’limning kuchi va uning samaradorligi yuksak bilimga ega bo‘lish bilan izohlanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi”. Aynan buyuk bobolarimizning ilm-fan yo‘lida bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘li biz uchun namuna bo‘lmog‘i lozim. Ilmiy faoliyatning madaniy jihatlarini bo‘lg‘usi mutaxassislarda shakllantirishda esa ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan falsafa fanining ham ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayonda uzluksiz ta’limning yuksak ijtimoiy o‘zgartiruvchanlik tabiati har bir odamda genetik qobiliyatlarni to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi, kishilarda ratsional tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ularni hozirgi zamon fani-texnikasi va texnologiyasi haqidagi aniq bilimlar bilan qurollantirish lozim. Shu ma’noda globallashuv sharoitida ijtimoiy fanlar inqirozdan chiqishning eng faol ishtirokchisidir. Shu bois “gumanitar soha olimlari faoliyatini har tamonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”. Aynan ilm-fan orqali yoshlarda intellektual qobiliyatlarni tarbiyalash, ularni ijtimoiy taraqqiyotning da’vatkor omiliga aylantirish imkoniyatlari mavjud.

Gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirish konsepsiyasi shaxsni intellektual ijtimoiylashtirish nazariyasi nizomlarini aks ettiradi, uning asosida ta’lim oluvchilarning intellektual tajribasi shunday o‘zgartiriladiki, u jamiyat a’zolarini intellektullashtirish sur’ati asta-sekin oshib borayotgan va unda bozor munosabatlarining rivojlanayotgan sharoitlarda professional(kasbiy) faoliyat obyektlarini ratsional tashkillash vazifalarini samarali hal etish uchun zarur bo‘lgan sifatlarni rivojlantiradi.

Gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirish metodologiyasining falsafiy darajasi, gumanitar haqiqatni intellektual texnologiyalar vositalari bilan anglashga tayyor bo‘lgan, uning ta’rifi va ta’lim olayotganlarning shaxs sifatida anglashni transsendental realistik subyekt belgilari mohiyatiga oid guruhlarini aks ettiradi.

Intellektual madaniyat shaxsning aqliy qobiliyatiga asoslangan gnoseologik faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash, intellektual qadriyatlar yaratish malakalari, bilish manbaalari hamda informatsion-texnikaviy vositalar bilan ishlay olish qobiliyati bo‘lib, uning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan talabalar intellektual madaniyati innovatsion bilimlarni egallash va ulardan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliyatda samarali foydalanishini ta’minlovchi tafakkur rivojlanishi darajasi, tushunish va anglash qobiliyati bo‘lib, ularning bilish va ilmiy-ijodiy salohiyatini tashkil qiladi.

Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning pedagogik darajasi gumanitar muassasada talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirishga muvofiq ravishda oliy maktab pedagogikasining yondashuvlari, prinsiplari va metodlarini qamrab oladi.

Gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirishga tizimli yondashuv, ko‘rib chiqilayotgan jarayonning vazifalarini amalga oshirayotgan ta’lim muassasasi ichki va tashqi muhitining bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq kichik sistema(tizim)lar majmui bilan ifodalanadi. Ko‘rib chiqilayotgan jarayonga nisbatan yondashuvning mohiyati, talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirish, bilim oluvchilarning umumiy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim muassasasining tashqi va ichki realligi bilan birgalikdagi harakatining majmuidan iborat. Individning qadriyatlari va guruhning qadriyatlari, o‘zaro munosabatlardagi bu umumiyliklar bir-biriga to‘g‘ri keladi, ular qism va butunlikni biriktirishning manbai hisoblanadi.

Gumanitar-kulturologik yondashuv ko‘rilayotgan jarayonning mohiyatini, ya’ni – talabalarning gumanitar haqiqatni egallashdagi mahorati va istaklarini rivojlantirish, ilmiy gumanitaristika, ishlab chiqarish – amaliy gumanitar texnologiyani egallashda aks etadi. Gumanitar-kulturologik yondashuvni amalga oshirish jarayonida talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi o‘zining gumanitar missiyasini bajaradi – gumanitar qadriyatlarni saqlanishi va salmog‘i yuqori bo‘lishini ta’minlaydi, ijtimoiy-madaniy an’analarni qo‘llab-quvvatlaydi(submadaniy gumanitariylarni saqlash, madaniylikda mantiqni, ma’naviylikda ratsionallikni topish va saqlash).

Ijtimoiy-pedagogik yondashuv talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi yo‘nalishini aniqlashtiradi, shaxsni intellektual tarbiyalashni an’anaviy hamda innovatsion pedagogik metodikalarining izchilligi tamoyilining ahamiyatini anglash imkoniyatini beradi. Talabalarni intellektual tarbiyalashdagi innovatsiyalar yangi informatsion inqilob, odamlar bilimlarini boyitish manba(vosita) larining rivojlanishi bilan bog‘liq. Unda egallangan bilimlarni amalda qo‘llash esa ta’limning vazifa(maqsad)lari bo‘lib qolmoqda.

Gumanitar yo‘nalish talabalarining intellektual madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi butunlik, tizimlilik va elementlarning ierarxiyaga oidligi, dastlabki nuqtai nazar yoki fikrning yakuniy natija bilan aloqasi talablariga javob beradi. Ushbu tizim talabalarda fikrlash madaniyatini, badiiy-ijodiy madaniyatni, tadqiqot, loyihalash, bilish va kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqa mohiyatan yondosh tizimlar bilan solishtirilganda, maqsadga yo‘naltirilgan, invariant va bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos xarakterga ega.

Gumanitar yo‘nalish talabalarining intellektual madaniyatini rivojlantirishni pedagogik tizimi aralash turga ega bo‘lib, u tashkil etishning tashqi va ichki omillarining sun’iy va tabiiy obyektlar dialektik umumiyligidan iborat. Uzluksiz va xilma-xil ta’sir ko‘rsatishga qodir obyektiv jihatlarning mavjud bo‘lishi tizimning sun’iy obyekti hisoblanadi. OO‘yuning nazorat qilinuvchi ijtimoiy-pedagogik makoni tabiiy obyektdir.

Tizimning ichki tashkillanishi uni maqsadli negizini **–** talabalarining intellektual madaniyatini rivojlantirishning tuzilish va vazifalari jarayonini konkretlashtirishni taqozo qiladi. Tashqi tashkillanishi esa, talabalar intellektual madaniyati omillarining majmuidan iborat.

Tizimni rivojlantirish manbai sifatida quyidagi qarama-qarshiliklar e’tirof qilinadi:

– davlat va jamiyatning ijtimoiy-gumanitar sohani samarali faoliyat ko‘rsatishidagi ehtiyoji, uning aholi talablariga mos kelishi o‘rtasida va bunda konkret shaxsning o‘rni va ahamiyatini yetarli darajada tushunmaslik (ishbilarmonlar, korxona va tashkilot rahbarlari va xodimlarni);

– davlat va jamiyatning o‘z intellektual zahirasidan gumanitar vazifalar va mavjud sharoitlardan kelib chiqib, maqsadga muvofiq va mas’uliyatli foydalanuvchi xodimga ehtiyoji bilan professional gumanitar ta’lim muassasasida bu jarayonga tayyorgarlikni yetarli darajada amalga oshirmayotganlar o‘rtasida;

– professional gumanitar ta’lim muassasasining talabalar intellektual madaniyatini rivojlanishini tizimli nazariy va metodik ta’minlash ehtiyoji bilan bu haqda pedagoglar va ta’lim jarayoni rahbarlarining tushunchalari yetarli darajada shakllanmaganligi o‘rtasida;

– OO‘Yuning professional gumanitar tayyorgarlik yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan shaxslar, intellektual ijtimoiylashtirish jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji bilan bunda o‘z roli va ishtirokini yetarli darajada tushunmaslik o‘rtasida.

Ijtimoiylashtirish – bu inson tomonidan ushbu jamiyat shaxsning ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun egallashi zarur bo‘lgan qadriyatlar, munosabatlar hamda qobiliyat va mahoratdir.

Intellektual ijtimoiylashtirish – inson tomonidan konkret jamiyat hayotida o‘zining tafakkurga oid tajribasini amalga oshirish uchun intellektual qadriyatlarni egallash jarayoni.

Gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarni ommaviy ijtimoiy intellektuallashtirish va yo‘naltirilgan intellektual ijtimoiylashtirish teskari aloqa quyidagi bir qator qonuniyatlarga ega:

– jamiyatda bugungi kunda asosiy qo‘shimcha mahsulot iqtisodiyotning moddiy sektorida emas, intellektual sektorida ishlab chiqarilayotganini, mehnat qilishga yaroqli aholining tobora ko‘proq qismi shu sektorda band ekanligini tushunib yetishning rivojlanishi, bo‘lajak mutaxassislarni o‘z intellektual zahiralaridan samarali foydalanishga bo‘lgan ehtiyojlari darajasini oshirishga, mos ravishdagi texnologiyalarni, shuningdek, qadriyatlar va munosabatlarni egallashga olib keladi;

– bo‘lajak mutaxassislarni o‘z intellektual zahiralaridan samarali foydalanishga bo‘lgan ehtiyojlari darajasini oshirish, mos ravishdagi texnologiyalarni, shuningdek qadriyatlar va munosabatlarni egallash, adekvat(o‘xshash) pedagogik javob qaytarish, ehtiyojni imkoniyatga o‘tishi uchun sharoitlar yaratish zaruratini yuzaga keltiradi;

– talabalarning o‘z intellektual zahiralaridan samarali foydalanishga bo‘lgan ehtiyojlari darajasini oshirish, mos ravishdagi texnologiyalarni, shuningdek qadriyatlar va munosabatlarni egallashga pedagogik javob qaytarish darajasini oshirish ortidan, ularning professional faoliyatini muvaffaqiyatli intellektuallashtirish mexanizmlarini anglash, bilimlar, mahorat va shaxsga oid sifatlarni rivojlantirishni samarali shakllarini keladi.

Tizimning maqsadi va natijasi talabalar intellektual madaniyatining dastlabki darajasidan tubdan farq qiluvchi, yuqoriroq darajaga o‘tish hisoblanadi va u keng ma’noda aniqlanadi: ta’lim olayotganlarning intellektual kompetentsiyasiga qarab(talablarga mos keluvchi akademik va funksional xabardorlik bilan: ijtimoiy tizimning, potensial ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlardan mos holda kasb uchun dolzarb bo‘lgan bilimlarga o‘tishga tayyorlik bilan); intellektual tarbiyalilik bilan (professional vazifalarga muvofiq shaxsga oid sifatlarni shakllantirish bilan – faol tashabbus, ma’lumot va bilimlar bilan tashabbuskorlik, ratsional va mas’uliyat bilan ishlash, g‘oyalarning paydo bo‘lishiga, baholashlarni nazorat qilish va qarorlar qabul qilishga qobiliyat bo‘lishi bilan); intellektual sezuvchanlik bilan (qarama-qarshilik va muammolarni his qilish va tushunish, pedagogik boshqaruvda ko‘ngilchanlik (ko‘nuvchanlik) va bilimlarni qayta ishlashda o‘zini o‘zi idora qilishga qobiliyati bilan). Tor ma’noda **–** intellektual adekvatlik (aynan bir xillik), mas’uliyat, chiqishimlilik, chuqur bilimga asoslanganlik (kompetentlilik), refleksivlilik, moslashuvchanlik.

Talaba intellektual tajribani intellektual madaniyatning asosi sifatida quyidagicha to‘playdi:

a) kundalik turmushda (tashqi muhitda);

b) maxsus tashkil qilingan hayotda (ta’lim muassasasining ichki muhitida, ishlab chiqarishdagi ta’lim jarayonida).

Kundalik turmush odatdagi ongga, odatdagi fikrlashga, voqeylikni idrok va in’ikos qilishning odatdagi tajribasiga ega bo‘lgan shaxs tipini shakllantiradi. Ta’lim muassasasi esa – bu davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinuvchi, pedagogika fani va muhit tarbiyalanuvchisi bo‘lgan shaxsga pedagogik ta’sir o‘tkazish tajribasi bilan

ta’minlangan, u o‘z faoliyatini adresatda ongning istalgan darajasini, fikrlashning usullarini, idrok qilish tajribasini va atrofdagi voqeylikni in’ikos qilishni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Ishlab chiqarishdagi ta’lim jarayoni – bu xodimlarni professional vazifalarini bajarishga tayyorgarlik qilish muddatini uzaytirish bo‘lib, u ishlab chiqarish texnologiyalarida bo‘layotgan uzluksiz o‘zgarishlarni yoki iste’molchilarning talablarini hisobga olgan holda bo‘ladigan jarayondir.

Maxsus tashkil qilingan pedagogik makonning sifati, uning mezonlari qay darajada aniq ishlab chiqilganligiga va ularning qo‘llanishiga bog‘liq. Konsepsiyamizdagi Mazkur pedagogik jarayondagi mezonlar bu: kognitiv-kommunikativ, refleksiv-baholash, orientatsion-evristik.

Kognitiv-kommunikativ mezonlar o‘z ichiga ta’lim olayotganlar o‘zlashtirayotgan bilimlar majmuini oladi (talabalarning intellektual chiqishimliligi va kompetentlilik ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi):

– ijtimoiy-gumanitar sohada qo‘llanilayotgan intellektual texnologiyalar, ushbu texnologiyalarni bozor sharoitlarida samarali qo‘llash usullari haqida;

– ijtimoiy-gumanitar sohani rivojlantirish dasturlari, masalan, obyektlarni ijtimoiy-madaniy jarayonlarini modellashtirish haqida;

– gumanitar vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo‘lgan individual va jamoaviy intellektual tajriba haqida.

Ushbu bilimlar yordamida talaba:

a) akademik, kundalik va funksional xabardorliklar o‘rtasida muvozanatni saqlay oladi;

b) faoliyatning u yoki bu turida kognitiv, gumanitar va bozor madaniyatiga aloqadorlik tuyg‘usini ifoda qila oladi;

c) o‘zining chuqur bilimga ega ekanini namoyish qila oladi.

Orientatsion-evristik mezon ta’lim olayotganlarning shaxsga oid sifatlari, sabablarni qamrab oladi (talabalarning intellektual adekvatlik (aynan bir xillik) va moslashuvchanlik ko‘rsatkichlari yordamida aniqlanadi:

– oqilona xudbinlik bilan;

– shaxsiy mas’uliyat bilan;

– intellektual interfaollik bilan;

– ijodiy tashabbuskorlik bilan;

– kommunikabellik bilan;

– perseptivlik bilan;

– professional istiqboli bilan.

Refleksiv-baholash mezoni talabalar qobiliyatlarining guruhlari orqali ochiladi (o‘z ichiga talabalarning intellektual his qilish va refleksiv ko‘rsatkichlari majmuini oladi):

– pedagogik ta’sir akt(harakat)larga mos ravishda javob qaytarish, pedagogik hamkorlik ma’nolarini tushunish;

– bilim orttirish, ijodiy va sinov amaliyoti faoliyatida intellektual madaniyat maqsadlari, qadriyatlari, talablarini predmetlashtirish;

– ijtimoiy-gumanitar muammolarini hal qilishga oldindan tayyor bo‘lish.

Professor-o‘qituvchi o‘quv-biluv jarayonida talabalarning o‘ziga xos tadqiqotchilik usullarini qo‘llab-quvvatlashi va muntazam himoya qilishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi ular faoliyatida vujudga keladigan qiyinchiliklar va ularning hosil bo‘lish sabablarini bilishi zarur. Shundagina u talabaga qiyinchilikni qanday bartaraf etishga ko‘maklashish lozimligini aniq bilib oladi. Shu sababli o‘qituvchidan har bir talabaning diqqat-e’tibori,

xotirasi, idroki, tafakkuri, intilishlari, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining qay darajada rivojlanganligini yaxshi bilishi talab etiladi.

Gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirish metodikalari – bu katta yoshdagilar bilan ishlash metodikalari. Ularni amalga oshirish o‘qitishning andragogik qoidalarini taqozo qiladi. Gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirish maqsadida foydalanishga moslashtirilgan mavjud qoidalarning varianti quyidagi ta’riflarga ega: gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarni o‘qitishda ularni boshqarishga urinishlarga mulohazali-tanqidiy munosabatda bo‘lishni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish; ta’lim olayotganlarning dunyoqarashga oid nuqtai nazarlarini, chunki qabul qilinayotgan har qanday ma’lumotga ularning ko‘zi bilan qarab baho beriladi, ijtimoiy-gumanitar tizimning maqsadlari, qadriyatlari va talablariga muvofiq ravishda tuzatishlar kiritish (korrektirovka) kerak; ta’lim jarayonining intellektual fonini yaratishda ta’lim olayotganlarning o‘rganayotgan bilimlariga amaliy yondashishlarini inkor etmaslik kerak; ta’lim jarayonini tashkillashda o‘quvchilarni o‘qishdan ruhiy-ma’naviy qoniqish olishga intilishlarini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish talabalarining intellektual madaniyatini rivojlantirishda ularga buyuk mutafakkirlar va olimlarning ish tajribalari, ijod mahsullari yordam beradi. Intellektual madaniyatlarini shakllantirish jarayonida talabalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash quyidagilarda namoyon bo‘ladi: suhbatlar jarayonida talabalarning ilmiy muammolarga yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlash; ular bilan ilmiy hamkorlik qilish; talabalarning kelajakda egallaydigan sohalari yuzasidan to‘g‘ri tanlovni amalga oshirishlariga ko‘maklashish; ular ko‘tarib chiqqan g‘oyalarni ma’qullash, tahlil qilish, noto‘g‘ri jihatlarini asoslab ko‘rsatish; talabalar tomonidan amalga oshirilgan kichik ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy ahamiyatini asoslashlarida ularga ko‘maklashish; talabalarga o‘z qarorlari va qabul qilgan yechimlarini asoslashlari uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish; o‘quvchilar orasida vujudga kelgan ziddiyatlarni oqilona bartaraf etish kabilar.

Yuqorida aytilganlarning barchasi gumanitar fanlar bilan shug‘ullanuvchi talabalarning intellektual madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-gumanitar tizim tarkibiga kiruvchi zarur pedagogik tizim hisoblanishi haqida dalolat beradi. Ushbu pedagogik tizimni yaratish muhim davlatga oid ijtimoiy muammo – ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish tashkilotlari – ta’lim, sog‘lomlashtirish, dam olish, ma’lumot berish muassasalarida xavfsiz gumanitar texnologiyalarni amalga oshirishni samarali hal qilishning sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B. 76.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28-dekabr 2018-yil. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B.40.

3. Каптерев, А.И. Менеджмент знаний : от теории к технологиям / А.И. Каптерев. – М.: Либерия-Бибинформ, 2005. – 296 с.

4. Маркушкина А.Н. Учение как активньш познавательньш процесс // Опыт инноваццоннмх преобразований в педагогической науке и практике. – Волгоград. пед колледж, 2000. – № 2. – С. 33.

5. Данюшенков В.С. Теория формирования активности школьника // Наука и школа. – М., 1999. -№2. – С. 39-45.

Karomat MATNAZAROVA,
A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI
tayanch doktoranti

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING KASBIY-AMALIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Jahonda fan sohalari bo‘yicha talabalarning kasbiy muloqot maydonchalarini ishlab chiqish, talabalarning “tyutor-talaba” tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish, mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Bu borada kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish mazmunidagi o‘quv adabiyotlarini yaratish, kasbiy ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Ko‘nikma, motivatsiya, amaliy, talaba, boshqaruv, konseptual, ta’lim, texnologiya, mustaqil ta’lim, kasbiy ta’lim.

Разработка профессиональных платформ для студентов в области естествознания в мире, внедрение системы организационно-методической помощи студентам “тьютор-студент”, развитие самостоятельной учебной деятельности, формированию профессиональных навыков в этой области, создание литературы, процессы профессионального образования на основе цифровых технологий индивидуализация, развитие услуг дистанционного обучения.

Ключевые слова. Навыки, мотивация, практические, студент, менеджмент, концептуальные, образование, технологии, самостоятельное обучение, профессиональное образование.

The development of professional platforms for students in the field of natural sciences in the world, the introduction of a system of organizational and methodological assistance to students «tutor-student», the development of independent educational activities, the formation of professional skills in this field, the processes of vocational education based on digital technologies, individualization, development of services distance learning.

Key words. Skills, motivation, practical, student, management, conceptual, education, technology, independent learning, professional educational.

Jahonda fan sohalari bo‘yicha talabalarning kasbiy muloqot maydonchalarini ishlab chiqish, talabalarning “tyutor-talaba” tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish, mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Bu borada kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish mazmunidagi o‘quv adabiyotlarini yaratish, kasbiy ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, o‘quv mashg‘ulotlarida vebinar, onlayn, «blended learning», “flipped classroom” texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida amaldagi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari mazmun jihatidan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan, o‘quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha

qolmoqda. Xususan, “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish” kabi vazifalar belgilangan.[1] Bunda pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha individual ta’lim traektoriyalariga asoslangan holda talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish, talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish, mustaqil ta’lim soatlarini oshirish, kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘nikma – insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

Ko‘nikmalarning muvofiqlashtirish va qarama-qarshi holatlari:

Ko‘nikmalarni muvofiqlashtirish	Ko‘nikmalarning qarama-qarshiligi
a) Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan harakatlar tizimi ko‘nikmalar, boshqa ko‘nikmalar bilan bog‘liq harakatlar tizimiga mos keladi;	a) Bir ko‘nikmaga tegishli bo‘lgan harakatlar tizimi qarama-qarshi bo‘lib, boshqa tuzilmani tashkil etuvchi harakat tizimiga mos kelmaydigan ko‘nikmalar;
b) Bir ko‘nikmalarni amalga oshirish boshqasini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratganda (ko‘nikmalardan biri boshqasini yaxshiroq assimilyasiya qilish vositasi sifatida xizmat qiladi)	b) Bir ko‘nikmadan ikkinchisiga o‘tishda aslida qayta o‘rganish kerak, eski tuzilmani yo‘q qilish ko‘nikmalari
c) Bir ko‘nikmaning oxiri boshqasining haqiqiy boshlanishi va aksincha.	c) Bir ko‘nikmaga oid harakatlar tizimi qisman avtomatizatsiyaga olib keladigan boshqa mahoratga ega bo‘lganda (bu holda, yangi mahoratni amalga oshirishda oldindan o‘rganilgan ko‘nikmalarga xos harakatlar avtomatik ravishda paydo bo‘ladi, bu esa yangi mahorat uchun zarur bo‘lgan harakatlarning buzilishiga olib keladi)
	d) Ketma-ket bajariladigan ko‘nikmalarning boshlanishi va oxiri bir-biriga mos kelmasa, ko‘nikmalarni to‘liq avtomat-lashtirish bilan aralashuv hodisasi minimallashtiriladi yoki butunlay yo‘qoladi

Ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tushunish uchun ularni ko‘chirish, ya’ni ba’zi harakatlar va faoliyatni amalga oshirish natijasida hosil bo‘lgan ko‘nikmalarni boshqalarga tarqatish va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday transferni odatiy holga keltirish uchun ko‘nikma umumiy, universal, boshqa ko‘nikmalar, harakatlar va faoliyatlar bilan uyg‘unlashib, avtomatlashtirishga olib kelishi kerak.

Ko‘nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati[2]. Ko‘nikma

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni

[2] Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 bet. – B. 62. Elektron resurs: https://tmetod.uz/wp-content/uploads/pedagogika-savol-javob.pdf. Murojaat sanasi: 20.01.2020.

dastlab mustaqil, batafsil va ongli ravishda amalga oshiriladigan har qanday yangi harakat usuli, keyinchalik takrorlash natijasida avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Ko‘nikmalar quyidagilarga ya’ni harakatli, intellektual va perseptiv ko‘nikmalarga ajratiladi va bular bir-biridan farq qiladi.

Harakatli ko‘nikmalar – tashqi obyektga uni o‘zgartirish uchun harakatlar yordamida avtomatik ta’sir qilish, bir necha marta ilgari amalga oshirilgan.

Intellektual ko‘nikma – avtomatlashtirilgan usullar, oldindan ko‘rilgan aqliy muammolarni hal qilish usullari.

Perseptiv ko‘nikma – oldindan qayta-qayta qabul qilingan taniqli narsalarning xususiyatlarini avtomatik aks ettirish.[3]

Ko‘nikmani shakllantirish – bu mashqlarni bajarish (maqsadli, maxsus tashkil etilgan takroriy harakatlar) orqali amalga oshiriladigan jarayon. Talabalarda mashqlar tufayli harakat qilish usuli yaxshilanadi va mustahkamlanadi. Ko‘nikmaga ega bo‘lishning ko‘rsatkichlari, harakatni amalga oshirishni boshlagan kishi, uni qanday amalga oshirishi haqida oldindan o‘ylamaydi, undan alohida shaxsiy operatsiyalarni ajratmaydi. Ko‘nikmalarni shakllantirish orqali harakat tez va aniq amalga oshiriladi, yangi bilim, ko‘nikma va malakalar rivojlantirishdi. Ko‘nikmaning shakllanishiga quyidagilar ta’sir qiladi:

– motivatsiya, o‘rganish, assimilyatsiya qilish, mashq qilish, mustahkamlash, umuman yoki qisman shakllantirish;

– harakat mazmunini tushunish uchun shaxsiy rivojlanish darajasi, bilim, ko‘nikma, harakat mazmunini tushuntirish usuli, fikr-mulohaza;

– harakatni o‘zlashtirish uchun uning mazmunini tushunishning to‘liqligi, bir darajadagi mahoratdan ikkinchisiga ma’lum ko‘rsatkichlarga (avtomatlashtirish, interiorizatsiyalashtirish, tezlik va boshqalar) bosqichma-bosqich o‘tish. Ushbu omillarning turli xil birikmalari ko‘nikmani shakllantirish jarayonining turli ko‘rinishlarini yaratadi: boshida tez rivojlanish va oxirida sekinlashuv yoki aksincha aralash variantlar ham bo‘lishi mumkin.

Faoliyatni shakllantirish jarayoni pedagogik psixologiyaning muhim masalalaridan biridir. Har qanday yangi faoliyatni boshlaganda, inson uni amalga oshirishning belgilangan usullari faqat maqsadga qaratilgan faoliyatni emas, balki uning harakatlari va operatsiyalarini ham ongli ravishda boshqarishi va nazorat qilishi kerak. P.A.Bernstein harakat haqida hissiy ma’lumotlarga asoslangan impulslarga kiritilgan tuzatishlarni nazarda tutib, harakatni boshqarish hissiy tuzatish prinsipini taklif qildi. U faoliyatning tarkibiy elementlarini ta’kidlab: malakalar, ko‘nikmalar, odatlarga ajratadi. *Malakalar* – maqsadlar va faoliyat sharoitlariga mos keladigan harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullari. Ular har doim bilimga tayanadi. *Ko‘nikmalar* – mashqlar jarayonida shakllangan harakatlarning to‘liq avtomatlashtirilgan qismlarini tashkil qiladi. Uning roli ongni harakat usullarini nazorat qilishdan ozod qilish va uni maqsad va ish sharoitlariga o‘tkazishdan iborat.

Odatlar – bu harakatning tarkibiy qismi, bu ehtiyojga asoslangan. Bu ongli maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni (masalan, moddiy obyekt, og‘zaki baholash yoki hissiy tasvir orqali kerakli xatti-harakatni ijobiy takomillashtirish orqali) takrorlash natijasida taqlid orqali shakllanadi.[4]

[3] Навык. Электронный ресурс: https://ru.wikipedia.org/навык . Дата обращения: 20.01.20.

[4] Умения, навыки, привычки и их формирование. Электронный ресурс: https://psyera.ru/umeniya-navyki-privychki-i-ih-formirovanie_7704.htm. Дата обращения: 20.01.20.

Ko‘nikmani o‘rgatish. Ko‘nikma ta’lim yoki ta’lim orqali shakllanadi. Trening mashg‘ulotlarida ko‘nikmani o‘rganish deyarli har doim uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

– tushuntirish, ba’zan uning maqsadi ijrochining oldida turgan vazifani aniqlash va uni amalga oshirish usullari bo‘yicha tavsiyalar berishdir;

– kerakli harakatlar ong nazorati ostida amalga oshiriladigan trening, avval sekin va xatolar bilan, keyin tezroq va to‘g‘ri;

– xatti-harakatlar muammosiz davom etadigan va kamroq ongli nazoratni talab qiladigan avtomatlashuvga olib keladi.

Bir turdagi harakatlarni amalga oshirishda o‘rganilgan ko‘nikmalar boshqa turdagi harakatlarni o‘zlashtirishning muvaffaqiyatiga ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi hollarda ular yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam berishi mumkin, boshqalarda esa unga aralashishi mumkin.

Boshqa harakatlarni o‘zlashtirishda o‘rganilgan ko‘nikmalarning ijobiy ta’siri *ko‘nikmalarni o‘tkazish* deb ataladi. Masalan: Bir nechta xorijiy tillarni biladigan kishi yangi tilni o‘z ona tilidan boshqa hech qanday tilni bilmaganlarga qaraganda ancha osonroq egallaydi. Ko‘nikmalarning uzatilishi, birinchi navbatda, yangi harakatlar allaqachon o‘rganilgan narsalar bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda kuzatiladi. Misol uchun, motorni yoqish va o‘chirishda va uning ishini tartibga solishda, ishning davom etayotgan sharoitlarini nazorat qilish usullari, natijalarini baholash, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va boshqalar. Bu sizga ushbu ko‘nikmalarni bir ishdan boshqasiga o‘tkazish imkonini beradi. Turli tillarda mavjud bo‘lgan tovushlarni tahlil qilish va talaffuz qilish qobiliyati, bir nechta tillarning grammatik tizimini bilish, bir necha tilni biladigan kishilar uchun yangi tilni osonroq o‘rganish uchun asosdir.

Yangi o‘rganilgan harakatlar amalga oshirilganda, inson o‘zining avvalgi tajribasiga, allaqachon olingan ko‘nikmalarga tayanadi. Tabiiyki, katta tajriba va ko‘plab ko‘nikmalar yangi ko‘nikmalarni tezroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Ba’zi ko‘nikmalarning boshqalarga ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, eski ko‘nikmalarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishiga salbiy ta’siri ham mavjud. Bunday holat ularning aralashuvi deb ataladi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘nikmalarning aralashuvining sababi ilgari shakllangan aloqalarning kuchi bo‘lib, u keyinchalik yangi harakatni o‘zlashtirganda amalga oshiriladi. Shuning uchun, ko‘nikmalarni o‘rganayotganda, xatti-harakatlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гришин В.Н. Организация самостоятельной работы студентов в процессе группового взаимодействия: Дис. … канд. пед. наук. 2000.

2. Большаков А.С., Михайлов В.И. Современный менеджмент: теория и практика: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2010.

3. Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayoni sifatini boshqarish samaradorligini oshirish. Elektron resurs: http://biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/31969-oliy-talim-tizimida-talim-jarayoni-sifatini-boshqarish.

Baxtiyor BOLTAYEV,
Samarqand davlat universiteti
o‘qituvchisi

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLATLARARO TOTUVLIK TUYG’USINI SHAKLLANTIRISHNING TA’LIM METODLARI

Annotatsiya

Maqolada mehribonlik uylari badiiy to‘garaklari faoliyatida tarbiyalanuvchilararo millatlararo totuvlik tuyg’usini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarining tavsifi, xususiyatlari hamda musiqa to‘garaklari jarayonida ushbu metodlardan foydalanishning qisqacha mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Badiiy to‘garak, millatlararo totuvlik, hissiy (emotsional) dramaturgiya; kompozitsiya, badiiy matn**,** reproduktiv metod, amaliy metod, ko‘rgazmali metod.

В статье описаны особенности и особенности воспитательных методик, направленных на формирование у детей чувства межэтнической гармонии в деятельности художественных кружков детских домов, а также кратко изложено использование этих методик в процессе музыкальных кружков.

Ключевые слова. Художественный кружок, межнациональная гармония, эмоциональная драма; композиция, литературный текст, репродуктивный метод, практический метод, визуальный метод.

The article describes the features and peculiarities of educational methods aimed at creating a sense of interethnic harmony in children in the activities of art groups in orphanages, and briefly describes the use of these methods in the process of music clubs..

Key words. Art club, interethnic harmony, emotional drama; composition, literary text, reproductive method, practical method, visual method.

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risidagi PF-5046-sonli Farmonni imzolagani, shunga muvofiq O‘zR VM huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari Qo‘mitasi tashkil etilganida ham ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ruhan rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu, o‘z navbatida, mehribonlik uylarida ta’lim-tarbiya olayotgan bolalarni ham fan, texnika va ilg’or texnologiyalar asosida o‘qitish, ayniqsa, ular orasida millatlararo totuvlik va bag’rikenglik hissini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Bunday shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda mehribonlik uylarida tashkil etiladigan badiiy to‘garaklarning ham o‘z o‘rni bor.

Respublika umumiy o‘rta maktablarida, shu jumladan, mehribonlik uylari faoliyatida ham boshqa fanlar qatorida musiqiy ta’lim va tarbiyani tizimli rivojlantirish maqsadida ham ma’lum ishlar amalga oshirilmoqda. Musiqa ta’limi samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning musiqa, qo‘shiq hamda raqslarga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirishda maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, xususan, mehribonlik uylari badiiy to‘garaklari faoliyatida innovatsion hamda an’anaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishning ahamiyati beqiyosdir.

Ma’lumki, har bir xalqning badiiy madaniyati jahon xalqlari badiiy-musiqiy, madaniy boyligi taraqqiyotiga tayangan holda rivojlanadi. Shu ma’noda, xorijiy mamlakatlar musiqiy ta’lim-tarbiya tizimining interfaol usullarini o‘rganish hamda ulardan nafaqat musiqa darslari, balki badiiy-musiqiy to‘garaklar faoliyatida ham samarali foydalanish musiqa ta’limi, ayni zamonda, o‘zaro totuvlik va bag’rikenglik hissini ham rivojlantirish samaradorligi garovidir.

Mehribonlik uylari badiiy to‘garaklari faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi, o‘z navbatida, to‘garak rahbaridan ham katta pedagogik mahorat va tajribani talab qiladi. Buning uchun mashg’ulotlarni loyihalashtirish, musiqiy o‘quv materiallarini o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalariga moslashtirish taqozo etiladi. Badiiy to‘garaklar amaliyotiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish to‘garak rahbari kasbiy faoliyati hamda to‘garak a’zolari bilish va ijro faoliyatini uyg’unlashtirishni, shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarda nozik badiiy did va ma’naviy barkamollikni ta’minlashni ham nazarda tutadi.

Ma’lumki, yer yuzida musiqadan inson tuyg’ulari va irodasiga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida hamma zamonlarda o‘ziga xos tarzda foydalanib kelingan. Afsuski, musiqaning bunday ta’sir imkoniyatidan bugungi kunda nafaqat badiiy didi past, balki san’atning qudratini payqay olmayotgan yoshlar tomonidan past saviyadagi har xil shou-bizneslarda, turfa, yengil-yelpi qo‘shiqlar ijrosida ham foydalanilmoqda. Bu, o‘z navbatida, millatning ma’naviy takomili va saviyasiga aks ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday paytlarda o‘rta maktablar va maktabdan tashqari ta’lim tizimidagi, xususan, badiiy to‘garaklardagi musiqiy ta’lim va tarbiya yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayni zamonda, musiqiy ta’limning har tomonlama va chuqur ilmiy-metodik masalalarini hal etish muammosi ham paydo bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, ta’lim tizimida umumpedagogik ta’lim metodlarini musiqa o‘qitish tizimiga ham bu yo‘nalishning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlarini inobatga olgan holda qo‘llash yo‘llarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish davr talabidir.

Musiqaning inson ruhiyatiga emotsional ta’siri insoniyat tomonidan allaqachonlar tan olingan. Lekin uzluksiz ta’lim tizimida san’at asarlari ustida ishlash metodlari bu sohada eng kam e’tibor qaratilgan yo‘nalishlardan biridir. Bugungi kunda umumiy didaktikaning zamonaviy dunyoqarashga yetarli darajada e’tibor qaratmagan tamoyillariga tayangan holda san’at ta’limining yangilangan konsepsiyasini yaratish mushkul. Bundan tashqari, mazkur holatni nazariy asoslash uchun umumdidaktik metodlarni musiqa ta’limiga jalb etishning xususiy jihatlarini qarab chiqish ham davr talabidir.

Pedagogik adabiyotlarda o‘qitish metodiga yondashuvning ikki turi farqlanadi. Ular o‘zaro metodlar haqidagi empirik va nazariy tasavvurlar bilan bog’liqdir. Birinchi yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchilarning qo‘yilgan o‘quv maqsadiga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga tayanadi. Ikkinchisi esa, normativ bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan “o‘qituvchi o‘qitadi, o‘quvchilar esa o‘zlashtiradilar” tarzidagi qarashga asos-

lanadi. Musiqa ta’limi pedagogikasi (nazariyasi va amaliyoti)da ham ta’lim metodlari deganda pedagogik qobiliyatlarning musiqiy ta’lim masalalarini yechish va musiqiy ta’lim mazmunini o‘zlashtirish orasidagi mutanosiblik tushuniladi. Ya’ni musiqiy ta’lim metodlari deganda bu yo‘nalishdagi musiqiy bilimlarni egallash, musiqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, xotira, tasavvur, mustaqil, mantiqiy va tez fikrlashni kuchaytirish, musiqaga hissiy qadriyat sifatida yondashish, badiiy did shakllantirish, san’at asarlariga oshno etish hamda san’at bilan tillasha oladigan shaxslarni shakllantirish yo‘llari, usullari tushuniladi.

Pedagogika ilmida ta’limning keng qamrovli turfa metodlari mavjud bo‘lib, ular bir qator o‘ziga xos tasniflarga ega: bilimlar manbai (amaliy, ko‘rgazmali, so‘z bilan ishlash)ga ko‘ra; o‘quvchilarning har xil shaxsiy va xususiy imkoniyatlari (ta’sirchanligi, ongliligi, xarakteriga)ga ko‘ra; o‘quv faoliyatining xarakteri (ko‘rsatish-tushuntirish, reproduktiv, muammoli va hk.)ga ko‘ra. Bu metodlardan ma’lum qismi, bir qator adabiyotlarda ta’kidlanishicha, uchta guruhi: taqqoslash, ko‘rgazmali-eshitish va so‘z bilan ishlash turi musiqiy ta’lim amaliyotida ham qo‘l keladi.

Shundan taqqoslash metodining musiqiy ta’limdagi xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

- musiqa materialining o‘xshashlik va farqli jihatlari;
- musiqiy materialning ma’lum hayotiy hodisalar va hayotiy jarayon bilan mutanosibligi;
- musiqa san’atining mazmunan boshqa san’at (haykaltaroshlik, adabiyot va rang-tasvir singari) turlari bilan taqqoslanishi.

Musiqiy ta’limda, bulardan tashqari, musiqa asarlarini chalib namoyish etish va so‘z bilan ishlash metodlari (musiqaning badiiy obrazli mazmunini so‘z orqali ifodalash, qo‘shiq matnini, raqs xatti-harakatlarini so‘zda bayon etib berish singari) ham alohida ajratib ko‘rsatiladi.

Musiqa ta’limi metodikasi ilmi bilan shug’ullangan bir qator olimlar: E.B.Abdullin, L.A.Bezborodova va Y.B.Aliyev, G.B.Dvoynina, M.S.Osenneva va boshqalar musiqa san’atining mohiyati obrazli va tushunchali, ratsional va emotsional voqeylikni ifodalanuvchi ohangni tushinish, his qilish orqali anglashilishini aytishgan. Musiqaning badiiy mazmunini his etish asar bilan bevosita aloqadorlikda, yangrayotgan ohangni o‘zlashtirish esa u bilan bevosita uyg’unlashib ketish asnosida his etilishi alohida ta’kidlangan.

Musiqa inson tafakkurining alohida bir xususiy shakli sifatida namoyon bo‘larkan, u o‘zining asosiy vazifasini – inson bilan muloqotga kirishish jarayonini amalga oshiradi. Ya’ni musiqa inson organizmi, tuyg’ulari bilan uyg’unlashib ketadi. Bunday uyg’unlashuv jarayoni alohida, o‘ziga xos metodlarni ham taqozo etadi. Bu metodlar ko‘magida san’atga o‘rgatishning ideal maqsadi – san’at asarlarini o‘zlashtira olish va u orqali boshqalar bilan muloqotga kirishish, shaxsni badiiy shakllantirish singari ishlar amalga oshiriladi.

Musiqiy ta’limning xususiyatlarini bir vaqtning o‘zida ta’lim berib, ayni zamonda tarbiyalaydigan musiqa san’ati belgilaydi. Ya’ni musiqa ta’limida qo‘llaniladigan metodlar ta’lim berish va tarbiyalash jarayonini uyg’unlikda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda shaxs san’at bilan tarbiyalanadi. Musiqiy ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning badiiy faoliyati: a) musiqani tinglash; b) uni ijro etish; c) yaratish uchligi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Bolalarning o‘z xususiy ijodiy faoliyatini tashkil etishda san’atni qabul qilishi, o‘zlashtirishi va u bilan muloqotga kirishishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan badiiy to‘garaklarning a’zolari har xil yoshda bo‘lishi tabiiy. Bu yerda yosh emas, balki ijodga bo‘lgan musiqiy qobiliyat, qiziqish, intilish, izlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shularga asoslanilgan holda musiqiy ta’limda: 1) **hissiy** (**emotsional) dramaturgiya**; 2) **kompozitsiya yaratish**; 3) **badiiy matn yaratish** singari metodlar ustuvorlik qiladi. Tarbiyalanuvchilarga, ularning yoshidan qat’i nazar, musiqiy ta’lim beruvchi bu metodlar ularning har biri har xil yo‘nalishdagi musiqiy faoliyatni qamrab olishlariga, ularni ijodga undashga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish singari umumiy xususiyatlarga egaligi bilan boshqa didaktik metodlardan ajralib turadi.

Musiqiy ta’limda yetakchi o‘rinda turuvchi “**Hissiy (emotsional) dramaturgiya**” metodi ma’lum fragmentni yaratishda dramaturgik qonun-qodalarga amal qilishni taqozo etadi. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, unda musiqa ta’limi muallimi yoki badiiy to‘garak rahbari biror musiqaning mazmuni, uning kulminatsion nuqtasi va yaratilish xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar tizimi (moduli)ni tavsiya etadi. Musiqa darslari, to‘garak mashg’ulotlari, musiqiy festivallar, konsert va tanlovlar shu metod asosida tashkil etiladi. Bunday tizimning muvaffaqiyati bir qator masalalar: o‘qituvchi-rahbarning musiqiy fantaziyasi, o‘quvchilarning umumiy va musiqiy bilimi darajasi, ularning ko‘nikma va malakalari bilan uzviy bog’liq bo‘ladi.

“Kompozitsiya yaratish” metodi ham musiqa talimi tizimida samarali metodlardan biri sifatida musiqa asarlarini har xil yo‘nalishlarda (xor, yakka ijro, elementar musiqa asboblarini chalish, mazkur musiqa ostida harakatlanish va hk.) ijro etish orqali o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Bu metod musiqiy ta’limda har xil musiqiy bilim darajasiga ega bo‘lgan a’zolar ijodi jarayoniga o‘zining nimaga qobiliyati borligini aniqlash imkoniyatini beradi. “Kompozitsiya yaratish” metodi o‘qituvchi-rahbardan aranjirovka bilan bog’liq maxsus bilim va ko‘nikmalarni ham talab qiladi.

“**Badiiy matn yaratish**” metodi ham umumta’lim maktablari musiqiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishda, har xil badiiy to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda qo‘l keladigan metodlarni to‘ldiradi. Bu metod musiqa bilan birga san’atning boshqa yo‘nalishlari adabiyot, tarix, ayni hayotiy hodisalar aloqadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Musiqa ta’limini tashkil etishda qo‘llaniladigan bu metodlarning xususiyati shundan iboratki, ular asosida musiqiy ta’limni amalga oshirish bolalarning o‘z musiqiy-ijodiy amaliyotini yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni san’atning bu turiga, musiqaga oshno etish ularning ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz/ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. Абдуллин Э. Б. Теория музыкалного образования: Учебник для студентов высших учебных педагогических заведений. /Э. Б. Абдуллин, Е. В. Николаева. – Москва: ФЛИТА, 2004.

3. Xo‘jayeva M. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi. o‘quv qo‘llanma. – T., 2008

Xolboy IBRAIMOV,
O'zDJTU "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi professor, p.f.d.

XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING AYRIM ZAMONAVIY-PEDAGOGIK METODLARI

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tillarni o'rganish hamda o'rgatish jarayoni hozirgi eng muhim vazifalardan biriga aylanayotganligi xususida so'z yuritilgan va chet tillarini o'qitish jarayonlarini yangi noan'anaviy innovatsion ta'lim metodlari bilan qo'llash kerakligi misollar bilan ko'rsatib berilgan. Tavsiya etilgan metodlar o'quvchi-talabalarning fikrlash doirasini kengayishiga xizmat qilishi, darsga nisbatan qiziqishini yanada oshirishiga yordam berishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, intensiv ta'lim, zamonaviy pedagogik metodlar, metod, audio–lingvistik metod, audio-vizual metod.

В статье рассказывается о важности преподавания и изучения иностранного языка, который уже стал одной из важнейших задач в области образования, и в статье приводятся некоторые примеры с пояснениями о том, как проводить занятия по иностранному языку с современные необычные методы. Предлагаемые методы могут помочь развить не только мировоззрение, критическое мышление учащихся, но и повысить интерес к изучению иностранного языка.

Ключевые слова. Образование, воспитание, интенсивное обучение, современные педагогические методы, метод, аудио линовальный метод, аудиовизуальный метод.

The article is about the importance of teaching and learning a foreign language which has already become one of the most important tasks in education field, and in the article there are given some examples with their explanations about how to conduct a foreign language class with modern unusual methods. Suggested methods can aid to develop not only the outlook, critical thinking of learners, but also to increase the interest in acquiring a foreign language.

Key words. Education, upbringing, intensive learning, modern pedagogic methods, method, audio-lingual method, audio-visual method.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishi jahon ta'limi standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratdi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etildi. Zero O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Ta'lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir".[1]

[1] O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-sentyabr kuni O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrigi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-ituvchddddi-va-murabbiylariga-29-09-2017

Jahonda madaniy, ta'limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi, dunyo sivilizatsiyasi yutuqlari hamda axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishga bo'lgan talab xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborni kuchayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish darajalarini aniqlashning xalqaro standartlarining (IELTS, TOEFL, DSD, DELF kabi) joriy etilishi, ochiq ta'lim tizimlari imkoniyatlarining ortib borishi, turli davlatlar o'rtasida ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zaro hamkorlik boshqa xalqlar tillarini o'rganishning izchilligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Dunyoda xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot yo'nalishlari o'rganilayotgan tilning badiiy merosi, umumbashariy qadriyatlari, shaxslararo muloqot madaniyati, an'analariga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim oluvchilarning yoshi, qiziqishlari, intilishlari, psixo-fiziologik imkoniyatlari inobatga olingan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ilg'or metodlar va elektron dasturiy mahsulotlar tuzilmasiga oid ilmiy ishlanmalardagi o'qitish mazmunining asosini turli xalqlar badiiy merosidan maqsadli foydalanish tendensiyasi tashkil etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan modernizatsiyalash, uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni faol o'rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o'rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish borasidagi islohotlar xorijiy tillarni birinchi sinfdan boshlab o'qitishni yo'lga qo'yish, mazkur tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga ingliz tilining dunyoda muloqot va axborot sohasidagi yetakchiligidan kelib chiqib, o'quvchi-talabalarning tilga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda intensiv til metodlaridan keng foydalanish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim sifatini tubdan oshirish, xorijiy tillarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada o'quvchilar va talabalar lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari, psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlash, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar dasturi va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2012-yil 10-dekabrdagi "Xorijiy tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorlari mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish vazifasi davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanishi va unga zarur barcha shart-sharoitlarni yaratilganini isbotlaydi.

O'quvchi-talabalarni xorijiy tillarga o'rgatishning yetakchi tamoyillari mavjud bo'lib, u bu tamoyillarga tayanadi. Ular metodik tamoyillar deb ham yuritiladi. Metodik tamoyillarni ba'zi olimlar ta'lim tarbiya qonunlarini belgilovchi usullar vositasi deb atasa, boshqalari tamoyilni metod zaminida yotuvchi boshlang'ich dastlabki qoida deydi. Umuman olganda, ta'lim tamoyillari o'qitish asosida yotadigan, ta'lim va uni tashkil etish jarayonini tashkil etish mazmuni, shakl, metod va vositalarini tanlanishini belgilaydigan boshlang'ich asoslardir.[2] Hozirda xorijiy tillar metodikasi:

1. Lingvistik.
2. Didaktik (pedagogik)
3. Psixologik-psixolingvistik.

[2] Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

4. Chet tili o‘qitishning sof metodik tamoyillariga tayanadi[3]. Ularni ko‘rib chiqamiz.

1 . Lingvistik tamoyillar.

Lingvistik tamoyillar xorijiy tilning materiallarini (fonetika, grammatika, leksika) aktiv va passiv til materiallariga taqsimlash va ular ustida ishlashdir. Ingliz tili til materiallarining (fonetika, grammatika, leksika) 4 ta nutqiy faoliyat (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv)larida qo‘llashni o‘rgatadigan til materiallari aktiv til materiallari hisoblanadi.

Tinglab tushunish, o‘qish, nutq faoliyatlarida qo‘llanilishi o‘rgatiladigan fonetik, grammatik, leksik materiallar passiv til materiallariga kiradi.

2. Didaktik tamoyillar.

Didaktik tamoyillar ta’lim-tarbiya jarayonini olib borish asosidir. Ularni metodika o‘zini faniga moslashtirib qo‘llaydi. Hozirgi paytda pedagogika, didaktika quyidagi tamoyillarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Ta’lim va tarbiyaning birligi tamoyili;
2. Ta’limning ilmiylik tamoyili;
3. Ko‘rsatmalilik(ko‘rgazmalilik) tamoyili;
4. Onglilik tamoyili;
5. Tizimlilik va izchillik tamoyili;
6. Bilimni puxta o‘zlashtirish tamoyili;
7. Faollik tamoyili;
8. Talabalarning o‘ziga xos, individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
9. Ta’lim-tarbiyani hayot bilan birga qo‘shib olib borish tamoyili;
10 .Osondan qiyinga o‘tish tamoyili.

3. Psixologik-psixolingvistik tamoyillar.

Hozirgi paytda psixologiya 2 ta tamoyilni taklif qiladi. Bular verbalizatsiya va korrelyatsiya tamoyillaridir. Ularni xorijiy til metodikasi kursdan kelib chiqib, moslashtirib qo‘llaydi.

Verbalizatsiya tamoyili xorijiy tilni og‘zaki nutq orqali egallashni ko‘zda tutadi.

Korrelyatsiya tamoyili esa xorijiy tilni mavzularga bo‘lib, mavzular orqali o‘rganishni taqazo qiladi.

4. Metodikaning sof tamoyillari.

Metodikaning o‘zining sof tamoyillari bor. Ularni 3 guruhga bo‘lish mumkin:

I. Umumiy tamoyillar.

II. Xususiy metodik tamoyillar.

III. Maxsus tamoyillar.

I. Umumiy tamoyillar 3 ta:

1 Xorijiy tilni o‘qitishning kommunikativ yo‘nalishida bo‘lish tamoyili.

2.Ona tili xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.

3.Chet tili ustida ishlaganda mashqlarning ustuvorligi, doim mashq ishlatish tamoyili.

II. Xususiy tamoyillar:

1.Chet tilini nutq namunalari va modellarida o‘rgatish;

2.Nutq amaliyotini til amaliyoti bilan birga olib borish;

3.Barcha nutq faoliyati turlari ustida birga ishlash;

4.Og‘zaki ilgarilash;

[3] J.J.Jalolov Ingliz tili o’qitish metodikasi. Toshkent, «O’qituvchi» nashriyoti, 1996 y.

5.O‘quv faoliyatini aproksimatsiya qilish;

6. Xorijiy til ustida ishlaganda tezlashtirishdan foydalanish tamoyillari;

III. Chet tili o‘qitishning maxsus tamoyillari.

Ularga leksika, grammatika, fonetika va nutq faoliyatlari ustida ishlashning maxsus tamoyillari kiradi.

O‘quvchi va talabalarni xorijiy tillarga o‘rgatish jarayonida yuqoridagi tamoyillarni hisobga olish til o‘rganish samarasini sezilarli darajada orttiradi.

Hozirgi kunda jahonda xorijiy tillarini o‘qitishning bir qator metodlari mavjud bo‘lib, ular o‘qituvchilar tomonidan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llaniladi[4]. Shunday metodlardan ayrimlari quyidagilar:

- tarjima metodi (asosan o‘lik tillarni o‘rganishda qo‘llaniladi, so‘zlar va grammatik qoidalar yod olinadi);
- og‘zaki metod (o‘qituvchi monologini qayta so‘zlash va matn bo‘yicha savollarga javob berish tizimiga asoslanadi);
- psixologik metod (so‘z va so‘z bildirgan tushuncha o‘rtasida assotsiatsiyalarni topishga asolanadi);
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatish metodi (chet tili, ona tiliga yoki biror boshqa tilga murojaat qilinmasdan, umuman tarjimadan foydalanmagan holda foydalaniladi);
- o‘qish metodi (talaba o‘rganilayotgan tilda qancha ko‘p matn o‘qisa, u mazkur tilning xususiyatlari, grammatik qoidalari, gap qoliplarini shunchalik ko‘p o‘zlashtiradi va shu tariqa tushunish, gapirish, yozish ko‘nikmalari ham rivojlanadi).

Keyingi vaqtlarda g‘arbda yangi bir metod shakllana boshladi. Bu Audio-vizual (tinglab-ko‘rish) metodi. Uning asoschilari sifatida yugoslaviyalik metodistlar P.Guberin va Fransuz Per Rivon, L.Gugeneym va boshqalarni keltirish mumkin. Bu metod tilning materiallarini eshitish va ko‘rish orqali tez eslab qolishga asoslangan. Bu metodning asosiy foydasi shundaki, u o‘rganayotgan til materialini hayotiy voqealarga bog‘lab o‘rganishni taqozo etadi. Til o‘rganish asosan ko‘rib, tinglab tushunishga asoslangan. Bu metod mualliflarining fikrlariga ko‘ra, kundalik turmushda ko‘p uchrab turadigan voqealarni o‘z ichiga qamragan mavzularni o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi. Ularni o‘zlashtirish esa asosan ko‘rib qabul qilish sezgilari asosida va texnik vositalardan keng foydalanish orqali amalga oshiriladi. O‘quvchi xorijiy tilni o‘rganish jarayonida o‘rganilayotgan mavzu yoki tushunchalarni anglab, uni tasavvurida obrazlay olsa, u bu tilni tez va samarali o‘zlashtira oladi. Xususan, chet tillarini o‘qitish va o‘rganishda anglab tushunish, shu tushunilgan mavzuni amaliyotda ya’ni muloqotda qo‘llay olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, chet tillarini o‘qitishni intensivlashtirish masalasi yuzasidan bir qancha xorijiy mamlakatlarda, va albatta, yurtimizda ham samarali ishlar olib borilmoqda. Bular yangi intensiv metodlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Intensiv metodning o‘zi nima? Va uning qanday afzalliklari mavjud?

Intensiv o‘qitish degan so‘zning birinchi ma’nosi – qisqa vaqt ichida o‘quvchilarni o‘rganilayotgan chet tilida nutq faoliyatini amalga oshirishga, ya’ni gapirishga o‘rgatishdir. Bu asosan o‘quvchilarning ichki psixologik imkoniyatlariga va xotira zaxirasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Demak, intensiv metod orqali o‘qitishning quyidagi ikki xarakterli xususiyatini ko‘rsatish mumkin:

- qisqa vaqt ichida ma’lum hajmdagi o‘quv materialini o‘rganish va shunga mos

[4] Костюк Н. О., Халилов А. Ш., Шип И. В. Особенности преподавания иностранных языков в школах и университетах США: http://www.rusnauka.com/2_ANR_2010/Pedagogica/5

chet tilidagi nutqiy faoliyatni amalga oshirish;

- shaxs xotirasining barcha zaxiralaridan (psixologik imkoniyatlaridan) maksimal darajada foydalanish ya’ni o‘quvchilarning faolligini oshirish.

O‘quvchi shaxsi xotirasining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda ularning darsdagi faolligini oshirishda nutqiy muloqot muhitini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llanilayotgan usullar va turli ko‘rgazmali qurollar shu maqsadga yo‘naltirilmog‘i lozim. Nutqiy muloqotga yo‘naltirilgan psixiologik vaziyat o‘quvchilarning faolligini oshirishdagi zaruriy vazifalardan biridir. Taniqli metodist olimlardan biri E.I.Passovning aytishicha hozirgi vaqtdagi chet til o‘qitishda amalda qo‘llanilayotgan kommunikativ yondashish nutqiy vaziyatlarga asoslangan tezkor (intensiv) o‘qitishning bir ko‘rinishidir.

Intensiv metod dastlab XX asrning boshlarida “to‘g‘ri” metodi asosida shakllana boshladi. Professor Gezning aytishicha “to‘g‘ri metodi chet tilini intensiv o‘qitishga qulay imkoniyat va asos yaratib beradi”[5]. Intensiv o‘qitish metodi tizimida ta’lim texnologiyalari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni xorijiy tilni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydanish ham ta’limning sifatini hamda samarasini yanada oshirishga yordam beradi. Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o‘rganishning har bir aspekti (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) ida qo‘l keladi. Albatta, tingab tushunish jarayonini kompyuter, CD disklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xususan, tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot-kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tillarini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samarador usullardan biridir.

Shu bilan birga bugungi kunda dunyoning qator malakatlarida “**sugestopedia**” nomi bilan tanilgan metodika keng rivoj topdi.[6] Ta’limni intensifikatsiyalash va gipnoz bilan bog‘liq bo‘lgan bu metod turlicha baholangan, tanqid ostiga ham olingan, olqishlangan ham. Biroq uning natijalari hayratlanarlidir. Suggestopedia asosida dars o‘tadigan pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tadi. Bunda ta’lim oluvchilarni yangi tilni tezkorlik bilan o‘rganishlari uchun maksimal qulay sharoit yaratiladi. Har bir o‘quvchi o‘zining g‘ayrioddiy lingvistik qobiliyatlari borligiga ishontiriladi, dars harakatda va o‘yinlar yordamida o‘tkaziladi, shuningdek materialni qabul qilishni yengillashtirish maqsadida musiqiy ta’sir ko‘rsatiladi, doimiy ravishda multimedia vositalaridan foydalaniladi va hokazo. Mazkur metod qo‘llanilganda tilni o‘rganish tezligi 40-50 barobar oshadi, chunki kuniga yod olinadigan so‘zlar va jumlalar soni odatiy metodikadagi raqamlardan ancha ko‘p. (qayd etilgan rekord bir kunda mingga yaqin so‘z va ibora).

“Jigsaw reading”[7] bu metod talabalarda o‘qish, so‘zlashish va xulosa qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladi. Ayniqsa, qisqa hikoyalar, matnlar va maqolalar bilan ishlashda bu usul juda samaralidir. U quyidagicha amalga oshiriladi. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga hikoyaning birinchi qismi, ikkinchi guruhga

[5] Gafforova T. va boshqalar. “Ta`limning ilg`or texnologiyalari” Qarshi, Nasaf 2003.

[6] Lozanov G. Suggestopedia – desuggestive teaching. – Vienna, 2005. – P. 23

[7] Aronson E. The Jigsaw Classroom. – California: Sage view Edition, 2008. – P. 197

hikoyaning ikkinchi qismi beriladi. Talabalar o‘zlariga berilgan hikoyaning qismini o‘qib yaxshilab eslab qolishlari kerak bo‘ladi. So‘ng har bir talabaga narigi guruhdan juftliklar tanlanadi. Har bir juftlik bir biriga o‘qigan hikoyasini so‘zlab beradi. Ish yakunida har bir juftlikda to‘liq hikoya paydo bo‘ladi. Talabalar hikoyani eslab qolishlari uchun ayrim qaydlarni amalga oshirishlari mumkin. O‘yin so‘ngida mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob qo‘llash ham mumkin. Matn ustida ishlashning bu turini boshqacha ko‘rinishda ham tashkil qilish mumkin. Birinchi guruh talabalariga matn undagi so‘z yoki jumlalar o‘chirilgan holda beriladi. Ikkinchi guruh a’zolariga butunlay boshqa so‘z va jumlalar o‘chirilgan holda beriladi. Har ikki guruh a’zolari savol berish yo‘li bilan o‘z matnini to‘ldirib olishi kerak.

“Socratic seminar”[8] ushbu metod mashhur faylasuf Suqrotning behisob savollar berish yordamida ta’lim berish usuliga asoslangan. O‘qituvchi talabalarga kerakli mavzu yoritilgan matn va tayyorlanish uchun vaqt beradi. O‘qituvchi ketma-ket savollar berish natijasida talabalarning mavzuni qay darajada tushunganligini bilib oladi.

“Philosophical chair”[9] metodi debatga o‘xshaydi. Talabalarga asosiy mavzu va savollar beriladi. Ular bildirilgan fikrga qo‘shilishlari, norozi bo‘lishlari yoki betaraf qolishlari mumkin. Bu metod talabalarning bir birlari bilan jonli munozara o‘tkazishga birbirlaridan yangi narsalar o‘rganishlariga asoslangan. Har bir talaba markazda joylashgan stulda o‘tirib navbatma-navbat o‘z fikrlarini bildiradi. Keyin bahs-munozara boshlanadi.

Yuqorida keltirilgan jahon miqyosida til ta’limida qo‘llaniladigan ta’limiy resurslar va metodlardir. Ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy qilinishi ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-sentyabr kuni O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga yo‘llagan tabrigi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-ituvchddddi-va-murabbiylariga-29-09-2017

2. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. Pedagogika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

3. Jalolov J. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 1996 y.

4. Gafforova T. va boshqalar. “Ta’limning ilg‘or texnologiyalari” Qarshi, Nasaf 2003.

[8] Moeller M., Moeller V. Socratic Seminars and Literature Circles. – New York, 2001. – P. 208.

[9] Matthew C. H. Philosophical Methodology: The Armchair or the Laboratory? – New York, 2013. – P. 480

Shaxlo MUSURMONOVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TABIATSHUNOSLIKNI O‘QITISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada inson uchun xavfsiz atrof-muhitni ta’minlash bugungi kunga kelib dolzarb muommolardan biriga aylanganligi, tabiiy zaxiralarning tez kamayib ketishi, yashil o‘rmonlar siyraklashib o‘simlik va hayvonot turlarining kamayishi, foydali qazilmalar tugab suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarninig ortib borishi keng va batafsil yoritilgan. Bu masalalarni ta’lim tizimida yoritishda integrativ yondashuv asosida tabiatshunoslikni o‘qitishning tarbiyaviy ahamiyati muhim ahamiyatga egaligi yuzasidan fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Tabiatshunoslik, atrof-muhit, integratsiya, inson, jamiyat, boshlang‘ich ta’lim, milliy qadriyat, ta’lim-tarbiya, ekologik xavfsizlik, ekologik madaniyat, vatanparvarlik.

В статье подробно описывается обеспечение безопасной окружающей среды для людей, быстрое истощение природных ресурсов, истощение зеленых лесов, истощение видов растений и животных, истощение минеральных ресурсов, загрязнение водоемов и атмосферы, а также увеличение выбросов. В статье представлены мнения и комментарии по обучению естественным наукам, основанная на комплексном подходе, важна для освещения этой проблемы в системе образования.

Ключевые слова. Естественные науки, окружающая среда, интеграция, человек, общество, начальное образование, национальные ценности, образование, экологическая безопасность, экологическая культура, патриотизм.

Ensuring a safe environment for people has become one of the most pressing problems today. Challenges include rapid depletion of natural resources, depletion of green forests, depletion of plant and animal species, depletion of mineral resources, pollution of water bodies and the atmosphere, and increased emissions. The educational value of science education, based on an integrated approach, is important for highlighting this issue in the education system. The article provides opinions and comments on this issue.

Key words. Natural sciences, environment, integration, people, society, primary education, national values, education, environmental safety, environmental culture, patriotism.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim muassalarida ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda olimlar, pedagoglar diqqatini fanlararo aloqadorlik masalalariga qaratish talab qilinmoqda. Buning sababi shuki, fan-texnikaning jadal rivojlanishi o‘quvchilarda yuksak ma’naviyat, erkin fikrlash, g‘oyaviy-siyosiy yetuklik, ilmiy dunyoqarashga asoslangan e’tiqodni shakllantirishni dolzarb muammoga aylantirdi. O‘quvchilarda bu sifatlarni shakllantirishda fanlararo aloqadorlik katta imkoniyatlarga ega.Darhaqiqat, maktab ta’limidagi tabiiy fanlar o‘quvchilarga dunyoning hozirgi ilmiy manzarasini ochib beradi. Shu bois tabiat haqidagi fanlar o‘quvchi dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tashkil etadi. Fanlararo aloqadorlik o‘quvchilarning umumlashgan ilmiy tushunchala-

rini shakllantirishga yunaltirilgan bo‘lishi lozim. Bilimlar integratsiyasi ta’limga o‘zgacha yondashishni taqozo qiladi. Chunonchi, o‘quv materialini umumlashgan tizimda bayon qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida muammoli, modulli, shaxsga yo‘nalgan texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunga kelib ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan muommolardan biriga aylandi. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizninig qiyofasi o‘zgarib bormoqda. Yashil o‘rmonlar siyraklashib, o‘simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilmalar tugab, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarninig ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash, energiya, chuchuk suv muommolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda million-million yillar davomida turg‘un bo‘lgan tabiiy holatga putur yetmoqda.

Atrof-muhitni ifloslanishlardan muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ona yer, suv, havoni musaffo saqlash har bir insonning, jumladan, maktab o‘quvchilarining ham muqaddas burchi va oldida turgan muhim muommolardan biri hisoblanadi. Ekologik muommolarni to‘g‘ri hal qilish inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish, atrof-muhitni sog‘lomlashtirish zarurligini taqazo etadi. Buning uchun aholining barcha qatlamlarida, ayniqsa o‘quvchi-yoshlar orasida ekologik savodxonlik va ekologik madaniyatni shakllantirishimiz lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Tarbiya ishlarida integrativ yondashuv, ya’ni hamkorlikda va manzilli yondashuv qaror toptirilmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda davlat va jamoat tashkilotlari, avvalo O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, tizimli ish olib borish zarurligi ustuvor vazifasida belgilanadi”.[1]

Integrativ ta’limda – fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonlarida foydalanilayotgan usul, uslub va shakllar o‘zining turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi” loyihasi ishlab chiqildi.[2]

Konsepsiyaning asosiy maqsadi – o‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg‘or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ekologik ta’lim quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

– boshlang‘ich ta’lim (I – IV sinflar);

– umumiy o‘rta ta’lim (V – XI sinflar).

Boshlang‘ich ta’limda ekologik ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar o‘quv fanlari doirasida qo‘shimcha ravishda:

[1] Mirziyoev Sh.M. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. –T., 2017. 26-27 b

[2] O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. –T., 2019. 6-7 b.

- suvni tejash va asrash;
- atmosfera havosining ahamiyati va uni muhofaza qilish;
- yer resurslari va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish;
- o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish;
- chiqindilarni yig‘ish va joylashtirish;
- O‘zbekistonning go‘zal va takrorlanmas tabiatini asrash;
- o‘zi yashaydigan qishloq (shahar) tabiatini asrashda faol ishtirok etish;
- O‘zbekistondagi qo‘riqxonalar va tabiat bog‘lari to‘g‘risida;

Biz pedogoglarimiz oldimizga qo‘ygan eng muhim masala O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konseptsiyasi”da belgilangan vazifalarni uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirishdan iborat.

O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi kompleks holda umumiy tarbiya bilan borliq tarzda amalga oshirilmog‘i lozim. Ekologik tarbiyaning kompleksligi g‘oyaviy-siyosiy, mehnat, estetik hamda jismoniy tarbiyaning uyg‘unlashtirilishidan iboratdir, bu shaxsning har taraflama ravnaq topishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinfdagi ekologik tarbiya vatanparvarlik xislarini rivojlantiradi, chunki Vatan – jonajon o‘lka, uning tabiati, xo‘jaligi odamlar turmushi orqali bilib olinadi, idrok qilinadi. Chunki tabiatga muhabbatni rivojlantirish vatanparvarlik tarbiyasida eng muhim omil hisoblanadi.

Bugun, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e’tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik madaniyat degan tushunchaning mag‘zini, afsuski, barcha birdek anglab yetayotgani yo‘q. Ba’zan ko‘cha-ko‘yda to‘planib qolgan chiqindi uyumlarini, tamaki tutatib, qoldig‘ini oyog‘i ostida ezib, bemalol ketayotgan kishilarni, ariq suviga mag‘zava ag‘darayotgan opa-singillarimizni, daraxt shoxlarini bemalol sindirayotgan bolalarni, pista chaqib xiyobon va ko‘chalarni ifloslantirayotganlarni, xazon yoqayotganlarni ko‘rib, buning bizga hech daxli yo‘qdek e’tiborsiz o‘tib ketaveramiz. Afsuski, bularning barchasi, oqibatda, o‘z sog‘ligimizga ziyon yetkazishini, umrimizni qisqartirayotganini ba’zida unutib qo‘yamiz. Bunday noxush holatlarning asosiy sababi, ayrim yurtdoshlarimizning tabiat qonunlarini chuqur bilmasligi, ekologik bilim va tarbiya saviyasining past darajada ekanligi va eng asosiysi, bizning atrofimizda bo‘layotgan voqealarga befarqligimizdadir. Eng asosiysi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarmizni tabiat boyliklaridan unumli foydalana oladigan, atrof-muhit muhofazasini ongli ravishda hal eta oladigan, tabiat ne’matlariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashimiz zarur. Toki ular kelajakda atrof muhitni muhofaza qila oladigan va tabiatdan atrof muhitga zarar keltirmagan holda foydalana oladigan bo‘lib voyaga yetishsin. Ta’lim tizimida islohotlar o‘tkazish va pedagoglarni zamon talablariga javob beradigan qilib tayyorlash masalalari, xalqimizning, ajdodlarimizning tabiatga bo‘lgan munosabatlari, ijod va bunyodkorlik ishlarini, mutafakkirlarning ijodini yaxshi o‘rganish va yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda ularning xizmatlarini o‘rganish eng dolzarb tarbiya vositasi hisoblanadi.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida tabiatshunoslik darslarida fanning mazmuni va o‘rganish metodlari bo‘yicha milliy qadriyatlarni tarbiyalash, jonli va jonsiz tabiatni sevish, ardoqlashga o‘rgatish – muhim vazifa. Kelajak avlodlarning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirish mustaqillik poydevorini mustahkamlashga yordam beradigan

vorislarni tarbiyalash lozim.

– tabiat in'om etgan barcha narsalarni avaylash, ko'paytirish hissini tarbiyalash;

– tabiatning paydo bo'lishi va o'zgarib turishini fan tilida tushuntirish;

– tafakkuming mustaqilligi va bilimga qiziqishni rivojlantirish, busiz bilimning ongli bo'lishi hamda ishonch va dunyoqarashni shakllahtirish mumkin emas;

– yashab turgan o'lka, mahalla, maktab atrofidagi o'simliklarnii, hayvonlarni, jonsiz tabiatni avaylab-asrashda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish;

– nazariya bilan amaliyotni birga olib borish, o'quvchini kasbga tayyorlash.

– o'quvchilarda mehnat madaniyati va ko'nikmasini kelajakda mustaqil ravishda qo'llay olish.

– tabiat bilan munosabatda bo'lish ta'sirida go'zallikni his qila olish tuyg'usini, shunga bog'liq holda Vatanga muhabbatni uyg'otish ko'nikma va malakalarini tarbiyalash.

Tarbiya rejali ravishda, muayyan tizimda, bilish faoliyatiga bog'liq holda, o'quv materialining mazmuni va uning didaktik faoliyatlar bilan yoritilishiga, o'qitishning metod va shakllariga qarab amalga oshiriladi. Bunday tarbiyaga butun pedagogik faoliyatning maqsadga yo'nalganligi bilan erishiladi. O'qituvchi tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida har tomonlama tarbiyaning imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin.

Maktabda tabiat muhofazasi ta'limining samaradorligi o'qitishni o'qituvchi tomonidan tabiat muhofazasining har xil tomonlari bo'yicha sinfdan tashqari ishlar bilan mohirona uyg'unlashtirilgandagina behad ortadi. Yashil patrullar otryadi, tabiatshunoslik to'garaklari, yosh tabiat do'stlarining klublari, maktabdagi tabiat burchagi kabilar tabiat muhofazasi tarbiyasini tashkil qilish shakllari sifatida uzini yaxshi oqladi.[3]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda mustahkamlash maqsadida turli ertaliklar, kechalar, bellashuvlar o'tkazishni maqsadga muvofiq deb bildik. Buning uchun, avvalo, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, bayram-u sayllar va urf-odatlari haqida bolalarda tushuncha hosil qilish, vatan haqidagi she'rlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlari chizgan vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarni tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'riladi. Milliy bayramlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatan, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur va iftixor hissini shakllantiradi.

Bu kabi tarbiyaviy ishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi, darsda olgan bilimlari mustahkamlanadi, ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlarida yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Bularning barchasi ekologik tarbiyaning ko'rinishlari bo'lib, ekologik an'analar hisoblanadi.

Tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovati ramzi bo'lgan go'zal "Navro'z" bayrami tarovatini o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga yetkazish, ular qalbida qadimiy va mo'tabar an'analarimizga nisbatan mehr-muhabbat, tabiatga yaqinlik va uni e'zozlash hislatlarini ular ongiga singdirish muhimdir. Bular o'z navbatida barchamizda, hozirgi kunda aholi o'rtasida iymon-e'tiqod, axloq-odob, savob va gunohning mohiyatini tushuntirib berish, tug'ilib o'sgan o'z ona zaminini e'zozlash, vatanparvarlik va

[3] Григорьянц А.Г. Табиатшуносликни ўқитиш. – Т.: Ўзбекистон, 1992. b.27.

insonparvarlik kabi tuyg‘ularni, tejamkorlik, sarishtalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni qaror toptiradi.

Ekologik muammolarni hal etish uchun uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarning ekologik madaniyati va dunyoqarashini shakllantirish zarur. Yurtimiz go‘zalligi, tozaligi va obodligiga o‘z hissamizni qo‘shish – bizning maqsadimizdir. Shundan kelib chiqib barchamizda ekologik madaniyat va dunyoqarashni tarkib toptirish o‘ta muhim vazifadir. Aslini olganda, bu vazifalar har birimizning yuksak insoniylik va ma’naviy burchimiz ekanligini anglab yetmog‘imiz, tabiat, uning resurslarini asrab-avaylashga hamda ulardan oqilona foydalanishni hayotiy ko‘nikmamizga aylantirishimiz lozim.

Navro‘z o‘ziga xos betakror bir olam bo‘lib, inson zotini tabiat bilan doimo uyg‘un va hamohang bo‘lib yashashga da’vat etadigan o‘zaro mehr-oqibat, qadr-qimmat, xayr-u saxovat ramzi va belgisidir. Ayni Navro‘z faslida barchamiz o‘zimizning tabiat farzandi ekanimizni, xalqimizga xosmilliy qadriyat va an’analar nechog‘li teran va sermazmun, madaniyatimiz naqadarboy ekanini butun qalbimiz bilan anglaymiz va beixtiyor yuragimiz g‘urur va iftixorga to‘ladi. Axir bolalar o‘sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi va mamlakatimiz taqdiri ularga bog‘liq. Tabiatga mehr, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kerakligini singdirish har birimizning burchimiz.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tarbiya berish natijasida, tabiat, uning komponentlari, haqidagi ilmiy-amaliy bilimga ega bo‘lishadi, umuminsoniy ekologik dunyoqarashlari shakllanadi, tabiat ne’matlari zaxirasini asrab-avaylash va ulardan oqilona foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi, integratsiyalashgan darslar asosida o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda olamni yagona bir butunlikda ekanligi, tabiatdagi mavjud o‘zgarishlar bir-biri bilan bog‘liqlikda ekanligi haqida ta’limotga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. –T., 2017. 26-27 b

2. Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o‘qitish. – T.: O‘zbekiston, 1992. b.27.

3. O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2019. 6-7 b.

Ne’matjon MANSUROV,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

TA’LIMDA ZAMONAVIY TASVIRIY SANATNI O‘QITISH VA UNI IDROK ETISHNING METODIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada milliy tasviriy san’atning rivojlanishi, ma’naviy va ma’rifiy jihatdan yangi ijodiy izlanishlarni kengayishi, jahonning ilg‘or san’at uslublariga taqlid qilmagan holda o‘zbek san’ati uslubining taraqqiy topishi bilan tasviriy san’at fani rivojiga katta hissa qo‘shayotganligi haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Dizayn ta’limi, ijtimoiy faoliyat, badiiy san’at, ijodkorlik, estetik va badiiy faoliyat, dizaynerlik malakalari.

В статье рассматриваются вопросы развития национального изобразительного искусства, развитию духовности и просветительства, расширению новых путей творческих поисков, не подражающих мировому авангарду, воплощение в искусство узбекской модели развития предмета изобразительной деятельности.

Ключевые слова. Дизайнерское образование, социальная деятельность, художественное исскуство, творчество, эстетическое и художетвенная деятельность, дизайнерская квалификация.

The paper considers the problems of the development of national fine arts, the authors examines, development end formation of spirituality and enlightwent to expanding new views of creative researches, not imitating to the world avangarde and realisation of the Uzbek model of development of fine arts into life.

Key words. Design education, social activity, art, creativity, aesthetic and artistic activities, design skills.

Ma’lumki, har bir millatning taraqqiyoti uning madaniyati va san’ati darajasi bilan belgilanadi. O‘z navbatida, davlatning madaniyat va san’atga bo‘lgan munosabati jamiyatning rivojlanish darajasini aniqlaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan tarixiy damlarda o‘z davri va tomoshabini bilan jonli, millat hayotining muhim bo‘g‘inlari, ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohasida kechayotgan islohotlar jarayonini, mavjud muammolarni mo‘ljalga ola bilish imkoniyati ilm-fan va san’atni ijtimoiy hayotning oldingi qatoriga ko‘tarib chiqara boshladi.

“Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo‘lib qolmay, balki o‘zida inson aql-zakovati, hayot to‘g‘risidagi fikr-o‘ylarini aks ettiruvchi ko‘zgu hamdir. Jahon san’ati tarixini o‘rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o‘tmish odamlarning his-tuyg‘u, hayotiy tajribalarini o‘zlashtirish g‘oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir”.[1]

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 16.08.2017 y. PQ-3219.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 190-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9-sinflari uchun tasviriy san’at fani bo‘yicha yillik o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur rejada belgilangan mavzular va ularning maqsad-mazmuni albatta, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san’at namunalaridan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat qaratilgan.

Shu ma’noda bugungi kunda tasviriy san’at fanini o‘qitish, kasbiy o‘rganish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, qolaversa, iqtidorli yoshlarni har tamonlama o‘z malaka bilimlarini keng ilmiy-badiiy tilda bayon eta olish, o‘z ijod namunasining mazmun-mohiyatini to‘la tahlil qila olish darajasi borasida o‘ziga xos muammolar borligi sir emas.

Yana bir masala, butun dunyo davlatlari shiddat bilan rivojlanish, taraqqiyot sari odimlab borayotgan davrda, aynan ilm-ma’rifatli, salohiyatli, o‘z kasbi va mutaxassisligining nazariy-amaliy bilimlari bilan birgalikda ijodiy asar va yutuqlarini hayotda ilg‘or tajribalar, xalqaro innovatsion ko‘rgazmalarda yuksak darajada namoyish eta oladigan yetuk kadrlarga bo‘lgan talabni inobatga olib, ta’limda kasbiy-ijodiy fanlarga undagi mavzularga ajratilgan vaqt me’yorlari qay darajada yetarli yoki sermahsul va to‘la o‘zlashtiriladi deya olamiz?

Yuqoridagi muammoga e’tibor berib o‘rta ta’lim maktablarida alohida iqtidor va malakalarni o‘rgatuvchi, hamda kasbiy-ijodiy bilimlarni rivojlantiruvchi tasviriy san’at fanidan o‘qitiladigan aksariyat mavzularga bir soatdan ajratilgan bo‘lib, bu qisqa vaqtda berilgan mavzuni to‘laqonli ochib berish va o‘zlashtirish uchun yetarlimi degan savol tug‘ilishi tayin. O‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quvchi har bir mavzuni amaliy bajaribgina qolmay, uni ishlashdan maqsad, mazmun-mohiyati va provard natija, uning jamiyatga tegadigan foydasi, hamda badiiy qiymatini ochib berish, ya’ni badiiy tahlil qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur deb o‘ylayman.

“Qaysi millat o‘z bolalariga rasm ishlashni xuddi xat-savodni, o‘qish va hisob-kitobni o‘rgangandek qunt bilan o‘rgatsa, bu millat fan, san’at va hunarmandchilikda boshqa xalqlardan o‘zib ketadi” degan edi Deni Didro.

Yuqoridagi fikrda bayon etilganidek, millatimiz tarixida jahonga mashhur ilm-fan va san’at maktablariga tamal toshini qo‘ygan buyuk allomalarimiz asarlari umumjahon taraqqiyotiga xali xanuz xizmat qilib kelmoqda.

Bilamizki, tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha kompozitsiya o‘rgatiladi. Turli mavzularda kompozitsiyalar o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar tomonidan rassomlarning asarlarini badiiy tahlil qilinadi. Shu o‘rinda asarni tahlil qilib berish orqali mantiqiy mazmunini tushuntirib berish kerak bo‘ladi.

1-misol, oddiy uch predmetdan tashkil topgan natyurmortni chizish, bo‘yash kabi amaliy tajribalar o‘rgatiladi. Chizishdan avval kompozitsiyani simmetriya, asimmetriya, ufq chizig‘i, muvozanat, harakat, uyg‘unlik, rang, kolorit kabi mezonlar tushuntirib beriladi. Shulardan keyin natyurmotni badiiy tahlil qilishga o‘tiladi. Tahlil qilish jarayonida natyurmortni mazmunini bilish va g‘oyasi tushuntiriladi. Natyurmort asosan uch predmetdan tashkil topgan. Guldon, gul va olma. Ularni ramziy ma’no-larini aniqlaymiz. Ko‘zada suv bo‘ladi, ya’ni suv – hayotni bildiradi, guldasta ya’ni gul – guzallikni bildiradi. Olma esa muxabbatni bildiradi.

Natyurmortning mantiqiy yechimi. Demak, tasvirlangan narsalarning ramziy ma’nolari: ko‘za – hayot, gul – go‘zallik, olma – muhabbat ma’nosini bermoqda. Agar

biz uch so‘zni birga o‘qib chiqsak natyurmortdagi g‘oya chiqadi. Demak, bu “Hayotimizda go‘zallikka bo‘lgan muhabbat hech qachon so‘nmasin” degan falsafiy g‘oyani anglatadi. Oddiy natyurmort kompozitsiyasi yoshlarimizning ma’naviy muhabbatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Fikrlash orqali natyurmortni taxlil va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish va xulosa qilish singari xayoliy harakatlar amalga oshiriladi.

San’at asarlarining badiiy tahlili orqali o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish ularni tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish xulosalashlarning ma’nolarini anglab olishlariga kerak bo‘ladi.

Fikrlash – dars davomida amalga oshiriladi, fikrlash davomida ta’lim oluvchilar o‘zlari duch kelgan fikrlarga va o‘zlari o‘zlashtirgan ma’nolarga qaytadilar va savollar beradilar, talqin va tahlil qiladilar, qo‘llaydilar, munozara yuritadilar va ushbu ma’noni qo‘llashning yangi sohalariga qadar kengaytiradilar.[2]

Shakllantirish – rivojlanib yetilmoq, aniq mazmun yoki yo‘nalish kasb etmoq.

Tahlil (analiz) – manbaani, muammoni, natijani ilmiy o‘rganish uslubi. Bunda tadqiqot obyekt fikran yoki ehtimoliy ravishda tarkibiy qismlarga ajratiladi yoki obyektga mos belgilar va ko‘rsatkichlar hamda ularning aloqadorligi o‘rganiladi.

Tahlil metodi – bunga quyidagi komponentlar kiradi:


– ma’lumotlarni axborot ko‘rinishiga keltira bilish;

– axborotlarni anglab idrok etish;

– ma’lum va noma’lumlarning muhim belgi va munosabatlarini ajrata bilish;

– elementlarga ajratish va boshlang‘ich strukturali birlikni topish;

– aloqalarni anglash (elementlar yoki tashkil etuvchilar orasidagi) va tushuntirish xamda sintez qila bilish.



Sintez – (yunon synthesis qo‘shish, birlashtirish) sintez, fikr obyekti hisoblangan narsa va hodisalarning tarkibiy qismlari, sifat hamda xususiyatlarini fikran yoki amaliy ravishda bir butun qilib qo‘shishdan iborat bo‘lgan aqliy operatsiya. Masalan, narsa va hodisalarning muhim belgilari qo‘shilishidan yaxlit bir tushuncha hosil bo‘ladi. Sintez tafakkur hamda xayolning ijodiy faoliyatini tashkil qiladi. Sintez bevosita analiz bilan umumlashtirish, taqqoslash, sistemalashtirish kabi aqliy operatsiyalar bilan bog‘liqdir.[3]

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda mavzuga xos quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

[2] Xasanboev J., Turakulov X va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.: «Fan va texnologiya», 2009, 540-bet.

[3] Turg‘unov K. Ruscha – o‘zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug‘ati. T.: «Ukituvchi», 1975. 165 bet.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur kompetensiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

2-misol. Tasdiqlangan rejaga muvofiq umumta’lim 7-sinf o‘quvchilari uchun “**Tasviriy san’atdagi oqim va yo‘nalishlarda tur va janrlar**” mavzusi berilgan bo‘lib, ajratilgan uch soatda Tasviriy san’at janrlari haqida umumiy ma’lumot berish hamda asarlarni badiiy idrok qilish masalalarini qamrab olish nazarda tutilgan.

Quyida berilgan mavzu asosida badiiy ta’lim, ko‘rgazma ishlarini takomillashtirish va badiiy merosni hamda zamonaviy san’atni targ‘ib qilish istiqbolini ta’minlashga yo‘naltirilgan akademik ustoz rassomlar bir necha ijodiy ishlarini ko‘rib chiqamiz. Albatta, qisqa muddat mobaynida berilgan mavzuni keng, to‘laqonli va talab etiladigan bilimlar darajasida o‘zlashtirish mumkin emas. Zotan, milliy san’at va madaniyatimizning asarlarini o‘rganish, tinimsiz mehnat, bilim, sabr-qanoat, qunt, ijodiy izlanish va albatta, tashabbuskorlik bilan kreativ yondashuv lozim.

Mustaqillik sharofati bilan tasviriy san'atdagi badiiy uslubiy jarayon yangi ko‘rinishlarga ega bo‘ldi va boyidi. Umuman olganda, O‘zbekistonning milliy san’ati, jahonning istalgan hududidagi davlatlar san’ati orasida mahalliy ham, avangard ham bo‘lmagan holda namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 16.08.2017 y. PQ-3219.

2. Bulatov S.S, Soipova.M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. –T.: Fan va texnologiya, 2016. 11-13 bet.

4. Oydinov N. Tasviriy san’at tarixi. –T., 1997.

5. Gilmanova N.V. Rang-tasvirda yorug‘lik va rang. –T., 2012.

6. “Искусство”. Часть-2, Москва, Просвещения, 1988, 260-b.

7. Xasanboev J., Turakulov X va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T.: Fan va texnologiya, 2009, 540-bet.

Dilafruz GAYBIYEVA,
Toshkent viloyati Chinoz tumani
6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘qituvchisi

MULOQOTDA EVFEMIZMLARNI ISHLATISHNI O‘QITISH MUAMMOSIGA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada evfemizmlarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi hamda uning tasnifi masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif evfemistik iboralardagi har xil ko‘rinishlari va turlarini keng ishlatilishini aytib o‘tgan.
Kalit so‘zlar: Evfemizm, evfemistik iboralar, ko‘rinish, ritorika, adabiy san’at, asar, termin.

Статья посвящена изучению эвфемизмов, а также рассмотрению классификации эвфемизмов в узбекском языкознании.

The article describes the study of euphemisms in Uzbek linguistics and its problems. The author also points out that various euphemistic forms and types are widely used.
Keywords: euphemism, euphemistic phrases, appearance, rhetoric, literary art, term.

O‘zbek tili va uning qonuniyatlarini mukammal o‘rganish uchu berilayotgan e’tibor bir qadar yuksalgandek. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi, ona tilimiz, uning boy tarix, so‘z uslubiyati necha asrkim o‘z jozibasi va latofatini ajdodlarimiz yaratgan ilmiy va badiiy asarlar talqinida o‘z ifodasini topmoqda. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Inson muomalaga kirishar ekan uning nutqi u yashagan jamiyat, qatlam, zamon haqida ma’lumot beradi. Mavjud jarayon insonning ongida shakllanib, nutqida ifodasini topadi. Tilimizda ahamiyatli bo‘lgan shunday xususiyatlar borki, ular ifodalanish jarayonida ma’lum ma’noda o‘ziga xoslik kasb etadi. Bunday so‘zlarimiz evfimizmlar deb ataladi. Evfemizm (yunoncha euphemia – yumshoq ifodalash) – so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar.

Sharq madaniyatida mulozamat bilan so‘zlash lutf belgisidir. Albatta evfemizmning vujudga kelishi tabuga bog‘liqdir. Turk olimi Oyarkılıçgıl Ateş tabuga quyidagicha ta’rif bergan: “Bir jamiyatda qaysi bir harakat tabu hisoblansa, ushbu harakatni ifoda etishimiz uchun qo‘llaydigan so‘zimiz ham tabu hisoblanadi. Ushbu harakatni taqiqlagan tabu, uning to‘g`ridan-to‘g‘ri ifoda etilishida ham taqiqlar keltirib chiqaradi”. Evfemizmga turkchada ritorika va adabiy san`atlar bilan bog`liq asarlarda “edebi kelam” termini ham ishlatiladi. “To‘g‘ridan-to‘g`ri aytilishi noxush bo‘lgan tushunchalarning go‘zal, adabiy shaklda ifoda etilishi edebi kelamdir”. Edebi kelam adabiy kinoya san’atining turi hisoblanib, majoziy ma’noda so‘zlarni chiroyli qo‘llash demakdir.

G‘arb olimlari qo‘llaydigan “euphemism” termini turkchada “öfemizm” ko‘rinishida

qo‘llaniladi. Evfemizmlar qaysi maqsadda qo‘llanilishiga ko‘ra turlarga bo‘lingan. Tijorat va siyosiy sohada uchraydigan, aldash, ko‘zbo‘yamachilik maqsadida qo‘llanadigan yolg‘on va noto‘gri nomlar, evfemizmlardir. O‘zbek tilida qo‘llaniladigan evfemizmlarning paydo bo‘lishi ularning mohiyati va ma’nolarini keng ko‘lamli tadqiq qilib ko‘rsatilgan ishlar juda kamdir. Evfemizmlarning vujuda kelishini chuqur o‘rgangan g`arb tilshunoslari bu so‘z yoki so‘zlarni shakl va ma’nosiga ko‘ra tasniflaganlar. Shakliga ko‘ra: birlashtirma, vujudga kelish, aks etuvchi so‘z, qisqartma, o‘chirish, teskari argo kabi guruhlarga bo‘lingan. Evfemizmlar ma’nosiga ko‘ra: zid ma’no, majoziy, o‘xshatish, imo-ishora, kinoya, mubolag'a kabi tasniflar qilingan. Odil Ahmedov “Turkiy tillardagi tabu va evfemizmlar” nomli asarida evfemizmlarning yasalish usullari; “evfemistik metaforalar, evfemiztik majoz, ironiya, olmoshlardan yasalgan evfemizmlar, evfemizmni shakllantiruvchi boshqa ta`sirlar deformatsiya, 3 nuqta, olingan so‘zlar, hurmat ma’nosini ifodalovchi evfemizmlar tahlil etilgan. Evfemizmlarning o‘ziga xos xususiyati ularning doimiy o‘zgarib turishidir. Evfemizm sifatida tilda qo‘llaniluvchi evfemik so‘zlar keyinchalik bu xususiyatini yo‘qotib o‘z ma`nosida qo‘llanila boshlaydi va yangi evfemik so‘zni shakllanishiga ehtiyoj tug`iladi.

Evfemizmlarning doimiy o‘zgarib turishi, tilning lug`at boyligini boyitadi, mavjud so‘zlarga yangi ma’no yuklagani tufayli tilda ma`nodosh so‘zlarning vujudga kelishini va so‘zlarning “polisemantik” xususiyatiga ega bo‘lishini ta`minlaydi. Butun dunyo tillarida qabul qilingan “evfemizm” termini (nemischa euphemismus, fransuzcha euphemisme, inglizcha euphemism) yunoncha “eupheme”(yaxshi, xosiyatli so‘z) o‘zagidan paydo bo‘lgan. So`zlovchi mavzu yoki muhitdan kelib chiqib u yoki bu narsaga odob yoki beodoblik, qo‘pol yoki muloyimlik nuqtayi nazari bilan baho berishi mumkin.

B.A.Larin: “Evfemizmlar muvaqqat. Uning ishlatilishi uchun nutqiy vaziyat kerak, ya’ni dag‘al so‘zlar ekvivalenti mavjud bo`lishi kerak. Ishlatilishi noqulay bo`lgan so‘zlar iste’moldan chiqishi bilan evfemizmlar ham o‘z qiymatini yo`qotib, oddiy leksema sifatida voqealanadi”, – deb ta’kidlab o‘tgan. A.M.Kasev evfimizmlarni mavzularga ajratadi:

1. Ilohiy kuchlar.
2. O‘lim va kasallikni anglatuvchi birliklar.
3. Nuqson bilan bog‘liq nomlar.
4. Jins bilan bog‘liq nomlar.
5. Kambag‘allik bilan bog‘liq nomlar.
6. Ayrim kasblarni anglatuvchi nomlar.
7. Aqliy va jismoniy nuqson nomlari.
8. Kiyim qismlari nomlari.

A.S.Kurkiyev evfemizmlarni 5 ta guruhga ajratadi:

1) bid’at asosida paydo bo‘lgan evfemizmlar;
2) qo‘rquv va norozilik his-tuyg‘ulari oqibatida paydo bo‘lgan evfemizmlar;
3) hamdardlik va rahmdillik asosida paydo bo‘lgan evfemizmlar;
4) uyatchanlik asosida paydo bo‘lgan evfemizmlar;
5) xushmuomalalik (muloyimlik) asosida paydo bo‘lgan evfemizmlar. B.A.Larin esa evfemizmlarni 3 turga ajratadi:

1) milliy-adabiy tilning umumiste’moldagi evfemizmlari;
2) sinfiy va kasbiy evfemizmlar;
3) maishiy-turmush evfemizmlari.

L.B.Moskvin evfemizmlarning 6 vazifasini belgilab bergan:

1) qo‘rqitadigan obyektlar nomini yumshatish;

2) yoqimsiz va jirkanch obyektlar nomini yumshatish;
3) aytilishi noqulay bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini yumshatish;
4) atrofdagi predmetlarning nomlanishini etiket doirasida qo‘llanilishini ta’minlash;
5) qo‘pol so‘zning asl mohiyatini yumshatish;
6) nufuzsiz tashkilot va kasblarning nomini yumshatish.

Y.P.Senichkin esa evfemizmlarni quyidagi turlarga ajratadi:
1) evfemizm-tabuizmlar;
2) fakultativ evfemizmlar;
3) deevfemizmlar;
4) tarixiy evfemizmlar;
5) tilga oid va okkazional evfemizmlar. Olim evfemizmlarni tasniflash uchun ularga morfologik nuqtai nazardan qarash kerakligini aytib o‘tgan.

XIX-XX asrlar badiiy matnlaridagi tibbiyot sohasiga oid evfemizmlar tavsifi Y.N.Maligina tomonidan o`rganilgan. J.Vandriyes: “Evfemizm – bu man etilgan lug‘atning muloyimroq va madaniyroq formasigina, xolos”, deydi. L.A.Bulaxovskiy: “Evfemizmlar yomon fikr uyg‘otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so‘z orqali yovuz kuchlarni chaqirish “xavfi”ni tug‘dirmay turib gapirish, hammadan oldin “xavfning oldini olish” formulasidir”, deb yozadi.

XX asrga kelib nafaqat inson a’zolari bilan bog‘liq, hayvon va hasharotlar, kasallik va narsa-hodisalar nomini evfemalashtirish avj oladi. Chunki jahon urushi davrida odam savdosi, yetimlik, fohishabozlik rivoj topa borgan sari evfemik birliklar ham ko‘payib ketadi. Uning ma’noviy xususiyatlari zamon va makonda, inson xatti-harakati va holati bilan bog‘liq holda tomir yoza boshladi.

Bundan tashqari evfemizmlarda frazeologik xususiyatning mavjud. O‘zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan biri, milliy mentalitetga xos bo‘lgan evfemizmlardir. Ular ko‘pincha badiiy adabiyotda ko‘p uchraydi. Bu esa yozuvchidan katta mahorat talab etadi. Shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘zining nasriy asarlarida evfemizmlardan ustamonlik bilan foydala olgan. Uning “Boburnoma” asaridagi evfemizmlarni uchga ajratish mumkin. O‘zbek tili turli evfemistik iboralarga boy bo‘lib, muomalada ularning har xil ko‘rinishlari keng ishlatiladi.

Ba’zi evfemizmlar bir asosiy tushunchani ifodalasa-da, lekin ular o‘zlariga xos ma’no nozikliklari va kishilarning bir xil tushunchaga turlicha munosabatda bo‘lishlarini ko‘rsatishi jihatidan farqlanib turadi.

Evfemizmlar o‘ziga xos funksiyalarni sotsial jargonlarda bajaradi. Ular orasida muhimi – mohiyatni niqoblash, ba’zida hazil, o‘yin, tajnis elementlari bilan. Masalan, qamoqxona to‘g`risida – “akademiya”, “kurort”, “dacha”, qo‘l kishanlari to‘g`risida “braslet”, o‘g‘irlamoq to‘g‘risida “yuvib ketmoq”, “tozalab ketmoq”, murda haqida “ko‘z yumgan”, giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchilar haqida “chopar”, shprits orqali qabul qilinadigan giyohvand moddalar haqida “sanchiq”, giyohvand moddalar haqida “ko‘kat” (giyohvandlar jargonida).

Evfemizm – qo‘pol yoki dag`al so‘z va iboralarni nisbatan yumshoq ifoda etadi. Evfemizm har xil noto‘g‘ri tushunchalar, irim-sirim, diniy e’tiqodlarni bekitishda o‘rab turgan dunyo hodisalari, aniq bir belgilangan narsalarni nomi bilan bekitishda leksik taqiqlarni natijasini, nima oqibatida inson kinoyali iboralarini qo‘llashini bildiradi. Boshqacha aytganda; aytish uyat, eshitilishi qo‘rqinchli, xavfli, noxush deb hisoblangan, insonda yomon his-tuyg‘ular uyg‘otadigan narsa-hodisa yumshoq, muloyim, yoqimli, erkalovchi, beozor, chiroyli ma’no-mazmun ifodalovchi so‘z va iboralar (evfemizm)

almashtirib aytilgan. Masalan: chayon – gajdum, eshak, nomi yo‘q; ilon – arg‘amchi, arqon, olachilvir, qamchin, o‘rmalovchi, gazanda; biy – qurt, qoraqurt, g‘unga, qora-g‘unda, alog‘unda; ayiq – polvon, o‘rmon xo‘jayini, asalxo‘r; bo‘ri – jondor; cho‘chqa – qorakiyk; it –vafodor; qizamiq – gul, chechak; vabo – oyin; pes – oq; mohov – buzilgan; kasal–betob bo‘libdi, tobi qochgan, uchinibdi; jinni – pari, xola, momo; jinni bo‘libdi –o‘zgaribdi, aynibdi, layli bo‘libdi, mashrab bo‘libdi, to‘qson to‘qqiz bo‘lib qolibdi; o‘ldi – vafot etdi, olamdan ko‘z yumdi, qazo qildi; o‘lgan kishi – rahmatli, marhum; tug‘moqni – ko‘zi yormoq, qutilib olmoq, bo‘shab olmoq va boshqalar.

V.B.Darbakova qadimgi mo‘g'ullar tog‘lar, g‘orlar kamarlar bekorga yerdan bal-and qilib yaratilmagan. Ular yerni ushlab turuvchi ustunlar ya'ni ulug‘ joylar sifatida muqaddaslashtirganliklarini, shu tufayli uning o‘rmonlarini kesish, hayvonlarini o‘ldirish yomonlik keltiradi deb tushunganliklarini, hattoki, tog‘larni nomlari tilga olinmaganligini (agar u ko‘rinmasa shivirlab gapirilgan), ular joylashgan o‘rniga qarab: Shimoliy tog‘, Sharqiy tog‘, G‘arbiy tog‘, Janubiy tog‘; biror belgi xususiyatiga qarab: Ko‘ktov, Alatov, Oltintov, Kumushtov, Sirlitov, Balandtov, Qirlitov, Yetimtov kabi nomlar bilan, keyincha-lik shaxs nomlari bilan ataganliklarini yozgan.

Xulosa qilib aytganda, inson tafakkurining shakllanishi va so‘z boyligining oshishi tilshunoslikda o‘ziga xos tanlov jarayonini yuzaga keltiradi. Bunda evfemik birliklarining va ularning o‘rnida qullanuvchi so‘zlarning ahamiyatini oshiradi. Ifodaga ijobiy yon-dashuv suhbat jarayonida so‘zlovchining madaniyati, estetik dididan dalolat beradi. Til-shunoslikda nisbatan yangi o‘rganilayotgan mavzu bo‘lishi bilan bir qatorda, dolzarb va muhim mavzudir. Insonning ichki kechinmasi, munosabati so‘z boyligini ifodasi bilan amalga oshadi. Bu esa o‘z o‘rnida dunyoqarash va maqsad mushtarakligida namoy-on bo‘ladi. Xalqimiz qadimdan odob-axloq, hurmat-e’tibor munosabatlariga alohida ahamiyat qaratib kelgan. Ifoda uslubi suhbatdosh va maslakdoshning bir-biriga iliq munosabatini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Крисин Л.П. “Эвфемизми с современной русской речи. Руский язик консе столетия”. – М., 1996.

2. Агаян Э.А. “Ведание в язикознание” . – Эриван, 1960– с . 269

3. Турбачев О.Н. “Из истории табуистических названий...” Ашхабад.

4. Omonturdiyev A.J. “Evfemik vositalrning funksional xususiyatlari”. T. 1997 y.

Saida NIZAMOVA,
Turin politexnika universiteti
akademik litseyi p.f.f.d (PhD)

KIMYO TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITISHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Kimyo ta'limi samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish tamoyillari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kimyo fanini o'qitish, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari.

В данной статье приведены информации о принципах использования современных дидактических средств обучения для повышения эффективности преподавания химии.

Ключевые слова. Преподование химии, информационная технология,средне обшеобразова тельная школа.

There is information on the principles of using modern didactic tools of teaching to increase the effectiveness of chemistry education.

Keywords. Chemistry teaching, modern didactic means of teaching, general secondary schools.

Ta'limning uzluksizligi va amaliyotga yo'nalganligini ta'minlash, mustaqil ta'lim olish, ijodiy rivojlantirishga yo'naltirish, o'qitishning yangi formatlarini faol rivojlantirishda zamonaviy didaktik vositalarni yaratish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2019-yil 29-apreldagi" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezidentning PF-5712-son Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish alohida kasb etmoqda.

Bugungi kunda jahonda ta'limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kimyo fanidan O'ZDVlarni yaratish va qo'llash bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish davr talabiga aylandi.

Jumladan: O'ZDVlarni yaratish va qo'llash bo'yicha konseptual loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish, O'ZDV tuzilmasi bloklari mazmunini takomillashtirish, O'ZDVlaridan foydalanib, ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish; o'qitishning kompyuter vositalarini yaratish nazariyasi va texnologiyasini yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish; O'ZDVlarning ta'lim jarayoni sifatiga ta'sirini baholash metodikasini ishlab chiqish, O'ZDVlaridan foydalanishning dasturiy metodik ta'minotini yaratish kabilar va boshqa-


lar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda O‘ZDV kimyo faniga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, kimyo fani o‘qituvchilarining bu vositalarni qo‘llay bilishning psixologik-pedagogik va didaktik imkoniyatlari, metodikasi, maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa kimyo fani o‘qituvchilarini pedagogik mahoratini oshirishda O‘ZDVlarini yaratish va ularni darsda, sinfdan tashqari ishlarda qo‘llash texnologiyasini tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

Nima uchun bugungi kunda O‘ZDVlarni kimyo fanini o‘qitishga joriy etishning nazariy va uning amaliy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug‘ildi?

Birinchidan, an’anviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rish tufayli “Axborotli o‘qitish” sifatida tavsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas,balki nufuzli bilimlar manbayiga aylanib borayotganligini ta’kidlaydigan holda baholanmoqda.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqazo etmoqda,chunki O‘ZDVlarni pedagogik jarayonga tatbiq etilganda, ta’lim tizimidagi ixtiyoriy o‘zgarish emas, balki yaxlit ta’lim tizimi yoki uning ba’zi bir qismlari sifat va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan maqsadli o‘zgarish hisoblanadi.

Kimyo ta’limi samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish metodikasi modelining tuzilishi quyidagicha (1-rasm)



1-rasm. O‘qitishning zamonaviy didaktik vositasidan foydalaninish metodikasining modeli.

Insonning axborotni qabul qilishi va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish uchun: ko‘rishi, eshitishi, sezishi hamda shu bilan birga o‘zi shu jarayonda ishtirok etishi talab qilinadi. Kimyo fani aynan shunday jarayonlarni o‘z ichiga qamrab olgan, o‘rganish ancha murakkab bo‘lgan qiziqarli fanlar qatoriga kiradi. Hozirda kimyo fanini O‘ZDVlaridan foydalanish asosida o‘qitish samaradorligining oshirilishiga qaratilgan ishlar juda kam, bor bo‘lsa ham, manbaalarda o‘quv jarayonidagi imkoniyatlari yetarlicha to‘liq ochib berilmagan. Shuning uchun kimyo fanidan O‘ZDV asosida o‘qitish metodlarini takomillashtirish; o‘quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishiga ko‘ra amaliy; mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash; masalalarni yechishda muammoning yechimini topish, mantiqiy fikrlash va o‘rganish metodlarini amalga oshirish,ulardan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish davr talabiga aylanmoqda.Shu bilan birga ta’lim sifatini yaxshilashda o‘quvchilarning bilim olishni faollashtirish, ularning ijodiy qobiliyatini, mustaqil, erkin fikrlashini rivojlantirish maqsadida O‘ZDV asosida o‘qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalq ta’limi tizimida kimyo fanini o‘qitish jarayoniga nazariy, ilmiy-amaliy tadqiqotlarni, zamonaviy innovatsion, pedagogik, O‘ZDVlarni tatbiq etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni o‘rganish,taxlil qilish natijasida, kimyo ta’lim tizimiga ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etish, mazkur tizimning malaka talablari, o‘quv rejalari, dastur va uslublarni tubdan yangilash zamon talabiga aylanganini ko‘rish mumkin. Bunday muammolarni nimalarda ko‘rish mumkin:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining kimyo fanidan 8-sinf darsligidagi ayrim kamchiliklar misolida ko‘rib chiqamiz:

a). 4-§ “Kimyoviy elementlarning tabiiy oilalari” mavzusini o‘rganishda ishqoriy metallar oilasi, metal emaslar – galogenlar oilasi, inert gazlar oilasi to‘g‘risida ma’lumot berilgan, lekin lantanoidlar va aktinoidlar oilasi to‘g‘risida ma’lumot berilmagan.

b). 10-§ “Energetik pog‘onachalar” mavzusini o‘rganishda atomlarda elektronlarning holati, elektron qavatlarning tuzilishi atomlarda elektronlarning siljishi to‘g‘risida, Gund, Klechkovskiy qonunlari, Paul prinsipi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilmagan.

c). 15-§ “Kimyoviy bog‘lanish turlari” mavzusini o‘rganishda metal va vodorod bog‘lanish to‘g‘risida ma’lumot mavjud emas.

d). 24-§ “Vodorod xlorid” mavzusini o‘rganishda uzilish bo‘lgan va “Avagadro qonuni”, “Ekvivalent qonuni” mavzulari kiritilgan. Bu qonunlar faqatgina galogenlar mavzusiga taalluqli emas balki barcha gaz holdagi moddalar uchun xos bo‘lgan qonuniyatlar-ku. Bu mavzularni 1-bobdagi 1-paragrafga “Dastlabki kimyoviy tushunchalar va qonunlar” mavzusiga kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

e). 39-§ “Nitrat kislota” olinish usullari mavzusini o‘rganishda darslikda sanoatda va laboratoriyada nitrat kislota olish to‘g‘risida ma’lumot berilgan, hamda reaksiya tenglamalar bilan ifodalangan, ammo zamonaviy laboratoriya asbobining tuzilishi va uni ishlatish usuli berilmagan, vaholanki bu asbob orqali juda chiroyli rangli tajribalarni ko‘rish va amalga oshirish mumkin.

f) 5-laboratoriya ishi “Galogenlarning birikmalari eritmalaridan bir-birini siqib chiqarish”ni tajriba asosida o‘rganish uchun laboratoriya asbobi mavjud. Tajriba orqali galogenlarni bir-birovini eritmadan siqib chiqarishini rangli tajribalar orqali kuzatish mumkin. Lekin darslikda bu to‘g‘risida ma’lumot keltirilmagan.

g) Darslikda keltirilgan an’anaviy asboblardan tashqari zamonaviy asboblarning rasmlari va ulardan foydalanish usullari berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Birorta darslikda yangi jihozlarning rasmlari va ulardan foydalanish to‘g‘risida hech qanday ma’lumot keltirilmagan.

Shu va shunga o‘xshash ma’lumotlar 9-11-sinf darsliklarida ham uchraydi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanidan O‘ZDV asosida elektron, animatsiya va virtual laboratoriya ishlarini yaratish,bu usullar asosida o‘qitishning mazmuni, metodi, pedagogik shart-sharoitlaridan foydalanish bo‘yicha kompleks holda metodika ishlab chiqilmagan;

3. Kimyo fanidan elektron, animatsiya va virtual laboratoriya usullaridan foydalanib o‘qitish mazmunini belgilab beruvchi variativ dastur va darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy tavsiyanomalar yetarli emas;

4. Kimyo fanini elektron,animatsiya va virtual laboratoriya usullaridan foydalanib o‘qitishga jalb etilgan pedagogik kadrlarnining bugungi kun talabi darajasida kasbiy bilim hamda pedagogik mahorati yetarli darajada emas;

5. Kimyo fanini o‘qitishni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishda o‘qituvchilar uchun bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan va pedagog kadrlarda kasbiy bilimlarini, mahoratlarini yanada boyitish maqsadida ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro elektron aloqalar o‘rnatish talab darajasida emas.

Ko‘tarilayotgan muammoni hal etish uchun o‘z oldimizga shunday maqsad va vazifalar qo‘ydik:

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida O‘ZDV asosida kimyo fanini o‘qitish samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

– kimyo fanini o‘qitish jarayonida O‘ZDVlaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish va tahlil qilish;

– O‘ZDV asosida o‘qitish mazmuni, tamoyillari, usullari, pedagogik shart-sharoitlari, shakllari, uni kimyoni o‘qitishiga tatbiq etish yo‘llari, pedagogik jarayonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– kimyo fanini o‘qitishda O‘ZDV asosida elektron va animatsiyali dars, virtual labaratoriya usullari, sinfdan tashqari ishlarni ishlab chiqish va bu usullarni an’anaviy usullar bilan solishtirma qiyosiy tahlil qilib, ularning afzallik tomonlarini ko‘rsatish;

– kimyo fanidan o‘quv materiallarni o‘zlashtirish jarayonida samaradorlikka erishish uchun turli topshiriqlar, didaktik materiallar, nazorat testlari, masalalar yechishning kerakli jarayonlari, sinfdan tashqari ishlarning ayrim jarayonlarini animatsiyali modellashtirilgan muhitlarini yaratish va amaliyotga joriy etish.

O‘ZDVlarni kimyo fanini o‘qitishga joriy etilishi o‘quvchilarning dunyoviy bilimlarni egallashiga; o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali kimyo fani sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga; o‘quv faoliyatini tashkil etishning xilma-xilligi hisobiga o‘quvchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga; o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni O‘ZDV asosida taqdim etish, o‘quvchilarda kimyo faniga bo‘lgan qiziqishni va faolligini oshirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga O‘ZDVlari o‘quvchining erkin va mustaqil fikrlashini, shaxsning salohiyati va imkoniyatlarini, unda axborot madaniyatini tarbiyalashni, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishni, o‘quv-axborot faoliyati bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon yaratadi, bu esa o‘z navbatida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini O‘ZDV asosida o‘qitish mazmuni belgilangan maqsadga, yo‘nalishga, hajmga hamda tamoyillarga ega.Tamoyillarga rioya qilinganidagina sifat va samaradorlikka erishish mumkin.

Kimyo fanidan sifat va samaradorlikni ta’minlovchi tamoyillarga quyidagilar kiradi:

onglilik va faolik, ko‘rgazmalilik, izchillik va tizimlilik, kirishimlilik, aniqlilik, ilmiylik va nazariyani amaliyot bilan bog‘lash.

O‘ZDVlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi: diqqat, e’tibor; fikrlash qobiliyati; eslab qolish qobiliyati rivojlantiriladi; kompetentlik shakllantiriladi.

Shu bilan birga O‘ZDVlardan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish sifatini va samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tashkil etish, o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish va ulardan dars jarayonida sinfdan tashqari ishlarda foydalanish ham juda katta ahamiyatga ega.

O‘ZDV asosida bilim berilganda kutiladigan natijalar:

– kimyo fani o‘qituvchisi va o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtiradi;

– o‘quv materiallar o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga qarab taqdim etiladi, ularning bilish faoliyati boshqariladi, turli shaklda nazorat qilinadi, ta’lim oluvchi va o‘qituvchi o‘rtasida interfaol muhit ta’minlanadi;

– har bir o‘rganilayotgan mavzu ko‘rgazma asosida o‘rganiladi va mavzu asosida o‘quvchilarda yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malaka hosil bo‘ladi;

– bajarilayotgan va ko‘rsatilayotgan tajribalar o‘quvchilarni kimyo faniga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi,o‘quv materialni puxta o‘zlashtirishga, nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan bog‘lashga,bu orqali olingan bilimni mustahkamlashga imkon yaratiladi;

– mavzu bo‘yicha to‘liq axborot olishga imkon yaratiladi, natijada o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati, erkin va mustaqil fikrlashi, bilim olishga bo‘lgan intilishlari yanada rivojlantiriladi, fanga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi;

– umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarini zamonaviy didaktik vositalarda ishlash mahoratini nazorat qilinsa, O‘ZDV asosida dars o‘tishni o‘qituvchilarning malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining zimmalariga topshirilsa va shu ishga e’tibor qaratilsa ta’limda ozgina bo‘lsa ham ijobiy tomonga siljish bo‘ladi.

Hozirgi kunda kimyo xonalariga interaktiv elektron doskalar kirib kelyapti. Uni ishlatishni yaxshi biladigan o‘qituvchilar kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida kimyo ta’limi samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim omillardan biri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Juraev R.X., Taylakov U. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida interaktiv elektron o‘quv komplekslarini ishlab chiqarish va undan foydalanish metodlari. O‘quv qo‘llanma. –T., 2014 O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat nashryoti. 32-33b.

2. Yuldashev I.A. Ta’limda zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalar. Monografiya. –T., 2015. Fan va texnologiyalar nashryoti. 2015. 16-18b.

3. Qosimov S. Axborot texnologiyalari.O‘quv qo‘llanma. –T., 2016 Aloqachi nashryoti. 368b.

4. R.Asqarov., I.G‘opirov., K.G‘.,To‘xtaboev N.X. “KIMYO-8” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik sifatida tavsiya etgan. 204bet.

5. Nizamova S.A. Kimyo ta’limi samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar. Monografiya. –T., 2017. Fan va texnologiyalar nashryoti, 186b.

Nafisaxon KAZIMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika institutining
“Kimyo o‘qitish metodikasi” kafedrasi v.b. dotsenti

KIMYO DARSLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Analitik kimyo muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Deyarli barcha kimyo qonunlarini analitik kimyo metodlari yordamida topiladi. Turli moddalar, ma’danlar, minerallar, oy tuprog‘i, uzoq sayyora va boshqa osmoniy jismlarning tarkiblari analitik kimyo metodlari orqali aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Dars, kimyo metodikasi, tahlil, analiz, sintez, interfaol metodlar.

Аналитическая химия имеет важное теоретическое и практическое значение. Практически все законы химии можно найти с помощью методов аналитической химии. Состав различных веществ, руд, минералов, лунной почвы, далекой планеты и других небесных тел был определен методами аналитической химии.

Ключевые слова. урок, методика химии, анализ, анализ, синтез, интерактивные методы.

Analytical chemistry has important theoretical and practical significance. Almost all the laws of chemistry can be found using analytical chemistry methods. The composition of various substances, ores, minerals, lunar soil, distant planets, and other celestial bodies was determined by analytical chemistry methods. This is stated in the article.

Key word. Lesson, methods of chemistry, analysis, analysis, synthesis, interactive methods.

Ma’lumki, kimyo o‘quv fanlari asoslari bilimlarini o‘zlashtirib olishning metodlari va texnologiyalarini o‘rgatadi. Har qanday fanni o‘qitishning ta’limiy masalalari bilan birgalikda jamiyatning, rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarbiyaviy masalalari ham mavjuddir. Ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda tarbiyaning hamma turlarini o‘quvchilar ongida muvofaqqiyat bilan shakllantirish mumkin.

Kimyo o‘qitishning asosiy vazifalardan yana biri kimyo asoslarini o‘rganib borish jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini rivojlantirib borish hisoblanadi. Muhim kashfiyotlarni amalga oshirishda, fan oldiga qo‘yilgan muammoni tez hal qilishda, ishni bajarish metodikasi alohida muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri, metod bilan bajarilgan ilmiy tekshirishlar olimlarni buyuk kashfiyotlarga olib kelgan. Masalan, spekral analiz metodining kashf etilishi tabiatdagi ko‘p elementlarni kashf qilinishiga olib keldi. Elektrokimyoviy tekshirish metodlarining yaratilishi fan va sanoatdagi muhim muammolarni tez hal qilish imkoniyatini tug‘dirdi.

Analitik kimyo atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilar tarkibini o‘rganish, yerosti suvlar tarkibini o‘rganish bilan bog‘liqdir. Atrof-muhitning ifloslanish darajasini tekshirib turish umumdavlat jamiyati bo‘lib, u atmosfera iflosligi, tuproq, dengiz va chuchuk

suvlarning tarkibini, ifloslanish darajasini kuzatib boradi. Chunki suv, atmosfera havosi tarkibidagi o‘zgarishlarni aniqlamasdan ularni tozalashga kirishib bo‘lmaydi.Analitik kimyo analizdagi maqsad va uni hal qilish metodlariga qarab ikkita yirik qismga sifat analizi va miqdoriy analizlarga bo‘linadi.

Sifat analizda tekshirilayotgan modda tarkibidagi ayrim elementlar (ionlar)ni bor-yo‘qligi aniqlanadi.

Miqdoriy analizda tekshirilayotgan modda tarkibidagi ayrim tarkibiy qismning miqdori aniqlanadi.

Hozirgi davrda analitik kimyo tekshirishda ko‘p sonli va turli-tuman metodlardan foydalanilmoqda. Bu metodlarni uch guruhga: kimyoviy, fizikaviy va fizika-kimyoviy metodlarga ajratish mumkin.

Kimyoviy metodlar kimyoviy o‘zgarishlarga asoslangan bo‘lib, bu o‘zgarishlar eritmalarda boradi va cho‘kmalar, rangli birikmalar va gazsimon moddalar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Analiz uchun foydalaniladigan kimyoviy jarayonlar analitik reaksiyalar deb, ularni amalga oshiruvchi moddalarni reagentlar nomi bilan ataladi.

Eruvchanlik ko‘paytmasi qoidasi bir ismli ionlarning cho‘kmalar eruvchanligiga ta’sirini oldindan bilishga imkon beradi. Ayniqsa analitik reaksiyalar natijasida cho‘kma hosil bo‘lishi yoki uning erib ketishi sodir bo‘ladigan hollarda bu qoidadan foydalanish ancha qulay bo‘ladi.

Masalan, Pb^{2+} tuzi eritmasini biror eruvchan xlorid, ya’ni NaCl bilan aralashtirsak, u holda Pb^{2+} ionlari Cl^- ionlari bilan uchrashib $PbCl_2$ cho‘kmasini hosil qilishi uchun imkoniyat yaratiladi. Lekin $PbCl_2$ ning haqiqatdan cho‘kish-cho‘kmasligi eritmaning shu tuzga nisbatan o‘ta to‘yingan bo‘lishiga bog‘liqdir.

Hamma aytilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosani chiqarish mumkin: Har qanday qiyin eriydigan elektrolitning cho‘kmasi uni eritmadagi ionlari aktivligining ko‘paytmasi shu temperaturada EK sidan katta bo‘lgandagina hosil bo‘ladi.

Odatda eritmalar aralashtirilganda cho‘kish darhol boshlanmasdan, balki ma’lum vaqtdan keyin boshlanishi mumkin. Ma’lumki, shisha tayoqcha bilan ishqalash, chayqatish va shunga o‘xshash mexanikaviy ta’sirlar cho‘kma tushishini tezlashtiradi.

Suvda mutloqo erimaydigan modda bo‘lmagani sababli, EKning ko‘paytmani miqdori hech qachon nolga teng bo‘lmaydi. Hatto juda qiyin eriydigan birikmalar ham masalan, og‘ir metallarning sulfidlari garchi juda kichik bo‘lsa-da, har holda o‘lchab bo‘ladigan miqdorda EKsiga ega.

Shunday EKdan, qat’iy aytish mumkinki, birorta ham moddani mutlaqo to‘liq cho‘ktirish mumkin emas. Cho‘ktirilayotgan ionlarning EKsi qiymatiga mos keladigan qismi hamisha eritmada qoladi. Ba’zan bu qism shunchalik kichik bo‘ladiki, bundan keyin qilinadigan ishlarga sira xalaqit bermaydi. Bunday hollarda cho‘ktirishni amaliy jihatdan to‘liq deb atash mumkin. To‘la cho‘ktirish analitik kimyoda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, analizda cho‘ktirish to‘liq amalga oshgandan keyingina ionlarni ajratish va eritmadan chiqariladigan ionlarning keyingi ishlarga beradigan ta’sirini yo‘qotish mumkin bo‘ladi.


1.Odatda suvda eriydigan va mutloq erimaydigan moddalarni bilasizlar, ammo analitik kimyoda erimaydigan moddani o‘zi yo‘q, oz bo‘lsada eriydi, deyilyapti. Nimaga asoslanib bunday fikr bildirilyapti? Misollar bilan tushuntiring.

2. Xalqimizda shunday gap bor, ya’ni og‘zida tilla tishi bor odamni oshqozoni og‘rimas ekan, sabab? Siz ham shunday gapni eshitgan bo‘lsangiz, bu fikrni erish

jarayoniga , EKga aloqasi bormi? Haqiqatan ham shundaymikan?

3. Qo‘lingizdagi probirkada chala cho‘kma holidagi modda bor, ya’ni cho‘kma ham emas, loyqasimon eritma, bu holatni cho‘kma deb atash mumkinmi? Yoki boshqacha nomlanadimi?

To‘la cho‘ktirish analitik kimyoda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, analizda cho‘ktirish to‘liq amalga oshgandan keyingina ionlarni ajratish va eritmadan chiqariladigan ionlarning keyingi ishlarga beradigan ta’sirini yo‘qotish mumkin bo‘ladi. Shuning uchun to‘la cho‘ktirishning bir necha omillari bo‘lib, ular:



Suvda qiyin eriydigan kislotalarni eritish uchun ularning eritmaga o‘tayotgan N^+ ionlarining biror ishqorning OH^- ionlari bilan bog‘lash lozim.

Masalan: $H_2WO_4\downarrow + 2OH^- = WO_4^{2-} + 2H_2O$

Kuchsiz kislotalarning qiyin eriydigan tuzlari kislotalarda eriydi, chunki kislotaning H^+ ionlari tuzning anionini bog‘lab, kuchsiz kislotaning ionlanmaydigan molekulalarini hosil qiladi:

Masalan: $KHC_4H_2O_6\downarrow + H^+ = H_2C_4H_4O_6 + K^+$

Bunda, cho‘kmadan eritmaga o‘tayotgan $HC_4H_4O_6^-$ anionlari H^+ ionlari bilan birikib, tartrat kislotaning nihoyatda oz ionlanadigan molekulalari $H_2C_4H_4O_6$ ni hosil qiladi. Eritmada bu anionlarning konsentratsiyasi kamayib borgan sari cho‘kma $KHC_4H_4O_6$ ning erish hisobiga K^+ ionlarining konsentratsiyasi ortib boradi va ishqorning miqdori yetarli bo‘lganda cho‘kma eriydi:

$KHC_4H_4O_6\downarrow + OH^- \rightarrow K^+ + C_4H_4O_6^{2-} + H_2O$

Yuqoridagi misollarda cho‘kma erishida ionlarning bog‘lanishga sabab, biror kuchsiz elektrolitning ionlanmaydigan molekulalari hosil bo‘lishidir.

Ba’zan yetarli darajada barqaror bo‘lgan kompleks ionlarning hosil bo‘lishi bilan ham ionlar bog‘lanishi mumkin va bu ham cho‘kmani erishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Fayzullaev O. “Analitik kimyo” – T.: Yangi asr avlodi 2006.
2. Rasulov K.R. “Analitik kimyo” – T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2004.
3. Rasulov K.R. “Analitik kimyo” o‘quv darsligining elektron versiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.
4. G‘ulomov M.T., Norov T., Turopov N. “Analitik kimyo” – T: .Voris nashr., 2010 y.

Ahadjon ISMATOV,
Namangan viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
"Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi"
kafedrasi mudiri

O'QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATLARNI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING METODIK OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishning mazmun mohiyati hamda fanlararo integratsiyasi natijasida interaktiv metodlardan samarali foydalanishning pedagogik-metodik omillari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Kreativlik, kreativ qobiliyat, iqtidorni rivojlantirish, kreativ tafakkur, tasavvur, texnologiya, metodika, o'z-o'zini namoyon qilish.

В данной статье представлена информация о сущности содержания и выявлении и развитии творческих способностей учащихся, а также о педагогических и методологических факторах эффективного использования интерактивных методов в результате междисциплинарной интеграции.

Ключевые слова. Творчество, творческие способности, развитие таланта, творческое мышление, воображение, технология, методология, самовыражение.

This article provides information on the nature of the content and the identification and development of students' creative abilities, as well as on pedagogical and methodological factors for the effective use of interactive methods as a result of interdisciplinary integration.

Key words. Creativity, creativity, talent development, creative thinking, imagination, technology, methodology, self-expression.

Yosh avlodni yetuk, barkamol va intellektual bilim darajasi yuqori bo'lishini ta'minlash va kasbiy tarbiyalash har doim e'tiborli va dolzarb vazifa bo'lib kelgan. Hozirgi kunda o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish pedagogikaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Har tomonlama barkamol, rivojlangan, faol, o'z oldida turgan vazifalarni kreativ hal qilishga qodir va butun kuchini ishlashga sarflaydigan insonlarni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifani ijobiy yechishda va kreativ faoliyat poydevoriga asos solishda dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning qiziqishlari va masalani to'g'ri tushunishlari muhimdir.

Individni shaxs sifatida shakllanishi murakkab tadrijiy rivojlanish yo'liga ega. Har bir bola ruhiyati o'ziga xos bo'lgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan birga unga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'siri ham juda xilma-xildir. Bu murakkab jarayonni to'liq o'rganib chiqish uchun ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak bo'ladi.

Ma'lum bo'lishicha, shaxs ontogenezining dastlabki davrlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, bolaning 2-6 yoshlar orasidagi davrida sakson foizgacha shaxs

xususiyatlari shakllanishi haqidagi ma’lumotlar bor. Psixologiyada mavjud bo‘lgan impirinting (qayd qilish) nazariyasining tarafdorlari ta'kidlashlaricha, bolaning shaxs xususiyatlari shakllanishida ilk tajriba muhim va birinchi darajali ahamiyatga ega. Demak, bu davrning muhimligini hisobga olib, bolada kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish yo‘llarini qidirishimiz kerak bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, bolalarda kreativlik qobiliyatini quyidagi fanlarda rivojlantirishning mazmuni va yo‘llarini ko‘rib chiqamiz:

1. **Tasviriy san’at fani.** Bola mazkur faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi natijasida, undagi xayol va tasavvur jarayonlari rivojlanadi. Mazkur rivojlanish o‘z navbatida tafakkurga rag‘bat beradi. Natijada, mazkur ikki bilish jarayonlarining muvofiqlashuvi kreativ qobiliyatning kashf etish xususiyatini yuzaga keltiradi.

2. **Musiqa fani.** Ko‘rish sezgisi odamlarda yetakchi o‘rin tutadi. To‘qson foiz axborotni ko‘rish orqali qabul qilamiz. Ammo, musiqani ko‘rish mumkin emas. U eshitiladi va his qilinadi. Demak, musiqa bilan shug‘ullanish bola ruhiyatidagi “mudroq” xususiyatlarni jonlanishga olib kelishini taxmin qilishimiz mumkin.

3. **Texnologiya fani – konstruktorlik o‘yinlari va boshqotirmalar.** Mazkur faoliyat bolalardagi tabiiy layoqatni shakllangan tus olishiga va kreativ qobiliyatning dastlabki kurtaklarini amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi faoliyat turlari bilan bolalarni muvaffaqiyatli shug‘ullanishlarini ta’minlash va ular orqali samarali natijalarni qo‘lga kiritish uchun televizor ko‘rish va kompyuter o‘yinlari uchun ko‘p vaqt sarflashlarining oldini olish kerak. Chunki bunday vositalar tomoshabinlik va dangasalikka ma’lum darajada moyil bo‘lgan odam ruhiyatini, aqliy faollik (aqliy mehnat) va irodaviy zo‘r berish bilan kechadigan yuqoridagi faoliyatlardan chetlanishiga olib keladi.

O‘quvchilarda kreativ tafakkur – ijodkorlikni ular uchun qulay va qiziqarli bo‘lgan sohalarda namoyon etib tarbiyalash umumta’lim maktablarining birinchi galdagi vazifasiga kiradi. Ko‘pgina hollarda o‘quvchilarning noan’anaviy, yangicha (nostandart) yondoshilgan ishini ko‘rgan odam buni faqat o‘ta qobiliyatli yoki iste’dodli odamgina bajara olishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. Holbuki, odamlarni hayratga soluvchi bunday ishlarni hamma ham bajara olishi mumkin. O‘quvchilarda layoqat, iste’dod, kreativlik har qancha hayratomuz bo‘lmasin, ta’lim-tarbiyadan tashqaridagi faoliyatda kamol topa olmaydi. Kreativlikni rivojlantirishning eng unumli yo‘llaridan biri barcha o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdanoq mahsuldor ijodga va kasbga o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lishga jalb etish, darslarni kreativ tarzda tashkil qilish, turli xil noan’anaviy dars usullaridan keng foydalanishdir.

Kreativlik – ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish, vazifalarni ijodiy bajarishga yo‘naltirilgan aqliy qobiliyatdir. Qobiliyatni rivojlantirish ma’lum bir shaxsning insoniyatning moddiy va ma’naviy boyliklari, bilimlarining tarixiy rivojlanishi natijasida to‘plangan tajribasini egallash bilan bog‘liq.

Bolalardagi kreativ qobiliyat ko‘p qirrali bo‘lib, boshqalarni jalb qiladigan, o‘zini barkamol inson deb his qiladigan bo‘lmog‘i kerak. O‘quvchilarga kreativ faoliyatni o‘rgatish jarayoni shunday bo‘lishi kerakki, har bir o‘quvchi qobiliyatini namoyon qilishi va uning majmualarini rivojlantirishi, o‘z-o‘zini bilishga o‘rganish, ma’lum darajada tafakkuri, fantaziyasi hamda tasavvur qilishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim.

Kreativ qobiliyatni rivojlantirish haqida gapirilganda, ijodda tasavvur qilish, fantaziya va orzu muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda uning asosiy qismlaridan biri hisob-

lanishini unutmaslik kerak. Ijod tasavvur qilish faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Tasavvursiz odam deyarli kreativ faoliyat bilan shug‘ullana olmaydi, u faqat borliqning zaif nusxasini yarata olishi mumkin. Tasavvur qilish bu o‘zi ega bo‘lgan, ya’ni o‘rganilayotgan mashg‘ulot asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat murakkab ruhiy jarayondir.

Kreativ qobiliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirishni faqat ma’lum sharoitni yaratish hamda uni qulay shakllantirish bilan amalga oshirish mumkin. Ijodni rivojlantirishning biri o‘quvchining o‘z-o‘zini yuqori baholash, ya’ni unda o‘z kuchi va aqliy imkoniyatlariga yetarli darajada ishonch uyg‘otishdir. Bola “rag‘bat mazasi”ni bilishi kerak. O‘quvchining rag‘bat olishi uning ishining yakunida bo‘lishi kerak emas, balki boshlanishida bo‘lmog‘i zarur. O‘quvchining qobiliyatini rivojlantirishning ikkinchi sharti munosib psixologik iqlimni yaratish hisoblanadi. Aynan o‘qituvchi o‘quvchini birinchi kunlardan boshlab maktabda uning kreativ qobiliyatini rivojlantirish uchun mukofotlashi va rag‘batlantirishi kerak. Ammo yuqori rivojlangan kreativ qobiliyatli bolani tarbiyalash uchun faqat qulay sharoit yaratish yetarli emas.

Shunday qilib, umumta’lim maktabi o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘pqirrali, murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etish pedagogning pedagogik-psixologik bilimlarni puxta o‘zlashtirganligini, tashkiliy-texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtira olishini taqozo etadi. Shuningdek, bu jarayonni tashkil etishda o‘quv jarayonidagi holatni to‘la o‘rganishi, bu yo‘ldagi amaliy harakatni tizimli olib borish uchun zarur chora-tadbirlarni aniq belgilashni bilishi lozim.

Kreativ qobiliyatlilik individual xususiyatga ega xislat bo‘lganligi bois umumta’lim maktablarining har bir o‘quvchisida uning mavjud ekanligini o‘rganish talab etiladi. Bu esa o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, alohida tashkiliy-metodik tayyorgarlik asosida ish ko‘rishni taqozo etadi. Bu jarayonda qobiliyat negizida aks etuvchi pedagogik-psixologik xususiyatlarni inobatga olinishi muhimdir.

Jamoa faoliyatidagi kreativ qobiliyat o‘z qarashlarini shakllantirishga yordam beradi, bolalarda o‘z kuchiga ishonch va boshqalarning fikriga qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, muhim tashkilotchilik, kommunikativ, konstruktiv mahoratlarni rivojlantiradi va har bir o‘quvchining o‘z o‘rnini ta’minlab, faoliyat va majmuaviy tavsifga ega bo‘ladi. Kreativ qobiliyat o‘quvchilarda mas’uliyat, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantiradi. O‘quvchini maktabdoshlarining ijodi bilan tanishtirish ularni bir-biriga va atrofidagi olamga nisbatan e’tiborli hamda ezgu munosabatda bo‘lishga undaydi.

Ijod o‘quvchilarda hush kayfiyat va yaxshi ta’limiy muhit bo‘lgandagina rivojlanadi. Kreativ faoliyatga talab hamisha yorqin ifodalangan ijobiy hissiyotlar bilan hamroh bo‘ladi, shuning uchun uni yaratish, mustahkamlash, kreativ faoliyatdan quvonish va undan qoniqish hissini rivojlantirish zarur. O‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning barcha qobiliyatlarini namoyon qilishi va rivojlantirishi uchun o‘quvchilarni dars mashg‘ulotlaridan keyin turli to‘garaklarga jalb qilish kerak. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlanishiga yana turli ko‘rgazmalar, texnik ishlar ko‘riklari, badiiy havaskorlik kechalari, o‘quv fanlari bo‘yicha maktab, tuman,shahar va respublika olimpiadalari shu qatorda sinfdan tashqari ishlar ham yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib,amaliy ishlar jarayonida o‘quvchi kreativ qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish o‘quvchi shaxsining barkamol rivojlanishi, uning o‘ziga xosligi yaratishga sharoit yaratadi va kelgusi hayotga tayyorlanishini ta’minlanadi. O‘quvchilarning kelgusidagi iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun amaliy darslarga jumladan, tasviriy san’at, jismoniy tar-

biya, musiqa, texnologiya kabi mashg‘ulotlariga katta e’tibor qaratilishi lozim. Chunki, bunday darslarda o‘quvchilarning iqtidori, jamoa faoliyatini tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirish malaka va ko‘nikmalari shakllanib boradi.

Zamonaviy darsga qo‘yiladigan muhim talablar o‘quvchilarning bilim va kreativ faoliyatlarini aktivlashtirishdir degan xulosa kelib chiqadi. O‘quvchilarni aktivlashtirish, ayniqsa, o‘qitishning zamonaviy bosqichi sharoitlarida anchagina murakkab pedagogik faoliyat bosqichidir. Shuning uchun o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini aktivlashtirishga yordam beruvchi vosita va usullarini tanlash o‘qituvchining doimo diqqat markazida bo‘lishi shart. O‘quvchilarning bilish va kreativ faoliyatlarini bir qator usullar vostasida aktivlashtirishga erishish mumkin.

Jamoa faoliyatida kreativ qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘quvchilar kreativ qobiliyatini samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan quyidagi tadbirlarni taklif qilamiz:

- o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarni o‘zlari tayyorlagan buyumlari bo‘yicha o‘z-o‘zini namoyon qilishga imkoniyat yaratish;
- dars mashg‘ulotlarida kreativ tavsifga ega bo‘lgan mahsulotlari to‘g‘risida o‘z-o‘zini baholashni yo‘lga qo‘yish;
- o‘quvchini tayyorlagan buyumi yuzasidan o‘z-o‘zini tanqid qilish yo‘nalishini yo‘lga qo‘yish;
- qulay va ijobiy psixik muhit, bolalarni ijodga intilishini kattalar tomonidan rag‘batlantirish.

O‘quvchilarni kreativ jarayonga tayyorlashda qiziqarli grafik organayzerlar, rasmli-topishmoqlar, qiziqarli topshiriqlar, muammoli vaziyatli savollar va masalalar, testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, har qanday metodika o‘qituvchidan jonli, hissiy va kreativ yondashuvni talab qiladi. O‘qituvchi qulay pedagogik interaktiv metodlarni topsa ham, u har bir mashg‘ulotda unga turlicha kreativ yondashishga majbur. Mana shu vaqtdagina o‘quvchi ijodining yutuqlari mukammallikka ega bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarda keng fikrlash, kreativlik, kreativ tafakkur – ijodkorlikni, kreativ-qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida turli xil usullar, rivojlantiruvchi texnologiyalar yordamida ular avvalo keng tafakkurni, irodaviy xususiyatlarni, o‘ziga nisbatan ishonch tuyg‘usini, faollik va faoliyatni, mehnat qilish ko‘nikmalarini, maqsad sari intilish xususiyatlarini tarkib toptirish lozim. Ana shunda ta’lim-tarbiya maqsadlariga to‘la ma’noda erishish mumkin. O‘quvchilar bu maqsadlar yo‘lida o‘z ustilarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari, o‘z ichki tabiiy imkoniyatlarini faol ishga solgan holda kreativ qobiliyat va iqtidorlarini rivojlantirish ustida har doim faol izlanishda va ongli yondashuv asosida ta’limi harakatda bo‘lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘ysinov O.A., Sattorov V.N., Yakubova H.S. “Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi” metodik qo‘llanma. –T., 2011.

2. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. “Texnik ijodkorlik va dizayn” metodik qo‘llanma. –T., 2007 y.

3. Karimov I. “Mehnat ta’limi o‘qitish texnologiyalari” o‘quv – uslubiy qo‘llanma. – Qo‘qon 2013 y.

Dildora MIRZAJONOVA,
Andijon shahar Izboskan tumani
2-umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘qituvchisi

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHI KOMPETENSIYASI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, muallif kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga xos xususiyatlari, rivojlantirish jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha qator tavsiyalar berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy kompetentlilik, motivlashtirish jarayonlari, malaka oshirish tizimi, tarbiyaviy munosabatlar, xususiyat.

В статье говориться о совершенствовании процесса развития профессиональной компетенции учителей в повышении качества образования. Автор также сделал ряд рекомендаций по специфике развития профессиональной компетентности, процессов развития и повышения эффективности образовательных отношений.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, мотивационные процессы, система профессионального развития, образовательные отношения, характер.

The article focuses on improving the process of developing professional competence of teachers in improving the quality of education. The author also made a number of recommendations on the specifics of professional competence development, development processes and improving the effectiveness of educational relations.

Key word. Professional competence, motivational processes, professional development system, educational relations, character.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, talimda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Buning uchun hayotda va kasbiy amaliyotda o‘z sohasini puxta egallagan, yaxshi bilgan va uni muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagog-kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirish va qayta tayyorlash zarur.

O‘qituvchilar o‘z faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda mohir pedagog deb, talim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qila oladigan, buning uchun o‘quvchi psixologiyasini yaxshi bilgan, o‘zida pedagog uchun zarur bo‘lgan kasbiy fazilatlarni mujassam etgan, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatlari asosida samarali tashkil eta oladigan pedagogga ayta olamiz.

Talim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yuqori darajadagi mahorat, bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishidir. Pedagogning har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lishi uning kompetenlik darajasini belgilaydi.

Kompetentlik – tarbiyachining o‘z sohasi bo‘yicha mukammal bilim, tajriba va mahoratga egaligida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining pedagogik mahorati quyidagi tizim asosida shakllanadi:

— soha bo‘yicha ilmiy-metodik bilimga ega bo‘lish;

— turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna misol keltira olishi);

— muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy faoliyat asosida yondashish;

— jamiyat va insonlarga, ota-onalar va bolalarga ijobiy emotsional munosabatda bo‘lish tajribasi.

Yuqorida keltirilgan tizim doirasida o‘qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarni amalga oshiradi:

— o‘qituvchi – bolalarni ijtimoiy va maktab hayotiga tayyorlaydi;

— ta'lim muhitida boshqaruvchi va yetakchi – guruhda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ta'sir ko‘rsatadi;

— metodist – ta'lim jarayonida bolalarga muammoni yechishda yordam beradi va qo‘llab-quvvatlaydi;

— faylasuf – bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o‘z qarashlarini asoslaydi;

— tajribali yaqin do‘st – bolalarning oldidagi to‘siq va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi;

— tadqiqotchi-novator – yangilik yaratuvchi, o‘z ustida muntazam ishlaydi, yangi g‘oyalar yaratadi va tatbiq etadi;

— tarbiya jarayonining rahbari va uni rag‘batlantiruvchi – maqsadga yetish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, ta'lim berish uslublarini tanlaydi, bolalarni o‘qishga o‘rgatadi va ijodiy yondashadi;

— o‘zaro ta'sir ko‘rsatuvchi – jamoa bo‘lib ishlay oladi va ishlashga o‘rgatadi;

— maslahatchi – bolalarga shaxsiy namuna bo‘ladi;

— bolalarlarni jismonan, aqliy va ma'naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi.

O‘qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Quyida keltirilayotgan pedagogik mahorat fanining asosiy tarkibiy qismlari milliy an’ana va urf-odatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi global rivojlanish davrida yanada to‘ldirib borilishi mumkin:

1. Nutq malakasi va texnikasini o‘zlashtirish.
2. Tushunarli, ta'sirchan fikr va his-tuyg‘ularni so‘zda aniq ifodalash.
3. Mimik va pantomimik harakatlardan o‘z o‘rnida foydalanish.
4. Ma'noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash.
5. Hissiy psixik va tasodifiy holatlarda o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay olish.
6. Turli vaziyatlarda o‘qituvchiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish.
7. Kulgi va tabassumda samimiylikni e’tirof etish.
8. O‘quvchilar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag‘batlantiruvchi munosabatda bo‘lish.
9. Savodli va sof adabiy tilda so‘zlash.
10. Aniq imo-ishoralarni o‘z o‘rnida ishlata olish.
11. Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo‘llay bilish.

Tarbiyachida pedagogik mahoratning ortishi bilan birgalikda uning kasbiy kompetensiyasi ham shakllanib, rivojlanib boradi. Kasbiy kompetensiya negizida quyidagi yo‘nalishlar qamrab olinadi.

— tarbiyachining pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lishi;

– muntazam ravishda o‘z ustida ishlashi;
— ta'lim jarayonini rejalashtirish va qayta aloqani o‘rnata olishi;
— o‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
— o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
— axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish;
— ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
— o‘z mutaxassisligini mukammal bilishi;
— xorijiy tillardan birini bilishi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyaning shakllanishi uch bosqichda amalga oshiriladi.

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O‘z faoliyatini rivojlantirishni rejalashtirish, maqsad va vazifa belgilash;
3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Qobiliyatli, tajribali umumiy o‘rta ta'lim o‘qituvchisi o‘zining diqqat-e’tiborini o‘quv materialini qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o‘z fikrlarini atroflicha ochib berishga yoki o‘quvchi fikriga qaratadi va shu bilan birga bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni kuzatib, ularni toliqqan-toliqmaganligiga, e’tiborli yoki e’tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga ahamiyat berib, o‘quvchilarning intizomini kuzatadi hamda o‘zining shaxsiy xulq-atvoriga (yurish-turishiga, o‘zini tutishiga, mimika va pantomimikasiga) e’tibor beradi. Tajribasiz o‘qituvchi, ko‘pincha o‘quv materialini bayon etishga berilib ketib, o‘quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo‘yadi, agar, o‘quvchilarni diqqat-e’tibor bilan kuzatishga harakat qilsa, bunday hollarda o‘z bayonotining izchilligini yo‘qotib qo‘yadi.

Demak, kasbiy mahorat o‘qituvchi kasbiy faoliyatining yuksak darajada taraqqiy etishi, o‘qituvchi tomonidan pedagogik texnikaning egallanishi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeyini ifodalaydi.

O‘qituvchi ta'lim oluvchilarning bilimlari va faoliyatlarini xolisona baholash bilan birga, ularning o‘zlashtirishlarini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, bolalarning ko‘nikma va malakalarini rivojlanishiga yordam ko‘rsatadi, turli yo‘nalishdagi topshiriqlarni bajarish bo‘yicha maslahat beradi, noan’anaviy usullar bilan bolalarning harakatlarini qo‘llaydi va mustahkamlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, mehnat bozorida raqobatbardosh, puxta bilimli, o‘z kasbining mohir egasi va faoliyatning alohida sohalariga yo‘naltirilgan, doimiy kasbiy o‘sishga tayyor, mutaxassisligi va saviyasiga javob beradigan malakali pedagoglargina o‘quvchilarni turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo‘naltira oladi. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta'lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, media-resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti.– Toshkent: Nizomiy nomli TDPU 2000.

2. Azizxo‘jayeva N.N.O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.

3.Топоровский В.П. Аналитическая деятельность руководителя образовательного учреждения. – Санкт-Петербург,2000.

Nargiza ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat agrar universiteti
Andijon filiali o‘qituvchisi

TALABALARNI CHET TILLARGA O‘QITISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada chet tili o‘qituvchisining tilga oid tayyorgarligi nutqiy muloqoti doirasida va o‘quv tarbiya jarayonini boshqarish uchun etarli professional miqyosida komunikativ malakalarini shakllantirishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ona tili va chet tilidagi nutqiy faoliyat vaqtida lingvistik, mamlakatshunoslikka oid va mamlakatlarning insoniy xususiyatlarini bilishini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Samarali texnologiya, takomillashtirish, professional, nutqiy faoliyat, lingvistik, xususiyat.

В статье было высказано мнение о том, что языковая подготовка преподавателя иностранного языка формирует коммуникативные навыки в рамках речевого общения и на профессиональном уровне, достаточном для управления процессом обучения. Также автор отметил, что во время своей деятельности в области родного и иностранного языка он знал лингвистику, страноведение и человеческие особенности стран.

Ключевые слова. Эффективная технология, совершенствование, профессиональная, речевая деятельность, лингвистическая, характеристика.

The article suggests that the language training of a foreign language teacher forms communication skills within the framework of speech communication and at a professional level sufficient to manage the learning process. The author also noted that during his work in the field of native and foreign languages, he knew the linguistics, country studies and human characteristics of countries.

Key words. Effective technology, improvement, professional, speech activity, linguistic, characteristic.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlardan ko‘zlangan maqsad O‘zbekiston fuqarolari manfaatlariga xizmat qilish va farovonligini ta’minlashga.

Xalqimiz kelajagi, buyuk davlat tayanchi bo‘lmish yoshlar ushbu islohotlar jarayonida faol qatnashmoqdalar, vatanparvarlik burchlarini sidqidildan amalda namoyon etmoqdalar.

Mamlakatimiz jahon hamjamiyatida munosib o‘rni va salohiyatiga ega bo‘lgan va rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilib borayotgan shu kunda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini, o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Hozirgi kunga kelib globallashuv davrida hech qaysi bir xalq, hech qaysi bir mamlakat boshqa xalq va mamlakatlar bilan hamkorliksiz taraqqiy etish va rivojlanishi mumkin bo‘lmay qoldi. Chunki insoniyat fan va texnika sohalarida erishgan yutuqlardan doimiy ravishda boxabar bo‘lib borish, ularni jamiyat hayotiga tadbiq etish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at durdonalaridan bahramand bo‘lish taraqqiyotning eng muhim omillari va shartlaridan bo‘lib qoldi.

Bilimli, yuksak ma’naviyatli, sog‘lom va baquvvat yoshlar O‘zbekistonimiz kelajagi. Bunday avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish esa o‘qituvchi-pedagoglar zimmasida. Bu sharafli va mas’uliyatli vazifa. Ustozlar yoshlarni yuksak ma’naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalashdan tashqari, ularni dunyoviy bilimlar bilan qurollantiradi, ularni hayotga tayyorlaydi. Demak, Vatan kelajagi, uning ravnaqi o‘qituvchi-ustozlar berayotgan bilimlar miqyosi, mazmun-mohiyati va hayotiyligiga bog‘liq ekan. Shu kun talablaridan kelib chiqib ularda zamonaviy yangi bilim va malakalarni shakllantirishimiz kerak ekan. Bilamizki, davlatimiz siyosati yoshlarni ma’nan va jismonan baquvvat qilish, irodasini mustahkamlashdan iborat.

Bu muammolarni hamjihatlikda, sidqidildan hal etish, ilm, bilim va tajribalarni o‘rtoqlashish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan chet tillarini bilish orqali samarali hamkorlik o‘rnatilmoqda va hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda chet tillarini o‘qitish sifatini yanada ko‘tarish talab etilmoqda, ta’lim uzluksizligi va uzviyligi masalalari, o‘qitishning tezkor, oson va samarali yo‘llari ishlab chiqilmoqda va ta’minlanmoqda.

Chet tillar ta’limi samaradorligiga erishishda quyidagilar muhim rol o‘ynaydi:

– o‘qituvchining kasbiy bilimlari va pedagogik mahorati;

– o‘qitishning yangi va ilg‘or pedagogik texnologiyalari;

– yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalari;

– chet tillarini o‘qitish va o‘rganish uchun yaratilgan shart-sharoitlar (moddiy-texnik baza, til muhiti kabilar);

– til o‘rganuvchilarning qiziqishlari.

Bizningcha, chet tili o‘qituvchilari faoliyatlari asosida til o‘rganuvchilarning og‘zaki, yozma nutqlarini shakllantirish asosida tilga xos minimum qoidalar (fonetik, grammatik, leksik), minimum so‘z boyligi, ularni to‘g‘ri qo‘llash malakalarini tarkib toptirish yotadi. Bu pedagogik muloqot orqali amalga oshiriladi. Pedagogik muloqot dars va undan keyingi tadbir va monologik, dialogik va polilogik shakllarini farqlaymiz. Monologik shakl (o‘qituvchi faol va hukmron) an’anaviy, qolgan ikki shakli esa noan’anaviy hisoblanadi. Dialogik va pololog‌ik muloqot chet tillarini o‘qitishda va o‘rganishda eng samarali muloqot shakllari hisoblanadi. Mashg‘ulotlarni loyihalashtirishda ana shularni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida, ixtisosligi chet tili bo‘lgan oliy ta’lim muassasalaridan tashqari chet (ingliz, nemis, fransuz va hokazo) tili fani o‘qitiladi.

BMI maqsadlari quyidagi muhim, aniq masalalarni hal etishi ko‘zda tutadi: 1) o‘qitish texnikasi; 2) chet tilida o‘qitishga o‘rgatishdagi qiyinchiliklar; 3) ularni bartaraf qilish yo‘llari; 4) o‘qish ko‘nikmalarini nazorat qilish; 5) nazorat qilishning usul va shakllari o‘quvchilarga o‘rgatishning pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash uchun tavsiya berish kabilar.

BMIning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

– tadqiqot natijalari chet tili o‘qitish metodikasi, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, seminar mashg‘ulotlariga tadbiq etish mumkin;

– BMIda tavsiya etiladigan uslubiy tavsiya va pedagogik texnologiyalar ingliz tilida o‘qitish sifati va samaradorligini oshiradi;

Chet tili o‘qitish metodikasida chet tilini o‘rgatishda o‘qish ko‘nikalarini nazorat qilish usul va shakllari atroflicha o‘rganishga, tahlillarni o‘z ichiga olgan.

Jahon hamjamiyati bilan integrallashuv jarayoni ta’limda ham xorijdagi yangi o‘qitish texnologiyalaridan, boy tajribadan, foydalanish imkoniyatlarini yaratdi. Bundan

tashqari hozirgi paytda erishilayotgan fan va texnika yutuqlaridan, ayniqsa, tilshunoslik, pedagogika, didaktika, psixolingvistika va psixologiya fanlarida erishilayotgan yutuqlaridan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda foydalanish taqazo etilmoqda. Hozirgi paytda ta’limdagi eng muhim masalalardan yana biri o‘qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va o‘qitish jarayonida o‘rganilayotgan fan materiali asosida tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish hisoblanadi. Ta’limda yuqori sifatga erishishda va malakali kadrlar tayyorlashda o‘qituvchi omili, uning bilim darajasi, kasbiy mahorati eng muxim omillardan biridir. O‘qitish maqsadi, mazmuni, ya’ni nimani o‘qitishni aniqlash bo‘lsa o‘qitish metodlari, ya’ni qanday o‘qitish yo‘llari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish muhim.

Ta’lim samaradorligini oshirish, til o‘rganuvchilarning darsdagi faolligini oshirish va jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zamonaviy interfaol metodlar keng qo‘llanilmoqda. Ayni paytlarga qadar, o‘qituvchilarni bir muammo qiynab kelar edi: “Darsda o‘quvchilar va talabalar faolligini oshirish uchun nima qilish kerak?» Buning uchun darsni texnologik yondashuv asosida, turli interfaol metodlar yordamida tashkil qilish talab etiladi. Chunki interfaol usullar o‘quvchi va talabalarning dars jarayonidagi faolligini va ularning o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqishini oshirish va ularning ichki rezerv imkoniyatlaridan keng foydalanish imkonini beradi.

Chet tili muallimining tilga oid tayyorgarligi (Native speaker) nutqiy muloqoti doirasida va o‘quv tarbiya jarayonini boshqarish uchun yetarli professional miqyosida kommunikativ malakalarini shakllantirishni taqozo etadi. Ona tili va chet tilidagi nutqiy faoliyat chog‘ida lingvistik, mamlakatshunoslikka oid va mamlakatlarning insoniy xususiyatlarini bilishi kerak. Umumiy filologik tayyorgarlikka quyidagilar kiradi:

a) chet tilidan nazariy bilimlar;

b) badiiy matnlarni sharhlash, matnda uchraydigan mamlakatshunoslik ma’lumotlarini izohlash;

c) kasbiy faoliyatda o‘quvchilarning umumiy va filologik saviyasini oshirishga mo‘ljallangan chet tilidagi adabiyotni mustaqil o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga oid malakalar.

Ma’naviy ma’rifiy tayyorgarlikning mohiyati bo‘lajak muallimning dunyoqarashini shakllantirish bilan bog‘liq:

a) ijtimoiy fanlardan mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hayotiga taalluqli bilim olish;

b) o‘quv tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilar ma’naviyatini ta’minlovchi ma’lumotlardan foydalana olish malakasini singdirish;

c) o‘rganilayotgan fanni mukammal o‘zlashtirishga intilish;

d) turli auditoriyada erkin, fikrni asoslab gapira olish, «dumaloq stol atrofida» suhbat qura olish, savol-javob kechalarini boshqara olish va hokazolar.

Chet tili muallimini tayyorlashda quyidagi muhim muammolarni ko‘tarish va ularga yechim topish kerak.

- oliy ta’lim tizimida chet tilini ixtisos tarzida o‘rgatish maqsadlari va vazifalarini aniqroq belgilash, har bir o‘quv predmeti oldiga qo‘yiladigan ta’limiy vazifalarni ko‘rib chiqish;

- muallimning kasbiy faoliyatida qo‘llaniladigan bilim, ko‘nikma va malakalar nisbatini anglash;

- kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini yaratish;

- tayyorgarlik chog‘ida ta’limning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish;

- tarbiya, ta’lim o‘qitish tarkiblari, barcha insoniy munosabatlarga singib boradi, inson hayoti davomida ta’sirini o‘tkazadi.

Bir-biri bilan uzviy bog'langan ta’lim-tarbiya pedagogik faoliyatning mohiyatini mazmunini tashkil qiladi.

Pedagogik faoliyatning strukturaviy tarkibiga quyidagilar kiradi; muallim shaxsining gumanistik maqsadlariga qaratilganligi, kasbiy bilimlar, pedagogik malaka, pedagogik texnika, pedagogik muloqot, muallimning didaktik nutqi, o‘quv jarayonini mustaqil metodik boshqarish, kabilar.

Qisqasi, pedagogik faoliyatga umuman «faoliyat» hodisadagi barcha xususiyatlar (maqsad, subyekt, obyekt, predmet, usul samara va natija) xos bo‘lib ayni paytda muallim kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadigan qator o‘ziga xos xususiyatlarni ham e’tirof etish zarur.

Muallim pedagogik faoliyatining mohiyatini aniq o‘quv materiali asosida olib boriladigan ta’lim va tarbiya tashkil etadi. Har qaysi o‘quv predmeti o‘ziga xos ta’lim maqsadlari, vazifalari, mazmuni va vositalariga ega. Bu hol butun ta’lim tizimida, shu jumladan muallim pedagogik faoliyatida ham o‘z ifodasini topadi.

O‘quv faoliyatida umuman faoliyatga xos belgilar (maqsad, subyekt, predmet, vosita, samara va natija) mavjud.

Chet tili o‘rganuvchining o‘quv faoliyati mahsuli deganda, o‘rganilgan insoniy bilimlar, shakllangan ko‘nikma va malakalar nazarda tutiladi. O‘quv faoliyati tuzilish tomonidan tashqari, muayyan psixologik mazmun kasb etadi, chunonchi, faoliyat motivatsiyasi, maqsadi, shart tartibi. Shart-sharoiti tushunchasi qamroviga o‘quv predmetining xususiyati, vositalari, usullari, qurollari, mahsuli va natijasi kiradi.

Chet tilini o‘rgatish jarayonida nazorat olib borish uchun uni o‘tkazish metodikasini egallash zarur. Nimani, nima uchun va qanday qilib tekshiriladi va nazorat natijasi qanday o‘lchanadi, degan muammolarni metodik tahlil qilamiz.

Ma’lumki, chet til amaliy maqsadda o‘qitiladi va nutq faoliyatini egallash uchun uning texnikaviy va lisoniy tomonlari ham o‘zlashtiriladi. Xuddi shu o‘quv-metodik hodisalar nazorat ostiga olinishi o‘z-o‘zidan tushunarli.

Metodik adabiyotlarda bilim, ko‘nikma va malakani tekshirish haqida ham yozilgan. Chet tilda bilim maxsus tekshirilmaydi, chunki u ko‘nikma tarkibida o‘rganiladi, binobarin, ko‘nikma tekshiriladi.

Nazorat turlari. Chet til o‘rgatishda o‘quvchilar nutqiy ko‘nikma va malakalarini tekshirish turlari bizga ma’lum: doimiy, mavzuiy, davriy, yakuniy nazorat.

Doimiy nazorat amaliyotda keng tarqalgan va eng samarali, muallim har kuni qo‘llaydigan, yuqorida ta’kidlanganidek, tuzatuv vazifasini o‘tashga qaratilgan nazorat turidir. Har darsda o‘rgatish va nazorat qilish ta’limning uzviy qismlari tarzida namoyon bo‘ladi.

Mavzuiy nazorat deyilganda, chet tilini o‘qitishda mavzu yoki darslik paragrafi “mashg‘ulotlar majmui» o‘tib bo‘linganda, uni umumlashtirish, takrorlash, mustahkamlash jarayonlarida tekshirish sanaladi. Ma’lumki, chet til materiali dastlabki bir necha mashg‘ulotni hisobga olinmaganda muayyan mavzuda metodik tashkil qilinadi. Bir mavzuga bir yoki bir necha paragraf bag‘ishlanadi. Odatda mavzu tekshiruvi paragrafning oxirgi darsida o‘tkaziladi. Kundalik doimiy tekshiruv natijalariga qarab, unga oz yoki ko‘p vaqt sarflanadi. Qiyinchiliklar yig‘ilib qolganda, tekshirish mashqlari ko‘proq va ulgurish qoniqarli bo‘lsa, kamroq bajariladi.

Davriy nazorat qilish chorak yoki yarim yilga to‘g‘ri keladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki,

davriy tekshiruvda hajm jihatidan ko‘p material qamrab olinadi. Mazkur nazorat sinfdagi o‘quvchilarning umumiy ulgurish saviyasini namoyish etadi. Demak, o‘quv yilining davrlari oxirida yakun yasalishi uchun ushbu tekshirish turi qo‘l keladi. Darslikda davriy nazoratga mo‘ljallangan mashqlar berilmasligi tabiiy holdir, chunki yo‘l qo‘yiladigan xato yoki paydo bo‘ladigan qiyinchiliklar kundalik dars mashqlarida hisobga olinadi, xolos. Binobarin, davriy tekshiruv mashqlarini muallim tayyorlaydi va o‘tkazadi. Buning uchun o‘tgan davr ichida yoki hozirgacha o‘rganilgan barcha til materiali orasidan puxta o‘zlashtirilmaganlari takrorlashga beriladi, keyingi darsda nazorat o‘tkaziladi. Shunday qilinganda, xatoning oldi olinadi.

Yakuniy nazorat o‘tkazish odatda o‘quv yili oxiriga to‘g‘ri keladi. Yakuniy tekshirish turli shaklda, jumladan imtihon joriy yoki bitirish imtihoni tarzida o‘tkaziladi. Qoidaga binoan yakuniy nazorat mazmuni va shakli ma’lum hujjatga ko‘ra va Xalq ta’limi vazirligi tayyorlagan material asosida o‘tkaziladi.

Imtihon biletiga nutq faoliyati turlari gapirish, tinglab tushunish, o‘qish malakalari bo‘yicha savollar kiritiladi.

Nazorat shakllari: O‘quvchilarning chet tildan olgan ko‘nikma va malakalari yolg‘iz/yoppasiga, og‘zaki/yozma, bir tilda/ikki tilda tekshiriladi. Tekshirishning ushbu ko‘rinishlari metodik manbalarda tavsiya qilingan va maktab amaliyotida tatbiq etib kelinmoqda.

Gapirishni nazorat qilish shakllari: og‘zaki fikr bayon etish malakalari og‘zaki shaklda tekshiriladi. Unda o‘quvchining chet tilda fikr bildirishga harakati o‘z-o‘zidan gapirib ketishi, nutqida qo‘llanmish materialning o‘zlashtirilgan darajasi gapirish tezligi, to‘xtab/to‘xtamay gapirishi, nutq vaziyatiga muvofiq/nomuvofiq fikr bayon etishi kabilar nazorat qilinadi. Nutq mazmunini qisman yozma shaklda tekshirish ham mumkin. Ba’zi metodistlar gapirish malakalarini tekshirish uchun yozma mashqlar berishga qarshi chiqadilar. Bu ilmiy fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki odatda yozma ishlar og‘zaki o‘rganilgan til materiali zaminida bajariladi. Demak, gapirish malakasini o‘stirishga ko‘maklashuvchi yozma mashq, ushbu malakani tekshirishga ham jalb etilishi tabiiydir. Og‘zaki fikr bayon qilinayotganda yo‘l qo‘yiladigan xato va kamchiliklarni ro‘yxatga olish ancha mushkul ishdir. Binobarin, ishni osonlashtirish maqsadida texnik vositalar yordamida o‘quvchi nutqini yozib olish mumkin. Gapirish malakalarini yakka, yalpi, shuningdek, guruhiy tekshirish joriy etilgan[1].

Yoppasiga og‘zaki tekshirish doimiy nazorat chog‘ida qulaylik tug‘diradi. Yoppasiga tekshirish muallim rahbarligida o‘tadi va sinf yoki guruhning umumiy ulgurishini aniqlashda ma’qul keladi. Guruhiy nazorat yoppasiga tekshirishning bir ko‘rinishi sifatida ifoda qilinadi.

Har qaysi o‘quvchining yakka nutqni egallash darajasini bilish maqsadida yakka tekshiruv o‘tkaziladi: tayanchlar UNV, mavzu, rasm asosida gapirish, matn bo‘yicha gapirish, savollarga javob berish va hokazo. Yakka nutqda yolg‘iz tekshirish qulay ish shakli bo‘lib, sinfdagi boshqa o‘quvchilar bekor qolib ketmasliklarining oldini olish maqsadida yoppasiga ishlash, tekshirish tavsiya qilinadi.

Qayd etilgan tekshiruv shakllarining barchasi bir tilda, ya’ni o‘rganilayotgan chet tilda olib boriladi.

Tinglab tushunish malakalari tekshirilganda bir xil chet tilda va ikki til ona tili va chet tilda og‘zaki va yozma mashqlar bajariladi. Nazorat maqsadiga ko‘ra ona tilining ishtiroki ham taqiqlanmaydi, tinglangan materialni tushunish to‘liq, aniq, chuqur bo‘lishi

[1] Xoshimov O‘, I. Yokubov Ingliz tili o‘qitish metodikasi. Toshkent 2003 Sharqnashriyoti

talab etilsa, audiotekstning ayrim joylar itarjima qilinadi. Audiotekst katta hajmda va undagi axborot murakkab bo‘lgan taqdirda ham ona tili yordamga “chaqiriladi”.

Xulosa shuki, chet tillarini o‘qitishga bo‘lgan talabning ortib borishi har bir kasb egasidan o‘z sohasini mukammal bilishini, qolaversa, chet tillardan birida erkin muloqotga kirisha olishini talab etmoqda.

Chet tilini o‘qitish murakkab jarayon bo‘lganligi sababli ham, uni til o‘rganuvchilarga tushunarli holda, turli yangidan-yangi o‘qitish usullari yordamida tashkil qilishni taqozo etadi.

Interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchi va talabalarda turli ish shakllarini, jumladan, yakka individual, juft-juft, guruh va frontal ishlash bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar hosil qilinadi. O‘quvchilar o‘z guruhlarida ishlash orqali nafaqat tilni yaxshi o‘zlashtirishga, qolaversa, hamkorlikda ishlashga va o‘z fikrini bildirishga o‘rganadilar. Guruhdagi har bir o‘quvchi yoki talaba darsda faol ishtirok etishga erishishi asosiy masalalardan hisoblanadi. O‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi o‘rganishga va bu bilan bog‘liq muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy ko‘nikmalarni shakllanishiga yordam beradi.

O‘quvchilar chet tilini o‘rganish jarayonida bilimlarni tayyor holatda olmaydilar, balki bu o‘rinda ular o‘z faolliklari, sai-harakatlari tufayli mustaqil ravishda chet tilini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning adabiyotlar bilan ishlashlarida, o‘zaro bir-biri bilan fikr almashishlarida, muhokama qilishlarida va mustaqil tahlil qilganlarida o‘z aksini topadi.

Chet tilini o‘rgatishda qo‘llanadigan interfaol metodlar o‘zining bir qator afzalliklariga ega ekanligi yuqoridagi fikrdan ham ma’lum. Bu o‘rinda yana bir jihat borki, u ham bo‘lsa, interfaol metodlar o‘quvchida tilga bo‘lgan qiziqishni ortiribgina qolmay, o‘quvchilarda o‘z kuchlariga bo‘lgan ishonchlarini orttiradi.

Til o‘qitishning zamonaviy metodlarini izlab topish va ta’lim jarayoniga tatbiq qilishga talab kuchaydi. Talab va ehtiyojga javoban yetakchi olimlar, metodistlar va tajribali o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodlar va usullar izlab topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov Sh. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noan’anaviy dars o‘tish usullari, didaktik o‘yinlarlar. Andijon 2009

2. Alimov Sh. S. Chet tillarni o‘qitishda lingvo-didaktik o‘yinlar. Andijon 2009

3. Alimov Sh. S. Ingliz tili o‘qitish metodikasidan ma’ruzalar matni. Andijon 2007

4. J. Jalolov. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.,1996. O‘qituvchi nashriyoti.

Qahramon MELIYEV,
Toshkent kimyo texnologiya instituti
“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA DARSI KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya

Maqolada muallif jismoniy tarbiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni jismonan kuchli, baquvvat, sog‘lom qilib tarbiyalash orqali jamiyatda o‘z o‘rniga ega komil insonlarni voyaga yetkazishdan iborat ekanligini bir qator misollar orqali ochib bergan. Shuningdek, pedagogik vazifalariga ko‘ra o‘qituvchi-murabbiy faoliyatidagi dolzarb muammolar haqida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, mashg‘ulot, klassifikatsiya, pedagogik vazifa, mavzu, harakat texnikasi.

В статье изложены формы организации учебного процесса, методы их реализации, технологии преподавания. Раскрыта специфика физического воспитания и особенности преподавания предмета “Физическая культура” в образовательных учреждениях. Представлены способы построения уроков физической культуры, виды деятельности, приемы оценивания результатов обучения, инновационные технологии в области преподавания физической культуры.

Ключевые слова. Физическая культура, классификация, педагогическая задача, техника движения.

The purpose, content and form of the organization of the educational process states in this article. Specifics of physical education and features teaching of a subject “physical culture” in educational institutions. General and private techniques, ways to build physical education lessons, types of activity, methods for assessment of learning outcomes, innovation technologies of the teaching physical education are explained.

Key words. Physical culture, classification, educational tasks, a student, lesson, topic movement.

Bugungi kunda barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo‘lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Sog‘lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir”. Shunday ekan, mamlakatimizda sog‘lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta’lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug‘vor vazifani amalga oshirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Jismoniy tarbiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni jismonan kuchli, baquvvat, sog‘lom qilib tarbiyalash orqali jamiyatda o‘z o‘rniga ega komil insonlarni voyaga yetkazishdan iboratdir. Jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda sport anjomlaridan samarali foydalangan holda o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni shakllantirishdir.

Jismoniy tarbiya darslari xarakteriga, darsdagi tarbiya yoki ta’limning yo‘nalishiga hamda darsga qo‘yilgan pedagogik vazifalariga ko‘ra klassifikatsiyalanadi. Darsning

pedagogik vazifalariga ko‘ra klassifikatsiyasiga quyidagilar kiradi: “Kirish”, “Yangi materialni o‘zlashtirish”, “Aralash”, “Mustahkamlash va takomillashtirish”, “Yakuniy darslar”.

I. Kirish darslar – o‘quv choragi uchun rejalashtirilgan dasturning yangi bo‘limi yoki mavzularining boshlanishidagi darslardir. Bunday darslar o‘zining mazmuni va tuzilishiga ko‘ra, an’anaviy darslardan biroz farqlanadi. Ular ma’ruza, suhbat, o‘zaro muloqot tarzida tashkillashtirilishi mumkin. Kirish darslari yangi o‘quv materialini tanishtirish vazifasini ham hal qilishi mumkin.

Kirish darslari tuzilishiga ko‘ra quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

– o‘quvchilar diqqatini yig‘ish;
– o‘quv yili uchun o‘quv ishlarining vazifalari va mazmuni bilan tanishtirish;
– sinf, guruh tashkilotchisini (fizor) saylash;
– uyga vazifa.

II. Yangi materialni o‘zlashtirish darslari – faqat dasturning yangi mavzularini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi, o‘zidan oldingi turkum darslar nihoyasi bilan bog‘lanadi va quyidagi asosiy elementlaridan tarkib topadi:

– o‘quvchilar diqqatini yig‘ish;
– organizmni tayyorlash (umumiy chigal yozish);
– qoidalar, harakat texnikasi va taktikasini o‘zlashtirish;
– yuklamani uzaytirish;
– darsni yakunlash va uyga vazifa.

Qayd qilinganlardan tashqari, boshqa elementlar ham mavjud, lekin ular o‘zlashtirish darslarining tipik tuzilishiga aytarli darajada ta’sir ko‘rsatmaydi. Darsning asosiy xususiyati faqat yangi materialning o‘qitilishida bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun belgilangan talablarni qo‘yadi. Bu talablar darsning amaliy ahamiyati, uning hayotiy-zaruriy harakat malakalari bilan boyligi va ular bilan bog‘liqligi, o‘quvchilar uchun qiziqarliligi, ularning faolligini oshira olishda namoyon bo‘ladi.

III. Aralash darslar – pedagogik vazifasiga ko‘ra, dars xillarining boshqa turlaridan farqli o‘laroq, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tomonidan amalda ko‘proq foydalaniladi. Bu darslar mazmuniga ko‘ra ta’lim jarayonining tanishtirish, o‘zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish bosqichlarining mazmunini o‘z ichiga oladi va har bir dars (yoki mashg‘ulot)da yangi o‘zlashtirilmagan yoki oldin o‘zlashtirilgan, mustahkamlangan, takomillashtirilgan materialni o‘qitadi.

O‘quvchilar bir necha guruhlarga ajralib, dars davomida o‘zlashtirib ulgurilmagan mavzular ustida ishlaydilar.

Bunday darslarda yangi material va o‘rganilganlarni bajarish, takomillashtirish vazifalari bilan birga amalga oshiriladi. Darsning asosiy qismida mashqlarning bir turiga xos yangi materialni berish va unga o‘qitish uchun nisbatan ko‘proq vaqt ajratilishi lozim.

Aralash darslar o‘zining quyidagi tarkibiy elementlaridan tashkil topadi:

– o‘quvchilarning diqqatini jamlash;
– organizmni tayyorlash (umumiy va maxsus chigal yozish);
– yangi materialni o‘zlashtirish;
– yuklamani pasaytirish;
– darsni yakunlash va uyga vazifa.

IV. Mutahkamlash va takomillashtirish darslari – kirish, yangi materialni o‘zlashtirish darslaridan so‘ng, asosan, harakat texnikasining asosi o‘zlashtirilgandan

keyin, o‘rganilgan mashqlarni mukammal bajarish maqsadida tashkillashtiriladi. Takomillashtirish darslari o‘z ichiga pedagogik vazifasiga ko‘ra mustahkamlash va o‘zlashtirilganini takomillashtirish darslarining mazmunini mujassamlashtiradi.

Takomillashtirish darslarida asosiy e’tibor mashqlarni bajarish orqali hosil bo‘lgan harakat malakalarini ko‘nikmaga aylantirish, mashqni bajarish taomilini topish, individ uchun harakat texnikasini moslashtirishni, jismoniy sifatlarni rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Darslarning pedagogik vazifasiga ko‘ra qayd qilingan mashg‘ulotlar tarzida uyushtiriladi.

Bunday darslar quyidagi tipik elementlarni mujassamlashtirishi mumkin:

– o‘quvchilar diqqatini jamlash;

– organizmni tayyorlash (maxsus chigal yozish);

– harakat texnikasi va taktikasini mustahkamlash va takomillashtirish;

– yuklamani pasaytirish;

– darsni yakunlash va uyga vazifa berish.

V. Yakunlash darslari – o‘z mazmuniga va pedagogik vazifasi nuqtayi nazaridan boshqa darslardan butunlay farqlanadi. Darslar davomida o‘zlashtirilib, turkum darslarga yakun yasaladi.

Yakunlash darslari o‘quvchilarning bilimlari, egallagan harakat malakalari va ko‘nikmalarini baholash tarzida amalga oshiriladi. Bunday darslar o‘quv choraklarining oxirgi yoki dastur materialining bo‘limlari yakuni, o‘qitilayotgan material uchun foydalanilgan darslar turkumining tugallanishidan so‘ng va o‘quv yilining oxirgi darslari sifatida tashkillashtiriladi. Yakunlov darslari oldindan rejalashtiriladi.

Bu darslarga o‘quvchilar o‘zlarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligining ko‘rsatkichlarining yakuniy hisoboti bilan qatnashadilar. Hozirgi kunda darsning bu xilini ota-onalar ishtirokida o‘tkazish odatga aylantirildi. Darsning bu turi faqat o‘quv tarbiya jarayoni uchun yakun bo‘lib qolmay, eng avvalo o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar uchun ham yakuniydir. Bu kabi darslar yuqorida qayd qilingan o‘zining tashkiliy tuzilmasining qismlaridan tashqari har bir qismning tarkibiy elementlariga ega.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘qituvchi-murabbiy faoliyatidagi dolzarb muammolar

Har qanday harakat foaliyati haqida ta’lim berish ma’lum vaqtni talab qiladi. Ta’limning har bir bosqichi o‘zining xususiy va ayrim yetakchi tushunchalari bilan ta’riflanadi. Faqat vazifalar ketma-ket bo‘lsagina o‘qituvchi ta’lim uslubiyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, shu qatorda ta’lim prinsiplari, tayyorlov va yo‘llanma beruvchi mashqlardan foydalanishi, usullar va uslubiyatlarni maqsadga muvofiq qo‘llay olishi mumkin.

Ta’lim jarayonining tuzilishi – xususiy vazifalar, prinsiplar, vositalar va uslubiyatlarning o‘qitish bosqichlaridagi o‘zaro nisbati turg‘un aloqalari orqali vujudga keladi. Harakat faoliyatini o‘rgatish jarayoni jismoniy tarbiya ta’limining tuzilishida deb qaraladi. Ta’lim jarayonining barcha elementlari (xususiy vazifalar, yo‘llanma beruvchi va tayyorlov mashqlari, uslubiyatlar va boshqalar) harakat faoliyatini o‘rgatishning yakuniy vazifasi bilan bog‘liq.

Agar yakuniy vazifa harakat malakasi yoki oliy tartibdagi harakat malakasini shakllantirish deb qo‘yilsa, unda ta’limning tuzilishi harakat faoliyatini tanishtirish, o‘zlashtirish, mustahkamlash degan shartli ravishdagi uch bosqichga ajratiladi.

Ta’limning uch bosqichga ajratilishi pedagoglar amaliyotida ko‘proq qo‘llanib, harakat faoliyatini nisbatan takomillashgan darajada egallashga imkon yaratadi. Lekin

umumiy jismoniy tayyorgarlikka oid ayrim pedagogik vazifalarini hal qilishda harakat faoliyatini ko‘nikmaga aylantirish maqsad qilib qo‘yilmaydi va ta’lim jarayonining birinchi va ikkinchi bosqichlaridan foydalaniladi, xolos.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonining tuzilishini o‘zgarmas deb bo‘lmaydi. Bu jarayon faqat bosqichlar elementlarining tipik aloqasi bo‘lib ta’limning umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va aniq vazifalarga qarab o‘zgarishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ta’limning barcha bosqichlarida o‘qituvchi o‘zlashtirilayotgan faoliyatni o‘quvchilar bilan birga tahlil qilishi, baholashi va xatolarni o‘z vaqtida tuzatib borishi lozim ekanligi xususidagi amaliy ishlaridagi kamchiliklar, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jismoniy tarbiya ta’limining ushbu bosqichdagi vazifasi shug‘ullanuvchilarda o‘zlashtirilayotgan harakat faoliyati haqida lozim bo‘lgan birlamchi tasavvurni hosil qilish va o‘zlashtirish jarayoniga ongli munosabatni shakllantirish bilan faollikni oshirish o‘quv vazifasini to‘la anglash va uni to‘g‘ri hal etish qoidalari va uslubiyatlari haqidagi tushunchani yuzaga keltiradi.

Tasavvurni shakllantirish jarayoni shartli ravishda o‘zaro uchga bo‘linadi va ular quyidagilar:

Pedagogik jarayon shug‘ullanuvchining jismoniy, nazariy tayyorgarligi darajasiga qarab, harakat faoliyatining nisbatan oson yoki qiyinligini e’tiborga olib, uni ketma-ketligini belgilashga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, to‘g‘ri qo‘llanilgan ta’lim metodlari harakat faoliyatini egallash jarayonida xatolarning yuzaga chiqishiga yo‘l qo‘ymasligi va bu bilan ta’limning samaradorligini pasaytirmasligi mumkin. Xatolar albatta mavjud bo‘ladi, ularsiz mumkin emas, deyishga mutlaqo o‘rin yo‘q. O‘qituvchi o‘quvchilarning xatolariga nisbatan befarqlik, ularga yuzaki qarash, xatolarning kamayishiga salbiy ta’sir etishi, yana yangi xatolarning paydo bo‘lishiga olib kelishini amaliyot tasdiqlagan. Ayniqsa, harakat malakasi shakllanishining boshlang‘ich bosqichlarida mashqni takrorlashlari davomida xatolar sodir bo‘ladi. Ularning oldini olish uchun esa, har bir pedagog nazoratni yanada kuchaytirishi, o‘quvchilar bilan ko‘proq shug‘ullanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ibragimov. X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi – T.: “Fan va texnologiya”, 2008.*

2. *Maveyev R., Novikov A.D. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi – T., 1976.*

3. *Salomov R. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asosi, 2005.*

4. *www. ZiyoNet.uz.*

Shuhrat SATTOROV,
Mehriniso PARDAEVA,
Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi mustaqil tadqiqotchilari

O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH VA OBYEKTIV BAHOLASH – RAHBARNING SHAXSIY HAMDA KASBIY YUKSALISHI GAROVIDIR

Annotatsiya

Mazkur maqolada rahbar/maktab direktori faoliyati natijaviyligiga ta'sir etuvchi omillar va o'z-o'zini baholashga zamonaviy yondashuv, rahbarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish ehtiyoji, motivatsiyasi, yuksalish traektoriyasini belgilash hamda faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Rahbar, maktab direktori, lider, ta'lim sifati, boshqaruv, o'z-o'zini baholash, mezonlar, motivatsiya, natija, kasbiy rivojlanish, faoliyat, muvaffaqiyat.

В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на эффективность работы руководителя/директора школы и современный подход к самооценке, необходимость профессионального развития лидера, мотивация, определение траектории развития и о повышение результативности деятельности.

Ключевые слова. Директор школы, лидер, качество образования, менеджмент, самооценка, показатели, критерии, мотивация, результат, профессиональное развитие, активность, успешность.

This article examines the factors that affect the effectiveness of the head/principal of the school and the modern approach to self-assessment, the need for professional development of the leader, motivation, determining the trajectory of development and improving performance.
Key word. School Director, leader, quality of education, management, self-assessment, indicators, criteria, motivation, result, professional development, activity, success.

Zamonaviy psixologik manbalarida "o'z-o'zini baholash", "o'z-o'zini rivojlantirish" atamalari, ya'ni shaxsning qobiliyatlari, fazilatlari va jamiyatdagi o'rnini baholash, kasbiy yuksalish to'g'risida juda ko'p fikrlar mavjud. Bu bejizga emas, albatta, chunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida noyob kapital sifatida inson kapitali – shaxsga qo'yilayotgan talablar kuchayib bormoqda.

Darhaqiqat, bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki o'z-o'zini hurmat qilish, o'ziga ishonch va raqobatbardoshlik hissi so'zsiz rahbar shaxsiyatining asosiy fazilatlaridan hisoblanadi.

O'z-o'zini baholash orqali o'z kompetentligi va fazilatlarini yaxshilab borish, boshqalar bilan munosabatlar, tanqid, o'ziga nisbatan talabchanlik, muvaffaqiyat va ba'zi aks holatlarda to'g'ri munosabat qila olishga o'rgatadi.

O'z-o'zini anglash va baholash bu shaxsning o'zini, uning qobiliyatlari, fazilatlari va boshqa odamlar orasidagi o'rnini anglashi va baholashidir. Rahbarning boshqaruv prinsiplari haqidagi g'oyalari, uning "shaxsiy rahbarlik falsafasi" asosan o'z-o'zini hur-

mat qilish bilan belgilanadi.

Demak, o‘z-o‘zini hurmat qilish insonning asosiy ehtiyojlaridan biri – insonning hayotda o‘z o‘rnini topishi, o‘zini jamiyatning a’zosi sifatida boshqalarning nazarida va o‘z nuqtayi nazarida tasdiqlash istagi bilan bog‘liq faoliyatdir. Buning asosiy vazifalari sifatida qo‘yidagilarni ko‘rish mumkin:

– o‘z faoliyati samaradorligining ijtimoiy maqbul va individual ravishda mos mezonlarini aniqlash;

– maqsadlar va faoliyat natijalarini shu asosda taqqoslash;

– faoliyatining rivojlanish, natijaviylik darajasini baholash;

– natijalarini yanada yaxshilash, ya’ni rivojlanish traektoriyasini belgilash/korreksiyalashdan iborat doimiy harakatdagi jarayondir.

O‘z-o‘zini baholash natijalarining real va obyektivligi juda muhim bo‘lib, ular quyidagilarga bog‘liq:

– qo‘llanilgan vositalar va usullarning to‘g‘ri tanlanganligi;

– tanlangan instrumentlarning belgilangan mezonlarga mosligi;

– natijalar tahlilida ishonchli metodologiya qo‘llanishi, xolis bo‘lishi;

– ko‘rsatkichlarni qiyoslash imkoniyatining mavjudligi.

O‘z-o‘zini baholash natijalarini inobatga olgan holda o‘z-o‘zini rivojlantirish, garchi bu murakkab jarayon, mashaqqatli mehnat bo‘lsa-da, o‘ziga xos afzalliklarga ega, shuningdek, rahbar uchun individual/shaxsiy rivojlanish kafolatiga xizmat qiladi. Bunda motivatsiya, ya’ni shaxsiy va kasbiy taraqiyot ehtiyoji/ishtiyoqi darajasi bevosita kasbiy yuksalish dinamikasi oshadi, faoliyat natijaviyligi/samardorligini ta’minlanadi. Bunda:

– o‘ziga ishonch;

– shaxsiy rivojlanish;

– raqobatbardoshlik;

– barqarorlik motivi;

– hurmat qozonish (nufuz);

– kasbiy yuksalish (karera);

– lider bo‘lish xislatlari ortadi.

Har bir faoliyat natijasida yangi mahsulot yoki yangi yutuqlar yaratilmasa, bu jarayon ma’nosiz bo‘ladi, unga sarflangan vaqt va kuch besamar ketadi. Shuning uchun rahbarning shaxsiy rejasida, albatta, ma’lum bir vaqt ichida erishilgan natijalar ro‘yxati bo‘lishi shart. O‘z-o‘zini rivojlantirishning natijalari qanday bo‘lishi mumkin:

– rahbar o‘z kasbiy faoliyatining turli tomonlari - ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini tushunadi va uning nomukammalligini tan oladi, natijada, o‘zgarishga tayyor bo‘ladi;

– o‘z ustida ishlash natijasida rahbarning shaxsiy rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi, yangi yutuqlarga intiladi;

– ilg‘or tajribalarni o‘rganish va qo‘llashga o‘rganadi, boshqarayotgan tashkiloti faoliyati samaradorligi oshadi;

– rahbarlik faoliyatida boshqaruvning yangi samarali shakllari, usullarini qo‘llash orqali xodimlar bilan munosabatlari tabiatini o‘zgartiradi;

– tashkilot xodimlarining rahbar va uning boshqaruv usullariga bo‘lgan munosabatini aniqlashga xolis yondashadi;

– kasbiy faoliyatning amaliy natijalari bo‘yicha boshqalar bilan tajriba almashadi;

– o‘z xatti-harakatlari, ichki his-tuyg‘ulari, ruhiyati holatini tanqidiy tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi;

– o‘zi va jamoasiga ishonchi ortadi, hamkorlikdagi muvafaqqiyatlaridan zavqlana

oladi.

Shuningdek, rahbarlik faoliyatida tanqidni to‘g‘ri qabul qilish, boshqalarning ustunliklarini tan olish, ulardan o‘rganish, uzoqni ko‘ra olish va natijalarini bashoratlash, o‘z tajribasini tahlil qilish kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarurati mavjud.

Rahbarning kasbiy rivojlanishining yana bir samarali yo‘li ilmiy izlanish, tadqiqotchilik va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega bo‘lishdir. U shaxsiy va kasbiy rivojlanish, ya’ni o‘z-o‘zini rivojlantirishni amalga oshirish zaruratini ruhan anglashi va mashaqqatli mehnat qilish natijasida muvafaqqiyatga erishishi-haqiqiy Liderga aylanishi mumkin.

Muvafaqqiyat – bu idrok va ruh oralig‘idagi lahzalarda sodir bo‘ladi. Unutmang! o‘z-o‘zingizni qanchalik obyektiv baholay olsangiz, rivojlanish va muvafaqqiyatga erishishning traektoriyasini shunchalik aniq belgilab olasiz! Bir necha misollarni keltirish mumkin.

“Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish”ni aniqlash bo‘yicha o‘zini-o‘zi baholash so‘rovnomasi:

Qo‘llash qoidasi: savollarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob beriladi. Savollarga tez fursatda, ko‘p o‘ylamasdan javob bering. Xayolingizga kelgan birinchi javob/fikr, xolis va aniqroq javob bo‘la oladi.

So‘rovnoma savollari/tasdiqlar:

1. Ishimga kirisha turib, muvafaqqiyatga erishishga umid qilaman.
2. Faoliyatimda jadalman/faolman.
3. Tashabbuskorman.
4. Javobgarligi bor vazifalar bo‘lganda, iloji boricha ularni zimmamga olmaslik uchun sabab topishga harakat qilaman.
5. Ko‘pincha o‘ta oson, yoki o‘ta murakkab noreal vazifalarga qo‘l uraman.
6. To‘siqlarga duch kelganimda, chekinmayman, ularni yengib o‘tish yo‘llarini izlayman.
7. Muvafaqqiyatlar va muvafaqqiyatsizliklar ketma-ketligida o‘z yutuqlarimga ortiqcha baho/ahamiyat berib yuborishga moyilligim bor.
8. Faoliyatim natijaviyligi ko‘pincha, tashqi nazoratga emas, balki o‘zimning intiuvchanligimga bog‘liq.
9. Qiyin vazifalarni cheklangan vaqt sharoitida bajarishim faoliyatim natijaviyligiga salbiy ta’sir qiladi.
10. Maqsadga erishishda beqarorlikka moyilligim bor.
11. O‘z kelajagimni ancha uzoq muddatga rejalashtiraman.
12. Agar ishga kirishsam, buni faqat aql bilan qilaman, shoshma-shosharlik bilan emas.
13. Maqsadga erishishda uncha tirishqoq emasman, ayniqsa, tashqi nazorat bo‘lmasa.
14. O‘z oldimga, noreal baland maqsadlar qo‘ygandan ko‘ra, erishsa bo‘ladigan biroz qiyinroq maqsadlar qo‘yishni afzal ko‘raman.
15. Maqsadga erishishda ayrim muvafaqqiyatsizlikka duch kelsam, unga intilishim pasayadi va qiziqishim susayadi.
16. Muvafaqqiyatlar va muvafaqqiyatsizliklar ketma-ketligida muvaffaqiyatsizliklarga ortiqcha baho/ahamiyat berib yuborishga moyilligim bor.
17. O‘z kelajagimni yaqin muddatga rejalashtirishni afzal ko‘raman.
18. Cheklangan vaqt sharoitida ishlasam faoliyatim natijaviyligi yaxshilanadi, gar-

chi, vazifa ancha qiyin bo‘lsa ham.

19. Muvafaqqiyatsizlikka uchrasam ham maqsadimdan voz kechmayman.

20. Agar vazifani o‘zim qo‘ygan bo‘lsam va qiyinchilikka duch kelsam, uni bajarishga intilish yanada kuchayadi.

So‘rovnoma kaliti:

Ha: 1,2,3, 6,8,10,11,12.14,16,18,19,20.

Yo‘q: 4,5,7,9,13,15,17.

Natijalar tahlili.

Kalitga to‘g‘ri kelgan har bir javobga bir ball beriladi. Olingan ballarning umumiy soni sanab chiqiladi va quyidagicha talqin qilishi mumkin:

Agar olingan ballar **1 dan 7 gacha** bo‘lsa, u holda, muvafaqqiyatsizlik motivatsiyasi tashxisi qo‘yiladi (muvafaqqiyatsizlikdan qo‘rqish).

Agar olingan ballar **14 dan 20 gacha** bo‘lsa, u holda, muvafaqqiyatga erishish motivatsiyasi tashxisi qo‘yiladi (muvafaqqiyatga umid).

Agar olingan ballar **8 dan 13 gacha** bo‘lsa, u holda, motivatsiya aniq ifodalanmagan.

O‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati/ishtiyoqi/moyilligini baholash.

Qo‘llash qoidasi: Jadvalda keltirilgan tasdiqlar bo‘yicha o‘zingizga to‘g‘ri keladigan ballni tanlang/belgi qo‘ying (* yoki +). Iloji boricha tez fursatda, ko‘p o‘ylamasdan javob bering. Shunda natija obyektiv bo‘ladi.

5 ball – bu tasdiq haqiqatga to‘liq mos keladi;

4 ball – qisman mos keladi;

3 ball – ha ham yo‘q ham;

2 ball – qisman mos kelmaydi;

1 ball – mos kelmaydi.

№	Savol	1-ball	2-ball	3-ball	4-ball	5-ball
1	Men o‘zimni doimo anglash/o‘rganish/ baholashga harakat qilaman.					
2	Ish va uy tashvishlari bo‘lishiga qaramasdan, o‘z ustimda ishlash uchun vaqt topaman.					
3	Duch keladigan to‘siqlar meni yanada faollikka undaydi.					
4	Men qayta aloqa/natijalarga alohida e’tibor beraman, chunki u o‘zimni anglash va baholashga yordam beradi.					
5	Men o‘z faoliyatimni refleksiya qilaman (bunga alohida vaqt ajrataman)					
6	Men o‘z ruhiyatim va tajribamni tahlil qilaman.					
7	Men ko‘p o‘qiyman/yangi narsalarni o‘rganaman.					
8	Men o‘z imkoniyatlarimga ishonaman.					
9	O‘zimni qiziqtirgan savollar bo‘yicha ko‘p muloqotda bo‘laman.					
10	Men qo‘proq ochiq/kirishimli bo‘lishga harakat qilaman.					
11	Men atrofimdagilarning menga ta’sirini anglayman.					
12	Men o‘z kasbiy rivojlanishimni boshqaraman va ijobiy natijalar olaman.					

13	Men yangi narsalarni o‘rganishdan zavqlanaman.					
14	Oshayotgan/ko‘payayotgan mas’uliyat meni cho‘chitmaydi.					
15	Men kasbiy yuksalishga/kareraga ijobiy munosabatdaman.					

Baholash va uning mezonlari:

Ballar yig‘indisi topiladi. Natijalarga ko‘ra quyidagicha baholanadi.

75 – 55 ball – o‘z-o‘zini rivojlantirishda faol/aktivsiz.

54 – 36 ball – o‘z-o‘zini tizimli rivojlantirish mavjud emas, ya’ni turli sharoit/vaziyatlarga bog‘lanib qolgansiz.

35 – 15 ball – o‘z-o‘zini rivojlantirishdan to‘xtagansiz.

O‘z-o‘zini baholash va tashxyislashning juda ko‘plab usullari bor, ammo ularni qo‘llashdan olinadigan natijalar ob’ektivligi faqat va faqat baholovchiga bog‘liq.

Liderlar boshqaruvda o‘rnak bo‘lish orqali xodimlarga ta’sir o‘tkazadilar, ular ilg‘or fikrlari orqali boshqalarni ham mehnat qilishga ilhomlantira oladilar.

Lider shaxsiyatidagi:

- ✓ qaror qabul qilib, tavakkal qilishdan cho‘chimaslik;
- ✓ imkoniyatlardan foydalanish uchun qat’iy harakat qilish;
- ✓ maqsadda qat’iyatli bo‘lish va chalg‘imaslik;
- ✓ o‘rganishdan to‘xtamaslik;
- ✓ o‘zidagi ichki kuch-g‘ayratni topa olish, ya’ni ehtiyotkor emas, o‘z harakatlarida qat’iy turib, olg‘a borish kabi xusussiyatlari bilan ajralib turadilar. Shuningdek, ular:
- ✓ ishchan va g‘ayratli bo‘ladilar;
- ✓ ijodiy yondashadilar;
- ✓ ertani "ko‘ra oladilar";
- ✓ xodimlarni himoya qila oladi;
- ✓ faol muloqotda bo‘ladi;
- ✓ rag‘batlantirish yo‘llarini izlaydilar.

Sanab o‘tilgan (ular juda ko‘p bo‘lishi mumkin) xususiyat va jihatlar insonda tug‘ma bo‘lmaydi va ular mehnat faoliyati natijasida rivojlanib boradi. Tasavvurni haqiqatga aylantirish qobiliyatiga ega har qanday yetakchi/rahbarlar chin ma’noda millat taraqqiyotining yangi davrini boshlab beradilar. Zero, yurtning tayanchi bo‘lgan yoshlar tarbiyasida bunday rahbarlar – haqiqqiy yo‘lboshchi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sattorov Sh. Biz g‘alaba qozonamiz. – T.: Bilim va intelletual salohiyat, 2018.

2. Pardaeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimi boshqarish. Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – T, : 2020.

3. Yuldashev M. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menej mentini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2016.

4. Internet materiallari.

Murodil BARATOV,
Yuridik fanlari doktori, professor

VOYAGA YETMAGAN BOLALARNING FUQAROLIK-HUQUQIY LAYOQATI

Annotatsiya

Maqolada voyaga yetmagan shaxslarning fuqarolik-huquqiy layoqatining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, muallif yuridik adabiyotlarda huquq subyektliligi tushunchasiga nisbatan turli fikrlar va qarashlarda huquq tushunchasi turli xil tushuncha va atamalardan kelib chiqib talqin etilganini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Voyaga yetmagan, fuqarolik-huquqiy layoqat, huquq subyekt, tushuncha, atama,ijtimoiy tasavvur.

В статье освещены особенности гражданско-правовой дееспособности несовершеннолетних лиц. Автор также отметил, что в юридической литературе понятие права трактуется по-разному, исходя из различных понятий и терминов, в разных мнениях и взглядах на понятие правосубъектности.

Ключевые слова. Несовершеннолетний, гражданско-правоспособный, субъект права, понятие, термин,общественное мнение.

The article highlights the features of civil legal capacity of minors. The author also noted that in the legal literature, the concept of law is interpreted differently, based on different concepts and terms, in different opinions and views on the concept of legal personality.

Key word. Minor, civil legal capacity, subject of law, concept, term, public opinion.

Ijtimoiy soha va uni tadqiq qiluvchi fanlarda, shunindek, axloqda voyaga yetmagan bolalar[1] alohida huquqiy maqom (status)ga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlam sifatida e’tirof etiladi. Bu – bejiz emas. Zero, bu qatlamni har tomonga yo‘rg‘alatish, istalgan tomonga og‘dirish mumkin. Shu ma’noda mazkur masala yurisprudensiyaning ham diqqat markazidadir. Odatda, voyaga yetmagan bolalarning ijtimoiy munosabatlardagi huquq subyektliligi asosan “fuqarolik-huquqiy layoqat” iborasi bilan yagona mahrajga birlashadi. Bu o‘rinda mashhur “Suyunchi” filmidagi Shermat obrazi boshchiligidagi oilaviy futbol jamoasini, aniqrog‘i, deraza sindirilgandagi voqelikni eslaymiz. Yoki “Kichkina tabib”ni yoxud Garri Poterni eslaymiz. Bugungi kunda filmlar, badiiy asarlardagi obrazlar-qahramonlar real voqelikka ko‘chdi. Bolalarimiz – voyaga yetmaganlar qatlami bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Xo‘sh, voyaga yetmagan bolalarning yuqorida qayd etganimizdek, fuqarolik-huquqiy layoqati va uning mazmuni qanday?

Voyaga yetmagan bolalarning fuqarolik-huquqiy layoqatini ochib berishda

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “bola (bolalar) – o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar)”dir // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 yil, 1-2-son, 1-modda.

“huquq subyektliligi” (pravosubyektnost) tushunchasining mohiyatini ochib berish muhimdir. Zero, “huquq subyektliligi” tushunchasi “huquq subyekti” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu ikki tushunchani bir-biridan ayricha tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’kidlash lozimki, huquq subyektisiz ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni amalga oshirish mumkin emas. Bu esa, o‘z navbatida, huquqiy jihatdan tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etuvchining huquq subyektliligi maqomiga ega bo‘lishini talab etadi. Huquq subyektliligi esa, o‘z navbatida, huquqiy layoqat tushunchasi bilan bog‘liqdir. Huquqiy layoqat esa – huquqiy layoqati va muomala layoqati kabi ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi. Shaxs huquq layoqatining ana shu ikki tarkibiy qismiga bir vaqtning o‘zida ega bo‘lishidan kelib chiqib, uning to‘laqonli huquq subyektliligi anglashiladi.

Agar shaxs huquq layoqatiga ega bo‘lib[2] (fuqarolik huquqi subyektlari har doim huquq layoqatiga ega bo‘ladilar), muomala layoqatiga ega bo‘lmasa, u huquq subyektliligiga ega, deb hisoblanmaydi.

Yuridik adabiyotlarda huquq subyektliligi tushunchasiga nisbatan turli fikrlar va qarashlar bayon etilgan. Mazkur qarashlarda huquq subyekti tushunchasi turli tu shuncha va atamalardan kelib chiqib talqin etilgan yoki muayyan holatlarda turli tu- shunchalar bilan bog‘lashga harakat qilingan. Masalan, N.V.Vitruk huquq subyektliligini huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalari bilan bog‘laydi va huquq subyektliligi oxir-oqibat shaxsning o‘z xatti-harakatlari, xulq-atvori oqibatini to‘liq anglash va ularni boshqarish bo‘lib, shaxsning aynan mana shu xususiyati uning huquq subyekt-liligida ham o‘z ifodasini topadi[3], deb yozadi.

S.S.Alekseev huquq subyektililigini huquqiy muomala layoqati sifatida talqin qilib, “huquq subyekti” va “huquq subyektliligi” tushunchalari bir xil tushunchalar ekanini ta’kidlaydi hamda huquq subyektliligi – o‘zining tabiatiga ko‘ra shaxsdan ajratilishi mumkin bo‘lmagan xususiyatligini bayon etadi.

Ba’zi huquqshunos olimlarning fikricha, huquq subyektliligi mazmuni kengroq ma’noda talqin etilishi lozim. Huquq subyektliligi nafaqat huquq layoqati va muomala layoqatidan, balki qonunlardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlardan ham iborat bo‘ladi. Bunday talqinda huquq subyektliligi tushunchasi fuqaro maqomi tushunchasi bilan birxillik kasb etadi S.S.Alekseev huquq subyektliligi tushunchasini fuqaroning maqomi tushunchasi bilan bir xilda deb e’tirof etmagan holda, o‘zining huquq subyektliligi haqidagi fikrlarini to‘ldirib, huquq sub’ektliligi muomala layoqati singari shaxsning konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini o‘zida ifodalovchi huquqiy maqomi tushun-

[2]Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, fuqarolik huquqining sub'ektlari har doim huquq layoqatiga ega hisoblanadilar. Huquq layoqati shaxsning mavjud bo'lishi (fuqarolarda tug'ilish) bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Biroq shaxsda muomala layoqatining mavjud bo'lmasligi (masalan, fuqaroning hali 18 yoshga to'lmaganligi (mazkur vaziyatda to'la muomala layoqatiga nisbatan istisnolar hisobga olinmayapti)) uni huquq sub'ekti sifatida tan olinishini rad etmaydi. Lekin bu vaziyatda shaxs huquq subyektliligiga ega deb ham hisoblanishi mumkin emas. Shu ma'noda aytish mumkinki, "huquq subyekti" va "huquq sub'ektliligi" atamalari bir-biridan farq qiladi. Bunda "huquq subyektliligi" tushunchasi "huquq sub'ekti" tushunchasidan so'ng vujudga keladigan va "huquq subyekti" atamasini to'ldiradigan tushuncha sifatida talqin etiladi. "Huquq sub'ekti" tushunchasisiz "huquq sub'ektliligi" tushunchasi mavjud bo'lmaganidek, "huquq sub'ektliligi" tushunchasisiz "huquq sub'ekti" atamasi ham to'liq bo'lmaydi. "Huquq subyektliligi""huquq subyekti"ning faol ko'rinishi bo'lib, u har qanday huquqiy munosabatning to'laqonli ishtirokchisi hisoblanadi.

[3] Витрук Н.В. Основы правового положения личности. – М., 1999. – С.89.

chasining tarkibiy qismi hisoblanadi, degan fikrga keladi.[4]

Fikrimizcha, bu o‘rinda huquq subyektliligi tushunchasini ilmiy jihatdan tadqiq etgan olimlar, mazkur tushunchaning mazmuni, uning huquq va muomala layoqati tu- shunchasi bilan uzviy bog‘liqligi, huquqiy maqom tushunchasining tarkibiy qismi ekanligi nuqtayi nazaridan ochib berishga harakat qiladilar. Biroq huquq subyektliligi tushunchasi nafaqat biror-bir huquqqa ega bo‘lish imkoniyati ekanligi, balki bu tushuncha to‘laqonli huquq subyekti bo‘lish chegarasi ekanligi xususida yuqoridagi mutaxassislar fikr bildirmaydilar.

Mazkur holatda huquq subyektliligi tushunchasiga huquq subyekti tushunchasiga nisbatan yondashganda, S.N.Bratusning fikrlariga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki huquq layoqatiga egalikning o‘zi huquq subyektililigini anglatmaydi. Shaxs huquq subyektliligiga ega bo‘lishi uchun o‘zida mavjud huquqlarni amalga oshira olishi va muayyan harakatlari yuzasidan zimmasiga olgan majburiyatlarni bajara olishi lozim. Shundagina u huquq subyektliligiga ega hisoblanadi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, huquq subyekti hisoblangan shaxs (faqat fuqarolar) har doim ham huquq subyektliligiga ega bo‘lavermaydi. Biroq mazkur qoida davlatga nisbatan tatbiq etilmaydi. Zero, davlatda xuddi yuridik shaxslar kabi huquq va muomala layoqati bir paytda vujudga keladi. Shu munosabat bilan davlatning huquq subyekti va huquq subyektliligi bir vaqtda vujudga keladi va bu tushunchalar davlatga nisbatan qo‘llanilganda ularni alohida talqin qilib bo‘lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Huquq layoqati subyekt uchun ayrim manbalar[5]da aytilganidek, imkoniyat (fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisi bo‘lish) emas, aksincha, u bilan chambarchas bog‘liq mezon, mavjud voqelikdir. Huquq subyekti shaxs sifatida mavjud ekan, uning huquqiy munosabatda ishtirok etishi yoki etmasligidan qat’i nazar, huquq subyekti bo‘lib qolaveradi (bu fikrlar faqatgina fuqarolik-huquqiy munosabatlar uchun xos bo‘lgan holat). Masalan, fuqaro yoki davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishmasdan oldingi holatida ham huquq va burchlar egasi hisoblanadi va huquq subyekti sifatida e’tirof etiladi.

T.A.Umarovning ta’kidlashicha, huquq layoqati bu huquqqa ega bo‘la olish, muomala layoqati esa shaxsning o‘z xatti-harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini qo‘lga kiritishi va o‘zi uchun fuqarolik majburiyatlarini vujudga keltira olishidir.[6]

T.M.Turebekovning e’tirof etishicha, huquq subyektliligi subyektda huquq va muomala layoqati mavjud bo‘lishini ifodalaydi. Huquq layoqati fuqaroning huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish imkoniyati bo‘lsa, muomala layoqati o‘zining harakatlari bilan huquqlarga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun majburiyatlar olish va ularni bajarish imkoniyatidir.[7]

Umumiylikdan – xususiylikka o‘tadigan bo‘lsak, mazkur fikrlarning barchasi huquq va muomala layoqatini subyektga bevosita tegishli bo‘lgan yoki uning xatti-harakatlari bilan vujudga keladigan imkoniyatlar sifatida talqin etadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 17, 22-moddalari mazmunidan kelib chiqadi.

Keng ma’noda olganda, mamlakatmizda voyaga yetmagan shaxslar qatlamining huquqiy layoqati – Konstitutsiya va amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan, fuqarolik-huquqiy layoqati – Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi. Masalan, “yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir”

[4] Алексеев С.С. Общая теория права. – М., 2002. – С.141.

[5] Гражданское право / Под ред. Е.А.Суханова. Т.1. – М., БЕК, 1994.– С 50.

[6] Umarov T.A. Xalqaro xususiy huquq: Jismoniy shaxsning huquqiy holati. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. 96-b.

[7] Туребеков Т.М. Общественные объединения как субъекты гражданского права: Автореф. дис. …канд. юрид. наук. – Тошкент: 2002. – С.14.

(Konstitutsiya, 24-m.), “har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega” (25-m.), “har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega” (27-m.), “har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli” (36-m.), “har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi” (42-m.).

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda bu hol yanada to‘ldiriladi. Masalan, “har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi... Bola ota-ona va ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan suiiste’molliklardan himoyalanish huquqiga ega” (11-m.), “har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid bo‘lgan hollar bundan mustasno” (13-m.), “har bir bola g‘ayriqonuniy ko‘chirilishdan va chet eldan qaytarilmaslikdan himoyalanish huquqiga ega” (14-m.), “har bir bola tug‘ilgan paytdan e’tiboran familiya, ism, ota ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo‘lish huquqiga, shuningdek, ularni saqlab qolish huquqiga ega” (bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo‘lgan huquqi) (9-m.).

Fuqarolik kodeksiga ko‘ra: mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari; bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari; tadbirkorlik, deh qon (fermer) xo‘jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo‘yilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishlari; fan, adabiyot va san’at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqi kabilarga ega bo‘lishlari mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, voyaga yetmagan shaxslarning fuqarolik-huquqiy layoqati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan, fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi barcha jihatlarni qamrab oladigan, qonuniy vakillar (ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiy va homiylar) boshchiligida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan va shu maqsaddan kelib chiqib amalga oshiriladigan huquq layoqatidir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “bola (bolalar) – o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar)”dir // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 yil, 1-2-son, 1-modda.

2. Витрук Н.В. Основы правового положения личности. – М., 1999. – С.89.

3. Алексеев С.С. Общая теория права. – М., 2002.– С. 141.

4. Гражданское право / Под ред. Е.А.Суханова. Т.1. – М., БЕК, 1994.– С.50.

5. Umarov T.A. Xalqaro xususiy huquq: Jismoniy shaxsning huquqiy holati. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. 96-b.

6. Туребеков Т.М. Общественные объединения как субъекты гражданского права: Автореф. дис. …канд. юрид. наук. – Тошкент: 2002. – С.14.

Aynash OMAROVA,
Toshkent kimyo texnologiya instituti
"Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasi o'qituvchisi

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING BOLA TAFAKKURIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan e'tibor, jismoniy tarbiya va sportni bola tafakkurining rivojlanishiga ta'siri to'g'irisida fikr yuritilgan. Jismoniy tarbiya darslarini va mashg'ulotlarini tashkil qilishda dars samaradorligini oshirishga qaratilgan usullardan foydalana olish malakasiga ega bo'lish haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Uslub, dars, talab, tashkil etish, dars o'tish, o'qituvchi, o'quvchi, jismoniy tarbiya, samaradorlik.

Статья посвящена значению физического воспитания и спорта в нашей стране, влиянию физического воспитания и спорта на развитие мышления детей. Есть комментарии, чтобы можно было использовать методы для повышения эффективности урока при организации уроков и занятий по физическому воспитанию.

Ключевые слова. Метод, урок, требование, организация, проведение уроков, учитель, ученик.

The article is devoted to the importance of physical education and sports in our country, the impact of physical education and sports on the development of children's thinking. There are comments so that you can use the methods to improve the effectiveness of the lesson in organizing lessons and physical education classes.

Key words. Method, teaching, organization, the lessons, teacher, pupil.

Sport hozirgi kunda barcha xalqlarning hayot talabi va ehtiyojiga aylanib qolmoqda. Chunki u kishilarning har tomonlama chiniqishini ta'minlabgina qolmay, balki ruhan tetik, ma'nan boy, axloqan pok, yuksak madaniyatli, mustahkam irodali qilib ham tarbiyalaydi. Sport turlari xilma-xildir. Lekin ularning har biri ham kishilarda yuqoridagi xislatlarni tarbiyalash uchun sport mashg'ulotlarida uzluksiz shug'ullanish va musobaqalarda qatnashishini talab etadi. Sport faoliyatining qonuniyatlari va xususiyatlarini, sportchi shaxsini bilmasdan turib, biz sport mashg'ulotlarining foydali metodlarini ishlab chiqara va ish faoliyatiga bo'ysundira olmaymiz. Sport faoliyati juda katta aniqlik, his qilish hamda idrok etish nafisligiga bog'liqdir.

Yurtimizda ruhan tetik, jismonan barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyati davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda o'z aksini topmoqda. 2002-yil 24-oktabrda O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risidagi Prezident farmoni chiqdi. 2003-yil 4-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy sport targ'ibotini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlar zamirida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda turli xil kasalliklarning oldini olishning asosiy yo'li

to‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy harakat madaniyati, sport hamda yoshlarga jismoniy tarbiya darslarini olib borishdagi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va sport murabbiylarining yuqori malakaga ega ekanligidir.

Jismoniy harakat bolaning butun organizmini normallashtiradi, buzilgan fiziologik faoliyatining tiklanishiga yordam beradi, aqliy va jismoniy faolligini oshiradi. Shuni aytish zarurki, turli yoshdagi bolalar uchun jismoniy tarbiya va sport – hayot va faoliyat ko‘rsatkichidir. Shuning uchun o‘qituvchi yoki murabbiy tomonidan o‘quvchilar ruhiyatini ko‘taruvchi holatlarni yaratish zarur. Hayotda uchraydigan murakkab holatlarni misollar asosida, bolalar psixologiyasiga ta’sir etish yo‘li bilan, jismoniy tarbiya va sport orqali, uzoq umr ko‘rish g‘oyasini bola ongiga singdirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda jismoniy mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati rivojlanadi. Mashg‘ulot jarayonlari ularda yuksak sport mahoratini egallashlariga, jismonan baquvvat bo‘lishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Sportning vazifasi o‘quvchilarga jismoniy mashqlarni bajarishning turli usullarini egallashga yordamlashishdir. O‘quvchining sportni mukammal egallashida harakat tasavvurlarining roli kattadir.

Harakat tasavvurlariga ega bo‘lmagan o‘quvchi eng oddiy jismoniy mashqlarni ham bajara olmaydi. Harakat to‘g‘risidagi tasavvurlar doimo murakkab bo‘lib, u ko‘rish harakat elementlari birligidan tashkil topadi. Uzoq davom etgan harakatlar dastlab ko‘z kuzatishlari, keyin muskul harakat tasavvuri bilan bog‘lanadi. O‘quvchi ongida ko‘z tasavvuri paydo bo‘lganda o‘z-o‘zidan muskul harakatlari paydo bo‘ladi. Shu sababli, harakatni ko‘rsatish har doim ham uning o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri bajarilishiga olib kelavermaydi. Muskul harakat tasavvurlarini hosil etish uchun jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida aniqlab olish zarur. Bu harakatda og‘zaki tushuntirish yordamida erishiladi:

1. Harakatni sekinlashtirib bajarish. Masalan, diskani otishda harakatni boshqarish muhim rol o‘ynaydi. Unga erishish uchun sportchi, avvalo, harakatni sekinlatib bajaradi. Shu paytda u muskulning otish vaqtdagi holatini tasavvur qila oladi. Bu jarayonda o‘quvchi harakatning har bir detaliga mukammal e’tibor berishga harakat qiladi.

2. Turli og‘irlikdagi snaryadlardan foydalanish. O‘quvchi turli og‘irlikdagi snaryadlar bilan shug‘ullanganda, o‘sha zahoti muskul miqdorida o‘zgarish ro‘y beradi, uni his etadi. Bu unga harakatni yaxshi o‘zlashtirishiga yordam beradi.

3. O‘rgangan harakatlarni diffirensional bajarish. Shug‘ullanish jarayonida sportchi mashqni umumiy, bo‘linmagan holda bajaradi. Keyin u mashqni elementlarga, qismlarga bo‘lib bajaradi, ya’ni qo‘l va oyoq harakatlari, qo‘l bilan harakat qilganda u faqat qo‘lni o‘ylaydi, shu paytda oyoq harakatlari unutiladi.

4. Har bir aniq harakat og‘zaki ko‘rsatma asosida olib borilishi lozim. Shundagina bu harakatlar to‘g‘risida aniq tasavvurlar hosil bo‘la boradi. Jismoniy mashqlarni ko‘rsatishdan maqsad, o‘quvchilarda o‘rganilayotgan harakat to‘g‘risida ko‘z tasavvuri obrazi hosil etishdir.

Bugungi kunda, jismoniy tarbiya va sportni bola tafakkurining rivojlanishiga ta’sirini o‘stirishda o‘qituvchi va murabbiylar quyidagi nazariy bilim asoslarini egallashlari kerak.Birinchidan, jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonlarida nazariy bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish:

– mustaqillikka erishgan yillardan buyon, jismoniy tarbiya va sportga oid farmon va qarorlarning mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga yetkazish;

– o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy tadqiqot, metodik ishlarni olib borish talablarini bilish, amaliyotga tatbiq etish;

– mustaqil ravishda o‘z malakasini oshirishning yo‘l va usullarini bilish;

– darsni kuzatish va tahlil qilish;

– mutaxassisligi yo‘nalishidagi ilg‘or ish tajribaga ega mutaxassis-o‘qituvchilardan tajribalar o‘rganib, ulardan o‘z faoliyatida foydalanish malakasini egallash;

– iqtidorli sportchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashgan ta’lim berish yo‘llari, shakllari hamda usullarni o‘rgatish;

– jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishda gigiyenik qoidalarga rioya qilish.

Ikkinchidan, jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlarini tashkillashtirishda, dars samaradorligini oshirishga qaratilgan usullardan oqilona foydalana olish malakasiga ega bo‘lish:

– “Yoppasiga” (frontal) shug‘ullanish usuli – bu usulda barcha o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida bir xil mashqni bajaradilar. Uning ustunligi shundaki, barcha o‘quvchilar band bo‘ladilar, darsning motor zichligi baland bo‘ladi. Bu usuldan maktab dasturidagi ko‘plab mashqlarni bajarishda foydalanish mumkin;

– “Oqim” usuli – bu usulda o‘quvchilar bitta mashqni navbat bilan, ketma-ket, to‘xtovsiz oqim tarzida bajaradilar. Bunday oqimlar sharoitga qarab ikkita, uchta bo‘lishi mumkin.

Bu usulni o‘tkazish uchun o‘qituvchi kerakli jihozlarni avvaldan tayyorlab qo‘yishi talab etiladi;

– “Guruh” usuli – bu usulda shug‘ullanishning mazmuni shundan iboratki, unda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, har bir guruh o‘qituvchi topshirig‘iga binoan mustaqil shug‘ullanadi. Bu usulga mashq uchun jihoz va uskunalar yetishmasa, o‘qituvchiga murojaat qilinadi. Guruhlar ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng joylarini almashtiradilar. Har bir guruhga boshliq tayinlanadi. Dars jarayonida bir-biriga xalaqit bermaydigan tarzda joylashtiriladi.

Bu usulni to‘g‘ri tashkil etish natijasida, o‘qituvchi o‘quvchilarga mashqlarni mustaqil bajara olish ko‘nikmasini o‘rganishga imkon yaratadi.

– “Individual” (yakka) usuli – bu usul shundan iboratki, o‘qituvchi mashqni individual bajaradi, qolganlar esa uni kuzatib turishadi. Bunday usullar darsning yakuniy qismlarida qo‘llaniladi.

Bu – o‘qituvchiga har bir mashq bajarilgandan so‘ng, yakun chiqarishga, bolalar e’tiborini mashqni yaxshiroq bajarishga, kamchilik va xatolarini to‘g‘rilashga imkon beradiki, bu ta’lim-tarbiya jihatdan juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham har bir jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va sport murabbiysi yil davomida o‘quvchilar salomatligini mustahkamlash yo‘lida quyidagilarni amalga oshirishlari lozim. Jumladan:

– o‘quvchilarda yuksak axloqiy, ma’naviy, irodaviy fazilatlarni, mehnatsevarlik, faollikni tarbiyalashga;

– o‘quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog‘lom, kuchli va qiyinchiliklarni yengishga qodir etib tarbiyalashga;

– o‘quvchilarda hayotiy muhim malaka va ko‘nikmalar (yugurish, yurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish va tushish, suzish, sayohat asboblaridan foydalana olish) ni shakllantirishga;

– o‘quvchilarning jismoniy mashqlar gigiyenasi, anatomiyasi va fiziologiyasiga doir bilimlarni boyitishga;

– sport bo‘yicha targ‘ibotchilik, tashkilotchilik, instruktorlik malakasini singdirish, harakatlarning estetikasini to‘g‘ri talqin qilishga odatlantirishga;

– yuqori sinf o‘quvchilarida ularning kelajakda egallaydigan kasblarini hisobga olgan holda, kasb-hunar va amaliy ko‘nikmalarni rivoj toptirishga ko‘niktirmoq kerak.

Mazkur yo‘sinlarni jismoniy tarbiyani tashkil etishda hamma jihatlaridan to‘liq foydalangan taqdirdagina, muvaffaqiyatli ravishda hal etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya mutaxassislari o‘z ustida tinimsiz mehnat qilishlari, izlanishlari, o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda kerakli malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirib borishlari zarur. Shundagina, jismoniy tarbiya va sportni o‘quvchi tafakkurining rivojlanishiga, jismoniy sifatlarining o‘sishiga, ularning texnik va taktik harakatlarni o‘rganishiga yaqindan yordam beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shabbozov D.R. Sport psixologiyasi. – Termiz, 2008.
2. Адизова Т.М. Психокоррекция: Учебное пособие. – Т., 2006.
3. Бернштейн Н.А. Физиология движений и активность. – М., 1990.

Yaxyo ERGASHEV,
Toshkent Kimyo texnologiya instituti
“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHI - YOSHLARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA MILLIY HARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Muallif maqolada o‘quvchi-yoshlarning jismoniy rivojlanishida milliy harakatli o‘yinlarning ahamiyati haqida so‘z yuritar ekan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilari mashg‘ulotlarda foydalanishi uchun mazkur o‘yinlardan “Ovchilar va o‘rdaklar”, “Doira bo‘ylab” kabi misollarni keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, harakatli o‘yin, imkoniyat, faollik, o‘yin xususiyati, zal, “Ovchilar”, “O‘rdaklar”, guruh, jamoa, koptok, qoida, metodik ko‘rsatma, doira, o‘yinchi, poyga.

В статье автор, говоря о значении национальных игр в физическом развитии учащихся и молодежи, привел примеры таких игр, как “Охотники и утки”, “По кругу”, которые учителя физкультуры общеобразовательных школ используют на занятиях.

Ключевые слова. Физкультура, подвижная игра, возможность, активность, игровая функция, зал, “Охотники”, “Утки”, группа, команда, мяч, правило, методическое руководство, круг, игрок, гонка.

In the article, the author, speaking about the importance of national games in the physical development of students and youth, gave examples of games such as “Hunters and ducks”, “In a circle”, which physical education teachers of secondary schools use in the classroom.

Key words. Physical education, mobile game, opportunity, activity, game function, hall, “Hunters”, “Ducks”, group, team, ball, rule, methodical guide, circle, player, race.

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarining birida bolalarda serharakatchanlik tabiatan zarur ehtiyoj ekanligini anglab shunday degan: “Har qanday yoshning o‘z qonuniyatlari bor, bolalik qonuni bu – o‘yin, demak, bolalikka munosib diqqat va e’tibor bo‘lishi lozim”. Demak, tinib-tinchimas bolalar turfa tipologiya xususiyatga ega bo‘la turib, harakat qilishlikka ehtiyoji bo‘lgani sabab, uni qonuniyatga ko‘ra bajarishi shart ekan. Maktab o‘quvchilari jismoniy tayyorgarligida harakatli o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Ular tarbiyaviy, o‘quv va sog‘lomlashtiruvchi vazifalarning asosiy qismini bajaradi hamda ma’naviy-ruhiy his-tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Ularni amalga oshirish jarayonida harakat faolligi oshadi, mashg‘ulotlarda hissiy ko‘tarinkilik kuchayadi, bu esa, yoshlar organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, turli jismoniy sifatlar va harakat ko‘nikmalarining shakllanishiga olib keladi. Harakatli o‘yinlar o‘ziga xos muvozanatli tizimga ega bo‘lib, unda tug‘ma va shartli refleks reaksiyalari o‘rtasida murakkab o‘zaro munosabatlar vujudga keladi, harakatga bo‘lgan ehtiyoj va undan bahra olish o‘rtasida aloqa o‘rnatiladi.

Harakatli o‘yinlar jo‘shqin, ko‘tarinki ruhda o‘tishi bois, charchoqni tez ketkazadi. O‘yinlarning hordiq chiqarish xususiyati, tabiiy ravishda bolalarning yosh xususiyatlari-

ga ham mos keladi. O‘yinlarning yana bir xususiyati shundaki, unga bo‘sh, tortinchoq, uyatchan bolalar ham tez kirishib ketadilar, o‘yin zavqi, hatto eng bo‘sh bolalarning yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga majbur etadi. Bola o‘rtoqlaridan orqada qolmaslikka tirishadi va ko‘p o‘tmay u ham o‘zini to‘laqonli o‘yinchi, deb hisoblay boshlaydi.

Harakatli o‘yinni qanday tanlash va o‘rgatish kerak?

Do‘stlar bilan o‘yin tanlashda ushbu o‘yinni ularga tez va aniq tushuntirib be- rish muhimdir. Yangi o‘yinlar ularga ilgaridan noma’lum bo‘lganligi uchun ham qiziqar- li tuyuladi. Quyida umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va to‘garak rahbarlariga qulay bo‘lishi uchun milliy harakatli o‘yinlarning ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

“Ovchilar va o‘rdaklar” *(birinchi o‘yin)*

O‘yin maydonchada yoki zalda o‘tkaziladi. O‘yin uchun bitta basketbol yoki voleybol koptogi kerak. Yerga iloji boricha kattaroq doira chiziladi. Agar o‘yin tor zal- da o‘tkaziladigan bo‘lsa, o‘rtadan zalning ko‘ndalangiga 8-12 qadam oralig‘ida ikkita chiziq o‘tkazib, ikki tomonidan chiziqlar bilan chegaralangan to‘rtburchak hosil qilish tavsiya etiladi. O‘yinchilar ikkiga, ya’ni “ovchilar”, “o‘rdaklar” jamoalariga bo‘linadilar. “Ovchilar” doira chizig‘i atrofiga yoki ikkiga bo‘linib, zalning ko‘ndalangiga o‘tkazilgan chiziqlar bo‘ylab saflanadilar. “O‘rdaklar” doira yoki to‘rtburchak o‘rtasida turadilar. “Ovchilar”dan birining qo‘lida koptok bo‘ladi. “Ovchilar” doira yoki to‘rtburchak ichiga kirmasdan “o‘rdaklar”ga koptok otadilar. “Otilgan o‘rdak” o‘yindan chiqadi. “O‘rdaklar” o‘zlariga “o‘q” tegmasligi uchun chap berib, doira ichida yuguradilar va sakraydilar. “Ovchilar” koptokni bir-birlariga oshiradilar va “o‘rdaklar” uchun kutilmagan bir vaqtda ularga otadilar. O‘yin “o‘rdaklar”ning hammasi ‘‘otib’’ bo‘lingunicha davom ettiriladi. Keyin jamoalar joy almashadi. Ikki marta o‘ynalgandan so‘ng qaysi “ovchilar” jamoasi hamma “o‘rdaklar”ni tezroq ‘‘otgan’’ligi aniqlanib, g‘olib jamoa e’lon qilinadi.

O‘yin qoidalari:

1. “Ovchilar” chiziqdan o‘ta olmaydilar, chiziqdan o‘tib otilgan koptok hisobga olin- maydi.

2. Koptok bilan o‘yinchining boshidan boshqa hamma yeriga tegish mumkin.

3. Yerdan sakrab borib o‘rdakka tekkan koptok hisobga olinmaydi.

4. ‘‘Otil’’gan o‘rdaklar barcha sheriklari ‘‘otilib’’, jamoalar almashtirilgunicha o‘yinda ishtirok etmaydilar.

O‘yin bolalarda o‘rtoqlik tuyg‘usini, o‘zining manfaatini jamoaning umumiy vazi- falariga bo‘ysundirish hissini uyg‘otadi. O‘zi va o‘rtoqlarining kuchini haqqoniy baho- lay olish iqtidorini tarbiyalashda yordam beradi. O‘rdaklar rolidagi ishtirokchilar dadil bo‘lishlari, ovchilar esa mergan va o‘z kuchiga ishonishlari kerak.

Metodik ko‘rsatmalar:

Koptokni uzatish mashqi o‘quvchilarni qo‘l to‘pi bilan o‘ynaladigan yanada mu- rakkabroq o‘yinlarga tayyorlaydi.

“O‘rdaklar”ga bir-birining ortiga berkinmaslikni, qo‘rqmay, to‘pga chap berib qutulishni tavsiya qilish kerak. Ularga to‘pdan behuda qochaverish doimo foyda ber- masligini, bunday harakat tez charchatib qo‘yishini, turgan joyida to‘pga chap berish- ning har xil imkoniyatlaridan foydalanish ma’qulligini uqtirish lozim.

Agar o‘yinni o‘tkazish uchun kam vaqt ajratilgan bo‘lsa, o‘rdaklarni ‘‘otish’’ vaqtini cheklab qo‘yish mumkin. Masalan, 3 daqiqa mobaynida qaysi jamoa ovchilari ko‘proq

o‘rdak otgan bo‘lsa, o‘sha jamoa g‘olib hisoblanadi.

“Doira bo‘ylab” *(ikkinchi o‘yin)*

Hamma o‘yinchilar quloch yoyib, aylanaga saflanadilar va galma-gal “birinchi, ikkinchi!”, deb o‘z tartib raqamlari bo‘yicha ikki jamoaga bo‘linadilar. Safda yonma-yon turgan o‘yinchilardan ikkitasi jamoalarning ona boshi qilib tayinlanib, ularga bittadan koptok beriladi.

O‘qituvchi “Diqqat, marsh!”, deb signal berishi bilanoq jamoalardan birining ona-boshisi o‘ng tomondan bir o‘yinchini oralatib, o‘z jamoasining unga eng yaqin turgan o‘yinchisiga koptokni uzatadi. Boshqa o‘yinchilar ham koptokni jamoadoshlariga oshiradilar. Koptoklar ona boshilarga yetib kelguncha, doira bo‘ylab uzatib boriladi. Koptogi birinchi bo‘lib yetib kelgan sardor koptok ushlagan qo‘lini baland ko‘taradi. Koptokni butun doira bo‘ylab boshqa jamoaga qaraganda tezroq aylantirib o‘tkazgan va ona-boshiga koptok tegib, qo‘lini oldin ko‘targan jamoa yutgan hisoblanadi.

Doira bo‘ylab koptoklar poygasini 2-3 guruhga o‘tkazish mumkin. Koptok davradan belgilangan miqdorda aylantirib chiqilgandan keyin tugaydi.

O‘yin qoidalari:

1. Koptokni, albatta, o‘z jamoasining yaqinida turgan o‘yinchiga, ya’ni o‘yinchini oralatib uzatish kerak.

2. Agar o‘yinchi koptokni tushirib yuborsa, uning o‘zi borib koptokni olishi va o‘z joyiga qaytib kelib, uni navbatdagi o‘yinchiga uzatishi lozim.

Metodik ko‘rsatmalar:

O‘yin boshlanganida qatnashchilar doira (aylana) chizig‘i bo‘yicha harakat qilishlari, o‘yin davomida qaysi bir ishtirokchining qo‘lidan koptok chiqib ketsa, bu holda sababchi o‘yinchi koptokni sheriklarining yordamisiz o‘zi borib olishi hamda doira bo‘ylab aylanayotgan koptok onaboshining qo‘liga to‘liq yetib kelganidan keyingina qo‘lini tepaga ko‘tarishi lozim.

Harakatli o‘yinlarning yana bir samarali jihati shundaki, o‘yin chog‘ida sinfdoshlar bir-birlarini yanada yaxshi bilib oladilar, sabr-qanoat, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga o‘rganadilar, og‘ir ahvolga tushganda qutqarish, yordam berish hissini tuyadilar. Mag‘lubiyat paytida esankiramay, odob-axloqli, yaxshi fe’lli bo‘lib tarbiyalanadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mashg‘ulot jarayonida o‘quvchi jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, yuklamalar qisqa muddatli dam olish bilan birga olib borilsa, u nisbatan yengil o‘tadi, ya’ni yurak qontomir va nafas olish tizimining qisqa davrda qayta tiklanishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonxo‘jayev T. Kichkintoylarga 200 ta harakatli o‘yinlar. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2009.

2. Usmonxo‘jayev T. va boshqalar. Jismoniy tarbiya. Boshlang‘ich sinflar uchun dars ishlanmalari va harakatli o‘yinlar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008.

3. Usmonxo‘jayev T., Karimov M. Xoreografiya mashqlari, badiiy gimnastika va xalq harakatli o‘yinlari: O‘quv qo‘llanma. “Ilm-Ziyo” nashriyoti, 2005.

4. Usmonxo‘jayev T., Raximov M. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. O‘zbek harakatli o‘yinlari. O‘quv qo‘llanma.

Sarvar MAXMUDOV,
pedagogika fanlari nomzodi

MALAKASI OSHIRISH JARAYONINI INNOVATSION – VARIATIV MEXANIZMLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada malaka oshirish jarayonini innovatsion – variativ yexanizmlar asosida takomillashtirishning zamonaviy nazariyalari batafsil bayon etilgan, variativ malaka oshirish tiimini keng ma'nodagi mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, variativ malaka oshirishning tushunchalari, vazifalari hamda malaka oshirishga variativ-pog'onalik yondashuv tizimi prinsiplari, unga qo'yilgan umumiy hamda o'ziga xos maxsus talablar, Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini innovatsion – variativ-pog'onali yondashuv asosida tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modeli keltirilgan.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish, innovatsion yondashuv, innovatsion – variativ yondashuv, variativlik, variativ-pog'onali yondashuv, muntazam malaka oshirish, ehtiyojga asoslanganlik, malaka oshirishning pog'onali tizimi.

В статье рассматривается инновационый – вариативный подход к повышению квалифкации педагогических кадров, раскрывается понятие «вариативная система повышения квалификации», описывается задачи, принципы вариативной – ступенчатой системы повышения квалификации, приводиться модель инновационной – вариативной-ступечатой системы повышения квалификации.

Ключевые слова. Повышения квалификации, нновационный подход, инновационный – варитивный подход, непрерывное повышение квалификации, потребность, ступенчатая система повышения квалификации.

This article is revealed in detail the modern approaches to improving the education system of the Republic of Uzbekistan on the basis of an innovative and variational approach, revealing the broader meaning of the system of alternative training. It also presents the concepts, objectives and specific requirements for variational training, as well as the socio-pedagogical model of creating a system for improving the qualifications of the public education staff based on an innovative – variational approach.

Key words. Improvement of professional skill, innovative approach, innovative-variational approach, variability, variational-step approach, regular training, needs-based, advanced training system.

Jahonda pedagog kadrlarning malakasini oshirish orqali uzluksiz ta'lim tizimi sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash uchinchi mingyillikning ustivor tendensiyalaridan hisoblanadi. XXI asr texnologiyalari inson ongini va yashash tarzini tubdan o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida ijodiy, nostandart fikrlaydigan, fan va ishlab chiqarishda yangi usullarni topa oladigan professional mutaxassislarga ehtiyoj tobora ortmoqda.

Dunyo ta'lim tizimida rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini, bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni sohaga oid ilg'or texnologiyalar hamda umumkasbiy va ijtimoiy bilimlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaga oid ilm-

fanning eng so‘nggi yutuqlarini keng targ‘ib qilish, innovatsiyalarni, IT-texnologiyalarni malaka oshirish ta’lim mazmuniga singdirish, pedagogikaning ilg‘or g‘oyalari, uslublari, zamonaviy elektron o‘quv resurslari, multimedia, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini tatbiq qilish, xalqaro miqyosda kattalar ta’limi sohasining professionallashuvini ta’minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biz tomondan olib borilayotgan tadqiqot Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini innovatsion - variativ yondashuv asosida takomillashtirish borasidagi tadqiqotlar strategiyasi pedagog kadrlar malaka oshirish tizimini rivojlantirish mexanizmlarini variativ – pog‘onali yondashuv asosida takomillashtirish, malaka oshirishga variativ – pog‘onali yondashuvning axborot-didaktik ta’minotini modernizatsiyalash, malaka oshirish uchun elektron didaktik vositalarni yaratishda axborot-telekommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash, malaka oshirish ta'lim mazmunini Xalq ta’limi xodimlarining ehtiyojlariga asosan bo‘lishligini ta’minlash masalalarining ilmiy-amaliy yechimiga qaratilgan.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish muammosi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa ham, biroq pedagog xodimlarining malakasini oshirishga nisbatan "innovatsion yondashuv", "ehtiyojga asoslanganlik", "variativlik" va "pog‘onali malaka oshirish" hamda ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik nashrlarning pedagogik faoliyatdagi vazifalari va tutgan o‘rnini dolzarbligini nazarda tutgan holda, ularda berilayotgan axborotlar, materiallar, tavsiyalarning ta’lim oluvchilarning madaniyati va ma'naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishining oldini olish maqsadida, ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik nashrlarda yoritilayotgan ilmiy asoslanmagan, o‘zini oqlamagan, salbiy natijalarga olib kelgan ma’lumotlarni tizimdagi pedagog xodimlar ta'lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayoniga olib kirayotganliklari ushbularning pedagogik asoslarini takomillashtirish masalasi alohida tadqiq etilmagan.

Muntazam malaka oshirish – o‘zida pedagogning kasbiy-shaxsiy rivojlanishining muntazamligini ta’minlash uchun sharoitlar tizimini aks ettirgan, malaka oshirishning ehtiyojga asoslanganlik paradigmasini amalga oshirishning yetakchi vositalaridan biri. U kasbiy-pedagogik tayyorgarlik va malaka oshirishning barcha bosqichlarining uzviyligi; rasmiy va norasmiy kasbiy-pedagogik mustaqil ta’limning birligi; umumiy (umummadaniy, umumrivojlantiruvchi) va malaka oshirish tizimining birligi; o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga mos ravishda malaka oshirish tizimining barcha elementlarini uzluksiz yangilashni o‘z ichiga oladi.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion – variativ mexanizmlarni amaliyotga joriy etish, malaka oshirish sifatini boshqarishning samarador tizimini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur vazifani hal etish uchun malaka oshirish jarayoni tizimini nazariy (malaka oshirish nazariyasi va uslubiyati), amaliy (mamlakat va xududlarda malaka oshirishning muntazamligini ta’minlash maqsadida barcha turdagi malaka oshirish muassasalari malaka oshirish jarayoni sifatini boshqarishning quyidagi komponetlarini ya’ni, malaka oshirish sifatini nazorat qilish, malaka oshiruvchilarda motivatsiyani shakllantirish, tashkiliy chora-tadbirlar, rejalashtirish va loyihalashtirish, tahlil, malaka oshirish sifatini tadqiq qilish lozim bo‘ladi.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion – variativ mexanizmlarni joriy etish xalq ta’limi xodimlari kasbiy bilimi, ko‘nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etishga, zamonaviy talablarga muvofiq malaka oshirish sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirishga, malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini

to‘ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishga, xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga va rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion – variativ mexanizmlarni joriy etish avvalambor, malaka oshirish tizimi sifatini belgilovchi asosiy omil, davlat, jamiyat, ta’lim muassasalari va pedagoglar talablarini, ehtiyojlarini hamda imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ta’lim dasturlari va/yoki ta’lim xizmatlari variantlarini ishlab chiqish, taqdim etish ko‘rsatkichi, barcha malaka oshirish jarayoni qatnashchilarining ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda, davlat talablari asosida ta’lim mazmuni, ta’lim texnologiyalarini, faoliyat va muloqot vositalari va usullarini tanlashda hamkorlikdagi faolyatini shuningdek, ularning ehtiyojga asoslangan ta’lim talablarini qondirish, tizimlilik asosida malaka oshiruvchilar uchun yagona ta’lim sifatini ta’minlash bilan bog‘liq jarayon sifatida qaraladi.

Malaka oshirish jarayonida variativ-pog‘onali malaka oshirish, malaka oshirish tizimiga pedagog kadrlarning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojari inobatga olingan resurslarni yetkazib beradi, malaka oshirish tizimidan esa uning pirovard mahsuloti - ma'naviy-madaniy sifatlari va kasbiy kompetentligi zamon talablariga javob beradigan pedagogik kadrlarni oladi va iste'mol qiladi. Buning o‘ziga xosligi shundaki, tizim faoliyatining mahsulotlari qoidaga ko‘ra, muhitda yaratilishi mumkin emas (aks holda tizimni muhitdan ajratish zarurati bo‘lmas edi).

Malaka oshirish tizimiga innovatsion - variativ-pog‘onali yondashuvning eng ahamiyatli komponentlaridan biri, malaka oshiruvchilarning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlari inobatga olishga qaratilgan va o‘quv komponetiga asos bo‘ladigan variativ-pog‘onali dasturiy-metodik majmuadir.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion - variativ-pog‘onali yondashuvni rejalashtirish, loyihalash, amalga oshirish va foydalanish psixologik-pedagogik, metodik va texnologik tavsifdagi talablar va tavsiyalar majmuasiga qat’iy amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion - variativ-pog‘onali yondashuvni amalga oshirish texnologiyasi va uni amaliy qo‘llash metodologiyasining malaka oshirish tizimiga mosligi ma’lum afzalliklarga ega. Ulardan biri sifatida resurslarni loyihalashtirish va ishlab chiqishda bevosita tinglovchilarning (malaka oshiruvchilarning) ishtirok etish imkoniyatlarining mavjudligidir. Tinglovchilarning tomonidan, ularning ehtiyojlari inobatga olingan dasturlar, malaka oshirish majmualarini-resurslarini ishlab chiquvchi mutaxassislar tomonidan malaka oshirish reja va dasturlari tarkibiga kiritilishi uchun moslanishi va yo‘naltirilishi mumkin.

Malaka oshirish tizimiga innovatsion - variativ-pog‘onali yondashuv deganda nafaqat mazmun jihatdan farqlonuvchi variativ dasturlardan (chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan darajadagi) foydalanish balki, ta’lim usullari, shakllari va ta’lim texnologiyalari bilan farqlonuvchi dasturlari ham nazarda tutiladi. Shundan kelib chiqqan holda variativlik malaka oshiruvchi shaxsining talablari, ehtiyojlari, imkonyatlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Shuningdek, malaka oshirishda variativlik-pog‘onalik yondashuv quyidagi faktorlarga asoslanadi:

– Xalq ta’limi xodimlarining kasbiy kompetetligi, pedagogik salohiyati darajasiga qarab malaka oshirish dasturlarining turli-tumanligi;

– Malaka oshirish tizimiga talablarning ortishi va rivojlanishini inobatga olinishi;

– Malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik

texnologiyalarning rivojlanishi hamda ularga bo‘lgan talabning ortishini inobatga olish.

Malaka oshirishda variativ-pog‘onalik yondashuvni amalga oshirishda malaka oshirish muassasalari, ta’limni boshqaruv organlari quyidagi yo‘nalishlarga asosiy e’tiborlarini qaratishlari lozim:

– Xalq ta’limi muassasalari xodimlarining kasbiy kompetentlik darajasi va pedagogik salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan (qisqa muddatli, maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda barcha talablarni, ehtiyojlarni inobatga olgan malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish);

- Xalq ta’limi xodimlarining davlat, jamiyat va ta’lim muassasalari talablaridan kelib chiqqan holda yangi, zamonaviy pedagogik kadrlar professiogrammasini (Xalq ta’limi xodimi ijtimoiy-pedagogik modelini) ishlab chiqish lozim;

- Xalq ta’limi xodimlarining variativ-pog‘onalik yondashuv asosida malaka oshirganliklariga qarab ma'naviy va moddiy rag‘batlantirish choralarini ko‘rish.

Yuqoridagi fikrlar inobatga olingan holda malaka oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, xalq ta’limi xodimlarining ehtiyojlarini inobatga olishga va variativ-pog‘onalik malaka oshirish dasturlari, pedagogik texnologiyalardan jadal foydalanishga olib keladi. Ushbu tarzda yondashuv esa malaka oshirish tizimining jahon ta’lim tizimiga integrsiyalashuvini, malaka oshirish jarayonida ilhor pedagogik g‘oyalar va texnologiyalarni tatbiq etilishini ta’minlaydi.

Har qanday sharoitda ham malaka oshirish pedagogik xodimlarning kasbiy kompetentligi rivojlantirishning asosini belgilovchi yetakchi jarayon hisoblanib, malaka oshirishida ularning ehtiyojlarini inobatga olish muhim sanaladi.

Xalq ta’limi xodimlarining variativ-pog‘onali malakasini oshirishini ta’minlash, pedagog kadrlar malakasini oshirishning amaldagi tizimidan farqi, malaka oshirish ta’lim muassasalarida kunduzgi, masofaviy bo‘ladimi har qanday holatda ham variativ-pog‘onali, ehtiyojga asoslangan malaka oshirishni amalga oshirishga yo‘naltirilgan, ta’lim dasturlaridan foydalaniladi. Quyida Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini innovatsion – variativ-pog‘onali yondashuv asosida tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik tizimi keltirilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, malaka oshirish muassasalarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, malaka oshirishga Xalq ta’limi xodimlarining talablarini keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish zarur.

Albatta, malaka oshirish tizimini rivojlantirish avvalambor, ta’lim jarayonini sifat jihatidan o‘zgarishlarga olib keluvchi innovatsiyalarni rivojlantirishga bog‘liq. Qolaversa, ta’lim tizimida olib borilayotgan demokratlashtirish, liberallashtirish jarayonlari, ta’limning variativligi, innovatsion jarayonlar malaka oshirish tizimiga malaka oshirish iste’molchilari – ta'lim muassasalari va pedagoglar o‘rtasida hamkorlikdagi, muvofiqlashgan faoliyatga xizmat qiladi.

Bugungi kunda oldimizda turgan eng dolzarb vazifa malaka oshirish tizimi iste’molchilarining eng avvalo pedagoglarning moyilliklari, qobiliyatlari, layoqatlari, tafakkurlari, tayyorgarliklari va qiziqishlari inobatga olingan ta’lim dasturlarini ishlab chiqishdir. Bu esa o‘z navbatida Xalq ta'limi xodimlarining variativ-pog‘onali malakasini oshirish tizimi modelini amaliyotga tatbiq qilinganligining mantiqiy yakuni hisoblanadi.

Ta’lim paradigmasining o‘zgarishi ya’ni, ta’limni unifikatsiyalash g‘oyasidan,

ta’limni variativlashtirish g‘oyasiga o‘tilishidir.

Variativ-pog‘onali malaka oshirish jarayoni – barcha malaka oshirish jarayoni qatnashchilarining ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda, davlat tablari asosida ta’lim mazmuni, ta’lim texnologiyalarini, faoliyat va muloqot vositalari va usullaririni tanlashda hamkolikdagi faolyatini yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyatga ega.

Malaka oshirish tizimining innovatsion – variativ-pog‘onali modeli sifatini faqat administrativ yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydi, bu jarayonda yuqorida ta’kidlab o‘tganmizdek jamiyatning barcha institutlari, malaka oshirish jarayonining barcha subyektlari ishtirok etishi zarur.

Malaka oshirish doimo tinglovchining o‘tgan davrdagi tajribasini yangi holatda faollashtirishdan boshlanadi. Bunda ham tajribani egallaganda ham keyingi ta’limda muhim rol o‘zlashtirganlik va ehtiyojga asoslanganlik bo‘lishi mumkin.

Malaka oshirishda innovatsion yondashuv deganda yangilikni yaratish, o‘zlashtirish, undan foydalanish, uni tarqatish va rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan majmuali faoliyat tushuniladi. Malaka oshirishda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish esa malaka oshirish sifatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Malaka oshirishda innovatika (yangilik kiritish, innovatsiya) - malaka oshirish muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishiga samarali ta'sir etuvchi maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishdir.

Innovatsion – variativ-pog‘onali pedagogik texnologiyalar aynan malaka oshirish jarayonida ta’lim oluvchilar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo‘yicha bilim berish va shaxsni shakllantirishga qaratilgan, tinglovchilarning ehtiyojlariga soslangan malaka oshirishning zamonaviy o‘quv-metodik, axborot-didaktik shakllari va axborot-kommunikatsion texnologiyalar majmuidir.

Malaka oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari – ta’lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim tarbiya mazmunini, ta’lim maqsadiga, tinglovchilarning ehtiyojlariga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o‘qitish usullarini tadbiq etishga yo‘naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta’lim beruvchi va ta'lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir tizimidir.

Yuqoridagi nazariy fikrlarga asoslangan holda tadqiqot ishining, xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini innovatsion – variativ-pog‘onali yondashuv asosida tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modeli quyidagicha belgiladik (Rasm).

Xalq ta’limi xodimlarining kasbiy kompetentlik saviyasi jamiyatning rivojlanganligi hamda o‘quvchi-yoshlarni yetukligini belgilovchi mezon sifatida e’tirof qilinib, uning mohiyatini ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratildi. Globallashuv va axborot almashinuvi jarayonlari tobora jadallashayotgan bugungi kunda malaka oshirish tizimini tinglovchilarning ehtiyojlari asosida variativ-pog‘onali malaka oshirishlarini ta’minlash va rivojlantirish, malaka oshirish tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish tizimin innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar keng qamrovli bo‘lib, ularning barchasini qamrab olmagan va u pedagog kadrlar malakasini oshirishning innovatsion shakllari va texnologiyalarini aniqlash hamda nazariy asoslash muammolari bo‘yicha turli nazariy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazishga obyektiv imkoniyatlar ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. /Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. 112 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /1-jild/ – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 592 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Uza.uz. 24.01.2020.

4. Махмудов С. Ю. Социально-педагогические подхода к предпосулки вариативного повушению квалификации педагогических кадрав ССПО // O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimiga pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish muammolari: Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi (Xalqaro ekspertlar ishtirokida). – 2004. – B. 72-73.

5. Махмудов С. Ю. Повушения квалификации педагогов среднего специального, профессионалного образования Sistema непрерувного: Проблему, решения и развития // O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun pedagog xodimlar tayyorlash va malaka oshirish tizimining dolzarb masalalari: Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. – 2004. – B. 80-82.

6.Махмудов С.Ю. Вариативная sistema непрерûвного повûшения квалификации как средство усовершенствования управления профессионалнûм ростом педагоговсреднего специалного, профессионалного образования // Профессионалное образования. – Москва, 2005. -¹3. – S. 34-40.

7. Maxmudov S.Yu. Rashidov H.F. Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarni ishlab chiqish yo‘riqnomasi // Kasb-hunar ta’limi. – 2006. -¹5. – B. 11-23.

8. Maxmudov S.Yu. Malaka oshirish tizimini takomillashtirish muammolari // Kasb-hunar ta’limi. – 2006. -¹6. – B. 22-29.

9. Maxmudov S.Yu. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun modulli o‘quv reja va dasturlarni ishlab chiqishning konseptual asoslari // O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2006. – B. 89-96.

10. Maxmudov S.Yu., Xodjaboyev A.R. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv rejalari tahlili va undagi muammolar // O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun pedagog xodimlar tayyorlash va malaka oshirish tizimining dolzarb masalalari: Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. –2006. – B. 189-193.

Jamshid KAZIMOV,
A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi
rahbar va mutaxassis xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
institutining tayanch doktoranti

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH JARAYONLARI MAZMUNI

Annotatsiya

Maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash yo‘nalishidagi muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishning mazmun-mohiyati hamda mazkur yondashuvlarning qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlaridagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim tizimi, ta’lim muassasasi, ta’lim sifati, samaradorlik, tizimli yondashuv, vaziyatli yondashuv, muvofiqlashtirilgan yondashuv, refleksiv yondashuv.

В статье рассматриваются проблемы качества и эффективности переподготовки и повышения квалификации учителей общеобразовательных школ, содержание и сущность внедрения современных подходов к обеспечению качества и эффективности переподготовки и повышения квалификации учителей, а также переподготовки и переподготовки этих подходов. Важность процессов улучшения научно обоснована.

Ключевые слова. Система общего среднего образования, образовательное учреждение, качество образования, эффективность, системный подход, ситуационный подход, согласованный подход, рефлексивный подход.

The article discusses the problems of quality and effectiveness of retraining and advanced training of teachers of secondary schools, the content and essence of introducing modern approaches to ensuring the quality and effectiveness of retraining and advanced training of teachers, as well as retraining and retraining of these approaches. The importance of improvement processes is scientifically based.

Key words. General secondary education system, educational institution, quality of education, efficiency, systematic approach, situational approach, coordinated approach, reflective approach, ethnic approach, national-regional approach, innovative technologies, professional competence.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, ijobiy o‘zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda. Qonun ustuvorligini ta’minlash, ta’lim mazmunini modernizatsiyalashtirish, yangi kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartlarini amaliyotga tatbiq etish kabi amalga oshirilayotgan ishlarning barchasi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshi rish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashda ta’lim mazmunini kompetensi-yaviy yondashuvlar asosida yangilash hamda malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish sama-radorligiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samarador-ligini ta’minlashda nafaqat malakasini oshirish jarayoni natijalarini, balki mazkur nati-jalarni shakllantiruvchi omillar tizimini ham inobatga olish muhim hisoblanadi. Bunday omillar tizimining komponentlari sifatida ta’lim maqsadi, o‘qituvchilar tarkibi va ularning kasbiy kompetentliligi, ta’limiy dasturlar va ta’lim texnologiyalari, resurslar va ulardan foydalanish shart-sharoitlari, ta’limning tashkiliy-huquqiy ta’minoti, o‘quv jarayonining moddiy-texnik ta’minoti, axborot va uslubiy ta’minot, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini ham keltirish mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash, eng avvalo, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini tashkil etuvchilarning kasbiy kompetentliligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan mazkur jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologi-yalaridan maqsadi va vazifasiga ko‘ra to‘g‘ri va samarali foydalanishga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarini malakali pedagoglar bilan ta’minlash, o‘qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish bilan bir qatorda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyor-lash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash jarayonlarini tashkil etishga alohida ahamiyat qaratish va unda mazkur jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va mala-kasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish muhim bo‘lib, tizimli yondashuvning joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar (ta’lim maqsadini yangilash va modernizatsi-yalash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, yangi ta’limiy dastur-lar va ta’lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, o‘quv jarayonining moddiy-texnik ta’minotini rivojlantirish, zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnika-si, darsliklar va o‘quv-metodik materiallar bilan ta’minlash, o‘qituvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va mala kalarini nazorat qilish, ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlari majmui yaxlit tizim sifatida, ya’ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab peda-gogik tizim sifatida ko‘rib chiqilishi zarur.

Tizimli yondashuv asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligining mazmun va mohiyati, ya’ni tizimli xususiyatga ega ekanligiga ko‘ra qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash jarayonlarini bir butun, ya’ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashda (ta’lim) malaka oshirish jarayonlari alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi aloqalar hamda o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki

har bir qism qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tizimli yondashuv umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differensiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya'ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Tizimli yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarini muvofiqlashtirishda innovatsion faoliyatga qo'yilayotgan talablar hamda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlarida qo'yilayotgan talablar majmui malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashda eng zarur omillar hisoblanadi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarini o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim sifatida tashkil etish va boshqarish tizimli xususiyatga ega ekanligini hamda tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko'rsatish mumkin:

- ✓ umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirishning zaruriyati;
- ✓ qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;
- ✓ umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;
- ✓ o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
- ✓ umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarida o'qituvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda ta'lim jarayoni subyektlari (o'qituvchi va o'quvchilar)ning o'z faoliyatini tahlil qilishi va obyektiv baholashi, mavjud ta'limiy vaziyatlarni tahlil qilishi, o'z tushunchalari hamda xatti-harakatlarini faol o'ylab ko'rishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi muhim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshi -rish jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashda shaxs-faoliyat yondashuvi ham zarur hisoblanib, bu yondashuv asosida tashkil etiladigan jarayonlarda ta'lim oluvchilar subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi va o'z navbatida, ta'lim oluvchi shaxsining subyekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustaqil, erkin, tanqidiy, tahliliy va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab

subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashda vaziyatli yondashuv ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur yondashuv texnologiyalaridan foydalanish jarayonida quyidagilarni inobatga olishni tavsiya etamiz:

– qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash jarayonlarining holatini vaziyatlarga bog‘liq holda tahlil qilish;

– qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash jarayonlarida erishilgan natijalarning samaradorligini vaziyatlarga ko‘ra aniqlash;

– qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash jarayonlarini loyihalashtirishda mavjud vaziyatlar asosida ta’lim jarayoning rivojlanishini oldindan belgilash.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashda muvofiqlashtirilgan yondashuv -ni tatbiq etilishi natijasida subyektlarning faolligini hamda ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlash uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejaladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash jarayonlarining ahamiyati uning natijaviyligida o‘z ifodasini topadi.

Shunday ekan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashda natijalar bo‘yicha boshqaruv texnologiyasini ham tatbiq etish zarur bo‘lib, mazkur jarayonda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta’minlash asosida belgilangan natijalarga erishish mumkin. Natijalar bo‘yicha boshqaruv texnologiyasini tatbiq etilishi natijasida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlash yo‘nalishlarida belgilangan vazifalarning mazmun va mohiyatini har bir ishtirokchiga tushuntirish orqali subyektlarning o‘zini-o‘zi rivojlantirishiga shart-sharoitlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования (на матер. националь. Программы по подготов. кадров): Автореф. дисс. …докт. пед. наук.–Т, 2002.– С.44.

2. Гутник Г.В. Информационное обеспечение системы качеством образования в регионе. // Информатика и образование. 1999.- № 1.– С.7-12.

3. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: “Voris”, 2006.

Gulnora OMANOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi 324-sonli
maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING RIVOJLANISH SOHALARINI O'YINLAR VOSITASIDA INTEGRATSIYA QILISHNING SAMARALI YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim mazmunida integratsiyaning ahamiyati, uning mazmuni va vazifalari, tarbiyalanuvchilar bilan integratsiyalashgan ta'lim jarayonini rejalashtirish va olib borish usullari, maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalashda o'yin faoliyatidan foydalanish va uning metodikasi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Integratsiya, maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalash, tarbiyalanuvchi, davlat talablari, o'quv dasturi, rivojlanish sohalari, usullar, struktura, o'yin, o'yin turlari, o'yin faoliyati.

В статье речь идет о значении интеграции в содержание дошкольного образования, его содержании и задачах, способах планирования и проведения образовательного процесса, интегрированного с воспитателями, использовании игровой деятельности и ее методике интеграции содержания дошкольного образования.

Ключевые слова. Интеграция, интеграция содержания дошкольного образования, воспитание, государственные требования, учебная программа, области развития, методы, структура, геймплей, виды игр, игровая деятельность.

The article deals with the importance of integration into the content of preschool education, its content and tasks, methods of planning and conducting the educational process integrated with educators, the use of play activities and its methods of integrating the content of preschool education.

Key words. Integration, integration of preschool education content, education, state requirements, curriculum, development areas, methods, structure, gameplay, types of games, play activities.

Bugungi kunga kelib, dunyoning aksariyat mamlakatlari ta'lim tizimida an'anaviy o'qitish metodlari o'rnini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Mazkur rivojlanish tendensiyasida noan'anaviy o'qitish shakli – integratsiyaning ahamiyati oshib bormoqda.

Integratsiya – ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha yoki fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni sifatida talqin qilinadi.[1]

Pedagogik jihatdan tavsiflaganda bu bolaning bilish qobiliyatini, uni qurshab turgan tevarak-olamga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda insonning ta'lim-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. http://n.ziyouz.com/books/uzbek_ tilining_izohli_lugati/

tarbiya olish jarayonidagi kompleks rivojlanishini ko‘zda tutuvchi jarayon hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko‘zda tutishi va bola rivojlanishiga ko‘maklashishi ko‘rsatib o‘tilgan.[2]

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining tamoyillaridan biri sifatida ta’lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligi keltiriladi.[3]

Bunda urg‘u berilayotgan maktabgacha ta’lim mazmunidagi integratsiya o‘z mazmunida bolaning jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish sohalarini jamlaydi.

Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida integratsiya asosida bolalarning rivojlanish sohalarini hamda ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatni birlashtirish tarbiyalanuvchilarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishga yordam beradi, kommunikativ bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga hamda uni boshqalar bilan bo‘lishishga o‘rgatadi.

Maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalash quyidagi vazifalarni bajaradi:

– tarbiyalanuvchilarning bilimlarini har tomonlama rivojlantiradi, dunyoni yaxlit tafakkur qilishga undaydi;

– bolalarning dunyoqarashi va fikrlashini, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– ta’lim jarayonida pedagogik jamoaning birlashishiga yordam beradi. Qiziqarli ijodiy ish pedagoglarning malakalarini oshiradi va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Ta’lim jarayonida integratsiyadan foydalanish turli sohadagi bilimlarni birlashtirishga xizmat qiladi. Pedagog turli bilimlarni birlashtirib ta’lim jarayonida foydalanadi va bolalar rivojlanish markazlaridagi o‘yin, mehnat, badiiy-ijodiy, bilish, kommunikativ faoliyatlarida bu bilimlarni egallashadi:

Tarbiyalanuvchilar bilan integratsiyalashgan ta’lim jarayonini rejalashtirish va olib borishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

– syurpriz, o‘yin;

– kuzatish, taqqoslash, tadqiqot qilish;

– qiyosiy tahlil;

– muammoli, tarbiyachi yordami orqali javob topishga yordam beruvchi savollar;

– lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiluvchi turli xil didaktik o‘yinlar.

Integratsiya asosida pedagogning bolalar bilan birgalikda olib boradigan faoliyatining namunaviy strukturasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Kirish qismi.

Muammoli holat yuzaga keltiriladi. Masalan bolalarga shunday savol beriladi: “Bolalar, agar yer yuzida suv bo‘lmasa nima bo‘ladi?”

Asosiy qism.

Bolalarga muammoli savolning javobini topish uchun yangi bilimlar (masalan, tabiat va inson hayotida suvning ahamiyati) beriladi. Bunda ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi va birgalikda bolalarning lug‘at boyligini oshirish ishlari olib boriladi.

Yakuniy qism.

Olingan ma’lumotlarni mustahkamlash yoki ilgari o‘rganilgan ma’lumotlarni rivoj-

[2] O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T., 2018

[3] “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T., 2018.

lantirish uchun bolalar amaliy ishlarga jalb qilinadi (didaktik o‘yinlar, rasm chizish va hakozolar).

Maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalashda o‘yin faoliyati muhim ahamiyatga ega. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga ko‘ra, bolalar bilan ishlashning asosiy shakli – bu o‘yin. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyatidir, unda barcha aqliy jarayonlar jadal shakllanadi, ularning yordami bilan obyektiv dunyoga yo‘naltirish ta’minlanadi.

Shunday qilib, o‘yin – bu integratsiyaning turli jihatlari, shu jumladan rivojlanish sohalarining mazmuni va vazifalari integratsiyasi amalga oshiriladigan faoliyatdir.

O‘yin quyidagi turlarga bo‘linadi:

– ijodiy o‘yinlar;

– qoidali o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlar – bu natijaga emas, balki harakatlar jarayoni va uni amalga oshirish usullariga yo‘naltirilgan bolaning faoliyat shakli. Bu bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradigan o‘yinlar, masalan: syujetli-rolli o‘yinlar; teatrlashtirilgan; qurish-yasash bilan bog‘liq o‘yinlar bo‘lishi mumkin. Bunday o‘yinlar “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi”, “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”, “Ijodiy rivojlanish”, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohalarining vazifalarini birlashtira oladi. Bunday holda, o‘yin mazmunini shakllantiruvchi omillar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– atrofdagi dunyoda ro‘y beradigan va bolalarning qiziqishini keltirib chiqaradigan hayotiy voqyealar (yorqin tabiiy hodisalar, masalan, kuchli yomg‘ir yoki ijtimoiy voqyealar, bayramlar);

– tarbiyachi bolalarga o‘qib beradigan ertaklarda tasvirlangan xayoliy voqyealar (masalan, “Bilmasvoyning oydagi sarguzashtlari” ertagi bolalarni “Kosmonavtlar” rolini o‘ynashga undaydi);

– tarbiyachi tomonidan maxsus “modellashtirilgan” tadbirlar (qo‘yiladigan vazifalar asosida). Bu bolalar uchun ilgari nomalum bo‘lgan, noodatiy ta’sir yoki maqsadga ega bo‘lgan, haqiqiy qiziqish va ilmiy faoliyatga sabab bo‘ladigangan bir guruh ob’ektlarning kiritilishidir. Bu nima? Bu haqda nima qilish kerak? Bu qanday ishlaydi? Masalan, tana vaznini tarozida o‘lchash jarayoni uchun “Shifoxona” hikoyali-rolli o‘yinini tashkil qilish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berishda rivojlanish sohalarini integratsiyalashga misol “Do‘kon” syujetli-rolli o‘yinidir. Ushbu o‘yinni tashkil qilish uchun oziq-ovqat mollari do‘koniga oldindan ekskursiya o‘tkaziladi. Bu yerda bolalar bilan peshtaxtalarni, hisoblagichlarni, sotuvchining, kassirning ishini ko‘rib chiqish, hatto kerakli mahsulotlarni (masalan, tuz, shirinliklar) sotib olishi ham mumkin – “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” rivojlanish sohasi amalga oshirilmoqda.

Keyin, guruhda har hil do‘konlarning maqsadi, ularning inson xayotidagi ahamiyati, do‘kon ichidagi ishlarni tashkil qilish to‘g‘risida gaplashiladi – “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” rivojlanish sohasi.

So‘ngra bolalarga “Sholg‘om”yoki shunga o‘xshash ertaklarni o‘qish orqali – “Ijodiy rivojlanish” sohasi amalga oshiriladi.

Keyin do‘kondagi mahsulotlarning belgilarini (atribut) tayyorlash boshlanadi: pryanik, konfet, pechene, shirinliklar, loydan pishiriqlar tayyorlash va ularga rang berish, cheklar, pullarni yasash – “Ijodiy rivojlanish”rivojlanish sohasi amalga oshiriladi.

Bolalar bilan birgalikda mavjud atributlar yangilanadi: xalatlar, fartuk, sharflar, hi-

soblagichlar – “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” rivojlanish sohasi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, faqat bitta ijodiy o‘yinda bir nechta rivojlanish sohalarini birlashtirish, integratsiya qilish mumkin.

Qoidali o‘yinlar – harakatli, syujetli-harakatli, didaktik (stolda o‘ynaladigan o‘yinlar, og‘zaki va boshqalar) o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhimdir.

Bunday o‘yinlarning eng muhim jihati qoidalar bo‘lib, ular bolalar rivojlanishining asosiy omilidir. Qoidalar bolani faol bo‘lishga undaydi: o‘yin vazifasiga etibor qarating, savolga tez javob bering, sharoitlarga moslashing. Qoidalarga ega bo‘lgan o‘yinlar yashirish va qidirish bilan bog‘liq, iplar bilan o‘ynaladigan, stol va bosma o‘yinlar, so‘z o‘yinlari bo‘lishi mumkin.

Ushbu turdagi o‘yinlar “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi”, “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”, “Bilish jarayonining rivojlanishi”, “Ijodiy rivojlanish” sohalari mazmuni va vazifalarini muvaffaqiyatli birlashtiradi. Masalan: “Paxmoq it” (“Shaggy Dog”) harakatli o‘yini.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar rivojlanish sohalarining integratsiyasi asosida o‘yinlarni tashkil qilish bo‘yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– o‘yin bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalash va rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega;

– o‘yinning o‘ziga xos hususiyatlaridan biri bu o‘yin jarayonida bolalarning mustaqilligidir: bola o‘z nuqtai nazarini, g‘oyalarini, o‘ynagan voqyeaga munosabatini aks ettiradi;

– o‘yinda bolaning shaxsi shakllanadi, shuning uchun uning pedagogik ahamiyati bolalar nimani va qanday o‘ynashiga, o‘yinlarning mazmuniga bog‘liq.

Turli xil o‘yinlarda qatnashgan holda, bola o‘zi uchun eng yaqin bo‘lgan kishilarni tanlaydi, uning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatiga moslashadi. O‘yin shaxsning ijtimoiy rivojlanishidagi muhim omilga aylanadi.

O‘yin nafaqat hayotga taqlid qilish, balki tarbiyachilarga, maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarini bajarish nuqtai nazaridan bolaning barcha rivojlanish sohalarining mazmuni va vazifalarini birlashtirishga imkon beradigan muhim pedagogik omildir.

Maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalash, bunda o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha yuqorida keltirilgan fikrlar Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 324-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotida tajriba-sinovdan o‘tkazildi, samarador ekanligi isbotlandi hamda ushbu metodik ishlanmalar ta’lim-tarbiya sifatini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. http://n.ziyouz.com/books/uzbek_ tilining_izohli_lugati/ O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug’ati%20-%20I.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T., 2018.

3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T., 2018.

Nargiza MO‘MINOVA,
Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqodchisi

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARINI MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining mediakompetentligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif mediakompetentlik maktabgacha ta’limdagi innovatsion jarayonlar bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim muhitini yaratish va rivojlantirish uchun vosita bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlab o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Mediakompetentlik, globallashuv, jamiyat, axborot muhiti, innovatsion jarayonlar, axborot maydoni.

Статья посвящена вопросам развития медиакомпетентности педагогических кадров дошкольных образовательных организаций. Автор отмечает, что инновационные процессы в медиакомпетентном дошкольном образовании служат инструментом создания и развития образовательной среды, направленной на развитие личности ребенка.

Ключевые слова. Медиакомпетентность, глобализм, общество, информационная среда, инновационные процессы, информационное пространство.

The article is devoted to the development of media competence of teachers of preschool educational organizations . The author notes that innovative processes in media-content preschool education serve as a tool for creating and developing an educational environment aimed at developing the child’s personality .

Key words. Media competence, globalism, society, information environment, innovative processes, information space.

Jahon taraqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda. Jumladan axborot maydonida u yaqqol namoyon bo‘lib, uzviy bog‘liq holda kechmoqda. Axborot sohasiga taraqiyotning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining o‘zagini tashkil etib, taraqqiyotning bosh omiliga aylanmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanishi maktabgacha ta’lim–tarbiya jarayoniga yangiliklarni faol joriy etishni o‘z ichiga oladi, bu esa uning faoliyati samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holda maktabgacha ta’limdagi innovatsion jarayonlar bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim muhitini yaratish va rivojlantirish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim amaliyotida bolalarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun nafaqat mazmuni, balki ta’lim-tarbiya texnologiyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu innovatsion resurslardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘lib, ular ta’limning mavjudligi, o‘zgaruvchanligi va maktabgacha yoshdagi bolalarning faolligi va harakatchanligini oshirishga yordam beradi.

Mediata’limning o‘zi nima, uning mohiyati va xususiyatli jihatlari nimada ekanligi borasidagi so‘nggi yillarda pedagogik muhitda eng dolzarb masalaga aylandi. Ta’limning axborot-kommunikatsiya vositalariga asoslangan zamonaviy ta’lim paradigmasi bolalarga tayyor bilim va ko‘nikmalarni uzatishni emas, balki bolada mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini uyg‘otishga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, bolalarning bevosita o‘quv faoliyati davomida ishlashi interaktiv kompyuter dasturlari va audio-vizual vositalar orqali o‘qituvchi bilan muloqot qilish xarakteriga ega.

Maktabgacha ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy shartlaridan bolalar kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini biladigan, u bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, maktabgacha ta’lim muassasalarida kompyuterlardan foydalanishning sanitariya me’yorlari va qoidalarini, ularni qo‘llashning axloqiy qoidalarini biladigan bola shaxsini tarbiyalashdir. Shu bois, inson hayotining xususan, bolalar hayotining barcha sohalariga mediaaxborotning kirib kelishidan tashvishlangan jamiyatning ehtiyoji mediata’lim zaruratini keltirib chiqardi. Mediapedagoglar va nazariyotchilar orasida eng nufuzlilaridan biri L. Masterman bugungi olamdagi mediata’limning ustuvorligi va dolzarbligining 7 sababini asoslab bergan:

– Mediaiste’molining yuksak darajasi hamda zamonaviy jamiyatlarning ommaviy axborot vositalari bilan to‘lib toshganligi;

– Medianing mafkuraviy muhimligi, va sanoat tarmog‘i sifatida ularning auditoriya ongiga ta’siri;

– Mediaaxborot miqdorining tez o‘sishi, uni boshqarish hamda uning tarqalishi mexanizmlarining kuchayishi;

– Asosiy demokratik jarayonlarga medianing suqilib kirishi jadalligi;

– Barcha sohalarda vizual kommunikatsiya va axborot qiymatining ortishi;

– Maktab o‘quvchilari (talabalar)ni kelajakdagi talablarga mos yo‘nalish bilan o‘qitish zarurati;

– Axborotni xususiylashtirishning o‘sib borayotgan milliy va xalqaro jarayonlari;

Shunday qilib, media (ommaviy kommunikatsiya vositalari) kishilar hayotida va ta’lim jarayonida kundan-kunga katta rol o‘ynamoqda.

Mediata’limning maqsadi yoshlarda mediaga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, uni o‘quv muassasasidan (maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, oliy o‘quv yurtlarini) keyingi hayotda ommaviy axborot vositalarining kreativ (ijodkor) foydalanuvchisiga aylantirishdir.

Mediata’limning asosiy vazifalari:

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi avlodni turli axborotni tushunishga, uning ruhiyatga ta’siri oqibatlarini anglashga, texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning og‘zaki bo‘lmagan shakllari asosida muloqot usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatishdir.

Mediata’limning asosiy yo‘nalishlari:

– bo‘lg‘usi professionallar – jurnalistlar (televidenie, radio, matbuot, internet), kinomatografistlar, muharrirlar, prodyusserlar va boshqalarga mediata’lim berish;

– universitetlarda, pedagogik institutlarda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga mediamadaniyat bo‘yicha kurslar doirasida bilim berish;

– oliy o‘quv yurtlar, litsey, maktablar va maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va tarbiyachilarning bu boradagi malakasni oshirish, uzluksiz ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar va talabalar uchun (maxsus, fakultativ, to‘garakli) maxsus o‘quv kurslarini joriy qilish;

– qo‘shimcha ta’lim muassasalari va dam olish markazlarida (dam olish uylari, maktabdan tashqari ishlar, estetik va badiiy tarbiya markazlari, klublar) mediata’limni tashkil qilish;

– televidenie, radio, internet tarmog‘i yordamida maktab o‘quvchilari, talabalar va kattalarga masofaviy mediata’lim berish;

– mustaqil va uzluksiz mediata’lim (bu nazariy jihatdan insonning butun hayoti davomida amalga oshirilishi mumkin).

Aksariyat mamlakatlardagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ko‘plab olimlar, mutaxassislar ta’kidlayotganidek, “Axborot rolining o‘sib borishi davrida o‘sib kelayotgan avlodni dunyoviy axborot makoniga kirishga tayyor emasligi muammosiga” afsuski qo‘shilmaslik mumkin emas.

Bu ko‘p jihatdan o‘qituvchilar, tarbiyachilarning mediasavodi pastligi oqibatidir. Bularning barchasi mediata’limning ahamiyatini dolzarblashtirmoqda. AQShda axloq tomonga e’tibor qaratilgan: u yerda ommaviy axborot vositalari bolalarga ular uchun nomunosib bo‘lgan qadriyatlar va xatti-harkatlarni singdirishi borasidagi tashvishlar mavjud. Ommaviy axborot vositalari siyosiy qarash va e’tiqodlarni shakllantirishga mas’ulligi borasidagi tasavvurlar vujudga keldi. Shunday qilib, an’anaviy mediata’lim yoshlar tarbiyasining quyidagi maqsadlarini ilgari surgan:

– yuksak madaniyatga hurmat;

– axloqiy sog‘lom xatti-harakat me’yorlari;

– siyosat to‘g‘risidagi oqilona tasavvurlar.

Bugungi kunda ushbu sohada yangi ommaviy axborot vositalar paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ko‘pincha mediata’lim yoshlarni ommaviy axborot vositalardan asrashi lozim bo‘lgan emlash turi sifatida idrok etilmoqda, ammo bunday yondoshuv barcha narsani salbiy oqibatlarga olib borib taqagan holda bolalarga yangi ommaviy axborot vositalardan foydalanishdan olinishi mumkin bo‘lgan barcha qoniqishlarni bera olmaydi. Bugungi kun mediata’limdan yoshlarni o‘z tanloviga ko‘ra ongli qaror qabul qilishni rag‘batlantiruvchi himoya va tayyorgarlikning omuxta shakllarini taqozo etmoqda. Mediata’lim yoshlar o‘rtasida ommaviy axborot vositalarni tushunishni rivojlantirishni ko‘zda tutadi, bu o‘z navbatida ularni qurshab turgan media-madaniyatda ongli ishtirok etishiga, unga qiziqishiga olib boradi.

Maktabgacha tarbiyadan boshlab to oliy o‘quv yurtidagi ta’limga qadar ta’limning barcha bosqichlarida mediata’limning ahamiyatini hisobga olgan holda, umumta’lim maktablari, akademik litseylar dasturlari va o‘quv rejalariga ushbu yo‘nalish bo‘yicha maxsus kurslarni kiritish zarur bu ham alohida darslar shaklida ham maxsus yoki majburiy kurslar ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, tarbiyachilar maktabgacha ta’lim muassasasida yosh bolalarning yoshga oid anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlari hamda o‘quv faoliyatining diagnostikasi xususiyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lishlari lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan maktabgacha ta’lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy yetishning zaruriy sharti maktabgacha ta’lim muassasalari

o‘rtasida kasbiy axborot madaniyati va umumiy axborot madaniyatini shakllantirishdir. Zamon bilan hamnafas bo‘lishni istagan ijodkor tarbiyachilar o‘z amaliy faoliyatlarida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini o‘rganishlari, bola uchun yangi texnologiyalar olami uchun qo‘llanma bo‘lishi va ular uchun axborot madaniyati asoslarini shakllantirishlari zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, tarbiyachining madiakompetentligi deganda “O‘quv faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mustaqil ravishda keng ko‘lamdagi o‘quv vazifalarini hal etishga tayyorligi va bu sohada malaka oshirish yo‘llarini loyihalashtirish qobiliyati tushuniladi”. Tarbiyachining mediakompetentligini oshirish uning ish faoliyatini faollashtirish va osonlashtirish imkonini beradi, tarbiyachining rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘quv-uslubiy faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish: bolalarda o‘quv faoliyatiga qiziqishni oshiradi va tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini oshiradi. Bevosita o‘quv faoliyatining har xil turlari bir-birini to‘ldirishi mumkin va ular bola rivojlanishining barcha bosqichlarida o‘zgarishi kerak. Demak, besh yoshda bunday ta’limning asosini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘yin faoliyatining tarbiyaviy xarakteri tashkil etishi kerak. Qiziquvchan maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari kompyuterda o‘yin o‘ynab o‘z qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarni eslab qoladilar, shuning uchun bunday tadbirlar o‘ziga xos, qisqa va tushunarli bo‘lishi kerak. Ma’lumotlarni shunday joylash kerakki o‘rganayotgan bolaning tajribasiga asoslangan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish uchun:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash;

– kompyuter o‘quv dasturlari bankini tizimlashtirish;

– didaktik va metodik materiallar tayyorlash;

– ta’lim jarayoni va boshqarish uchun dasturiy ta’minot faoliyati va internetga kirish xususiyatlaridan to‘liq foydalanish;

– maktabgacha ta’lim saytini yanada rivojlantirish;

– maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachi-o‘qituvchi va xodimlarining media madaniyatini takomillashtirish yanada yaxshi natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, mediata’lim mamlakatimizning ta’lim sohasida, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida munosib o‘rin egallashi lozim.Bu vazifani bajarishda maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari faoliyatini samarasini oshirish beqiyos ahamiyat kasb etadi. Hayotda o‘z isbotiga ega bo‘lgan dono xalqimizning “Bola tuqqanniki emas – tarbiya qilganniki” degan maqolining asl mohiyati ham shunda.

Bizning mamlakatimizda mediata’limni rivojlantirish istiqbollari XXI asrda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, bugungi kunda o‘ta dolzarb va ahamiyatli bo‘lib turgan fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish muammolari bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxrutdinov Sh.I. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas’uliyati. – T.: Akademiya, 2011.

2. Umarova N.T. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash. Akademiya. – T., 2005.

G‘ulomjon MAHKAMOV,
Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KASBGA OID TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo‘ljal olishga o‘rgatish zarurligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha yoshdagi bolalarning kasb -ga oid tasavvurlarini shakllantirish va o‘quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli mavjudligini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar, kasbga oid tasavvur, shakllantirish, o‘quv faoliyati, kasbga yo‘naltirish, tajriba.

В статье дается представление о необходимости постепенного приобщения детей к миру профессий, чтобы научить их получать поле деятельности в этом мире. Автор также констатировал, что существует базовая форма формирования профессионального воображения дошкольников и организации учебной деятельности.

Ключевые слова. Дошкольники, профессиональное воображение, формирование, учебная деятельность, ориентация на профессию, опыт работы.

The article gives an idea of the need to gradually introduce children to the world of professions in order to teach them to get a field of activity in this world. The author also stated that there is a basic form of forming the professional imagination of preschool children and organizing educational activities.

Key words. Preschool children, professional imagination, formation, educational activity, orientation to the profession, work experience.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir. Shuningdek, mustaqillik sharoitida uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish maktabgacha ta’lim pedagogikasi fani oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo‘lgan maktabgacha ta’lim muassasalarining roli har qachongidan ko‘ra o‘sdi. Shu munosabat bilan bolalarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta’lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabgacha ta’lim muassasalarining vazifalaridir. Kasbni to‘g‘ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir yosh avlodning qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘lig‘ini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq qaror topadi va namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishning uchta asosiy shakli mavjud: individual, guruhli va ommaviy (frontal). Bolalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishning har bir shakli didaktik maqsadi, bolalarning mustaqillik darajasi, jamoaviy va individual ishga munosabati, pedagogik rahbarlik bilan bog‘liqlikda o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

Har qanday kasbda eng muhimi – uning mehnat mazmuniga ega bo‘lishidir. Shu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarni tarbiyalash va ularni mehnat jo‘shqinligiga ko‘chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo‘lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e’tiboran bolalarni bo‘lg‘usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o‘rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab va oila yordam berishi kerak. Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun a barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma’lumotni ola turib, shu asosda o‘zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. “Kim bo‘lsam, ekan?” muammosi “Qanday odam bo‘lish kerak” muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Bolalarni kasbga yo‘naltirishga oid ishlarni ta’lim yo‘llari oraqil mutassil va izchillik bilan olib borish kerak.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo‘ljal olishga o‘rgatish zarur. Tarbiyachi bolanini mashg‘ulotlarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba’zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etganlan keyin bular keyinchalik kasbni blgilashda asosiy omil bo‘lishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o‘z xususiyatlariga qarab kasbni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha – bu uzluksiz ta’lim bo‘lib, u kadrlar tayyorlash tizimining asosi hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari aso-

sida turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o‘rta ta’lim;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malkasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Bu borada mazkur mavzu yuzasidan mavjud boshqa manbalardan foydalanib O‘zbekiston Respublikasida kasbga yo‘naltirish ishlarining tizimi va bosqichlariga xos qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitib, chuqurlashtirib va kengaytirilgan holatda, “Kasbiy yo‘naltirishda mehnat resurslarini ishlatish ta’sirini kengaytirish omillari”ni ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi nuqtayi nazaridan batafsil yoritishlari kerak.

Mahoratni kasbga yo‘naltirish ishlariga tadbiq qilishni ishlab chiqishlari lozim. Tabiat va jamiyat hodisalari, ishlab chiqarish jarayonlari ko‘pincha shu qadar murakkabki, bularni bir ilm-fan doirasida tavsiflash mumkin emas. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘rganilayotgan ko‘pgina kasbga yo‘naltirish bo‘yicha o‘yinlarning o‘zaro bog‘liq holda aniq ro‘yobga chiqarilgan taqdirdagina o‘zlashtirishi mumkin. Misol uchun kasb -ga yo‘naltirish masalasini olib ko‘raylik. Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo‘naltirishga oid bir qancha o‘yinlarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko‘plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g‘oyat xilma-xil sohalarida ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Bu borada ko‘plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to‘g‘ri va komleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta. Shu bilan birga, bu mutaxassislarning har biri to‘la aniq ma’lumot olgan, muayyan ish tajribasiga ega xodimlardir. Shu boisdan, ular kasbga yo‘naltirish sohasidagi o‘z faoliyatida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan metodlarga, muammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa, ba’zan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tug‘diribgina qolmay, kasbga yo‘naltirish maqsad va vazifalarining qo‘yilishida bir qancha amaliy masalalarini tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. Shu sababdan ham, kasbga yo‘naltirishga oid bilimlar mazmunining yagona tizimini hamda kasbga yo‘naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yo‘naltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni kasbga yo‘naltirishga doir yetarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarga alohida e’tibor qaratish lozim. Jumladan, mintaqa sharoitlarini, milliy an’analarini hisobga olib bolalarni kasblarga yo‘naltirish uchun maktabgacha ta’lim muassassining kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kompleks tadbirlarini ishlab chiqish, kasbga yo‘naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan bolalarning umummehnat va kasbiy tayyorgarligi o‘rtasida uzviy aloqadorlikni ta’minlash alohida dolzarblik kasb etadi.

Inson bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo‘lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo‘r qiziqish bilan qarasa, o‘z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o‘shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo‘ladi, bunday holda har bir shaxs

jamiyatga eng ko‘p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g‘oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo‘lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun, yuksak darajada ma’lumotli bo‘lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma’lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Kasbga yo‘naltirish yoshlarga kasb tanlash esa, muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Yosh avlodga mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo‘ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o‘z o‘yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga anashunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo‘lib xizmat qiladi. Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga yetkazish, bolalarni o‘rab turgan va ularga xizmat qilayotgan barcha narsalar insonlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo‘llar faqat mehnatdagina “mohirqo‘llar”ga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o‘rganib bo‘lmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur.

Kasbga yo‘naltirish–bu har bir individumning o‘ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘z kasbiy o‘rnini topishi uchun shaxsga ta’sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo‘naltirilgandir. Kasbga yo‘naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo‘naltirishni hal etish vazifalari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo‘naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbga yo‘naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish hamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Kasbga yo‘naltirish tadbirlari inson tomonidan o‘z kasbiy malakasini oshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi. Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga, uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoiti sifatida qaraladi. Bu shaxsning ma’naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya’ni barcha o‘quv-tarbiya jarayoni bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi. Kasbga yo‘naltirish quyidagi qismlarini o‘z ichiga oladi: kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish.

Kasbiy axborot – ma’lum bir kasbni egallash xohishi bo‘lgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning o‘sish imkoniyatlariga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, targ‘ibot qilish chora–tadbirlaridir.

Kasbiy maslahat – kasb tanlash, kasbni yoki faoliyat turini o‘zgartirishda yordam-

ga muhtoj bo‘lgan shaxsning individual – psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlari, kasbiy qiziqishlari, moyilligini o‘rganish asosida psixolog-maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o‘zaro muloqot tizimidan iborat.

Kasbiy tanlov va saralash – kasbiy faoliyatning alohida, turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo‘lgan psixofizioligik me’yoriy talablar (saralash) asosida shaxsni har tomonlama o‘rganish tizimidir.

Kasbiy moslashish – ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvaffaqiyatli ravishda kasb -ni egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan choralarning majmuaviy tizimidir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: bola tanlagan kasb og‘zaki tushunchagina bo‘lib qolmasligi, o‘z qobiliyatlarini yangi kasbda sinab ko‘rishi, ushbu kasb to‘g‘risidagi tushunchasi qanchalik to‘g‘ri ekanini xolisona tekshirib ko‘rishi lozim. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bunga o‘qitishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog‘langan bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori. www.uza.uz.

Sharipov Sh.S., Davlatov K., Nasriddinova G.S. Kasbga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2007. 146 b.

Tolibjon NIZOMOV,
jurnalist, islomshunos

DEMOGRAFIK RIVOJLANISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO

Annotatsiya

Maqolada aholi demografik rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kunda jahon aholisi soni o'sib borayotgani, bu esa oziq-ovqat tanqisligini keltirib chiqarishi yoki yo'qligi tahlil etilgan. Bundan tashqari muallif avvalgi yillar bilan bugungi iqtisodiy holatni taqqoslab bergan.

Kalit so'zlar. Demografiya, aholi, yer yuzi, sayyora, geometrik tartib, nufus, oziq-ovqat, xavotir, rivojlanish, ijtimoiy-pedpgogik muammo.

В статье рассматривается демография населения. Автор также анализирует, растет ли население мира сегодня, что может привести к нехватке продовольствия. Текущая экономическая ситуация сравнивается с предыдущими годами. Объясняется, что содержание рабов находится в руках Аллаха.

Ключевые слова. Демография, население, Земной шар, планета, геометрическое расположение, численность населения, питание, риск.

The article discusses the demography of the population. The author also analyzes whether the world's population is growing today, which could lead to food shortages. The current economic situation is compared with previous years. It is explained that the maintenance of slaves is in the hands of Allah.

Key words. Demography, population, globe, planet, geometric location, population, nutrition, risk.

O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda mamlakat demografik rivojlanishining o'rni katta bo'lib, ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o'sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish davri nuqtayi nazaridan o'rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste'molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining vazifalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda barqaror va jadal sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlash milliy rivojlanish strategiyasining bosh masalasi hisoblanadi. Shunga ko'ra, respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda demografik jarayonlarning ta'sirini har tomonlama hisobga olish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Demografik jarayonlarni o‘rganish usullari umummilmiy va demografik usullar bo‘lib, ular alohida sifat va miqdor tarkiblariga, amal qilish va rivojlanish jarayonlariga ega bo‘lgan takror hosil bo‘luvchi kishilar jamlanmasining, aholi ko‘payishining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Har qanday – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar demografik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, barcha davlatlardagi jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tug‘ilish darajasining tebranishi muayyan vaqtdan keyin ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirishda, mehnat bozorida ish bilan bandlikda, davlatning ijtimoiy sohaga xarajatlarida bevosita o‘z aksini topadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda demografik omillarga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikadagi barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar markazida demografik vaziyat turadi. Chunki, O‘zbekistonda aholining o‘sish sur’atlari yuqori hisoblanadi. So‘nggi yillarda aholining tabiiy o‘sishi birmuncha kamaygan bo‘lishiga qaramay, u hali ham ayrim mamlakatlar orasida eng yuqori darajadadir.

Ma’lumki, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida innovatsion tendensiyalarning ta’siri ortib borishi bilan jamiyatimizdagi demografik o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yil sayin kuchaymoqda. Bu jarayon, avvalambor, mamlakatimiz aholisi miqdorining yuqori sur’atlar bilan oshib borayotganligiga bog‘liqdir.

Dunyo miqyosida 30 yoshgacha bo‘lgan 2 milliardga yaqin aholi bo‘lib, ularning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlar va Markaziy Osiyo hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu ko‘rsatkich keyingi o‘n yilda yanada ortishi va bu jarayon asosan bizning mintaqamizda yuz berishi kutilyapti.

Jamiyat taraqqiyoti tarixida sayyoramiz va uning turli hududlarida aholi soni, tarkibi, demografik jarayonlar, jumladan, aholi takror barpo bo‘lishiga oid ma’lumotlar qadimgi davrlardan boshlab mavjuddir.

I asrda Strabon tomonidan 17 jilddan iborat “Geografiya” kitobi yozilgan bo‘lib, unda tabiat, xo‘jaliklar, etnografiya va aholiga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan. O‘rta asrlarga oid manbalarda ham xo‘jaliklar, askarlar soni, urushlarda ochlik va turli epidemiyalardan o‘lganlar soni haqida statistik ma’lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda statistika rivojlanib borib, jamiyat hayotidagi hodisalar va jarayonlar to‘g‘risida yalpi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil va e’lon qilish bilan bog‘liq amaliy faoliyat sohasiga aylandi.

O‘tgan davr mobaynida sotsiolog olimlarning: “Tug‘ilishni cheklash lozim”, degan tashvishli fikr-mulohazalari jahonning yetakchi ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinmoqda.

Hatto yaqin-yaqingacha aholisi soni hijatidan dunyoda yetakchi davlat – Xitoyda bir oila faqat bitta farzand ko‘rishi mumkin, degan g‘ayritabiiy cheklov bor edi. Chinliklarning ko‘plab e’tirozlari hamda boshqa obyektiv va subyektiv sabablar tufayli bu cheklovga barham berildi.

Xitoyning qadimiy donishmand faylasufi Konfutsiy ikki yarim ming yil oldin “Biz qanaqa xalq ekanligimizni bilgingiz kelsa, oldin bizning sonimizni bilib oling” degan ekan. Donishmandning bu so‘zlari O‘zbekistonning hozirgi ijtimoiy-ijtimoiy rivojlanish davrida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, jamiyatimizning rivojlanish sur’atlari shiddat bilan oshib borayotgan sari aholimizning soni, undagi tarkibiy va sifat o‘zgarishlar e’tiborimizdan chetda qolib ketishiga yo‘l qo‘yishimiz kerak emas.

Aslida mutaxassislarning tashvishli mulohazalari kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Bu muammo bir necha asrdan beri nafaqat olimlarni, balki ishlab chiqarish manbalarining kamligi va yer kurrasida tabiiy zaxiralarning tugab borayotganidan xabardor har bir kishini o‘ylantiradi.

Olimlar: “Agar aholi sonining muntazam ko‘payib borishi oldi olinmasa yer yuzi bashariyatga torlik qilib qoladi, kundalik ehtiyojlarni qoplash imkoni bo‘lmaydi” deyishadi.

Mutaxassislar aholi sonining ortishi uy-joy, oziq-ovqat muammosi bilan bir qatorda, energiya tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishidan ham xavotirdalar. Shu bois tug‘ilishni cheklash kerakmi-yo‘qmi, degan masala yirik xalqaro anjumanlarda tez-tez kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Demografik jarayonlar, birinchi navbatda, ijtimoiy-mehnat sohasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining asosiy omili bo‘lib, aholining mehnat bilan bandlik va ishsizlik darajasining miqdoriga, yalpi ishlab chiqarish aholining jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromad ko‘rsatkichlarini, uy-joy bilan ta’minlash, keksaygan yoshdagi pensiya ta’minoti tashkillashtirishga bevosita ta’sir etib boradi.

Tug‘ilishni nazorat qilish ilk bor XVIII asr oxirlarida yevropada boshlangan. Ingliz iqtisodchisi Maltus, keyinchalik fransiyalik olim Frans Ples tug‘ilishga chegara qo‘yish taklifi bilan chiqishgan. 1833-yili amerikalik tabib Charlz Norton ham buni qo‘llab-quvvatlagan.

Bu olimlar aholi ko‘payishini geometrik tarzda (2,4,8,16,32...), oziq-ovqat mahsulotlari ko‘payib borishini esa arifmetik tarzda (1,2,3,4,5...) ko‘rsatishgan. Ular aholi soni to‘siqlarga uchramay ortib borsa, yigirma besh yildan keyin ikki marta, bir asrdan keyin ikki yuz ellik olti marta ko‘payadi, nufus bilan oziq-ovqat manbalari orasidagi nomutanosiblik keskin ortadi, deb o‘ylashgan.

Inson rivojlanishi konsepsiyasining boshlanishini insoniyat tarixining boshlang‘ich davrlari, ko‘plab madaniy va diniy manbalardan topish mumkin. Nafaqat qadimdagi muarrixlar, balki faylasuflar ham (Demokrat, Platon, Arastu, Lukretsiy va boshqalar) ijtimoiy rivojlanish mohiyatini anglashga harakat qilgan. O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan Didro ana shunday faylasuflar sirasidan. U insonni yer yuzida eng qadrli, madaniyat sohasidagi yutuqlarning yagona bunyodkori, aql sohibi, hamma narsaning ibtidosi va intihosi deb hisoblagan.

Tarixiy haqiqat shuki, inson nasli hech qachon Maltus va Frans Ples aytganidek, geometrik tartibda ko‘paymagan. Aniq raqamlarga murojaat qilsak, milodiy taqvim boshida 200 million kishini tashkil etgan dunyo aholisi 1300-yillarga kelib 500 million, 1804-yilda bir milliard, 1927-yili ikki milliard, 1959-yili uch milliard, 1974-yili to‘rt milliard, 1987-yili besh milliard, 1999-yili olti milliard va 2011-yil 31-oktabr kuni yetti milliardga yetgani rasman e’lon qilindi va ko‘pchilik yetti milliardinchi bola Rossiyada tug‘ilgani va uni BMT mutasaddilari “tilla bola”, deb e’lon qilganini shodiyonalik bilan kutib olgan bo‘lsa-da, ammo “etti o‘lchab bir kesadigan” iqtisodchi va sotsiolog olimlar bu voqeani uncha xushlashmay qarshi olishdi. Sababi, ahvol shu zaylda davom etadigan bo‘lsa, 2100-yilga borib sayyoramizda 15 milliard odam o‘zaro murosayu madora qilishga majbur bo‘ladi.

Bizningcha, aholi nufusining bu tariqa ortib borishidan fojia yasash shart emas. Chunki insoniyat tug‘ilishga e’tibor qaratgani bilan o‘limni kamaytirishning uddasidan chiqa olmayapti. Birgina 2020-yilning birinchi yarmida koronavirus (COVID-19) infek-

siyasi oqibatida 530 ming kishi halok bo‘ldi. Qadimda kishilarning oziq-ovqati, asosan, suv, o‘simliklar va hayvonlardan iborat edi. Hozir boshqa juda ko‘p manbalar bor. Inson nasli ko‘paygani sayin hayotini muhofaza qilish uchun yangi-yangi rizq manbalarini izlayapti, ehtiyojlarini qondirish uchun turli usullardan foydalanyapti.

Rivojlanish timsoli tenglik va ijtimoiy odillik bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson rivojlanishi konsepsiyasining asosiy jihatlaridan sanalgan ushbu dastlabki qoidani Sharq ning buyuk mutafakkir va faylasuflari ham o‘z asarlarida qayd etgan. Buyuk Abu Ali Ibn Sino ta’kidlaganidek, ***“inson aynan boshqalarning ehtiyojini qondirishi tufayli insonligini namoyon etadi va boshqalar ham shu tariqa harakat qiladi. Kimdir ekin ekadi, kimdir non yopadi, yana kimdir tikish qilsa, boshqasi igna yasaydi va shu yo‘sinda hamma birbirining ehtiyojini qondiradi”*** Navoiyning fikricha, inson - yerda yaratilgan eng aziz va mukarram zot. Aynan inson va uning manfaatlari ahamiyatlilik, zarurlik va qadr-qimmatning asosiy mezonidir. Yer yuzida hamma narsa inson uchun yaratilgan. ***“yer yuzida yaratilgan barcha narsalar, quyosh, yeru-osmon, tog‘lar, tekisliklar, dengiz va daryolar, o‘simliklar, hayvonlar, gullar, qushlar, havo, olov, yil fasllari, ya’ni tabiat go‘zalliklari, uning bitmas-tuganmas boyliklari insonga xizmat qilish uchun mo‘ljallangan”.***

Shuningdek, aholi soni ortishi bilan birga, ishchi kuchining ko‘payishini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Beruniyning ta’kidlashicha, mamlakat farovonligi undagi ilm-fanning ahvoli, taraqqiy etishiga ham bog‘liq. Uning fikricha, insonning eng katta baxti bilimga egaligidir, chunki unga aql berilgan. Baxtni ana shunday tushunishgina jamiyatda tinchlik va xotirjamlikka olib keladi. ***“Inson haqiqiy rohat-farog‘atga yetgani sari unga yetishga bo‘lgan intilishi kuchayib borgandagina o‘sha farog‘atni chin dildan his qiladi. Inson ruhi o‘zi bilmagan narsani anglaganida ham ana shunday holat ro‘y beradi”,*** insonning eng oliy burchi esa boshqalar, ayniqsa, kambag‘allarga g‘amxo‘rlik qilishidir.

Iqtisod ilmiga ko‘ra, ishlab chiqarishning uch asosiy unsuri bor: tabiat, sarmoya va inson. Inson bu unsurlarning eng ulug‘i va muhim ahamiyatga moligidir. Aholi soni ortishidan xavotirga tushayotganlarning ishlab chiqarishdagi o‘rnini e’tiborga olmay, unga faqat iste’molchi sifatida qarashadi. Holbuki, insonning yer yuzidagi taraqqiyot va yashash sharoitini yaxshilashga qo‘shgan hissasini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

Inson rivojlanishi konsepsiyasining zamonaviy tushunchasiga iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati Amarti Senning “Rivojlanish imkoniyatlarni kengaytirish demakdir” deb nomlangan asarida chop etilgan nazariy ishlanmalari katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu asarda u rivojlanish jarayonini faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning oshishi sifatida emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqdi.

Ehtiyojlar insonni taraqqiyot uchun yangi-yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bugun inson dengiz tublaridan va fazodan rizqini axtarmoqda.

Umuman, dunyo aholisi ko‘payishiga muvofiq tarzda yer yuzida rizq vositalari ham ortayotir.

Yer yuzi va koinotdagi mavjud muvozanatni hech kim inkor etolmaydi. Yer kurrasida yashaydigan barcha maxluqot sonida chegara va muvozanat mavjud. Masalan, “Sismibrium Sophia” degan daraxt yiliga yetti yuz ellik mingta urug‘ sochishiga qaramay, yer yuzini bosib ketayotgani yo‘q. “Dengiz yulduzi” balig‘i bir martada ikki yuz milliongacha urug‘ qo‘yadi. Lekin dengizlarni ayni shu baliqlar egallab olmagan, ya’ni

muvozanat buzilmagan. Bashariyat ham ushbu ilohiy nizomdan chetda emas.

Oyati karimadagi “o‘rmalagan narsa” iborasi faqat to‘rt oyoqli jonivorlarni emas, balki barcha jonli mavjudot, xususan, insonlarni ham ifoda etadi.

Buyuk ajdodimiz Hakim Termiziyning “Navodir ul-usul” asarida keltirilgan voqea ham rizq Allohdan ekaniga dalolat qiladi. Oralarida Abu Muso, Abu Molik va Abu Omir kabi sahobalar bo‘lgan ash’ariylar karvoni Madinaga hijrat qilishdi. Manzilga ochlikdan sillasi qurib, bir alfozda yetib keldilar. Bir kishini Rasulullo sollallohu alayhi va sallamdan yegulik so‘rab kelishga yuborishdi. Jo‘natilgan odam eshiklari oldiga kelganda ichkaridan Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning: ***“yerda o‘rmalovchi biror narsa*** **(jonzot)** ***yo‘qki, uning rizqi*** **(ta’minoti)** ***Allohning zimmasida bo‘lmasa!*** **(U)** ***uning qarorgohini ham, oromgohini ham bilur...”*** oyatini tilovat qilayotganlarini eshitdi. O‘ziga o‘zi: “Allohga ash’ariylardan ham ko‘ra rizqlantirish osonroq biror jonzot yo‘q”, deya Rasulullo sollallohu alayhi va sallamga uchramay qaytib ketdi.

Borib: “Xushxabar, sizlarga yordam kelmoqda!” deganida, sheriklari bu gapni Rasulullo sollallohu alayhi va sallam ko‘mak va’da qilibdilar, deya tushunishdi. Shu payt ularning oldiga non va go‘sht to‘la idish ko‘tarib olgan ikki kishi keldi. Ash’ariylar undan to‘ygunlaricha yegach, taomdan ortib qolganini Rasulullo sollallohu alayhi va sallamga qaytaraylik, u zot buni boshqa muhtojlarga bersinlar, deb kelishishdi. So‘ng barchalari Payg‘ambarimiz alayhissalomning oldilariga borib, taom uchun minnatdorlik bildirishdi. Rasulullo sollallohu alayhi va sallam: “Men sizlarga hech qanday yegulik yuborganim yo‘q”, dedilar. Bir sheriklarini ul zotning huzurlariga yuborganlarini aytishganida, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam o‘sha odamdan nima gapligini so‘radilar. U nima qilgani va sheriklariga nima deganini aytganida u zot sollallohu alayhi va sallam: “Mana shu Allohning sizlarni rizqlantirganidir”, deya marhamat qildilar.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz tishi borning rizqi bor, deb bejiz aytmagan. Demak, rizq Allohdan, faqat uni halol yo‘l bilan topishga intilib yashash zarur. Yer yuzi aholisi soni qancha ko‘paymasin, yangi-yangi rizq vositalari paydo bo‘laveradi. Allohning Razzoq ekanini unutmasligimiz kerak. Yuqorida keltirilgan demografik siyosatning strategik maqsadiga erishish yo‘nalishlarini muntazam amalga oshirish respublikada yuksak demografik salohiyatni shakllantirishga va undan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni, 1-ilova, 4.1-band.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017

4. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur, –T.: TIU NMIU, 2018 y.

5. Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy: “Al-jomi’ as-sahih” – asli va o‘zbekcha tarjimasi.

6. Abu Iso Termiziy, “Sunani Termiziy”.

7. Abdulhakim Murod (Timoti J Uinter), “XXI asrda islom: postmodern dunyoda qiblani topish” (tarjimon: Faxriddin Nizom), –T.: “Sharq” NMAK, 2003 y.

Lochin XALMATOV,
Toshkent kimyo texnologiya instituti
"Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasi o'qituvchisi

JISMONIY TARBIYA TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING EKOGIGIYENIK BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari bilan ekosayohatlarni tashkil qilish muammolari va imkoniyatlari yoritib berilgan bo'lib, ekosayohatlarni tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqish hamda samaradorlik ko'rsatgichlarini aniqlash bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Ekogigiyena, ekosayohat, ekologik xavfsizlik, atmosfera, bilim, ko'nikma, ta'lim, texnologiya, tajriba, ekologik xavfsizlik, tadqiqot, samaradorlik ko'rsatgichi.

В этой статье описываются проблемы и возможности организации экологического туризма с учащимися средней школы, а также приводятся советы и рекомендации по разработке технологий экотуризма и определению показателей эффективности.

Ключевые слова. Экологическая гигиена, экотуризм, экологическая безопасность, атмосфера, знания, навыки, образование, технология, опыт, экологическая безопасность, исследования, эффективность.

This article describes the problems and possibilities of organizing eco-travels with high school students, as well as provides recommendations on the development of ecotourism technologies and determination of performance indicators.

Key words. Eco-hygiene, eco-tourism, environmental safety, atmosphere, knowledge, skills, education, technology, experience, environmental safety, research, efficiency indicators.

Jahon formal ta'limida ekogigiyenik bilimlarni fanlar mazmuniga singdirish, ekologik madaniyatni ommaviy axborot vositalari orqali shakllantirishib borish, ekologik bilimlarni tarkib toptirish mexanizmlarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirish shakl, usul va vositalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqodlar olib borilmoqda. Shu bilan birga ekologik ta'lim-tarbiya ishlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilish, ekologik muammolarga oid materiallarni takomillashtirish, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o'rganishning nazariy asoslarini rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi ta'lim-tarbiya jarayonining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad oila, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydigan, ahloqan pok, jismonan baquvvat, vatanga fidoiy, izlanuvchan, tashabbuskor sog'lom avlodni shakllantirishdan iboratdir. Inson organizmi ham tabiat bilan bir butun tizim sifatida bevosita bog'langan bo'lib, yashash uchun tabiat bilan ongli munosabatda bo'lish bilan birga yerda hayotning davomiyligini ta'minlovchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Fan-texnika rivojining tez sur'atlar bilan kechishi, butun dunyo mamlakatlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalari, atrof-muhitni nazorat qilish va kuzatish, aloqa jarayonlari, televideniya, meterologiya, kosmik texnika hamda elektr energiyasi rivoji, inson hayotining maishiy turmush darajasining oshishi va boshqa ilmiy yo‘nalishlar, inson hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni bir muncha ijobiy yechimini topish bilan birga, insoniyat o‘zining ehtiyojini qondirish maqsadida tabiatning sirlarini o‘rganishga, uning qonuniyalarini ochishga, tabiiy boyliklardan keragidan ortiqcha, pala-partish foydala -nishga olib kelmoqda. Bu esa, atmosfera havosiga va atrof-muhitga zararli gazlar va chiqindilarni me'yoridan ko‘p miqdorda tashlanishiga olib kelmoqda. Atrof-muhit pestitsitlar, mineral o‘g‘itlar va boshqa kiyoviy moddalar bilan ifloslanmoqda, sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi suvlarni daryo suvlariga tashlanishi, insonni o‘rab turgan atrof-muhitning zararlanishi insoniyatga noqulay ekogigiyenik holatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat o‘z navbatida, insonning sihat-salomatligiga salbiy ta'sir ko‘rsatib, turli yuqumli kasalliklarni ko‘payishiga, insoniyat genofondini o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda atrof-muhitni, tabiatni muhofaza qilish eng dolzarb muammoga aylandi. Ushbu holatda esa, ta'lim-tarbiya vositalari orqali yosh avlodning ekologik-gigienik bilimlarini rivojlantirish orqali tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish jahon afgor ommasi tomonidan e'tirof etilmoqda. Mazkur holatda esa, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va xo‘jalik yuritishda ekologik usullarni joriy etish; me'yoriy-huquqiy asoslarni muvofiqlashtirish va ekologiya fanini, aholining ekogigiyenik ta'limi va tarbiyasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning qay darajada tashkil etilishi, ilmiy tadqiqod ishlarining soni va samaradorligiga bog‘liqligi o‘z isbotini topmoqda.

Bevosita tashqi tabiiy muhit bilan aloqador fanlar mazmunini ekogigiyenik bilim va tushunchalar bilan boyitish, o‘quvchilarning ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirish shakl, usul va metodlarini ishlab chiqish orqali kutilgan natijalarga erishish mumkinligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, umumiy o‘rta ta'limning barcha fanlari ta'lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirish jarayonini tatqiq qilish va joriy etish zaruriyati mavjud.

Inson organizmining tabiiy muhit bilan aloqadorligi, uning salomatligi atrof-muhitga bog‘liqligi, shaxsni jismoniy jihatdan rivojlantirish yo‘lida atrof-muhitning tabiiy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq foydalish zarurligi, shuningdek, mehnat, dam olish, o‘quv jarayonida tabiat bilan muloqatda bo‘lish qoidalarining mohiyatini nazarda tutib, ekogigiyenik tarbiyani bir butun pedagogik jarayon sifatida yo‘lga qo‘yish lozim degan xulosaga kelish mumkin.

Inson jismoniy sog‘lom va baquvvat bo‘lsa, hayot go‘zalliklarini to‘la-to‘kis idrok eta oladi, aql-zakovati yuksala boradi, atrof-muhitni ziyrak bo‘lib kuzatadi. Shu nuqtayi nazardan, insonning sog‘lom-baquvvat bo‘lishida atrof-muhit muhim omil hisoblanadi. Demak, bu tarbiya ekogigiyenik tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida o‘quvchilarning ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirish texnologiyasi hamda darsni tashkil etish metod va vositalar o‘z ifodasini topgan.

Tavsiya etilayotgan texnologiyalar umumiy o‘rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida o‘quvchilarning ekogigiyenik bilimlarini tarkib toptirishda samarali natija berishini ko‘rsatdi.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda o‘quvchilarning ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirish uchun quyidagi usul va vositalaridan foydalanildi. Jumladan: Pedagogik ku-

zatuv metodi, suhbat metodi, savol-javob metodi, aqliy xujum metodi, qadriyatlarga aniqliq kiritish metodi, ma’ruza metodi, munozarali dars metodi, ko‘rgazmalilik metodi, so‘zdan foydalanish metodlari bo‘yicha tahlillar olib borilgan.

Tadqiqot ishini olib borish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablari amaliyotini o‘rganish, o‘quvchilarni darsdan tashqari ishlar jarayonida ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari o‘rganilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafida bayon etilgan fikrlar umumiy o‘rta ta’lim maktablari V-IX sinf o‘quvchilari o‘rtasida darsdan tashqari sharoitda ekogigiyenik bilimlarni targ‘ib etish, ekogigiyenik ta’lim-tarbiyani tashkil qilish imkoniyatlari va bu boradagi mavjud kamchilik va qiyinchiliklarni aniqlashga harakat qilingan.

Avvalo, inson sog‘lom turmush tarziga, hamda kun tartibiga rioya qilishi lozim. Buyuk olim va mutafakkirlar sog‘lom ota-onadan albatta sog‘lom farzand tug‘ilishini o‘z asarlarida alohida ta’kidlaganlar. Qolaversa, yashash jarayonida sanitariya-gigeniya omillariga amal qilishi, tabiatdagi sog‘lomlashtiruvchi omillar, ya’ni quyosh, havo, tuproq va suv ta’siridan o‘rinli foydalanishni taqozo etadi.

Ekologik omillar: havo harorati, atmosfera bosimi, namlik, toza havo, shovqin va boshqalardan o‘rinli foydalanish va ularning zararli oqibatlaridan o‘zini himoya qilishi kerak. Buning uchun esa, o‘quvchilarning ekologik-gigienik bilimlarini rivojlantirishni sinfdan va darsdan tashqari ishlar orqali olib borish beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bugungi kuning dolzarb muammolaridan biri dunyo aholisini ekogigiyenik madaniyati va ma’naviyatini rivojlantirish masalasi ekan, inson yoshlikdan tarbiyalanmasa, kerakli ekogigiyenik bilimlarni o‘z vaqtida egallamasa atrof-muhitga, tabiatga nisbatan befarq bo‘lib shakllanadi. Shuning uchun ham aholini ekogigiyenik bilimlarini rivojlantirishni nafaqat ekologiya fani balki barcha tabiiy ilmiy fanlar kesimida hamda sinfdan tashqari ishlar doirasida jadal davom ettirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birlashgan millatlar tashkiloti yevropa iqtisodiy komissiyasi atrof-muhit siyosati qo‘mitasining “O‘zbekiston atrof-muhit holatining sharhi“ ikkinchi sharh, Birlashgan millatlar tashkiloti Nyu-York va Jeneva, 2010-y. 27-b.

2. Global isish bo‘yicha “Parij bitimi” Parij.: 2015-y 12-dekabr, 42-b.

3. Jabborov A. Ekologiyadan to‘garak ishlari. ‘‘Xalq ta’limi’’, 1994-yil. 3-4 qo‘shma soni. 24-b.

4. Krasnozhon.S.V. Topical issues of modern medical care of children of age in “Здоровье ребенка”. Ukraine.:2014. 54.

5. O‘zbekiston Respublikasining 02.10.2018 y. O‘RQ-491-son ‘‘Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida’’gi Qonuni. – T., 2018-yil.

6. Qo‘chqorov B, G‘.Raximov va b.q. Sayohatni tashkil qilish. O‘quv-metodik qo‘llanma. –T.: “ILM ZIYO”, 2008-yil. 96-b.

7. Баксанский О.Е. В.М. Чаругин. Психолого-дидактические технологии обучения в современной школе. “Ленанд”. М.: 2018 – С.112.

8. Болшаков А.М. Общая гигиена. –учебник. “ГЭОТАР-Медиа” Рф..: 2016 г. 3-432 ст.

9. Дубровский В.И. Лечебная физическая культура. Кинезотерапия. – М.: Владос, 2004 й. 3-изд. 96-б.

10. Пошерстник Н.В. Гигиена и экология человека (СПО). “КноРус”, –М.: 2013 г. – С.228.

11. Солодовников Ю.Л. Гигиена и экология человека (цикл лекций и практических занятий): Учебное пособие. – “Лань”. СПб.:2017 –С.68.

Nazirqul TURDIEV,
Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Sarvar MO‘MINOV,
Q.Niyoziy nomidagi O‘zPFITI mustaqil tadqiqotchisi
Zamira SANGIROVA,
Q. Niyoziy nomidagi O‘zPFITI kichik ilmiy xodimi

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA FANLARNI O‘QITISH UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI AVLODINI YARATISH VA FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda karantin davrida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida onlayn darslarni tashkil etishdagi yutuqlar va kamchiliklar haqida fikr yuritiladi. Onlayn darslarning yutuqlaridan uzluksiz ta’limni amalga oshirish ya’ni qishgi va yozgi ta’tilda ham o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar olib borish hamda ularning samaradorligini oshirish maqsadida fizika fani misolida raqamli elektron-resurslar yaratish bo‘yicha amaliy ishlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiyalar, onlayn dars, kamchilik, ilg‘or, mashg‘ulot, maqsad, raqamli elektron-resurslar.

В статье рассматривается опыт организация онлайн уроков в средних общеобразовательных школах во время карантина в Узбекистане. Используя опыт проведения онлайн уроков прелагаются продолжать занятий и во время зимных и летных каникулах, чтобы обеспечит непрерывность обучения. В связы с этим приводится опыт работы по созданию опытных образцов электронных – ресурсов в примере преподования физики.

Ключевые слова. Цифровые технологии, онлайн-урок, недостаток, продвинутый, обучение, цель, цифровые электронные ресурсы.

The article discusses the experience of organizing online lessons in secondary schools during quarantine in Uzbekistan. Using the experience of conducting online lessons, you can continue your lessons during the winter and summer holidays to ensure the continuity of your training. In this regard, the experience of creating prototypes of electronic resources in the example of teaching physics is given.

Key words. Digital technology, online lesson, shortage, advanced, training, target, digital e-resources.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yilni “Ilm–ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili deb e’lon qilinishi jamiyatda tub o‘zgarishlarni yaratdi. Respublikamizning barcha sohalari kabi xalq ta’limi sohasida ham bir qancha ishlar amalga oshirila boshlandi. Hech kimga sir emas, butun dunyo insonlari uchun sinov bo‘lgan “koronavirus pandemiyasi davrida” O‘zbekistonda ham karantin e’lon qilinganidan so‘ng, umumta’lim maktablariga o‘quvchilarning qatnab o‘qishi to‘xtatilib, ta’til e’lon qilinishi xalq ta’limi tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi umumta’lim maktablari o‘qituvchilari

hamda davlat telekanallari ishtirokida o‘quvchilarning bilim olishini uzluksiz davom ettirish maqsadida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, Online-maktab loyihasi tashkil etilib, teledarslar yo‘lga qo‘yildi. Bunda onlayn darslarning ko‘pgina afzalliklari namoyon bo‘ldi. Online-maktab loyihasi doirasida masofaviy ta’lim olish imkoniyati yaratildi va 2000 dan ortiq videodarslar joylashtirildi. Shuningdek, “online maktab” loyihasi doirasida olingan videodarslar uzeduonlinemaktab telegram-kanali, mediabay.uz, mover.uz, eduportal.uz, itv.uz veb-saytlari hamda youtube kanaliga joylashtirilib borilmoqda.

- Darslarni tanlangan tajribali, ilg‘or, bilimli o‘qituvchilar olib borishdi.
- Har bir dars ko‘rgazmali, mediaresurslardan, jihozlardan foydalangan holda taqdimotlar asosida o‘tkazildi.
- Onlayn-maktabda o‘tkazilgan darslarni o‘quvchilar yaxshi tushunishlari uchun uni yana qaytadan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lindi.
- O‘quvchilar o‘zlarini erkin holda tutgan holda ota-onalari nazoratida darslarni kuzatdilar va h.k.

Televideniedan tashqari ommaviy ravishda o‘qituvchilar o‘zlarining “telegramm” va shunga o‘xshagan ijtimoiy tarmoqlarida o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan guruhlar ochib darslarni tashkil qilish ishlarini olib bormoqdalar. O‘qituvchilar esa “kundalik.com” deb nomlangan saytida har kunlik dars jadvali, unda har bir o‘quv fani uchun mavzuiy rejalashtirish, hamda darslarni o‘tish bo‘yicha tavsiya va materiallar berib borishi quvonarli holdir. Bunda o‘qituvchi bergan topshiriq asosida o‘quvchilar o‘zlari bajargan uy ishlarini o‘qituvchilariga onlayn tarzida jo‘natib, kundalikda unga qo‘yilgan baholarini ota-onalari bilan birga ko‘rmoqdalar. Televideniе orqali o‘tkazilgan onlayn darslarda o‘qituvchi va o‘quvchi faqat bir tomonlama muloqatda bo‘lsa, bu tizimda o‘qituvchi o‘quvchi bilan ikki tomonlama aloqada bo‘lganligidan o‘quvchilarning bilim samaradorligi yuqori bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni yanada ommalashtirish maqsadida kitob.uz axborot tizimi ishga tushirilib, undan foydalanuvchilar uchun kitoblarning elektron va audio ko‘rinishida yuklab olish imkoniyati yaratildi. Matematika, Fizika, Dasturlash bo‘yicha Khan Academy O‘zbek loyihasi orqali videodarslar o‘zbek tiliga tarjima qilinib, xanakademiyasi.uz ta’lim platformasiga joylashtirildi. Edu Market virtual ta’lim platformasi orqali bolalar bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishlari uchun interaktiv ko‘rinishdagi mantiqiy o‘yinlar to‘plami ishlab chiqildi va natijada unda 100 mingga yaqin maktab o‘quvchilari o‘z bilimlarini charxlamoqdalar.

Zamon talabi bilan bunday shaklda o‘quvchilarni o‘qitish ta’lim sohasida chinakam inqilob bo‘ldi, deyilsa xato bo‘lmaydi. Mazkur jarayonda bu yo‘nalishda tashkiliy va iqtisodiy muammolarga ham duch kelindi.

1. Internet tezligi pastligi tufayli ma’lumotlar almashish sekin ochilishi.

2.O‘qituvchilarning telefonda internet uchun olingan trafiklarining hajmi kam bo‘lganligidan, o‘quvchilari bilan ko‘proq ishlash imkoniyatlari cheklanganligi.

3.Trafikni oshirish esa qo‘shimcha xarajatlar sarflanishiga olib kelishi va boshqalar.

Ayni vaqtda bu kabi muammolarni hukumatimiz tomonidan hal qilish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Albatta, onlayn tarzda o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlar vaqt tig‘iz bo‘lganligi hamda sinovdan o‘tkazilmasdan olib borilayotganligi sababli ayrim kamchiliklardan xoli emas. Jumladan, tabiiy fanlarni o‘qitishda tajriba-namoyishlar ko‘rsatish, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, laboratoriya mashg‘ulotlarini

o‘tkazish kabi ishlar amalga oshiriladi. Onlayn darslarda o‘tkazishda ularni virtual ravishda o‘tkazish kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etishda mavjud gipermatn, gipermedia, videotasvir, grafika, animatsiya, ovoz va boshqa veb dasturlaridan foydalanish katta samara bermoqda. To‘plagan tajribalar tahlil qilinganda axborot kommunikatsiya-texnologiyalarining dasturiy vositalari o‘qitishda yangi sifat vositalari sifatida o‘quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, an’anaviy o‘qitish vositalaridan tubdan farqlanib qolmoqda.

Ta’lim resurslari asosida o‘qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter texnikalar asosida to‘liq o‘qitish, ma’ruza matnlarini tahrir qilish, o‘quvchilarning topshirgan nazorat natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilarga ta’lim resurslari orqali dars o‘tishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Ta’lim resurslarining qulayligi quyidagilardan iborat:

– ulardan chegaralanmagan miqdorda foydalanish mumkin;

– zarur nusxalarda elektron shaklda ko‘paytirish qulay;

– ta’lim olishning masofaviy shaklini amalga oshirish;

– qo‘shimcha tegishli ilmiy va amaliy, video, audio, animatsiya va boshqa ma’lumotlarni kiritish imkoniyatlari keng;

– bir joydan boshqa joyga ko‘chirishda hajm nuqtayi nazardan juda qulay;

– hamisha muqobil(zahira) variantlari bilan birga foydalanish;

– olingan ma’lumotlar bazasi va zarur adabiyotlar manbaiga havola (ssilka) orqali bog‘lanish mumkin;

– keltirilgan ma’lumotlar asosidagi tushunchalarni namoyish etish orqali tasavvur hosil qilish;

– ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari har qanday yoshdagi istemolchi uchun bir xilligi;

– on-line tartibda muloqot o‘rnatishini samarali amalga oshirish va boshqalar.

Bu borada shuni ta’kidlash joizki onlayn – darslarni tashkil etishda ma’lum muammolar mavjud:

• ta’limga tegishli internet sahifalarida umumta’lim maktablarining barcha mavzulariga doir tegishli elektron resurslar mavjud emas;

• asosiy materiallar chet tilida bo‘lganligidan ulardan darslarda foydalanish uchun yozuvlarni va ovozni o‘zbek tiliga o‘girish va dublyaj qilish;

• 10–11 sinflar yangidan ochilganligi sababli tajriba-namoyishlar va laboratoriya jihozlari bilan ta’minlanmagan va elektron resurslar ham yaratilmagan.

Bu kabi muammolar onlayn darslarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunga misol sifatida 10–sinflar uchun “Yarim o‘tkazgichli diodning volt – amper xarakteristikasini o‘rganish” nomli yaqinda o‘tkazilgan teledarsni keltirish mumkin. Darsda laboratoriya ishi bajarilishi nazarda tutilsada uni faqat kitobdagi matnni aytib berish bilan o‘tkazildi. Albatta darsni bunday holda o‘tilishiga sabab sifatida elektron resurs yo‘qligini keltirish mumkin.

Shuni hisobga olgan holda ayrim ijodkor o‘qituvchilar mustaqil ravishda shunday resurslarni ishlashga harakat qilmoqdalar. Lekin, ularning texnik imkoniyatlari cheklanganligi va elektron ta’lim resurlari haqida yuqori bilim va kunikmaga ega bo‘lmaganligi sababli ularni umumta’lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanib dars o‘tishlari talabga javob bermayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu maqsadda S.Mo‘minov va boshqalar ishtirokida “Elektron ta’lim milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta’lim resurslariga yagona talablar” tayyorlandi va uning asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti ishlab chiqildi. Ushbu standart Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanib O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligidan tomonidan O‘zDSt 36.2030:2017-sonli raqam bilan ro‘yxatga olindi.

Mazkur standart elektron ta’lim kontenti yaratishni qo‘llab quvvatlash maqsadida elektron ta’lim resurslariga umumiy texnik talablar ishlab chiqishni va ta’lim oluvchilarning axborot ta’lim muhitini takomillashtirishga qaratilgan elektron ta’lim tizimini, elektron axborot-ta’lim resurslarini tartibga soladi. Ushbu standart yangi elektron axborot-ta’lim resurslari mazmunini takomillashtirish, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirish, elektron axborot-ta’lim muhitini yaratish, elektron o‘quv adabiyotlarini bosqichma-bosqich ta’lim amaliyotida keng joriy etish, xalqaro tajribada keng qo‘llanilayotgan masofadan o‘qitish usullarining samaradorligini oshirish hamda halqaro standartlarga javob beradigan ta’lim tizimida yagona elektron axborot-ta’lim muhitini yaratishga qaratilganganli bois har bir yaraladigan elektron axborot-ta’lim resursi mazkur standart talablariga javob berishi lozim.

Yuqorida keltirilgan talablarga va Davlat standartiga muvofiq umumta’lim maktablarining 10-sinflari uchun “Fizika-10” nomli elektron axborot-ta’lim resursining namunaviy nusxasi yaratildi. Ushbu elektron axborot-ta’lim resursi Toshkent davlat pedagogika universiteti T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tabiiy (fizika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o‘quv-metodik qo‘llanmalarini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” amaliy tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotga kirib borishi elektron axborot ta’lim resurslar, video va audiodarslar, testlar, virtual laboratoriya ishlari va kichik ta’lim resurslardan keng foydalanishga turki bo‘ladi, bu esa ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muminov.S. Pedagogical conditions of educational resources use as means of schoolchildren’s individualization development // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain. 2018. – vol. 4, N 4. – P. 45-52.

2. Hamdamov R.X., Begimkulov U.Sh., Taylaqov N.I. Ta’limda axborot texnologiyalari. Oliy ta’lim muassasalari uchun. ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat nashriyoti. -T.: 2010, 120 b.

Matluba ABDURAXMANOVA,
Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti magistri

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KUTUBXONACHI KADRLAR TAYYORLASHGA MO‘LJALLANGAN AXBOROT TIZIMLARI

Аннотация

Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida kutubxonachi kadrlar tayyorlashga mo‘ljallangan, onlayn ko‘rinishdagi MOODLE, cMOOC, OLAT, eFront, Open Elms, xMOOC axborot tizimlar tahlili keltirilgan. Mavjud tizimlarni respublikamizdagi yirik axorot-kutubxona muassasalariga tatbiq qilish zamon talabi ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. MOODLE, cMOOC, OLAT, eFront, Open Elms, xMOOC, MARC format, monografiya, ilmiy kutubxona, dasturiy ta’minot, malaka oshirish.

В данной статье анализируются информационные системы, такие как MOODLE, cMOOC, OLAT, eFront, Open Elms, xMOOC, которые предназначены для подготовки кадров библиотекарей на основе инновационных педагогических технологий. Подчеркивается, что применение существующих систем в основных информационных библиотеках нашей страны является требованием времени.

Ключевые слова. MOODLE, cMOOC, OLAT, eFront, Open Elms, xMOOC, MARC формат, монография, научная библиотека, системы управления, дистанционное управление.

This article analyzes information systems such as MOODLE, cMOOC, OLAT, eFront, Open Elms, xMOOC, which are designed to train librarian cadres on the basis of innovative pedagogical technologies. Implementation of existing systems into the major information and library institutions of our republic is a requirement of time.

Key words. MOODLE, cMOOC, OLAT, eFront, Open Elms, xMOOC, MARC format, monograph, scientific library, software, professional development.

Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta’limda yangi – ommaviy ochiq onlayn kurslarini (ingliz tilidan Massive Open Online Courses, MOOC) yaratish tendensiyasi paydo bo‘ldi.

Ushbu onlayn kurslar sifatli ta’limdan insonning yashash joyidan va uning maqomidan qat’i nazar ommaviy foydalana olish konsepsiyasiga muvofiq yuzaga keldi.

MOOC internetdan – ochiq foydalana olishda tinglovchilarning yirik masshtabli interaktiv ishtirokiga tuzilgan kursdan iborat.

“Ommaviy ochiq kurs” atamasi Brayan Aleksandr va Deyv Korme tadqiqotchilarning” Connectivism & Connective knowledge” kursi ustida olib borilgan ishlar natijasida kiritildi.

MOOC atamasi to‘rtta aloqa atamadan iborat:

Massive (ommaviy) – kursda butun dunyodan ishtirokchilarning katta soni o‘qilishini bildiradi;

Open (ochiq) – har bir kurs bepul hisoblanadi va har bir shaxs istalgan vaqtda kursga ulanishi mumkin;

Online (onlayn) – barcha kurslar Internet tarmog‘ida ochiq foydalana olishi mumkin. Tizimda ta’limning asinxron metodidan foydalanish mumkin, bunda o‘qish uchun barcha mas’uliyat tinglovchilar zimmasida bo‘ladi va ta’limning sinxron metodida o‘qish jarayoni o‘qituvchi bilan real vaqt rejimida amalga oshiriladi;

Course (kurs) – har bir kurs har bir ishtirokchiga moslashtirilgan holda o‘z qoidalariga, o‘z strukturasiga va o‘z maqsadiga ega bo‘ladi.

G‘arbiy matbuot birinchi marta 2011-yili MOOSga Stenford professori Sebastyan Trun internet tarmog‘ida g‘ayritabiiy intellekt to‘g‘risida bepul kursni muvaffaqiyatli o‘qiganidan keyin e’tibor qaratgan.

Trun talabalari safiga 190 mamlakatdan 160 ming kishi kirdi. AQShdagi universitetlari Trun eksperimentidan keyin yangi to‘lqinda ishlab daromad orttirish maqsadida, ketma-ket MOOS tizimini yaratishda ishtirok eta boshlashdi. MOOS raqamli modaga ergashish emas, balki ta’lim jarayonini tuzilmaviy o‘zgartirish belgisiga asos bo‘ladi.

Ko‘pgina MOOS tizimining asosi bo‘lib bir yoki bir nechta ma’ruzachilar (yoki kadr orqasidagi ma’ruzasi) olib boriladigan video ma’ruzalar hisoblanadi. Lekin hamma maksimal tarzda samarli usul bilan bilimni joylash imkonini beradigan maxsus texnologik platforma o‘zgartiradi. Ushbu platformalarni maxsus kompaniyalar – ushbu xizmatlarni (Coursera, Udacity va edX) ko‘rsatishga ixtisoslashgan ta’lim kontentining provayderlari yaratishadi. O‘z navbatida, foydalanuvchi uchun moslashtirilgan platforma noyob mahsulot sifatida har biri alohida MOOS kursni ishlab chiqish imkonini beradi.

Turli MOOS kurslarning davomiyligi turlichadir (odatda to‘rtta va undan ortiq hafta) – shunday kurslar mavjudki, unda qat’iy jadval tuzilgan, yana shunday kurslar borki, unda tinglovchilar uchun qat’iy topshirish muddati belgilanmagan, shuning uchun olti oy davomida o‘qish mumkin.

Bugungi kunda tarmoqdagi ta’lim jarayoniga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lganligi sababli paydo bo‘lgan onlayn kurslarni rivojlantirishga qaratilgan bir nechta yo‘nalishlar mavjud. Ulardan MOODLE, cMOOC, task-based MOOC, xMOOC tizimlari misol keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘yicha yirik universitetlar (AQSh va Buyuk Britaniya) xususiy MOOS tizimlarini tuzishmoqda, o‘qitishning yangi usullarini tadqiq qilishmoqda, alohida kurslarda o‘qitiladigan muzokarali forumlar uchun kraudsorsing texnologiyalarini qo‘llashmoqda, professorni onlayn-ma’ruzalarni o‘qiganligi uchun rag‘batlantirmoqda va xodimlarga talabalar bilan hamkorlik qilishda ish vaqti ajratilmoqda.

MOODLE - bu muvafaqiyat bilan ishlatilayotgan va uzluksiz takomillashib borayotgan loyihadir. Uning asoschisi va avtori G‘arbiy Avstralyaliik Martin Dougiamasdir.

MOODLE ochiq kodli (Open Source) dasturiy ta’minot sifatida GNU Public License bilan tarqatiladi. Moodle o‘qitishni boshqarish tizimlari (Learning Management System) sinfiga tegishli bo‘lib, ko‘pchilikning birgalikda foydalanishiga imkon beruvchi ONLINE o‘quv materiallarni ishlab chiqish, boshqarish va tarqatish uchun xizmat qiladi. Ushbu o‘quv materiallar vizual o‘quv muhitda o‘rganish ketma-ketmaligini saqlagan holda yaratiladi.

Hozirgi vaqtda dunyoning 193 mamlakatining yetakchi universitetlarida Moodle tizimi asosida masofaviy ta’lim tashkillashtirilgan. Programma 75 tilga, shu jumladan rus va o‘zbek tillariga ham tarjima qilingan. Moodle dasturiy ta’minoti bilan ishlayotgan ta’lim muassasalarining Internetdagi rus tilidagi saytlari soni 250 tadan ziyod.

cMOOC tizimi – o‘quv maqsadi o‘quvchilar tomonidan belgilanadi. Bunday kurslar muayyan tayyorgarlikka ega bo‘lgan materialni mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan ting

-lovchilarga mos keladi. sMOOS kurslardan asosiy va eng samarali usullarni qo‘llash uzluksiz ta’lim shakli va malakani oshirish hisoblanadi. Task-based MOOC kurslarda (topshiriqlarga asoslangan kurslar) tasdiqlashga asoslanadi, bunda tinglovchi topshiriqlarning muayyan to‘plamini bajaradi. Bundan tashqari, topshiriqlar boshqa tinglovchilar bilan jamoa bo‘lib bajarilishi mumkin.

xMOOC tizimi - yirik xalqaro universitetlardagi kurslar hisoblanadi. Bunday kurslarni ishlab chiqishda malakali o‘qituvlar va ekspertlar ishtirok etishadi. Bunday kurslar aniq o‘quv grafikka, dars jadvali va tinglovchilarni turlicha attestatsiyadan o‘tkazish tadbirlariga ega.

Ish boshlaganidan keyin bir necha oy o‘tkandan keyin uning xizmatlaridan millionlab foydalanuvchilar foydalana boshlashgan, o‘n ming foydalanuvchilar 200dan ortiq qulay kurslarda tinglovchi bo‘lish uchun har oyda loyihaga qo‘shilib borishgan. Bir yildan kam vaqt davomida platforma venchur investorlardan 20 milliondan ortiq AQSh dollarini yig‘di.

EDX–Garvard universiteti tomonidan, Massachuset texnologiya instituti va Berklidagi Kaliforniya universiteti tomonidan asos solingan. EDX asos solingan kundan boshlab 55 ta kursni taklif etdi. Bunda, kursning video, matn va MOOCs kursining uy vazifalari kabi an’anaviy materiallarga qo‘shimcha tarzda talabalar va o‘qituvchilarning o‘z o‘zini o‘qitish jamiyatini yaratishga yordam beradigan foydalanuvchilar forumidan foydalaniladi. Dastlabki investitsiyalar 60 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Udacity–Stenford professor Sebastyan Tran tomonidan asos solingan notijorat MOOCs hisoblanadi. 2013-yil mart oyida Udacity platforma venchur investitsiyalarni 21 milliondan ortiq AQSh dollari jalb qildi. 26 ta kurslar taklif etildi. 0,3 milliondan ortiq ishtirokchilar ro‘yxatga olindi. Asoschilarning fikricha, loyihaning maqsadi bo‘lib ta’limni demokratlashtirish hisoblanadi. Udacity platformadagi barcha elektron kurslar bepul va Internet orqali barcha qiziquvchilarga qulaydir. Foydalanuvchilarga avval faqat 6 kurs taklif etilgan. 2015-yil aprel oyiining boshidagi holatiga ko‘ra, Udacity platformadagi kurslarning umumiy soni 76tani, ta’lim oluvchilarning (o‘qishni tugatganlar) soni o‘n ming kishini tashkil etdi. Kurslar 3 ta: “Beginner” (dastlabki daraja), “Intermediate” (oraliq daraja), “Advanced” (rivojlangan daraja) darajaga ajratilgan. Kurslar, asosan, ingliz tilida o‘qitiladi.

Misol uchun Stanford, Duke, California Institute of Technology, University of Illinois at Urbana-Champaign, Berklee College of Music kurslar Coursera negizida ishlaydi, boshqa universitetlar MOOS kursini (MIT, Narvard va University of California at Berkeley uchun edX loyiha) keng yoyish uchun xususiy platformani yaratishdi. Udacity platformasini yaratuvchilari boshqa usuldan foydalanishdi va kurslarni joriy etishga universitetning hamda Google va Microsoft kabi yirik kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilishdi. O‘qituvchi platformalarning bir qatorini, masalan, dasturlashni, “tyutr”ning ishtirokisiz o‘rnatilgan va bitta-yagona entuziastning bilimlari yordamida yaratilgan bo‘lishi mumkin.

OLAT (Online Learning And Training) – tizimni ishlab chiqarish 1999-yil Syurix universitetida yaratila boshlagan. 2004-yildan boshlab dastur kodi ochiq kodga o‘tgan. Hozirga kelib, tizimdan 50000ga yaqin foydaluvchi va 50ga yaqin tashkilot foydalanib kelmoqda. Boshqa tizimlar singari IMS (IMS Content Packaging, IMS QTI) va SCORM standartlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

eFront dasturiy majmuasi Unix, Linux, FreeBSD, Windows, Mac OS X, Netware va boshqa PHP’ni qo‘llab-quvvatlovchi operatsion tizimlarda ishlaydi. Ma’lumotlar bazasi sifatida MySQL va PostgreSQL’dan foydalanish mumkin.

Boshqa tizimlar singari IMS va SCORM standartlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Tizim 30dan ortiq tilga tarjima qilingan va u qatorda o‘zbek tili ham mavjud. Agar saytga kirilsa, eFront-ning bir nechta versiyalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Hozirda Respublika ilmiy-pedagogika kutubxonasida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda kutubxonachi kadrlar tayyorlashda masofaviy ta’lim tizimi yordamida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Kutubxonachi kadrlarni tayyorlashda masofaviy ta’lim jarayonini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik talablari ko‘p adabiyotlarda bayon qilingan. Tahlil qilingan adabiyotlarning ko‘rsatishicha, masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirishning texnik va dasturiy talablari to‘liq bayon qilinmagan.

Respublika ilmiy-pedagogika kutubxonasida kutubxonachi kadrlarni tayyorlashda masofaviy ta’lim jarayonini quyidagi ko‘rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin:

1-bosqich: Tahlil. Bunda muassasaning masofaviy ta’lim jarayoniga bo‘lgan ehtiyojlari, ta’lim jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarning soni, o‘qitish usullari va shakllari, loyihani amalga oshirishda kerak bo‘ladigan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihaning iqtisodiy asoslari tahlil etiladi.

2-bosqich: Loyihalashtirish. Tahlillar natijasida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami va texnik topshiriq loyihalaytiriladi.

3-bosqich: Joriy qilish. Bunda tanlangan masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmua tegishli serverga o‘rnatiladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik qo‘llab-quvvatlovchi ishchi xodimlarni o‘rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlar tashkillashtiriladi.

4-bosqich: O‘quv kontentlarini yaratish. Bu bosqichda masofaviy ta’lim jarayonining asosiy elementlaridan biri bo‘lmish o‘quv kontentlar o‘quv bo‘limi va soha mutaxasislari bilan hamkorlikda yaratiladi. Yaratilgan o‘quv kontentlar eskpertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqich: Ishga tushirish. 5-bosqichda masofaviy ta’lim jarayoni ishga tushiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quv jarayoni doimiy nazoratda bo‘lib turadi. Tizimdagi havfsizlik choralari monitoring qilib boriladi.

6-bosqich: Rivojlantirish. Yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar to‘g‘rilanadi, yangi o‘quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo‘lgan ishlar ko‘lami bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Слободчиков В.И. Инновационное образование// Школьные технологии. – М., 2005.-№2.-с.4.

2. Гендина Н.И., И.П.Скипор. Формирование информационной культуры личности в библиотеках и образовательных учреждениях. –М.: Школьная библиотека, 2003. – С.296.

3. Шрайберг Я.Л. Автоматизированные библиотечно-информационные системы России: состояние, выбор, внедрение. Развитие. –М.: Либерия,ГПНТБ Россия, 1996.-273 с.

4. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari: ped.fan.nom.-diss. –T., 2007.-B.-176.

5. Jo‘rayev R., Ibragimov X.I. Pedagogik jamoaning innovatsion faoliyati.// Xalq ta’limi. –T., 2004.-№2.-B.5

Рисбай ДЖУРАЕВ,
академик АНРУз, УзНИИПН

ОСНОВЫ ДИДАКТИКИ ПРИ СОЗДАНИИ ШКОЛЬНОГО УЧЕБНИКА

Annotatsiya

Klassik va zamonaviy didaktik ishlarni tahlil qilish asosida bugungi maktab ehtiyojlariga javob beradigan o'quv qo'llanmasini yaratish kerak.
Kalit so'zlar. Didaktika, didaktik printsiplar, darslik, o'quv qo'llanma, matnni chiziqli bo'lmagan tashkil etish, matn, gipermatn, interaktiv, faol ta'lim.

На основе анализа классических и современных работ по дидактике необходимо создать учебное пособие, отвечающее потребностям сегодняшней школы.
Ключевые слова. Дидактика, дидактические принципы, учебник, учебное пособие, нелинейная организация текста, текст, гипертекст, интерактив, деятельностное обучение.

On the basis of an analysis of classical and contemporary works on didactics the authors tend to bring principles into a unified system, based on which anyone can create a textbook that meets the needs of modem schools.
Key words. Didactics, didactic principles, textbook, non-linear organization of text, text, hypertext, interactive, action teaching.

Говоря об основах дидактики, проследим базовые изменения, отделяющие нас от классического подхода, и попытаемся установить, какие дидактические принципы являются основополагающими в представлениях о современном учебнике и как они соотносятся с принципами классической дидактики.

Ключевым принципом, на котором строится классическая дидактика, является природосообразность. Следуя за Аристотелем, Я.А.Коменский распространяет тезис об искусстве как подражании природе (греческий философ использует термин "мимесис") на искусство обучения, т.е. на дидактику: "Рассматривая, как, следуя по стопам природы, удачно подражают ей садовники, художники, строители, мы легко увидим, каким образом должны подражать ей и образователи юношества" . Таким образом, с помощью аналогии легко преодолеваются специфические различия между собственно искусством, ремеслом и образовательной практикой. Я.А.Коменский понимал культуру в целом (все неприродное, искусственное) как подражание природе. Из этого общего принципа исходит и остальное: внимание педагога к естественным потребностям и возможностям возраста обучаемых, последовательности в обучении, предмету обучения и т.д.

На наш взгляд, природа человека связана с социальностью. Еще Аристотель называл человека "политическим", т.е. социальным, животным. Основной

же формой социальности служит общение с помощью языка, обмен текстами. Человек, прежде всего, – производитель и потребитель текстов. Поэтому применительно к учебнику природосообразность, по нашему мнению, связана с предпочтением упражнений, состоящих из цельных, пусть и адаптированных, текстов или их вразумительных фрагментов. Кроме того, структура учебного пособия должна учитывать еще одну природу – мышления, т.е. быть организована подобно полю, а не прямой линии.

Такое понимание наглядности приводит ученого к идее создания ряда иллюстрированных учебных пособий, к требованию тесного взаимодействия обучающихся с окружающим миром. Рисуется путь от внешнего впечатления через формирование внутреннего образа к возникновению понятия. Спорить с принципом наглядности невозможно и не нужно, ему необходимо следовать. Полнее всего он может быть реализован при наличии хороших иллюстраций – как в значении бытовом, т.е. визуального материала, так и терминологическом, лингвистическом. Учебник или учебное пособие могут содержать дополнительный материал (фильмы, виртуальные экскурсии и т.д.). Допускаем, что виртуальный формат учебного пособия отчасти противоречит принципу наглядности – в том смысле, что между обучаемым и реальным миром, который будто бы является источником впечатлений, встает еще один посредник, т.е. мы получаем впечатление не непосредственно, а через отражение. Однако и бумажный учебник работает точно так же. Так же, впрочем, работает и природа человека как существа культурного: мы с абсолютной неизбежностью воспринимаем природу через культуру.

Учиться – значит взаимодействовать с миром природы и культуры, фиксируя это взаимодействие в создаваемых текстах (вербальной и невербальной природы).

Не менее важен принцип последовательности. Материал в учебнике, на наш взгляд, должен быть расположен именно так: от наблюдения к установлению закономерности. Путь обратный, когда преподается правило, а затем приводятся примеры, кажется нам порочным.

Именно привычка к дедуктивному ходу подталкивает учащихся таким же образом строить и свои сочинения.

Природосообразность в этом случае заключается в том, чтобы идти от впечатления через наблюдение к познанию закономерности. Кстати, и другие познавательные механизмы (например, интуиция) вполне укладываются в эту логику. Впечатления-провокации, организованные учителем или заложенные в содержание учебника, могут подвигнуть обучающегося к инсайту, когда он "перепрыгивает" через несколько ступенек познания самостоятельно.

То же самое происходит с простым и сложным. Почему бы не идти от сложного к простому? Ведь это путь анализа – разложение целого сложного на простые элементы. Любая единица учебника должна начинаться с текста, от которого уже во все стороны расходятся аналитические ходы.

Для электронного формата учебника ситуация перехода от накопления к взрыву совершенно естественна: накопление понимания и навыков приводит к получению доступа к информации на новом уровне. В какой-то степени в бумажном формате такого рода последовательность может быть соблюдена за счет концентрической организации материала: на каждом новом уровне мы возвра-

щаемся к одному и тому же тексту. Но при этом неизбежно "западают" такие важные вещи; как гипертекст и интерактив.

Добавим еще один принцип, сформулированный А.Дистервегом, – культуросообразности, когда материал в учебнике раскрывается сообразно осваиваемой культуре. Однако этот очень важный для дидактики принцип Дистервег понимает достаточно узко. Он включает его в третью часть правил обучения: "1. Проходи со своим учеником предметы скорее последовательно, чем одновременно! 2. Считайся с (предполагаемым) будущим положением твоего воспитанника! 3. Обучай культуросообразно!". Первое из правил как минимум может быть поводом для дискуссии. С одной стороны, речь явно идет об обучении методом погружения, что и сейчас выглядит вполне актуально, как бы ни толковалось само слово "предмет". С другой, чередование разных предметов может как раз в большей степени соответствовать клиповому мышлению современного ребенка. Однако мы полагаем, что чередование вовсе не связанных между собой элементов преподавания (в сегодняшней школе – это несколько 45-минутных уроков на совершенно разные темы) не достигает образовательных целей по той причине, что является "клиповым" только внешне. Клип строится на чередовании мотивов (как и фуга, например), но является цельным произведением.

Второе правило из этого ряда ближе всего к тому, что сейчас называется профориентацией или специализацией. В современном мире, когда самые неожиданные повороты судьбы уже никого не удивляют, любой прогноз о будущем положении сегодняшнего школьника Что же касается того правила, которое нас особенно интересует ("обучай культуросообразно"), то мы придали бы ему максимально широкое значение. Дело не только во времени, месте и положении конкретного человека, но во времени, месте и положении человечества в природе. И здесь мы возвращаемся к мысли о природе человека как существа, производящего и потребляющего тексты. Сочетание природо – и культуросообразности и дает, как мы полагаем, систему, "обнимающую" человека в его целостности как существо двойной природы.

Именно так мы выходим к настоящей педагогике текста. Текст – вот истинный учитель и воспитатель. Теория полей культурных ориентаций [23] дает нам возможность предположить и проверить предположение о том, что происходит с этими полями у обучающих и обучающихся. Данная теория вкратце сводится к следующему: поле культурных (уже – читательских) ориентаций – реальная психическая структура, отражающая в индивидуальном или коллективном сознании другую реальность – культуры. В ней есть центр или центры, связанные с нашим особым интересом к каким-то культурным феноменам, и периферия – те области культуры, которые остаются вне нашего постоянного внимания. Чем больше связей между отдельными точками этого поля, тем адекватней наши представления о культуре, тем более сформированным оно является. Осваивая культуру (или осваиваясь в культуре), мы формируем поле наших культурных ориентаций.

Учебник должен способствовать этому в формах, аналогичных процессам расширения поля культурных ориентаций и развития связей между отдельными точками этого поля. Таким образом, оптимистичный «и сценарий предполагает, что у субъекта, имеющего больший опыт, разрастаются и упрочиваются связи между отдельными точками поля, у субъекта с меньшим опытом вдобавок разрастается и количество точек, ведь обучение (в нашем понимании) – это обще-

ние с текстом, природой и другими людьми в процессе исследования жизни.

В заключение отметим следующее. Анализ теоретических предпосылок решения проблемы учебников нового поколения, концептуальное обоснование позиции ученых авторов в этом вопросе, примеры из практики, – все так или иначе характеризует понимание возможных подходов к задаче модернизации непрерывного образования. Системообразующими факторами этих процессов являются текстоцентричность, которая предполагает приобщение детей и взрослых к постижению аутентичных значимых текстов культуры, построение образовательных технологий с опорой на принцип "текст порождает текст", адекватные ответы на тенденцию модернизации современного текста и проявление "текстов новой природы", и необходимость изменения образовательных технологий, в частности выстраивания нового облика учебно-методического комплекса с учетом активного развития электронной среды, в основе которой стоит гипертекстуальность, интерактивность и мультимодальность контента и способов его освоения. Методы подачи материала и упражнения, его закрепляющие, должны учить не только знать, но и понимать изучаемые явления.

В целях формирования когнитивных способностей учащихся необходимо усиление диалогизации в способах презентации теоретического материала и в структуре параграфа в целом, внедрение в курс таких форм деятельности, которые предусматривают индивидуальную и коллективную работу с элементами самостоятельного исследования и дискуссии. Наряду с традиционными формами работы репродуктивного, объяснительно-иллюстративного типа необходимо давать учащимся актуализирующие их языковый опыт разнообразные творческие задания и упражнения.

Особое внимание следует уделить проектированию в учебнике познавательных проблем различного типа, решение которых реализуется (в полном виде) как комплекс~последовательно и самостоятельно осуществляемых поисковых операций (увидеть, в чем состоит сущность проблемы; сформулировать гипотезу; предложить путь решения; построить доказательство; сделать выводы из полученных фактов и т.д.) и обеспечивает самораскрытие интеллектуального, когнитивного, творческого потенциала личности.

Образовательный процесс должен создать атмосферу психологического комфорта для школьника, чему могут способствовать занимательность, игровое и юмористическое начала, вводимые в тех пропорциях, которые бы сохраняли необходимую и достаточную дистанцию между учеником и учебником как книгой, обладающей для учащегося авторитетом. Важнейшее психологическое значение имеет целенаправленная качественная дифференциация и индивидуализация образовательного процесса, которая должна быть отражена в структурировании материала, способах его подачи, системе упражнений и формах контроля (среди них подобающее место должно быть отведено самоконтролю).

Современный образовательный процесс немыслим без использования передовых технологий обучения. Конечно, речь идет не только и не столько об использовании компьютерных технологий, поскольку и с помощью компьютера можно предлагать устаревшие решения. Электронным вариантом создаваемого учебного комплекса со всеми его составляющими должна стать структурированная система учебно-методических материалов, размещенная на электронных носителях. Предлагаемый комплекс способен представить особые формы в

визуальной организации и презентации материала и особые, неосуществимые в традиционном учебнике-книге, возможности в области системы упражнений, способов текущего, промежуточного и итогового контроля, приемов индивидуализации обучения. Новый учебник, безусловно, должен быть поддержан специальным сайтом в сети Интернет с постоянным обновлением (прежде всего в сфере дидактических материалов и методических рекомендаций), действующей справочной службой, форумом для обсуждения назревших вопросов и т.д.

Специфическими характеристиками учебно-методического комплекса нового поколения являются: основания формирования внутренней мотивации обучения и познавательного интереса к языку и литературе; отчетливая коммуникативная ориентация и текстоцентричность; модификация принципов организации текстового пространства и формирования системы упражнений; обновление лингвотеоретического и литературоведческого содержания в аспекте его «устройнения», необходимого упрощения и частичной модернизации, целенаправленного отбора сведений, нужных для полноценной речевой коммуникации. Новый учебник должен создать условия для развития культуры самообразования через формирование опыта самостоятельного выбора учебных задач и заданий, активизации исследовательской и проектной деятельности, в процессе выявления, понимания и решения проблемных ситуаций. Он ориентирует на последовательное и систематическое развитие всех видов речевой деятельности и читательской активности, формирует интеллектуально-речевую культуру, с помощью специального инструментария учит самооценке, а также предполагает углубленное и расширенное использование дидактического потенциала межпредметного взаимодействия.

Использованная литература:

1. Проблемы школьного учебника. XX век. Итоги / Под ред. Д.Д.Зуева. М., 2004.

2. Психологические проблемы построения школьных учебников / Под ред. Г.Г.Граник. М„ 1979.

3. Теоретические проблемы современного школьного учебника: Сб. науч. трудов / Отв. ред. И.ЯЛернер, Н.М.Шахмаев. М.,1989.

4. Гельфман Э.Г., Холодная М.А. Психодидактика школьного учебника. Интеллектуальное воспитание учащихся. СПб., 2006. – С.380.

5. Дергун Л.И. Тексты школьных учебников: типология, лингводидактические модели и коммуникативный потенциал. СПб., 2004.

6. Мартемьянова Т.Ю. Логико-дидактический подход к конструированию школьного учебника: Дис.... канд. пед. наук. СПб., 2004.

7. Шестакова Л.Г. Взаимосвязь содержательных и процессуальных аспектов обучения в школьном учебнике в условиях дифференцированного обучения: Дис.... канд. пед. наук. М„ 1996.

8. Журавлева О.И. Дидактическая концепция гуманитаризации содержания современного школьного учебника: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. СПб., 2013. g 12.

9. Ситаров В.А. Дидактика: учеб, пособие для студентов высш. учеб, заведений / Под ред. В.А.Сластенина. 3-е изд. М„ 2008.

10. Дьяченко В.К. Новая дидактика. М„ 2001.

Мухаррам АБЕЛКОСИМОВА,
Преподаватель кафедры “Инженерные коммуникации и монтажи”
Наманганского инженерно-строительного института

ПОДГОТОВКА МАГИСТРОВ С ТВОРЧЕСКИМ ПОТЕНЦИАЛОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Annotatsiya

Maqolada maktab tizimida o‘qituvchi-magistrlarni roli va o‘rni haqida xamda magistrlarni tayerlashda "bilimli" kontsepsiyadan "kompetentli" kontsepsiyaga o‘tishning psixologik va pedagogik shart sharoitlari ochib berilgan.
Kalit so‘zlar. Kompetentlik, bilimli paradigma, magistr, ta'lim sifati, ijodiy potentsial.

В статье отмечается роль и место магистров-учителей в повышение качества школьного образования, а также психолого-педагогические условия переход подготовки магистров со “знаниевой” концепции образования на “компетентностную”.
Ключевые слова. Компетентность, знаниевая парадигма, магистр. качестов образования, творческий потенциал.

The article notes the role and place of master teachers in improving the quality of school education. As well as psychological and pedagogical conditions for the transition of master's training from the "knowledge“ concept of education to the "competence" one.
Keyword. Competence, knowledge paradigm, master. quality of education, creativity

Будущее школьного образования связано с формированием у школьников творческих способностей. Одним из педагогических условий формирование у школьников творческих способностей является наличие у учителей творческого потенциала. И этот творческий потенциал у учитлей надо развивать в высших образовательных учреждениях в целом и в частности в магистерской подготовке.

В этих условиях востребованными становятся магистры, обладающие способностями:

– к научной деятельности и критическому самостоятельному мышлению;

– эффективной реализации приобретенных ЗУНов в профессиональную и социальную деятельность;

– к анализу технических объектов как сложных систем, интегрированных в природную, социальную и культурную среду;

– осмысливать существенную взаимосвязь профессиональной деятельности с ценностями, традициями и социальными противоречиями современной цивилизации и культуры.

Таким образом, школьной системе востребованы магистры, адекватно отвечающие современным вызовам времени, умеющие творческий подходить к организации уроков и создание учебно-творческой среды с учениками. Однако, существующая в педагогических высших образовательных учреждениях «знаниевая» парадигма не способствует подготовку востребованных магистров, в силу

следующих психолого-педагогических причин [3]:

а) методологические: цели и содержание обучения направлены на формирование у будущих магистров репродуктивного типа деятельности; методы и технологии обучения – на овладение системой готовых знаний; результат образования – на подготовку исполнителей;

б) дидактические: многопредметность и слабая взаимосвязь между ними; отрыв научно-фундаментальных знаний от профессионально-прикладных проблем; недостаточная практика и ориентированная подготовка, отсутствие опыта решения профессиональных задач у будущих магистров в период их обучения; востребованность современной экономикой специалистов с системным и творческим мышлением и отсутствием дидактических механизмов их формирования в знаниевой парадигме;

в) методические: неэффективное использование временных, информационных и креативных ресурсов при реализации аудиторных и самостоятельных занятий, преобладание экстенсивных методов обучения;

г) диагностические: осуществление оценки результатов образования приобретенными знаниями и умениями; отсутствие надежного психолого-педагогического инструментария для измерения и оценки сформированности компетентности; переориентировка современного рынка труда на компетентность выпускника, и продолжающаяся подготовка специалистов с традиционными результатами педагогического процесса в виде знаний, умений и навыков;

д) технолого-педагогические: быстрый рост и обновление научно-технической информации, в значительной степени определяющей содержание образования, несовместимы с предметной организацией учебного процесса и экстенсивностью применяемых методов обучения.

Подготовка востребованных специалистов требует модернизации существующей педагогического образования и соответственно, его дидактического обеспечения, обусловленного следующими социально-экономическими, научно-техническими и психолого-педагогическими предпосылками:

а) традиционное дидактическое обеспечение системы подготовки специалистов в течение долгого времени соответствовала требованиям общества и производства, так как профессиональные и социальные знания не теряли свою актуальность в течение большого периода времени. В ус-ловиях динамичного развития всех сфер человеческой деятельности востребован специалист, не только обладающий знаниями, но способный применять и развивать приобретенные знания для решения сложных профессиональных и социальных задач. Таким образом, дидактическое обеспечение должно быть ориентировано на умение выпускника практически использовать усвоенные знания для решения сложных профессиональных, социальных задач и проблем;

б) содержание обучения в традиционной "знаниевой" концепции образования формируется на основе достигнутого уровня развития науки и техники, но оно не учитывает перспективных и прогнозируемых трендов научно-технического развития. В быстро меняющемся обществе, характеризующимся высокими темпами научно-технического прогресса, система образования должна быть ориентирована: – на опережающую подготовку специалистов; - на развитие у них мобильности, динамизма, конструктивности, профессионального универсализма. Эти качества должны позволить выпускнику эффективно адаптироваться

в коллективную трудовую деятельность, которая характеризуется неопределенностью объемов и качеством требуемых профессиональных ЗУНов, поскольку «усиление познавательных и информационных начал в современном производстве не «покрывается» традиционным понятием профессиональной квалификации»;

в) быстрый рост объема научной и профессиональной информации приводит к девальвации знаний уже в процессе обучения. Важными становятся проблемы объема и актуальности знаний. В этих условиях важно научить студента умениям приобретать знания. К тому же на рынке труда востребованы не сами по себе знания, а способность специалиста применять их на практике; выполнять определенные профессиональные и социальные функции;

г) реальные проблемы носят многоаспектный, сложный характер, и для их решения необходимы интегративные знания, которые не формируются в традиционной системе образования, реализуемая через предметные знания. Актуальность интегративных знаний предопределяется системным характером развития науки, техники и производства, который запрашивает специалистов с творческим системным стилем мышления;

д) многопредметность и их слабая межпредметные связи в высшей школе не позволят студенту глубоко осмысливать взаимосвязь предметов, оценить их роль в будущей специальности;

е) в современных условиях меняется роль педагога в силу того, что он перестает быть транслятором знаний. Поэтому наряду с фундаментальными знаниями педагог должен научить выпускника умению ориентироваться в информационных потоках, быть мобильным, осваивать новые технологии, самообучаться, находить и использовать недостающие знания или другие информационные ресурсы.

Модернизация отечественной образовательной системы обусловлена рядом объективно существующих причин и требуют совершенствование существующего дидактического обеспечения в направлении компетентностной концепции образования [4,5]. Во-первых, Стратегией действий предусмотрены реализация мер по повышению качества и развитие высшего образования, и ставится задача по «повышению качества и эффективности деятельности высших образовательных учреждений на основе внедрения международных стандартов обучения и оценки качества преподавания»; во-вторых, в концепции развития высшего образования заложен курс на компетентностно-ориентированное образование. В-третьих, реализованные организационно–управленческие, нормативно-правовые реформы отечественной системы образования сопоставимы с основными положениями Болонского процесса: а)с двухуровневой системой высшего образования (бакалавриат и магистратура); б) с научными степенями послевузовского образования (доктор философии (PhD) и доктор наук (DSc)); в) с государственными образовательными стандартами компетентностной направленности; г) с системами мониторинга качества подготовки специалистов (рейтинг) и др., В-четвертых, существующее нормативно-правовое поле создает необходимые условия для теоретического обоснования и практической реализации компетентностного подхода с учетом существующей академической структуры системы высшего образования.

Компетентностный подход будет способствовать преодолению выявленных противоречий в «знаниевой» концепции, что потребует существенного пересмотра целей, содержания, методов и технологий и результатов образования в системе подготовки магистров.

На основе вышесказанных сформулируем следующие выводы:

1. Модернизация традиционного дидактического обеспечения, основанного на «знаниевой» концепции образования в направлении компетентностного подхода, обусловлена происходящими в мире социально-экономическими и научно-техническими изменениями. Это высокие темпы роста объема информации и её обновления; сложность характера социальных и профессиональных задач; востребованность общества в студентах магистратуры с социально-личностными качествами, такими как «мобильность, оперативность, системность, инициативность, коммуникабельность, ответственность и готовность к принятию решений».

2. Особенностями зарубежной практики, отражающими компетентностный подход в подготовке магистров являются: направленность цели и содержания обучения на раазвитие у студентов магистратуры профессиональных компетентностей (групп компетенций), творческая направленность применяемых педагогических технологии, возможность получения профессиональных умений и опыта в процессе обучения, использование в учебном процессе исследовательских, индивидуализированных, практикоориентированных методов обучения, преобладание количества самостоятельных занятий над аудиторными, использование системы количественных методов для оценки результатов приобретенной компетентности и др.

4. Отечественная системы подготовки магистров в большинстве в своем характеризуется познавательной направленностью и репродуктивным содержанием учебных планов, учебных программ, учебно-методических комплексов; предметной формой обучения и преобладанием экстенсивных технологий обучения, а также определением уровня профессиональной подготовленности студентов магистратуры по объему приобретенных знаний, умений и навыков.

Использованная литература:

1. Адольф В. Проектирование образовательного процесса на основе компетентностного подхода / В.Адольф, Ц.Степанова //Высшее образование в России. – М.: 2008. – №3. – С.158-161.

2. Дворецкий С. И. Разработка и реализация модели подготовки магистров техники и технологии к инновационной деятельности / С.И. Дворецкий, Е.И. Муратова, С.В. Осина // Наука и образование: научное издание МГТУ им. Н.Э. Баумана. – М, 2006. – №10. URL:http://cyberleninka.ru/article/n/.

3. Джураев Р.Х., Махмудов А.Х. Олий инновацион таълим тизимида мутахассисларни компетентли тайёрлаш.-Тошкент, 2013.-78 б.

4. Махмудов А.Х. Совершенствование дидактического обеспечения компетентностной подготовки будущих магистров, дисс:… д-ра. пед. наук. – Ташкент, 2017. – С.226.

Жуманазар ХУСАНОВ,
профессор, Джиззакского политехнического института, доктор физико-математических наук
Азамат БЕРДИЯРОВ,
доцент Джиззакского политехнического института, кандидат физико-математических наук,
Жамшид БУРАНОВ,
преподаватель академического лицея имени И.Каримова при Ташкентком государственном политехническом университете

О РЕШЕНИИ ПРИКЛАДНЫХ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Annotatsiya

Maqolada maktablarda va akademik litseylarda matematika o‘qitishning maqsadi ko‘rib chiqilgan, kelajakdagi bitiruvchilar asosiy matematik ta'lim va matematik madaniyatni, shuningdek, amaliy muammolarni hal qilishda ko'nikmalarga ega bo‘lishlari uchun matematikani o‘qitish.

Kalit zo‘lar. Amaliy matematika, matematik ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, matematik madaniyat, maxsus bilim, iqtidorli bolalar.

В статье рассматривается цель преподавания математики в школах и академических лицеях, чтобы будущие выпускники имели базовое математическое образование и математическую культуру, а также навыки в решении практических задач.

Ключевые слова. Прикладная математика, математическое образование, практическая подготовка, математическая культура, специальные знания, одаренные дети.

The article discusses the purpose of teaching mathematics in schools and academic lyceums, so that future graduates have a basic mathematical education and mathematical culture, as well as skills in solving practical problem.

Key words. Applied Mathematics, Mathematical education, practical training, mathematical culture, special knowledge, gifted children.

Математика является одной из древнейших наук. Она зародилась под влиянием потребностей практической деятельности человечества как прикладная наука. Мореплавание, землемерие, строительство, торговля, государственное управления требовали развития математики. Исторические развитие математики превратило её в логически стройную систему. Однако многочисленные задачи естествознания и техники ставят перед математикой все новые задачи. В процессе их решения она продолжает развиваться, сохраняя свою прикладную суть.

Основной задачей является в том, что на сегодняшний день метод преподавания математики в школах и в академических лицеях надо кардинально ориентировать на прикладные задачи.

Как известно, 2020 год объявлен в Узбекистане Годом развития науки, просвещения и цифровой экономики, определены приоритетные цели в указанных

направлениях. Учитывая потенциал сложившихся в стране научных школ, а также исходя из национальных интересов и направлений развития на современном этапе с этого года решено развивать математику.

Глава государства особо отметил на встрече 31 января 2020 года с учеными, молодыми исследователями, руководителями научных учреждений и представителями производства, что потенциал узбекской математической науки высоко оценивается в мире. В нашей стране сформированы авторитетные школы по функциональному анализу и дифференциальным уравнениям, теории вероятностей, алгебре и теории функций.

Президент затронул актуальные задачи внедрения результатов математических исследований в практику, создания прочного фундамента для цифровой экономики.

Отмечалось необходимость усиления интереса молодежи к математике, правильной организации работы по отбору одаренных детей и подготовку их в дальнейшем в высшие учебные заведения. Поставлена задача создать детские учебники и пособия по математике, написанные на доступном и популярном языке, формировать математическое мышление с раннего возраста, в детских садах.

Для улучшение преподавания математики в средних школах и академических лицеях необходимо на всех этапах обучения доставлять практический материал, математически и методически обработанный, с учетом возрастных особенностей учащихся. В старших классах средней школы целесообразно устанавливать более тесные связи между школьным курсом математики и другими учебными предметами. Статья является попыткой установить такие связи между отдельными темами школьной математики и специальными знаниями в области техники.

Выпускники академических лицеев и средних школ, в какой-то степени должны овладеть искусством применения математики в заинтересованными или специальностями.

Применяя математику к решению прикладных задач, приводящим к математическим задачам повышенной трудности, необходимо иметь в виду, что для дальнейшей деятельности выпускников специальных школ и академических лицеев в области техники важно не математическое обоснование каждого известного математического факта, а четкое понимание существа поставленной задачи и умение по ходу решения сделать нужные расчеты.

Необходимо, по словам А.Н. Крылова, у учащихся «… вырабатывать сметку*, глазомер**, решимость, веру в чертеж и в свидетельство чувств, а не

ту как бы умственную трусость, которая заставляет изыскивать доказательства таких истин, которые технику кажутся до доказательства яснее, нежели после такого».

На практике часто встречаются сложные технические задачи. Рассмотрение возможных путей решения задачи с точки зрения ее сложности, предстоящих затрат сил и времени готовит к реальной работе в будущем. Ведь на производстве придется не просто выполнять задание, но стараться реализовать его с возможно меньшими затратами сил и средств возможно короткое время.

Решение таких задач часто облегчается использованием метода координат. Кроме положительного влияния на качество специальной подготовки учащихся,

решение задач с помощью системы координат имеет и общеобразовательное значение. Оно закрепляет и расширяет знания учащихся в применении метода координат и подготавливает для изучения в дальнейшем аналитической геометрии.

При изучении математики в школе и в академических лицеях много внимания уделяется к практическим занятиям. Знания учащихся оценивается главным образом по их умению самостоятельно решать задачи.

Рассматриваемые ниже геометрические задачи с применением тригонометрии решаются использованием заданной системы координат. В ходе решения заданные углы, отрезки и дуги связываются определенными зависимостями в виде соотношения. Эти соотношения возникают из геометрических соображений. Естественно, у многих могут возникнуть вопрос, почему в XXI веке используем классические методы, когда развита компьютерная графика для изображения деталей и легко можно вычислить их параметры? Если школьник во время практики в производстве своими глазами увидят и ощутят, как устроена технические детали и самостоятельно будут вычислять их параметры, то они в

_____

*сметка – способность быстро соображать;

**глазомер – способность определять расстояние на глаз, без приборов.

будущем могут приобрести профессию инженер-технолога, а инженер-технолог должен обладать глубокими знаниями по промышленной математике (промышленная математика – это, по существу, комплекс методов математического моделирования и вычислительных технологий, применяемый в широко понимаемой инженерной практике). При этом, приобретенные навыки в школах и академических лицеях при применении математики к решению прикладных задач ему очень помогут, так как они имеют более четких представления о деталях. При столкновении технологических проблем они быстрее и эффективнее реагируют и устраняют технических неполадок и это во всем заслуга решение прикладных задач в математике.

Ниже приведенные задачи часто встречаются в часовом механизме и еще других технических схемах.

Задача 1. Вычисление координат центра окружности, касающейся двух данных окружностей (рис. 1).

Дополнительное условие. Оси координат проведены так, что центр одной из данных окружностей находится на оси *OY*, их линия центров параллельно оси *OX*, искомый центр окружности находится на оси *OX*, расстояние между центрами данных окружностей равно a.

Дано. R, R_1, R_2, O_1O_2=a. Найти: x_A и y_A.

Решение. Стороны AO_1 и AO_2 ΔAO_1O_2 выражается через *R*, R_1 и R_2:

$$AO_1 = R - R_1;\ AO_2 = R - R_2.$$

Применив к этому треугольнику теорему о квадрате стороны, лежащей против острого угла, имеем:

$$AO_2^2 = AO_1^2 - 2 \cdot O_2O_1 \cdot O_1B + O_1O_2^2.$$

Откуда

$$x_A = O_1B = \frac{\left(R - R_1\right)^2 + a^2 - \left(R - R_2\right)^2}{2a};\ y_A = 0.$$




рис. 1

Задача 2. Вычисление координат точки (B) касания двух односторонне расположенных дуг окружностей и координат центра (A) одной из них (рис. 2).

Дополнительное условие. Начало координат совмещено с центром большей окружности. Заданы координаты точки (C) на меньшей дуге.

Дано. R, r, $C(a,b)$. Найти x_A, y_A, x_B и y_B.

Решение.

$$tg\alpha = \frac{a}{b};\ \alpha = arctg\frac{a}{b};\ OC = \sqrt{a^2 + b^2}.$$

Из $\Delta\tilde{O}A$ по теореме косинусов:

$$AC^2 = OA^2 + OC^2 - 2 \cdot OA \cdot OC \cdot \cos\beta,$$

$$r^2 = \left(R - r\right)^2 + a^2 + b^2 - 2\left(R - r\right)\sqrt{a^2 + b^2} \cdot \cos\beta,$$

$$\beta = \arccos\frac{a^2 + b^2 + \left(R - r\right)^2 - r^2}{2\left(R - r\right)\sqrt{a^2 + b^2}}.$$

Определив α и β, находим:

$$x_A = \left(R - r\right)\sin\left(\alpha - \beta\right);\ x_B = R\sin\left(\alpha - \beta\right);$$

$$y_A = (R - r)\cos(\alpha - \beta);\ y_B = R\cos(\alpha - \beta).$$




рис. 2

Задача 3. Вычисление координат центра (*A*) окружности радиуса *R*, проходящей через заданные две точки *B* и *C* (рис. 3).

Дано (рис. 3). R, $B(a,b)$ и $C(c,d)$. Найти x_A и y_A.

Решение.

$$x_A = a - R\sin(\alpha - \beta);\ y_A = b + R\cos(\alpha - \beta).$$

$$tg\alpha = \frac{d-b}{c-a};\ BC = \frac{d-b}{\sin\alpha};\ \sin\beta = \frac{BC}{2R} = \frac{d-b}{2R\sin\alpha}.$$

Искомые величины находим по этапам:

$$\alpha = arctg\frac{d-b}{c-a};\ \beta = \arcsin\frac{d-b}{2R\sin\alpha};\ x_A \text{ и } y_A.$$




рис. 3

Задача 4. Вычисление координат точки (*A*) пересечения дуги окружности с наклонным отрезком (рис. 4).

Дополнительное условие. Начало координат находится в центре окружности заданной дуги. Точка *B* – на заданном отрезке.

Дано. R, α и $B(a,b)$. Найти x_A и y_A.




рис. 4

Решение.

Введем вспомогательный угол β (рис. 4)

$x_A = R\cos\beta$; (1)

$y_A = R\sin\beta$. (2)

Продолжим *AB* до пересечения с осью *OX* в точке *C*. Проведем $OE \perp AB$. Из ΔBCD

$OC = BD \cdot ctg\alpha = b \cdot ctg\alpha$;

$OC = OD - CD = a - b \cdot ctg\alpha$.

Из ΔOCE

$OE = OC \cdot \sin\alpha = \left(a - b \cdot ctg\alpha\right) \cdot \sin\alpha = a \cdot \sin\alpha - b \cdot \cos\alpha$. Заметив, что в ΔÀÔÅ $\angle Î\,ÀÅ = \alpha - \beta$, можем записать $OE = OA \cdot \sin\left(\alpha - \beta\right)$, откуда

$$\sin\left(\alpha - \beta\right) = \frac{a\sin\alpha - b\cos\alpha}{R};\ \beta = \alpha - \arcsin\frac{a\sin\alpha - b\cos\alpha}{R}.$$

Подставив найденные значения β в (1) и (2), находим x_A и y_A.

При решении прикладных задач на уроках математики преподаватель не всегда имеет возможность рассматривать множество возможных решений задачи и учащиеся не всегда склонны искать различные решения, часто они довольствуются единственным-найденным. Но иногда учащиеся предлагают на уроке варианты решения, отличные от показанного преподавателем. Преподаватель должен при решении прикладных задач, учащимся довести то, что решая, задачи одним способом они не развивают кругозор в сфере математики, в таких случаях преподаватель может предложить решение задачи другим способом. Преподаватели на уроках должны мотивировать учащихся, чтобы они находили нестандартные решения, отличающихся от традиционных подходов, что применительно к прикладным задачам.

Именно для задачи 4 можно избрать и другой путь. x_A и y_A можно искать как решение системы двух уравнений:

$$\begin{cases} x_A^2 + y_A^2 = R^2, \\ b - y_A = \left(a - x_A\right)tg\alpha. \end{cases}$$

Уравнение $x_A^2 + y_A^2 = R^2$ выражает факт принадлежности точки *A* к окружности радиуса *R* с центром в начале координат, а уравнение $b - y_A = \left(a - x_A\right)tg\alpha$ получается из отношения $BK = AK \cdot tg\alpha$ в $\Delta À\hat{A}\hat{E}$.

Из уравнения $b - y_A = \left(a - x_A\right)tg\alpha$

$y_A = b - \left(a - x_A\right)tg\alpha$.

Подставив это значение в $x_A^2 + y_A^2 = R^2$, после упрощений получаем квадратное уравнение относительно x_A:

$$x_A^2 - 2\sin 2\alpha \left(atg\alpha - b\right)x_A + b^2\cos^2\alpha - ab\sin 2\alpha + a^2\sin^2\alpha - R^2\cos^2\alpha = 0$$

.

Для упрощения положим, что

$$\sin 2\alpha \left(atg\alpha - b\right) = m$$

и $b^2\cos^2\alpha - ab\sin 2\alpha + a^2\sin^2\alpha - R^2\cos^2\alpha = n$.

Квадратное уравнение принимает вид:

$$x_A^2 - 2mx_A + n = 0.$$

Откуда

$$x_A = m \pm \sqrt{m^2 - n}.$$

Из геометрических соображений замечаем, что оба значения x_A положительны, но чертежу соответствует больший из корней x_A; y_A получаем подстановкой x_A в уравнение $b - y_A = \left(a - x_A\right)tg\alpha$.

Таким образом, прикладные задачи в процессе обучения математики являются интересными, и их решения позволяет повысить математические знания. По ироническому утверждению академика В.И. Арнольда, разница между чистой и прикладной математикой не научная, а социальная и заключается в том, что чистому математику платят за открытие математических фактов, в то время как прикладному математику платят за решение практических задач. Это и есть интерпретация математики в обществе. А чтобы воплотить его в реальность, в школах мы должны развивать задачи прикладного характера, и лишь только тогда мы достигнем, цели и тогда мы будем приобретать, талантливых, изобретательных и креативных молодых специалистов нашей страны.

Использованная литература:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиеева Олий Мажлису. 25.01.2020

2. М.В. Лурье Геометрия. Техника решения задач. УНЦ ДО. М.2004.

3. В.И. Арнольд "О преподавании математики". Успехи математических наук. 1998 г.

4. А.Е. Умнов Аналитическая геометрия и линейная алгебра. МФТИ. М.2011.

Мухайё БАЙБАЕВА,
доцент кафедры "Педагогики и психологии" института переподготовки и повышения квалификации руководящих кадров и специалистов системы народного образования имени А.Авлоний.

ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ ПЕДАГОГАМИ И УЧАЩИМИСЯ

Аннотация

Ushbu maqolada o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi nizolar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, "o'qituvchi – talaba" nizolarining sabablari o'qituvchining fan va o'qituvchi sifatida etarli darajada kasbiy mahoratga ega emasligini ko'rsatishi mumkin, bu esa o'quvchilarning o'z mavzulariga bo'lgan bilim qiziqishini tashkil etish, belgilarni manipulyatsiya qilish, muvaffaqiyatsiz o'quvchining yorlig'ini osib qo'yish, xarakterni aks ettirish, barcha talabalar bilan darslarni tashkil eta olmaslik.

Kalit so'zlar. Ixtilofli omillar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'zaro ta'sirning psixologik usullari, o'qituvchi - mojarolarni hal qilish, o'qituvchining shaxsiyatini professional yo'q qilish.

В данной статье рассматривается конфликты между педагогами и учащимся. А также причины конфликтов "педагог – учащийся" можно обозначить недостаточный профессионализм педагога как предметника и воспитателя, что проявляется в неумении организовать познавательный интерес у учащихся к своему предмету, манипулировании отметками, навешивании ярлыка неуспевающего учащегося, акцентуации характера, неумении организовать занятия со всеми учащимися.

Ключевые слова. Конфликтогенные факторы, анализ педагогических ситуаций, психологические приемы взаимодействия, разрешение педагогиче- ских конфликтов, профессиональные деструкции личности педагога.

This article discusses conflicts between teachers and students. As well as the causes of conflicts "teacher-student" can be designated insufficient professionalism of the teacher as a subject and educator, which is manifested in the inability to organize cognitive interest in students to their subject, manipulating marks, labeling a failing student, accentuation of character, inability to organize classes with all students.

Key words. Conflictogenic factors, analysis of pedagogical situations, psychological methods of interaction, resolution of pedagogical conflicts, professional destructions of the teacher's personality.

Основой педагогического взаимодействия, по словам Я. Л. Коломинского, является личностное отношение педагога к учащимся, складывающееся, в основном, из следующих компонентов: 1) эмоциональные переживания; 2) наглядный образ учащегося, его обобщенный портрет; 3) мысли об учащемся, суждения о нем. Формирование негативных взаимоотношений между педагогом и учащимся часто происходит вследствие того, что учитель допускает

высказывания, критику, замечания в адрес учащегося. Предпосылками возникновения конфликтогенных ситуаций в образовательном процессе могут быть:

● неумение педагога прогнозировать поведение учащихся на уроках, нетерпимость к “помехам” (неожиданным поступкам), нарушающим за- планированный ход урока (это вызывает раздражение и затрудняет выбор оптимального поведения и тона обращения);

● стремление педагога сохранить свой социальный статус любой ценой;

● оценивание педагогом не отдельного поступка учащегося, а его личности (эта оценка может определить дальнейшее отношение к учаще- муся других учителей и сверстников, особенно в начальной школе);

● оценка учащегося с опорой на субъективное восприятие его поступ- ка и без учета мотивов, особенностей личности, условий жизни в семье;

● неумение педагога анализировать ситуацию и стремление наказать провинившегося учащегося;

● нетерпимость педагога к определенным личностным качествам и по ведению;

● личностные качества педагога (раздражительность, грубость, мсти- тельность, самодовольство, беспомощность и др.);

● отсутствие у учителя педагогических способностей, интереса к пе- дагогической деятельности;

● неблагоприятный психологический климат и плохая организация работы в педагогическом коллективе.

В. А. Сухомлинский так пишет о конфликтах в школе: “Конфликт между педагогом и ребенком, между педагогом и родителями, педагогом и коллективом – большая беда школы. Чаще всего конфликт возникает тогда, когда педагог думает о ребенке несправедливо. Думайте о ребенке справедливо – и конфликтов не будет. Умение избежать конфликта – одна из составных частей педагогической мудрости педагоги. Предупреждая конфликт, педагог не только охраняет, но и создает воспитательную силу коллектива”. Основные качества педагога-психолога, способствующие или препятствующие осуществлению им профессиональной деятельности, обозначены. Среди особенностей педагогических конфликтов в диаде “педагог – учащийся” можно отметить следующие:

● различное понимание событий и их причин участниками (конфликт глазами педагога и глазами учащихся): педагогу не всегда легко понять глу- бину переживаний ребенка, а учащемуся – справиться со своими эмоциями; ● автоматическое превращение конфликта в акт воспитания, особенно если при нем присутствуют другие учащиеся;

● всякая ошибка педагога при разрешении конфликта порождает новые сложные конфликты, в которые включаются другие учащиеся;

● конфликт в педагогической деятельности легче предупредить, чем успешно разрешить. Причиной многих конфликтов в системе «педагог – учащийся» является низкая коммуникативная культура учителя. При возникновении проблемной ситуации некоторые педагоги позволяют себе резкие слова, упреки в адрес учащегося, некорректные отзывы в адрес семьи ребенка, осо- бенно детей из неблагополучных семей, подчеркивают отрицательные ка- чества, высмеивают перед классом.

В качестве специфической причины конфликтов «педагог – учащийся» можно обозначить недостаточный профессионализм педагога как предметника и воспитателя, что проявляется в неумении организовать познавательный интерес у

учащихся к своему предмету, манипулировании отметками, навешивании ярлыка неуспевающего учащегося, акцентуации характера, неумении организовать занятия со всеми учащимися (например, на уроках физкультуры). Со стороны учащихся конфликт может быть спровоцирован – в случае неподготовки домашнего задания, умышленного нарушения дисциплины – например, пропуска уроков без уважительной причины. Стили педагогического общения от того, как педагог общается с учащимся, от его стиля педагогического общения во многом зависит конфликтогенность в учебном коллективе. В. А. Кан-Калик выделяет следующие стили педагогического общения:

Общение на основе высоких профессиональных установок педагога, его отношения к педагогической деятельности. О таких говорят: «За ним дети (студенты) буквально по пятам ходят!» Причем в высшей школе интерес в общении стимулируется еще и общими профессиональными интересами.

Общение на основе дружеского расположения предполагает увлеченность общим делом: педагог выполняет роль наставника, старшего товарища, участника совместной учебной деятельности.

Общение-дистанция (самый распространенный тип педагогического общения). Во взаимоотношениях существует дистанция во всех сферах: и в обучении, и в воспитании (используется ссылка на авторитет, про- фессионализм, жизненный опыт и возраст).

Общение-устрашение – негативная форма общения, вскрывающая педагогическую несостоятельность преподавателя.

Общение-заигрывание характерно для молодых преподавателей, стремящихся к популярности. Такое общение обеспечивает ложный, деше- вый авторитет. В педагогической практике обычно наблюдается сочетание стилей или доминирование одного из них.

Анализ педагогического взаимодействия показывает, что в одной и той же группе учащихся можно выделить разные уровни общения: ● высокий – характеризуется теплотой во взаимоотношениях, взаимопониманием, доверительностью и пр.; ● средний; ● низкий – характеризуется отчужденностью, непониманием, неприязнью, холодностью, отсутствием взаимопомощи. Складывающийся в группе уровень общения непосредственно связан с воздействиями педагога, которые соответствуют парциальным (частичным) оценкам (их изучением занимался Б. Г. Ананьев). Эти воздействия можно разделить на два вида:

● положительные – одобрение, поощрение самостоятельности, похвала, юмор, просьба, совет и предложение;

● отрицательные – замечания, насмешка, ирония, упреки, угрозы, оскорбления, придирки.

Традиционно выделяют шесть основных стилей педагогического общения: 1) автократический (самовластный) стиль руководства: преподава- тель осуществляет единоличное управление коллективом учащихся, не позволяя им высказывать свои взгляды и критические замечания. Педагог последовательно предъявляет учащимся свои требования и осуществляет жесткий контроль за их исполнением; 2) авторитарный (властный) стиль руководства: учащиеся допускаются к обсуждению вопросов, касающихся учебной или коллективной жизни, но решение в конечном счете принимает преподаватель в соответствии со своими установками; 3) демократический стиль предполагает внимание и учет преподавателем мнений учащихся, стремление понять их, убедить, диалогическое обще-

ние на равных; 4) игнорирующий стиль характеризуется тем, что преподаватель стремится как можно меньше вмешиваться в жизнедеятельность коллектива, практически устраняется от руководства, ограничиваясь формальным выполнением обязанностей передачи учебной и административной информации; 5) попустительский, конформный стиль проявляется тогда, когда преподаватель устраняется от руководства группой учащихся либо идет на поводу их желаний; 6) непоследовательный, алогичный стиль: преподаватель в зависи- мости от внешних обстоятельств и собственного эмоционального состояния использует то один, то другой стили руководства, что ведет к дезорга- низации и ситуативности системы взаимоотношений преподавателя с груп- пой, к появлению конфликтных ситуаций. В процессе осуществления своей профессиональной деятельности педагог использует разнообразные приемы, способы общения с воспитанниками. Рефлексивно-перцептивные умения педагога образуют органичный комплекс, нацеленный на познание собственных индивидуально-психологических особенностей, оценивание своего психического состояния, разностороннее восприятие и адекватное познание личности учащегося. Профессиональные деструкции – это изменения сложившейся структуры личности и деятельности, негативно сказывающиеся на продуктивности труда и взаимодействии с другими участниками трудового процесса. Развитие профессиональных деформаций определяется различными факторами: разнонаправленными онтогенетическими изменениями, возрастной динамикой, содержанием профессии, социальной средой, жизненно важными событиями и случайными моментами. К основным психологическим детерминантам профессиональной деформации относятся психофизиологические изменения, стереотипы профессиональной деятельности, стагнация профессионального развития, акцентуации характера и психологические защиты. В настоящее время признаки профессиональных деформаций классифицируют по разным основаниям:

– по степени отклонения от социальной нормы (Б. Н. Новиков);

– по степени выраженности делинквентного поведения в процессе исполнения социальной роли;

– по степени выраженности дисгармоний в развитии личности, превращающих субъектов в узких специалистов. Данные деформации различают по глубине деформированности личности; широте деформированности личности (глобальная или парциальная); степени устойчивости проявлений (временная (случайная) или постоянная (закономерная) деформация); скорости наступления (на ранних стадиях профессиональной деятельности или на поздних). Воздействие профессии на личность можно оценить, прежде всего, по его модальности (позитивное или негативное).

Использованная литература:

1. Анцупов А. Я. Конфликтология / А. Я. Анцупов, А. И. Шипилов. –Москва: Юнити, 2000. – С.551.

2. Гришина Н. В. Психология конфликта / Н. В. Гришина. Санкт-Пе- тербург: – Питер, 2000. С.464.

3. Здравомыслов А. Г. Социология конфликта / А. Г. Здравомыслов.– Москва: Аспект-Пресс, 1996. – С.137.

4. Конфликтология / под ред. А. С. Кармина. Санкт-Петербург: Лань, 1999. – С.448.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:

Pardayev To‘lqin Xasan o‘g‘li

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV,
Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV,
Oynisa MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza XALILOVA,
Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Novoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul –

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2020.